

74.5
x 79

KASB TA'LIMI METODIKASI



TOSHKENT



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

KASB TA'LIMI METODIKASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2016

UO•K: 377.1 (072)

KBK 24.7

K-79

K-79

**Kasb ta'limi metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya»,
2016, 328 bet.**

ISBN 978–9943–11–293–3

Ushbu darslikda kasb-hunar ta'limining metodologik asoslari, tamoyillari va metodlari, o'qitish jarayonini tashkillashtirish va o'tkazish, kasb-hunar kollejarida mustaqil ishlarni hamda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyatini tashkil etish va talabalar bilimini baholash metodikalari bayon etilgan. Ushbu darslikdan malaka oshurish tinglovchilari va magistratura talabalari ham foydalanishlari mumkin.

В данном учебнике описываются методологические основы, принципы и методы профессионального образования, методики организации и проведения учебного процесса, организации самостоятельных работ, оценки знаний студентов а также профессиональной деятельности преподавателя колледжа. Данный учебник рекомендуется для студентов бакалавриата, магистратуры и слушателей курсов повышения квалификации.

This tutorial describes the methodological foundations, principles and methods of vocational training, methods and organization of educational process, the organization of independent work, evaluations of students' knowledge and professional activities of the teacher college. This textbook is recommended for graduate students and listeners of advanced training courses.

Mualliflar:

**Q.T.OLIMOV, L.P.UZOQOVA, A.A.ALIMOV, H.JO•RAYEV,
D.F. JALOLOVA, A.T.ALIMOV, F.T.MIRZAYEVA.**

Taqrizchilar:

Z.K.Ismoilova – Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti prorektori, professor;

B.Adizov – Buxoro davlat universiteti professori;

Sh.Sh.Olimov – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Ijtimoiy fanlar» kafedrası professori.

ISBN 978–9943–11–293–3

78073

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

*Ilm bir chiroqdurkim, seni rohat va
farog'atga hech bir zahmatsiz yetkazadi.*

Abu Lays as-Sanuriqandiy

KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga, shuningdek ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama netuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoysh va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada ta'lim turlari to'g'risidagi mutlaqo yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy-me'yoriy asosi yaratildi.

«Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Qonunlari uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish hamda yuksak mehnat intizomini shakllantirish vazifasini qo'yadi. Bu sharaflı vazifani bajarish albatta pedagoglar zimmasiga tushadi. Shu sababli yuksak malaka va mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini yaxshilash ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz o'zining «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolasida ta'kidlaganlaridek «Tarbiyachi ustoz bo'lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, avvalo tarbiyachilarning o'zi ana shunday talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlariga ega bo'lishi kerak»¹. Bu o'z navbatida o'qituvchi-tarbiyachilarning yuksak kasbiy va shaxsiy

¹Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. – T., 1996. 110 b.

fazilatlar egasi bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifalar o'ta murakkab, mas'uliyatlidir.

Ayniqsa, kasb-hunar kollejlariida o'qitish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo'lgan pedagoglar hamda qobiliyatli va mohir mutaxassislarini jalb qilish, ularni ham ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyani va ularning ishlash texnologiyalari bilan tanishtirish zarur. Shunda biz ishlab chiqarishga malakali mutaxassisni etkaza olgan bo'lamiz.

Shuni ta'kidlash joizki «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashga, «Ta'lim – fan – amaliyot» integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasalarida va kasb-hunar kollejlariida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash hamda zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta'lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish ta'lim sohasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda.

Kasb-hunar kollejlarining yo'nalishi va ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimi ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'lanishi lozim. Buning uchun kasb ta'limi o'qituvchilari maxsus fanlarni o'qitish metodikasini, mutaxassislikning mahorat va amaliy ko'nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. Yana bir jihati muhimki, kasb-hunar kollejlariida ta'lim olayotgan talabalarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilish, ushbu jarayonni yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash lozim.

«Kasb ta'limi metodikasi» fanining asosiy vazifasi bo'lajak o'qituvchida zamonaviy kasb-hunar ta'limining nazariy-metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot metodlariga oid bilimlarni hamda kasb-hunar kollejlarda o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va baholash bo'yicha pedagogik mahoratni shakllantirish, shuningdek mashg'ulotlarni o'tkazish metodikalarini mustaqil holda ishlab chiqish hamda amalda joriy etishga o'rgatishdan iborat.

Ushbu darslikda kasb ta'limining metodologik asoslari va tamoyillari, o'quv me'yoriy hujjatlari, o'qitishning zamonaviy metodlari, kasb-hunar kollejlarda o'qitish jarayonini tashkillashtirish, o'tkazish hamda talabalar bilim, ko'nikma hamda malakalarni baholash metodikasi, mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil qilish, shuningdek kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish bo'yicha o'quv materiallari bayon etiladi.

Darslikni o'qib o'zlarining tavsiyalarini va fikrlarini bergan pedagogika fanlari doktori, professor **Z.K.Ismoilovaga**, pedagogika fanlari doktori, professor **B.R.Adizovga** va pedagogika fanlari doktori **Sh.Sh.Olimovga** mualliflar minnatdorchilik bildiradilar

I bob. KASB-HUNAR TA'LIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA TAMOYILLARI

1.1. Kasb-hunar ta'limining asosiy tushunchalari

O'quv maqsadi

Talabalarda kasb-hunar ta'limining asosiy tushunchalari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Kasb-hunar ta'limida keng ishlatiladigan asosiy tushunchalar va terminlarga batafsil to'xtalamiz.

Uzluksiz ta'lim – kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxsning jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zaruriy shart-sharoitlarini yaratadi. Rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratib, barkamol avlodni shakllantiradi.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida bilim va ko'nikma shakllantiriladi, o'zlashtiriladi hamda tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o'quv muassasalarida o'qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarida ham ma'lumot yoki bilimlarni o'zlashtirish jarayonidir.

Ta'lim ilm berish va tarbiyalashni o'ziga qamrab olib, davlatning aql-zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi.

Ta'lim faoliyati o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

a) ma'lum bir tajriba va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlarni o'zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimlardir); b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va vositalarni o'zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo'ladi); d) ko'zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to'g'ri yo'l va usul tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan axborotlardan foydalanish usullarini egallash (bu jarayonning mahsuli – malakadan iborat bo'ladi).

Insonning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi g'oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o'zgarib, takomillashib boradi.

Ta'lim jarayoni – pedagogning va u rahbarlik qilayotgan talabaning bilim, ko'nikma hamda malakani ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat. O'qitish talabalar shaxsini shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirish, umumiy hamda maxsus bilim berishning eng muhim vositasidir.

O'qitish – o'qituvchining ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatidir.

O'qish – talabalarning o'quv fanini o'zlashtirish borasida qiladigan tizimli va ongli harakati.

Dars – ajratilgan vaqt mobaynida aniq o'quv maqsadini amalga oshirish uchun talabalar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulot. Dars – ta'limning asosiy shakli bo'lib, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishi, talabalarning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi lozim.

Kasbiy pedagogika – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo'lib, u tarbiya, ta'lim, o'qitish haqida qator nazariy va amaliy ma'lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug'ullanadi. Shuningdek, kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlari, kasb-hunar ta'limi nazariyasi va huquqi o'rganiladi.

Kasb ta'limi texnologiyasi – butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.

Didaktika – yunoncha so'z bo'lib «didasko» so'zidan olingan bo'lib, «o'qitaman», «o'qishni o'rgataman» ma'nolarini anglatadi. Didaktika – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Metodika – pedagogikaning o'qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib, baholash metod hamda vositalarini o'zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog'idir. Har bir o'quv fani o'qitish sohasi, o'rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko'rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

O'qitish metodikasi – bu o'quv-didaktik materiallar va vositalardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuasidir. Kasb-hunar ta'limi metodikasi ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog'idir.

Metod – iborasi (yunoncha- «*metodos*»)- tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o'qish, o'rganish amalga

oshadi. Metodning asosiy vazifasi – bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish hamda qobiliyatni rivojlantirishdir.

Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida tassavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar va qonuniyatlar orqali adekvat aks ettirilishidir.

Ko'nikma – bu biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi.

Malaka – kishi egallagan bilimlari ko'nikma bosqichidan o'tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahoratning shakllanishi. Malakalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

Mahorat - o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maksadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Ta'lim vositalari-axborotni uzatish va o'zlashtirish hamda aqliy va jismoniy mehnat bo'yicha malaka, ko'nikmalarni egallash uchun o'qitish jarayonida qo'llaniladigan o'quv jihozlari va vositalari.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Bilim, ko'nikma va malaka o'rtasidagi farqlarni tahlil qilib, bu farqlarni har biriga izoh bering
2. Kasb ta'limida «didaktika va metodika» tushunchalarining mohiyati va mazmunini (qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib) kengroq yoriting.
3. Mahorat bilan malakaning bog'liqlik jihatlarini aniqlang.
4. Kasbiy pedagogika bilan kasb ta'limi metodikasi o'zaro farqli xususiyatlarini yoritib bering
5. Ta'lim va tarbiya haqida referat tayyorlang



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim tushunchasiga izoh bering. Ta'lim faoliyatining tarkibini ayting.
2. O'qitish va o'qishning mohiyatini tushuntiring?
3. Ta'lim, metod, o'qitish metodikasi, kasbiy ta'lim texnologiyasi tushunchalariga ta'rif bering.
4. Uzluksiz ta'limning mohiyati va mazmunini (qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib) tushuntirib bering.
5. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning o'imi qanday?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda kasb-hunar ta'limining asosiy tushunchalari bo'yicha nazariy ma'lumotlar hamda shu bilan birga ularga izohlar keltirilgan. Kasb-hunar ta'limining asosiy tushunchalari mohiyatini chuqur anglab olish nazarda tutilgan.



Tayanch iboralar

Ta'lim, tarbiya, metod, didaktika, kasbiy pedagogika, texnologiya, metodika, metodologiya, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, baholash, kasb.

1.2. Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslari

O'quv maqsadi

Talabalarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Ta'lim to'g'risidagi qonunlar bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.

3.O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami va dam olish kuni sifatida belgilab qo'yilgan. 1978-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda boshlab o'z kuchini yo'qotgan. Mazkur qomunda O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalari sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib;

- *hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda;*

- *o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga suyanib;*
- *demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib;*
- *xalqaro huquqning umum e'tirofi etilgan qoidalar ustunligini tan olgan holda;*

- *respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib;*

- *insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab;*
- *fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida;*

- *o'zining muxtor vakillari siyosida.*

O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qilgan.

Respublikamiz asosiy qomusi VI bo'lim 26 bob va 128 moddadan iborat. Konstitutsiya mohiyati va mazmuni boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish davrida chuqur o'rganganligi bois, uning bevosita ta'lim-tarbiya bilan bog'liq 41 va 42 moddalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Konstitutsiyamizning 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» va 42-moddasida «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning

madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi», deb belgilab qo'yilgan.

Mustaqil O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan bo'lib, u VII bo'lim 44 moddadan iborat edi.

Amaldagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga binoan o'quv jarayoni respublikamizda hech bir mamlakatda avval ishlab chiqilmagan va amalga joriy etilmagan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni asosida tashkillashtirilgan. Mazkur qonun ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo'lib, fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Bu qonun quyidagi bo'lim va bamlardan tashkil topgan:

I. Bo'lim. Umumiy qoidalar: Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari.

- 1.1. Rivojlanishning erishilgan darajasi.
- 1.2. Kamchiliklar va muammolar.
- 1.3. Isloh qilish omillari.

II. Bo'lim. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari.

- 2.1. Dasturning maqsad va vazifalari.
- 2.2. Dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari.

III. Bo'lim. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli.

- 3.1. Shaxs
- 3.2. Davlat va jamiyat.
- 3.3. Uzlüksiz ta'lim.
 - 3.3.1. Uzlüksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari.
 - 3.3.2. Uzlüksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari.
 - 3.3.3. Uzlüksiz ta'lim tizimi va turlari: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

3.4. Kadrlar tayyorlash tizimidagi fan.

3.5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish.

IV. Bo'lim. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

- 4.1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash
- 4.2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
- 4.3. Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish
- 4.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar.
- 4.5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar
- 4.6. Ta'lim tizimini boshqarish
- 4.7. Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish.
- 4.8. Ta'lim tizimini moliyalash.
- 4.9. Moddiy-texnika ta'minoti.
- 4.10. Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish (monitoring).
- 4.11. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish.
- 4.12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi
- 4.13. Fan va ta'lim jarayonlari aloqalarini rivojlantirish.
- 4.14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish.
- 4.15. Ta'lim bilan kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.

V. Bo'lim. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora tadbirlar.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini

ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali kadrlar tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta'minlanadi.

Bunday tizim O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida o'z aksini topgan.

Kasb-hunar ta'limi – o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi.

Oliy ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. U oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim quyidagi ikki bosqichdan iborat: *bakalavriat* va *magistratura*.

Bakalavriat – o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

Magistratura – bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

Bakalavr, magistr – oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni mavaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan *akademik darajalardir*.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy yutuqlari quyidagilardan iborat:

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar orqali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadr tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Kadrlar tayyorlash milliy dastunda ko'zda tutilganidek, ta'limning barcha bosqichlari uzviyligiga erishish, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlari o'rtasida uslubiy-amaliy hamkorlik, axborot almashish yo'lga qo'yilgani o'zining yuksak samaralarini bermoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda oliy ta'limning zamonaviy ikki bosqichli – bakalavriat va magistratura yo'nalishiga o'tilgani tizimdagi eng muhim o'zgarishlardan biridir. Bugungi kunda oliy ta'limning mazkur yo'nalishlarida asosiy e'tibor tayyorlanayotgan kadrlarning ilmiy salohiyati va amaliy tajribasiga, ish beruvchining talablariga, ya'ni raqobatbardoshligiga mos kelishiga qaratilmoqda.

Oliy ta'limning o'quv-uslubiy, me'yoriy ta'minoti, davlat standartlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro'yxati qayta ko'rib chiqildi, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha klassifikator yangilandi. Muhandislik va texnika yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ko'lamini va salmog'i bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda.

Yuqorida keltirilgan qisqa tavsifnoma, respublikamiz ta'lim tizimi, shunimgdek, kasb-hunar ta'limining ham metodologik asosi ekanligini bildiradi. Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslarisiz uning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, metod va vositalari, ishtirokchilari, natijalari hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish imkoniyati yo'qdir. Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslari talablari bo'yicha uning o'quv-me'yoriy hujjatlari ishlab chiqiladi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining metodologik asoslariga nimalar kiradi.

2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bo'lim va fasllarni yoritib bering.

3. Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibini yoritib har binga tushuncha bering.

4. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari to'g'risida referat tayyorlang

5. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy yutuqlarini yoritib bering



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

2. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ayting.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarkibini gapirib bering.

4. O'zbekistonning birinchi «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni qachon qabul qilingan va u necha iborat edi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Bu mavzuda O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan uzluksiz ta'lim to'g'risida fikr yuritilib, uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining negizi ekanligi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha hamda uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi asoslab berilgan.



Tayanch iboralar

Konstitutsiya, qonun, huquq, davlat, suverenitet, g'oya, demokratiya, ta'lim, tarbiya, madaniyat, fuqaro, dastur, milliy model, Oliy ta'lim, uzluksiz ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, monitoring, oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura.

1.3. Kasb-hunar ta'limining o'quv me'yoriy hujjatlari

O'quv maqsadi

Talabalarni kasb-hunar ta'limining o'quv me'yoriy hujjatlari tarkibiga kiruvchi tasniflagich, ishchi fan dasturlari, o'quv rejalari, Davlat ta'lim standartlari bilan tanishtirish va ularda nazariy bilimlarni shakllantirish

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning joriy etilishi yangi Davlat ta'lim standartlari o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tatbiq etishni taqozo etdi.

Shu nuqtayi nazardan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayoni, mazmunini isloh qilish asosan me'yoriy hujjatlar majmui, ya'ni davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqloq g'oyalarga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 7-moddasida Kadrlar tayyorlash milliy Dasturiga muvofiq ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari belgilanadi.


Davlat ta'lim standartlari quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni;
- kadrlar tayyorlash sifatiga, qo'yiladigan talablarni;
- ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini;
- o'quv yuklamasi hajmini;
- kadrlar tayyorlash sifatini;
- ta'lim muassasalarini faoliyatini baholash tartibini belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayoni, ta'lim sifati va ta'lim mazmuni, ta'lim muassasalarini faoliyatini baholashni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlari ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;



- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

Ta'limning standartlashtirish obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

- o'quv yuklamasi hajmi;
- ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni,
- ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorlash sifati,

- talablar, me'yorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim usullari va vositalari, shuningdek, ta'lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar;

- ta'lim oluvchilar bilim darajasiga va kasbiy malakasini tashxislash;

- pedagog va ilmiy-pedagog xodimlar sifatini baholash.

Davlat ta'lim standartlariga qo'yilgan talablar:

- kadrlar tayyorlash milliy Dasturlari maqsadlari, vazifalari va qoidalari so'zsiz amalga oshirilishiga qaratilganlik;

- ta'lim va kasb-hunar dasturlarida milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy madaniy an'analar, xalqning intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillarini hisobga olish;

- ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasbiy malaka shakllanishini ta'minlash;

- xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fan rivojlanishi darajasi, kadrlar tayyorlashga nisbatan amaliyot tomonidan qo'yiladigan talablar hisobga olingan holda ta'lim standartlarining ilmiy asoslanishi;

- ta'lim turlari va bosqichlari bo'yicha standartlarning keli-shilganligi va izchilligi, shaxsning har tomonlama rivojlanishini hisobga olgan holda ularning mujassamligini ta'minlash;

- o'quv yuklamasi maqbulligiga qaratilganlik, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda ta'limning tabaqalashtirish imkoniyatlarini hisobga olish;

- ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarni tayyorlash, ta'lim faoliyatining sifatini baholash mezonlari va tartibotini belgilash,

- standartlarga tajribada tekshiruvdan o'tgan ta'lim faoliyatining ilg'or me'yorlarini kiritish;

- davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtirishi kerak

Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining asosiy amalga oshirishning vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma'naviy-ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va tatbiq etishdir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlari quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilash;

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy negizni yaratish;

- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limio'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirish tamoyillari:

- ta'limning uzluksizligi va uzviyligi,

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, fan-texnika va texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mujassamligi;
- matnlar bayonining aniqligini va yagona qiymatliligini;
- fan va texnika hamda texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga respublikadagi va chet ellardagi ilg'or tajribalarga mos kelishi;
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limisifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

- **Ichki nazorat** – O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi tomonidan amalga oshiriladi;

- **O'qitish sifatining** ichki nazorati ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tasdiqlagan «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida» gi Nizom asosida reyting-nazorat shaklida o'tkaziladi.

- **tashqi nazorat** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat Test Markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan «Ta'lim muassasalari va pedagogik kadrlarning davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizom» va amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi;

- **Davlat-jamoat nazorati** – ta'limni boshqaruvchi vakolatli davlat organi va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi;

- **Yakuniy davlat attestatsiyasi** – davlat imtihonlari va malakaviy bitiruv diplom ishi (loyiha)ni himoya qilish bilan yakunlanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar tarmoq standartlarini ishlab chiqish.

Kasb-hunar ta'limi standartlari tuzilishi va mazmuni uning xususiyatidan, ya'ni jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxs

talablarining chambarchas bog'liqligidan kelib chiqadi. Kasb-hunar ta'limi standarti ta'limiy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosatning integratsiyasi va mehnat bozori siyosatiga borib taqaladi. Standartlarni ishlab chiqishda hunar madaniyati sohasida yuz yillar mobaynida yig'ilib kelayotgan eng yaxshi milliy an'analar saqlanib qoladi va ular shogirdlik shaklida o'tib kelayotganligi hamda turli turdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo'yicha kasb-hunar kollejlari tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Ko'plab mamlakatlarda kasb-hunar ta'limim standartlashtirish jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri ekanligi tan olingan. Shunday ekan, milliy standartlar dunyoviy tajribalarga tayangan holda, milliy an'analarni hisobga olib, ishlab chiqilmog'i lozim.

Tarmoq ta'lim standartlarini ishlab chiqish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Turli xil kasblarda joriy va kelgusi ehtiyojlarni aniqlash.
2. Umumiy xususiyatlarga tayangan holda hududiy o'ziga xosliklarni hisobga olish.
3. Kasb-hunar ta'lim standartlarini ishlab chiqish va mas'ullarni hisobga olish shu bilan birga ekspertlar guruhini jamlash, standartlarni ishlab chiqish.

Kasb-hunar ta'limi standartlarini ishlab chiqishda quyidagi ekspertlar ishtirok etishi zarur:

- Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi ilmiy xodimlari va mutaxassislari;

- O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari;
- Ish beruvchilar vakillari, ishlab chiqarish (ijtimoiy hamkorlar);
- Maxsus fanlar bilan bog'liq izlanishlar bilan shug'ullanuvchi ekspertlar;

- Tarmoq vazirliklari, ishlab chiqaruvchilar palatasi vakillari va hokazo.

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi tarmoq standarti quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- 1) Qo'llanish sohasi.
- 2) Me'yoriy ilovalar.
- 3) Ta'riflar.
- 4) Standartning maqsad va vazifalari.

- 5) Kasbiy tavsifnoma
- 6) Kasbiy tayyorgarlik mazmunining majburiy minimumi
- 7) Namunaviy o'quv rejasi.
- 8) Standart talablarining bajarilishini nazorat qilish.

Birinchi komponentda ushbu tayyorlov yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoq standartining qo'llanish sohasi ko'rsatiladi.

Ikkinchi komponentda tarmoq standarti loyihasini ishlab chiqishda foydalaniladigan me'yoriy hujjatlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Uchinchi komponentda standartning maqsadi va vazifalari hamda bilimlarni o'zlashtirish va malaka darajalari keltiriladi. Standartdan foydalanuvchilar davlat, ish beruvchilar, ta'lim tizimi va shaxs hisoblanib, maqsad va vazifalar ularning talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Standartning to'rtinchi komponentida standartda foydalanilgan asosiy atamalarning ta'rifi va ularga izoh berilgan.

Beshinchi komponentda ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda mutaxassisning kasbiy xususiyatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Tarmoq ta'lim standartining eng asosiy komponenti «Kasbiy tavsifnoma» bo'lib, bu komponentda ish beruvchining talablari aks ettiriladi. Ko'pchilik rivojlangan Yevropa mamlakatlarida ish beruvchilar har bir kasb bo'yicha kasbiy standartlarni o'zlari ishlab chiqishadi. Ish beruvchilar kasbiy standartlar asosida ta'lim beruvchilar kasb-hunar ta'limi standartlarini ishlab chiqishadi.

Tasniflagich – bu O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlashtirish va tartibga solish yagona tizimining tarkibiy qismidir.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari tasniflagichi - Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati. Unda quyidagi oltita bilim sohasi ko'zda tutiladi:

1. Gumanitar soha.
2. Ijtimoiy soha, biznes va huquq
3. Ishlab chiqarish-texnika sohasi.
4. Qishloq va suv xo'jaligi.
5. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot.
6. Xizmatlar sohasi.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari (bakalavriat, magistratura), bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari yettita raqamli kod bilan belgilanadi.

- mutaxassislik kodi;
- yo'nalish kodi;
- ta'lim sohasi kodi;
- bilim sohasi kodi;
- ta'lim dasturlari bosqichi kodi

Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichlari bakalavriat yo'nalishlarida 5 raqami, magistratura mutaxassisliklarida – 5A (raqam va harf) bilan belgilanadi. Masalan: bakalavriat kodi 5111000, 5321600, va hokazo; magistrlar 5A140101, 5A5321401 va hokazo.

Kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari tasniflagichi – o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari kasblari va ixtisosliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Kasbiy tavsifnomani ishlab chiqish uchun avvalo shu mutaxassis, ishchi o'rmi tahlil qilinishi, mutaxassisning amalga oshirayotgan kasb faoliyat turlarining ketma-ketligi, ish jarayonining texnologiyasi, kasbga qo'yilgan maxsus talablar va shu kasb mutaxassisi egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va bilimlar haqida ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKJUT) – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Malaka – mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning mavjudligi.

Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kichik mutaxassis – bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

Kichik mutaxassis:

Nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega;

Mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiyahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega;

Kichik mutaxassislar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Kompyuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar sohasiga foydalanish usullarini qo'llash bilan bog'liq texnik topshiriqlarni bajaradi, texnik-jihoz va transportlarni ishlatadi; mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar hamda muhandis-texnik jihozlar va asboblarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash, metall-konstruksiyalarni o'rnatish, dastgohlarni o'rnatish va boshqa ishlarni amalga oshiradi;

- xomashyo qazib olish va qayta ishlash, metallurgiya, qurilish, binolar va inshootlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohasida o'z kasbiy bilimlarini tatbiq etadi, bosish (qoliplash) ishlarini bajaradi; oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, yog'och va metall buyumlar, shu jumladan badiiy hunarmandlik buyumlarini ishlab chiqaradi va qayta ishlaydi;

- bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktablarda ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshiradi.

- sog'liqni saqlash, gigiyena, insonlarga g'amxo'rlik qilish, qishloq xo'jaligida o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish, yetishtirish bo'yicha zarur ishlarni amalga oshiradilar;

- kadrlarni joy-joyiga qo'yish va ularning ijtimoiy ta'minoti, soliqqa tortish va turizmga aloqador davlat xizmatlari, buxgalteriya hisobi, huquqiy, statistik, ish yuritish korxonalarni boshqarish, tijorat, moliya va savdo-sotiq sohasidagi bilimlarni texnik qo'llash bilan bog'liq ma'muriy va ishlab chiqarish vazifalarini bajaradilar.

Odamlar va yuklarni milliy chegaralardan o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ijtimoiy masalalar bo'yicha yordam ko'rsatadilar va maslahat beradilar.

Sport va boshqa qiziqarli tadbirlarni tashkil etadilar va o'tkazadilar, madaniyat va san'at sohasida ijodiy faoliyat ko'rsatadilar;

Diniy marosimlarni o'tkazishda aholiga yordam ko'rsatadilar.

Kasbiy faoliyat sohasi (KFS) – kasbiy bilim, malaka vako'nik-malarning qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiysohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

O'MKHT ta'lim muassasalaridagi tayyorlov yo'nalishlari aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Mutaxassislarning kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo'yicha tayyorlov yo'nalishlarining nomi mehnatfaoliyatining mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Kasb – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

Ixtisoslik – birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va kasblar kodi – kasbiy faoliyat sohaslariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Tasniflagichda quyidagi oltita bilim sohasi nazarda tutilgan:

100000 – gumanitar soha;

200000 – ijtimoiy soha, biznes va huquq;

300000 – ishlab chiqarish-texnika sohasi;

400000 – qishloq va suv xo'jaligi;

500000 – sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot,

600000 – xizmatlar sohasi.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim sohalari, tayyorlov yo'nalishlari va kasblar yettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta'limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim bosqichi-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3-raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

Birinchi raqam – ta'lim dasturi bosqichi kodi;

Ikkinchi raqam – bilim sohasi kodi;

Uchinchi raqam – ta'lim sohasi kodi;

To'rtinchi va beshinchi raqamlar – tayyorlov yo'nalishi kodi;

Oltinchi va yettinchi raqamlar – kasblar kodi

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim (bakalavriat)da uzviylikni ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kodlari oliy ta'limining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalaniladi:

- Hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish.
- Milliy va hududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mehnat sohasidagi jarayonlarni taxminlash va tartibga solish.
- Ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketadigan sarflarni aniqlash.
- Mehnatga haq to'lashni tartibga solish va me'yorlashtirishni takomillashtirish.
- Xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash va asoslangan uzluksiz ta'lim dasturini ishlab chiqish.
- Mehnat statistikasi sohasida axborotning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlash.

«Kichik mutaxassis» malakasi toifasiga kirmaydigan shaxslarni mutaxassisliklarining belgilanishi:

• Tasniflagichning 4-ustunida intellektual layoqati(aqliy rivojlanish xususiyatlari) buzilgan shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan birdan-bir ixtisosliklar bitta yulduzcha (*) bilan ko'rsatilgan. Ushbu mutaxassisliklar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan tasdiqlangan aqliy va jismoniy jihatdan kamchilikka ega shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar asosida belgilangan O'qish muddati kasallik darajasiga qarab 1 yildan 2 yilgacha.

• Tasniflagichning 4-ustunida ikkita yulduzcha (**) bilan jismoniy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va imkoniyatlari cheklangan shaxslarni o'qitadigan birdan-bir ixtisosliklar ko'rsatilgan. Mazkur mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan, jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor va bolalikdan nogiron shaxslar uchun mo'ljallangan maxsus maktablarning bitiruvchilari uchun tuzilgan

hamda kasblar va mutaxassisliklar ko'rsatilgan ro'yxat asosida belgilangan. O'qish muddati 2 yil.

- Tasniflagichning 4-ustunida uchta yulduzcha (***) bilan akademik litseylarning bitiruvchilari egallaydigan kasbga yo'naltiruvchi ixtisosliklar belgilangan. O'qish muddati 3 yil (chuqurlashtirilgan umumta'lim tayyorgarligi bilan qo'shib olib borilgan holda).

- Tasniflagichning 4-ustunida to'rtta yulduzcha (****) bilan 11 yillik umumta'lim maktablarining bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirolmagan hollarda, yangi bozor munosabatlariga o'tish davrida ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida mo'ljallangan ixtisosliklar ko'rsatilgan. Tasniflagich bunday shaxslar toifasiga nisbatan to'qqiz yillik ta'limga to'liq o'tgunga qadar amal qiladi. O'qish muddati 1 yil.

O'qishni tugatadigan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan namunada tasdiqlangan diplomlar va sertifikatlar beriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichiga o'zgartirishlar kiritish tartibi. Mazkur tasniflagich tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning asos bo'luvchi ro'yxati bo'lib, u qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga taqdim etiladi.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi «O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 400-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'MKHT DTS «Asosiy qoidalar» standartida O'MKHT tayanch o'quv rejasini ishlab chiqish bo'yicha quyidagilar keltirilgan:

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartining tayanch o'quv rejalari ta'lim mazmunidan kelib chiqib, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha alohida tuziladi.

Tayanch o'quv rejalari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ishchi o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

O'quv rejalarini ishlab chiqish. O'quv rejalari – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. O'quv rejasi kasb-hunar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o'quv fanlarini alohida o'rganish sur'atini ta'minlovchi hujjat hisoblanadi.

O'quv rejasi – har bir yo'nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalish (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi.
2. O'qish muddati.
3. Tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi.
4. Ta'lim shakli.
5. O'quv davrining taqsimoti (jadvali)
6. O'quv jarayonining rejasi.
 - 6.1. O'rganiladigan o'quv predmetlari.
 - 6.2. Har bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori.
 - 6.3. O'rganish uchun ajratilgan vaqt – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta'limga qanday miqdorda taqsimlanganligi.
 - 6.4. O'quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda haftasiga qancha soatdan o'rganish tartibi.
7. Davlat attestatsiyasi.
8. Tanlov fanlarining ro'yxati.
9. Izohlar.

O'quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim:

- Ta'lim va tarbiyaning maqsadli yo'naltirilganligiga;
- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- Ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O'quv rejalarini ishlab chiqishda bo'lg'usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o'rganilayotgan o'quv fanlari miqdoriga va o'rganish davriga aniq mos tushishini e'tiborga tutmoq lozim. Bo'lg'usi mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarining shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich

o'rganishlari chuqurligi, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi.

O'quv dasturlarni ishlab chiqish Dastur o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir.

O'quv dasturi – shu nom bilan nomlangan o'quv predmetiga tegishli bo'ladi. O'quv predmeti – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimidir.

O'quv dasturlari quyidagi talablarini qanoatlantirishi kerak:

1. Fan tarixi, rivojlanishining xususiyatlarini aks ettirish, fanga ulkan hissa qo'shgan olimlar va tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish.

2. Fanning hozirgi darajasiga muvofiq bilim berish

3. Insonparvarlik, elparvarlik va ezgulik g'oyalariga amal qilish.

4. Rivojlanayotgan davlatlarda amalda bo'lgan yoki ishlab chiqilayotgan mutanosib o'quv dasturlariga nisbatan ilg'orlik.

5. Markaziy Osiyoda yashagan yoki faoliyat ko'rsatgan, o'zbek tilida ijod qilgan olimlar va tarixiy shaxslarning fan rivojlanishiga qo'shgan hissasini chuqur va ilmiy asoslangan tarzda bayon qilish.

6. Fan haqida sistematik, mantiqiy muqobil hamda umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limga taalluqli mutanosib fan dasturlari bilan muvofiqlashtirilganlik.

7. Talabalarni fanga qiziqtirish va qiziqishini o'stirish, osondan murakkab tomon bayon uslubini qo'llash.

8. Fanni hayot bilan, nazariyani amaliyot bilan uzviy bog'laydigan metodikasiga rioya qilish.

9. O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'lidan rivojlanish strategiyasi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, novatorlik, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim sohasi innovatsiyalariga ochiqlik

O'quv dasturlarining tuzilishi. Oliy ta'limning birinchi bosqichida ta'lim dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksiz va uzviylik ta'minlanishini inobatga

olgan holda ishlab chiqilishi va o'quvchilarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishni nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisoslik;
- qo'shimcha.

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalarni bakalavriat ta'lim dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini ko'zda tutib, ishlab chiqilishi va o'quvchilar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

Ta'lim standartlarida belgilab berilganidek umumiy va maxsus talablar, bilim va ko'nikmalar, o'quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o'zaro uzviyligini ta'minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo'shimcha ko'rgazmali qurollar yaratish-o'qituvchilarga murakkab vazifalarni ko'yadi, o'quvchilarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo'yilgan talablarning hujjatli asosini tasvirlaydigan o'quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to'liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To'liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo'yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda real o'quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo'lini ko'rsatadigan elementlar va belgilar tasavvurlanadi.

O'quv dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o'qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzu bo'yicha asosiy o'quv materiallarni shakllantirishda quyidagi o'quv qo'llanmadan foydalanildi

I. A.R. Xodjaboyev, I.A. Husanov, U.N. Nishonaliyev. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006 y.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Ta'limning standartlashtirish obyektlarini aniqlang va ularga izohlar keltiring.
2. Uzluksiz ta'limni standartlashtirish asoslandagi g'oyani bayon eting.
3. Standartlarni ishlab chiqishda nimalarni inobatga olish zarur?
4. Kasb-hunar kollejida kichik mutaxassislar tayyorlov yo'nalishidan 1 ta o'quv rejasini olib tarkibini, fanlar va soatlar taqsimotini tahlil qiling.
5. Kasb hunar kollejida o'qitiladigan maxsus fanlar o'quv dasturlarini taxlil qiling.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Tasniflagich nima va uning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
2. Davlat ta'lim standartlari, kasb-hunar ta'limi tarmoq standartlarini tushuntiring.
3. O'quv rejasida qanday hujjat va uning tarkibiga nimalar kiradi.
4. O'quv dasturi qanday hujjat va uning tarkibiga nimalar kiradi.
5. Tasniflagichdan qanday vazifalarni hal etishda foydalaniladi.



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning joriy etilishi yangi Davlat ta'lim standartlari o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tatbiq etish vazifasini yuzaga keltirdi. Shu nuqtayi nazardan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida ta'lim jarayoni, mazmunini isloh qilish asosan me'yoriy hujjatlar majmui, ya'ni davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqbol g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.



Uzluksiz ta'lim, loyihalashtirish, ta'lim, tarbiya, davlat ta'lim standarti, o'quv reja, dastur, tasniflagich, bakalavriat, magistratura, Davlat ta'lim standartlari, o'quv yuklama, bilim, ko'nikma, malaka.

1.4. Kasb-hunar ta'limi tamoyillari

O'quv nuqsadi

Talabalarda kasb-hunar ta'limi tamoyillari haqida nazariy bilimlarni shakllantirish

Ta'lim tamoyillari – o'qitish nazariyasining boshlang'ich qoidalarini bo'lib, o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda ularga amal qilishi kerak.

Kasb-hunar ta'lim tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- faollik tamoyili;
- o'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi tamoyili;
- ko'rsatmalilik tamoyili;
- o'qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- o'qitishda sistemalilik va izchillik tamoyili;
- o'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili;
- namunalardan foydalanish tamoyili;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi;
- o'quv materialini ixchamlashtirish tamoyili;
- o'quvchilar ongliligi va faolligi tamoyili.

Har bir tamoyilga alohida to'xtalamiz.

Faollik tamoyili – talaba o'zi mustaqil harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ko'proq harakatlar qilishi kerak bo'lsin.

Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak, chunki talaba qandaydir ish bajarish ishni ongliroq ravishda o'zlashtiradi va bu

bilim xotirasida chuqurroq o'mashib qoladi. Buning natijasida talaba bilimlarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtiradi va eslab qoladi hamda ularning qiziqishi ortadi. Ba'zi bir qobiliyatlarni esa, masalan, mustaqillik va individual ravishda o'rganish kabi qobiliyatlarni faqat shu tarzda rivojlantirish mumkin xolos. Buning uchun, o'qituvchi juda yaxshi pedagogik mahoratga va uslubiy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi – ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o'zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo'llay bilish ham kerak.

Talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, bu bilimlarni mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar hamda ularni amalda qo'llanish ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallab olgan nazariy bilimlari asosida tanlagan kasb'anga doir mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. Shu bilan birga nazariy bilim ham to'ldirilib, aniqlashtirilib boriladi.

O'qitishning ko'rsatmaliligi – o'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy-amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli sur'atda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi.

Ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakam ilmiy va hayotiy muhim bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Ko'rsatmalilik bu bilimlarni yaxshiroq

o'zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog'lanishiga yordam beradi

Mashg'ulotlarda turli xil ko'rsatmali qurollarni qo'llash talaba talabalarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning diqqatini safarbar etadi. Shuning uchun ko'rsatmalilik vositalari o'qitishning hamma bosqichlarida: talabalarning yangi materialni idrok qilishlarida, bilimlarni mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatda va ishda qo'llashlarida, mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi. Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin qilib tatbiq etish – bir tomondan o'quv materialining tushunarligini va o'qitish jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchidan u bevosita ish jarayonida va real holatda o'qitishni talab etadi.

O'qitishning tushunarli bo'lishi – o'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili o'rganilayotgan o'quv material mazmuni, hajmi va o'qitish metodlariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlarini mos bo'lishini talab etadi.

O'qitishni tushunarli qilish degani uni oson qilishni bildirmaydi. haddan tashqari oson materialni talabalar ortiqcha kuch-g'ayrat sarflamay o'zlashtirib oladilar. Bunday o'qitish talabalarning aqliy bilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam bermaydi. O'qitishni tushunarligi talaba imkoniyatlarning eng yuqori chegarasi va uni asta-sekin oshirib borish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonining borishida talabalar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish talabalarning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, talabalar uni o'zlarining oldingi bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim.

Namunalardan foydalanish tamoyili – o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalarni tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, real mahsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi.

O'quv materialini ixchamlashtirish tamoyili – talaba- ning bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun bu o'quv material

kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. Agar o'quv materialining hajmi juda katta bo'lsa, undan aynan kerakli qismlar tanlab olinishi kerak. Kompleks (umumiy) va murakkab topshiriqlar doimo didaktik ravishda osonlashtirilishi lozim, lekin mazmunan o'zgar-masligi shart. Shuning uchun, agar faqat boshlang'ich bilimlar berish kerak bo'lsa, o'quv materialini iloji boricha oddiyroq tushuntirishga va nihoyatda ko'p o'quv materiali bilan talabani qiynamaslikka harakat qilish kerak. Tajribali o'qituvchi murakkab jarayonlarni oson so'zlar bilan tushuntira olishi lozim.

Ilmiylik tamoyili – talabalarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dun-yoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi, shuningdek talabada nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishni, talabani ijodiy qobiliyatini rivojlantirishi kerak. Bu uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Talaba o'rganayotgan bilimlar nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri – o'qitish va tarbiyalash jarayonlari uzviy bir-biriga bog'liq bo'ladi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. U talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat fao-liyatidagi faolligini va mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Biroq o'qitish jarayonidagi tarbiya stixiyali ravishda amalga oshirilmaydi. Uning maqsadi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va talabalarga ta'sir etish samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiylariga quyidagilar kiradi: o'rganilayotgan fanning mazmuni, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va metodikasi hamda bu mashg'ulotlarni o'tkazayotgan pedagogning shaxsidir.

O'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil etilishi va ularni o'tkazish metodikasi talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga doir individual ishlari ham, bu ishlarning guruhli ko'rinishlari ham qo'llaniladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining mahsulligini oshirish maqsadida tarbiyaviy yo'nalishning ustuvorligini ta'minlash asosiy mezon hisoblanadi.

Tarbiya orqaligina inson o'z shaxsini anglaydi. O'z-o'zini anglagan kishigina o'z qobiliyatlari va imkoniyatini bilgan holda ehtiyojini shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi.

O'qitishda sistemalilik va izchillik – sistemalilik va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi, talabalar bilim, ko'nikma hamda malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va ayni zamonda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar.

Sistemalilik va izchillik jarayoni o'quv jarayonining hamma zvenolarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. O'quv materiali bir qator didaktik talablarga asoslanib sistemali joylashtirilishi lozim. O'quv dasturida nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir-biriga uzviy bog'lanishi saqlanishi kerak. Har bir darsda o'quv maqsadini aniq belgilash va belgilangan maqsadga muvofiq keluvchi mazmunini tarkib toptirish kerak. Har bir maxsus fani uchun o'quv dasturi talabiga mos holda dastavval tayanch tushunchalarni aniq belgilab olib, ularning darajasi va me'yorni aniqlash kerak. Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodlarni aniq belgilab, yuqori samara beruvchi usuldan foydalanish, mashg'ulotlar davomida berilayotgan bilim va ko'nikmalarning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi nazorat va tekshirishning turli usullari hamda testlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ma'lumot darajasi oshib borishiga va rivojlanishiga qarab predmetni bayon qilishning didaktik sistemasi fan sistemasiga tobora yaqinlashib boradi. Mashg'ulotlarni o'tkazishda dasturga aniq rioya qilinishi va talabalarning darslik bilan ishlashi ularning bilimlarni muayyan sistemada o'zlashtirib olishga yordam beradi.

O'qitishda talabalarning ongliligi va faolligi – bu tamoyil o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

O'qitishdagi onglilik tamoyili talabalarning o'z o'quv ishlarining konkret maqsadlarini aniq tushunishim, o'rganilayotgan fakt, hodisa, jarayonlarni va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olishini, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilishini bildiradi

Talabalarning faolligi ularning nazariy materialni egallab olishida, laboratoriyada, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida o'quv mehnat topshiriqlarini bajarishda namoyon bo'ladi. Faollilik talabalarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan.

O'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish – har bir talaba o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va hisobga olishi o'qitish sifatini oshirish hamda har bir talabaning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Talabaning xususiyatlarini bunday o'rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog talabalarning darslardagi va ishlab chiqarish ta'limi vaqtida ustaxonalardagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, maslahatlarda va darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan suhbatlashishi kerak. Talabaning kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, o'quvchilarning hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning kollejga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi. Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi jarayonida talabalar o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Bundan tashqari, avvalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar

ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bilimlarni egallash talabalarning xotirasi, mantiqiy tafakkuri, xilma-xil faoliyat turlaridagi ijodiy aktivligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Lekin hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarning kelgusida ilmiy bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishda asos bo'lib xizmat qilishi uchun ular puxta o'zlashtirilgan, yaxshi mustahkamlangan bo'lishi va talabalarning xotirasida o'zaro vaqt saqlanishi kerak. Mustahkamlik tamoyiliga rioya qilmaslik talabalarning o'zlashtirmasligiga, ularning o'qishda orqada qolishiga sabab bo'ladi. O'qitish tamoyillari bilan bir qatorda o'qitishning asosiy qoidalar ham bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- tushunarli - tushunarsizga,
- yaqindan - uzoqqa,
- osondan - qiyinga,
- aniqdan - mavhumga,
- umumiydan - xususiyga.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Ta'lim tamoyillarining maqsadlarini aniqlang va izoh bering.
2. O'qitishning ko'rsatmaliligi va namunalardan foydalanish tamoyillariga tushuncha bering hamda aniq bir mashg'ulot bo'yicha misollar keltiring.
3. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bilan bog'liqligi tamoyilini kengroq misollar bilan yoriting.
4. Ta'lim jarayonida talabalarni faollashtirish imkoniyatlari bo'yicha referat tayyorlang.
5. Ta'lim jarayonida ilmiy tamoyilga tayanish qanday samara beradi



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ilmiy tamoyilga ta'rif bering.
2. O'qitish tamoyillarining strukturasi tushuntirib bering.
3. O'qitishning tarbiyalovchi xarakterini tushuntiring.

4. O'qitish tamoyillari bilan bir qatorda o'qitishning qanday asosiy qoidalarini bilasiz?

5. Talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olishda qanday shart-sharoitlar yaratiladi?

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda ta'lim nazariyasining tamoyillari, o'qitishning asosiy qoidalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ta'lim jarayonining borishida talabalar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini murakkablashtirib borish ularning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, talabalar uni o'zlarining oldingi bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim. Shu jihatdan ham o'qitishda tamoyillar asosiy o'rinni egallaydi.

Tayanch iboralar

Tamoyil, ta'lim, tarbiya, ilmiylik, tizimlilik, aloqadorlik, joriylilik, g'oyaviylik, tarixiylik, nazariya, amaliyot, sistemalilik, izchillik, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, o'qitish metodikasi.

1-bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent-Sharq. 2008.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000.-245 b.

3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv me'yoriy hujjatlar to'plami.-T.:2006. - 48b.

4. Xodjaboev A.R., Xusanov I.A., Nishonaliyev U.N. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006 y.

5. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent. Moliya.-2006.

6. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «Fan», 2009. - 172 b.

7. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. Toshkent. «Fan va texnologiyalar». 2009.

8. Rashidov X. va boshqalar «Kasbiy pedagogika» blokini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. 200 b.

9. Батышев С.Я. Профессиональная педагогика. "Профессиональное образование". М.: 1997.

10. Dimetova M.K. Kasb-hunar kollejlari ilg'or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati // Kasb-hunar ta'limi. –Toshkent, 2005. - 82 b

11. Ulrich Kline. Projekt – und tron sferorientierte Ausbildung - PETRA (Loyihalarga va mavjud bilimlarni yangi vaziyatga qo'llashga qaratilgan ta'lim) Printed in Germany, 2000

12. Frank Vengkefer, Berufliche Bildung und Consulting GmbH, («Kasbiy pedagogika» maxsus sohasining muhim masalalari asosida Frank Vengkeferning kontsepsiyasi)., D-13189 Berlin, 2002.

13. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям. - М.: Ассоциация "Профессиональное образование", 1997. - 512 с.

14. Ramsden, P. (2003). Learning to Teach in Higher Education, London, Routledge

15. McCain, T. (2007). Teaching for Tomorrow: Teaching Content and Problem-solving Skills. Melbourne, Vic: Hawker Brownlow Education.

Elektron ta'lim resurslari

16. www.ziyonet.uz

17. www.edu.uz

18. Infokom.uz. elektron jurnali: www.infocom.uz

19. www.nuu.uz

20. www.bimm.uz



1-bob bo'yicha xulosalar

Ushbu bobda kasb ta'limining asosiy tushunchalari, kasb-hunar ta'limining metodologik asoslari, o'quv me'yoriy hujjatlar va kasb-

hunar ta'limi tamoyillari batafsil yoritib berilgan. Kasb-hunar ta'limining ilmiy izlanishlar va o'qitishning samarali metodlari keltirilgan. Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, unda metodikaning «Oltin qoida»siga, ya'ni tushunarli-dan-tushunarsizga, yaqindan-uzoqqa, osondan-qiyinga, aniqdan-mavhumga, umumiydan-xususiyga qarab yo'naltirishga rioya etish tavsiya etilgan.

O'quv materiallarini ishlab chiqishda manbalardan, ilmiy-om-mabop jumallardan hamda internet ma'lumotlaridan keng foy-dalanildi.

Ushbu tamoyillar va me'yoriy hujjatlar asosida fan bo'yicha mashg'ulotlar mukammal tashkil etilsa, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirish imkonini beradi.

2-bob. KASB-HUNAR TA'LIMIDA ILMIY TADQIQOT VA O'QITISH METODLARI

2.1. Ilmiy tadqiqot metodlari

O'quv maqsadi

Talabalarda kasb-hunar ta'limining ilmiy tadqiqot metodlari bo'yicha nazariy bilimlarni shukllantirish

Kasb ta'limi muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatish xususiyatlarini o'rganish, ilg'or metodlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash, texnik vositalaridan samarali foydalanishga oid masalalarni yechishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o'qituvchidan fanning mazmunini chuqur bilishi talab etiladi. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar talabalik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Fan bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib o'zlarining pedagogik mahoratini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlar o'rganish va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganishi davomida quyidagilarni aniqlashi kerak

- o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr-mulohazasi;
- o'rganilayotgan muammo to'g'risida an'anaviy metoddan farqliroq kiritgan takliflari;
- qanaqa asosiy masalalar adabiyotlarda yoritilmagan;
- muammoni yechishda keyingi olib boriladigan izlanishlar.

O'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolarga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi dars jarayonida qanday qiyinchilikka duch kelishi;
- kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari

2. *Gipoteza qurish, ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish.* Dalillar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. *Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash.*

Kasb-hunar ta'limi metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus metodlari qo'llaniladi.

Umumilmiy metodlarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

Nazariy metod – adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jumallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi

Kuzatish – odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi

Qayd qilish metodiga qarab kuzatishlar turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish metodi tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning xatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish metodi biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi daliliy materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari ya'ni xilma-xil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir, teleko'rsatuv) ni qo'llash bilan tobora ko'p qo'llanilmoqda.

Suhbat va intervyu metodi – so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u

tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat metodida – o'qituvchilar va talabalar jamoasi bilan otanolalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat intervyu metodidan farq qiladi. Intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h.k.

Bu metodlarda talabalar ijodini o'rganish – ularning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

Pedagogik so'rash metodi – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, ularning aniq ifodalinishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy shakldagi javobni («ha», «yo'q») ham taqozo etishi mumkin.

Test sinovlari, so'rovnomalar – bu metodlar qo'llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarning bilimini va saviyasini aniqlash metodlaridan biri – bu test yordamidagi sinovdir.

Test sinovi talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtayi nazardan ba'zi

bir yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash va natijalariga kompyuter dasturlari yordamida avtomatlashtirilgan holda ishlov berilishi mumkin. Test savollari va masalalarini ishlab chiqishda uning qisqa va lo'ndaligiga, to'g'ri javobni umumiy javoblar ichida borligiga yoki uning topishmoqh o'yinga o'xshashligiga, javobni topishda xotira va intuitsiyadan foydalanishga imkon berishiga e'tibor qaratish lozim. Test savollari orqali talabalar bilimini baholash ularning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Anketa so'rovi metodi – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Anketa savollarini ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda anketa savollari ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlash imkon beradigan qilib tuziladi.

Eksperiment-tajriba-sinov metodi – ushbu tajriba asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi – ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarning qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika metodi orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika metodlari – o'qitish nazariyasi va amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni kompyuterlar orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

Sotsiologiya tadqiqot metodi – bu metodda anketalardan foydalaniladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini, ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, talabalarning ma'naviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti,

o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv adabiyotlar sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning xarajatini qanchalik qoplaydi, haq to'lanadigan ishlarda talabalar qatnashishi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib etishishida hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, o'zlashtirganlik darajasiga oid savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Ushbu metodlardan tashqari kasb ta'limda maxsus empirik metodlardan ham foydalaniladi.

Kasbiy pedagogikada tadqiqotning maxsus empirik metodlari keng tarqalib, unda hodisa va jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan asbob-uskunalar va apparatlardan obyektiv miqdoriy kattaliklarni olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik metodlarini shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Ish harakatlarining natijaviy tafsilotini o'rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi),

2. Biomexanik metodlar;

3. Psixofiziologik metodlar.

Ish harakatlarining natijaviy ko'rsatkichlari bilan bog'liq tadqiqotlarda shu jumladan ularni o'zlashtirish jarayonida xronometraj katta rol o'ynaydi. Ish me'yori, maqbul vaqt shu jumladan ishlab chiqarish ta'limining turli davrlarida vaqt me'yori, ish tartibni aniqlash maqsadida, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o'rganish, talabalar yoki mutaxassislarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xronometrajdan foydalaniladi.

Ish kunini tasvirga olish xronometrajning bir turi bo'lib, unda ish kuni davomida yoki ishlab chiqarish ta'limi darajasida barcha vaqt sarflari o'lchanadi va tahlil qilinadi. Bu bilan ish vaqtining sarfi va uning sabablari, shuningdek, ishni tashkil etishning holati ajratib ko'rsatiladi. Xuddi shu maqsadlarda shuningdek o'z-o'zini tasvirga

olish qo'llanilib, unda talaba yoki mutaxassis o'z ishini o'zi kuzatadi va olingan natijalami maxsus kuzatish varaqasiga kiritadi.

Biomexanik metodlar – bu ish harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir: ularning mukammallik darajasi, ishchining asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'siri, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Biomexanik metodiga tsiklogramma ham kiradi. Siklogramma harakat elementlarining ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligini o'zida aks ettiradi. Siklogramma metodlarida asboblarga, qo'l yoki oyoqlarga elektrik lampochkalar biriktiriladi. Ishchi jarayoni fotoapparat bilan suratga olinadi. Fotoplastinkada lampochka tasvirining yorug' nuqtalar ko'rinishida qolgan izi, mos ravishdagi harakat trayektoriyasini beradi. Olingan trayektoriyaning tahlili harakatning tezligi, tezlanishi, yo'nalishi va boshqa tashkil etuvchilarni aniqlash imkonini beradi.

Psixologik metodlar o'quv va mehnat faoliyati jarayoni natijasida inson organizmning turli organlarini funksional holatini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bulardan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'llaniladi.

Elektromiografiya – harakatlanuvchi muskullar elektrik potensialini yozishdir. Istalgan muskul harakati bosh miyadan elektrik impuls ko'rinishida uzatiladigan ta'sirlar natijasida ishlaydi. Muskullarning elektrik faolligi uning qisqarish kuchini aniqlaydi. Muskullarning elektrik potensiali maxsus elektrodlar yordamida kuchaytirgichga, o'zidan-o'zi yozgichga uzatiladi va u yerda miogramma – elektrik signallarning qog'ozda yozilishi qayd qilinadi.

Elektrokardiografiya – yurak tomirlarning elektrik potensiallarini qayd qilishdir. Yurak tomirlari ham muskullar kabi bosh miyadan keluvchi elektrik signallar ta'siri ostida qisqaradi. Ularni qayd qilish elektrokardiografiya deb aytiladi.

Elektrodermografiya – yerining elektrik potensialini qayd qilishdir. Inson tanasidan ter oqib chiqishi ham miyaning elektrik signallari ta'siri ostida amalga oshadi. Elektrodermogramma birinchi navbatda insonning ish jarayonidagi emotsional holati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Markaziy asab tizimining funksional holatini aniqlash uslubi o'quv mehnat faoliyatining talaba organizmi holatiga ta'sirini

o'rganish uchun qo'llaniladi, masalan, diqqat darajasi, ish jarayonida toliqishning rivojlanishi, mashqlar ta'siri ostida markaziy asab tizimida sodir bo'ladigan siljishlar va hokazo.

Ko'pincha shartli reaksiyalar metodi qo'llaniladi, ya'ni talabalarga nurli, tovushli yoki boshqa xildagi signallar uzatiladi. Unga javob tariqasida talaba uncha murakkab bo'lmagan qandaydir holatini amalga oshirishi kerak, masalan, tugmachaga bosish. Bu harakatni bajarish vaqti bo'yicha va xarakteri bo'yicha ushbu vaziyatda talaba markaziy asab tizimining holati va turli mezonlar ta'siri ostida undagi o'zgarishlarni aniqlash mumkin.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar haqida referat tayyorlang.

2. Kuzatish metodini kengroq yoritib bering

3. Suhbat metodining guruhli bo'linishining tavsiflang.

4. Dars jarayonida o'qituvchi pedagogik faoliyatini baxolash bo'yicha anketa savollarini tuzing?

5. Yakka yoki guruhli fikrlarni, qarashlarni, qanday kasblarga qiziqishlarni, kelajak orzu-istaklarni bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladigan metod to'g'risida referat yozing.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Kasb ta'limi muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad nima?

2. Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonining bosqichlarini ayting.

3. Umumilmiy metodlarga qanday metodlar kiradi, misollar keltiring.

4. Tadqiqotning maxsus empirik metodlari necha guruhga bo'lib o'rganiladi, har birini tizib bering.

5. Psixologik metodlar turli organlarning funksional holatini qaysi metodlar yordamida aniqlanadi, misollar orqali yoriting.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzudan maqsad ilmiy tadqiqot metodlari, ularni o'quv jarayonida qo'llash imkoniyatlari, kasb ta'limi muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad, ilmiy foydalanish yo'llari hamda yanada samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash, texnik vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir.

Tayanch iboralar

Metod, gipoteza, izlanish, kuzatish, suhbat, eksperiment, katalog, internet, kinofilm, videotasvir, intensiv, individual, anketa, statistika, kibernetika, biomexanik, xronometraj, siklogramma, test

2.2. Ta'lim metodlari

O'quv maqsadi

Talabalarda o'qitish metodlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi o'zgarishlar ta'lim islohotlari bilan chambarchas bog'liqdir. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asosan, yangi turdagi ta'lim turi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi shakllandi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga yuqori malakali ega bo'lgan kichik mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Zamonaviy kasb-hunar ta'limi jarayoni shakllari, metodlari va vositalari talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni, axborotlardan mustaqil foydalanish qobiliyatini; muammoni hal etishda ijodiy yondashishni; tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlashi lozim.

Ta'lim berish metodlari – bu pedagogning dars jarayonida o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydigan turli metodlardan samarali foydalanishidir.

O'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, nihoyatda xilma-xil va turli xarakterdagi faktorlarga bog'liq. O'qituvchi o'qitish metodlarining bitmas-tuganmas xazinasiga ega bo'lishi kerak.

O'qitish metodlarini quyidagi uch guruhga ajratamiz:

- a) og'zaki metodlar;
- b) ko'rgazmali metodlar;
- v) amaliy metodlar.

Og'zaki metodlar. Agar talabalar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining o'quv mulohazalari va isbotlan jarayonida yoki darslikdagi o'quv materiallari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki metodlar jumlasiga kiradi.

Og'zaki metodlardan foydalanish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo ular yordamchi rol o'ynaydilar.

Bayon darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoki foydalanmasligiga bog'liq bo'lmagan holda tuziladi. Masalan, o'qituvchi tikuv mashinasining tuzilishini va ishlash tartibini tushuntirayotganda kinematik sxemalar, rasmlar videolavxalardan foydalanishi mumkin. Bular tushunchani o'zlashtirishda yordam beradi xolos.

Og'zaki metodlardan foydalanish muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichlari – talabalarning yangi bilimlarni eslab qolishlari va aytib bera olishlaridir. Og'zaki metodlarda talabalar o'qituvchi mulohazalari jarayonini takrorlaydilar, unga taqlid qiladilar.

Talaba o'qituvchining tushuntirish mantig'iga qanchalik yaqinlashsa, materialni shunchalik muvaffaqiyatliroq o'zlashtiradi.

Og'zaki metodlardan asosan yangi materialni o'rganish paytida foydalaniladi va bilimlarni egallashning boshqa metodlari bilan qo'shib olib borilsagina ular ta'limda yaxshi samara beradi.

Ko'rgazmali metodlar deganda – ta'lim jarayonida o'quv materiallari mazmuni ko'rgazmali qurollar, namunalar, real mahsulotlar yoki jihozlarni namoyish qilish, shuningdek texnika vositalari, elektron doskalar va slaydlar orqali uzatish tushuniladi.

Ta'limning ko'rgazmali vositalari bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Masalan, tikuv mashinasi detallari namunalari ko'rsatilishi, mexanizmlarining ishlashi virtual yoki model orqali, yoki tikuv mashinasida bajariladigan texnologik jarayon videotasviri namoyish qilinishi orqali talabada real tassavvur hosil qilish mumkin.

Asosiy maqsad dars mazmuni, albatta. O'qituvchi esa qo'shimcha tuzatish kiritishi mumkin xolos.

Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali vositalar bilimlarni tizimga solish va boyitishda, shuningdek, talabalarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari talabalarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, konkret va abstrakt, hissiy va aqliy jihatlarining nisbatini chuqur tushunishni talab etadi.

Amaliy metodlar. Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o'quv materialini yoki ma'lum bir kasbiy faoliyatni o'zlashtirish ta'limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bunda ko'nikmani shakllantirish jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'nikmalarni egallashning muvaffaqiyati uni shakllantirish sharoitiga bog'liq.

Birinchi shart – ko'nikma nima maqsadda shakllantirilishini anglashdir. Har qanday ko'nikma – avtomatlashgan darajaga etkazilgan harakatlar sistemasidir. Agar talaba o'quv materialini o'zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin bo'ladi. Masalan: tikuv mashinasi kiyimni qaysi detallarini tikishga mo'ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ravishda ip va ignalar tanlanishi tartibini bilmasa, shu ishlarni bajarishdagi amaliy harakatlarni shakllashtirish qiyin bo'ladi.

Ikkinchi shart – mashqlarning sistemali bo'lishi. Odatda ko'nikmalarni egallashdagi kamchiliklarga o'quv mashqlari sistemasini tashkil etish va o'tkazishdagi kamchiliklar sabab bo'ladi, ya'ni mashqlarni o'tkazish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlanmaganligi.

Uchinchi shart – amaliy harakatlarni anglagan holda bajarish. Talabalar harakatlarning muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining izchilligini yaxshi tushunishlari, mexanik tarzda takrorlashga va yodlab olishga yo'l qo'ymaslik kerak.

To'rtinchi shart – dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa,

ko'nikma tezroq muvaffaqiyatliroq shakllanadi. Buning uchun talabalar nazariy bilimlarini yaxshi egallashlari kerak.

Beshinchi shart – mashqlarni mustaqil bajarish va o'zini-o'zi nazorat qilish. Talaba biron bir faoliyatni mustaqil bajara boshlaganida u o'z harakatlarini nazorat qiladi. O'qituvchi talabaga o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'rgatishi zarur. Masalan, talaba kiyimni bironta detaliga bezak berish jarayonini amaliy o'rgangandan keyin, uyda o'zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o'rganadi.

Oltinchi shart – bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ulami baholash. O'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo'ladi. Talabalar yo'l qo'yadigan tipik xatolar namoyon bo'ladi. Lekin o'quv xonasida yaxshi ishlarni namoyish qilish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir. Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi.

O'qitish metodlari o'quv jarayonining amalga oshirish, ya'ni o'qitish va o'qish metodlari bo'lganligidan, har bir metodni ikki tomondan o'qituvchi faoliyati va talabalar faoliyati nuqtayi nazaridan qarash kerak. Shuning uchun ham o'qitish metodini bilim manbalari bo'yicha quyidagicha guruhlaymiz.

Og'zaki metodlar	Ko'rsatmali metodlar	Amaliy metodlar
A) Suhbat, maqsadni tushuntirish, talabalarga muammoli savol berish, talabalarning javoblarini muhokama qilish.	A) Ko'rgazmali o'quv adabiyotlari, rasmlar va sxemalarni, videotasvirlar, multimedialar, tajribaviy mehnat metodlarini namoyish qilish. Maqsadni tushuntirish,	A) Laboratoriya va amaliy ishlarning maqsadini tushuntirish, talabalar ishini tartibini va mazmunini aniqlash hamda rahbarlik qilish.
B) O'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash. Maqsadni tushuntirish. Topshiriqning	topshiriqni aniqlash, texnika vositalarini boshqarish, tajriba-	B) Mashqlarning maqsadini tushuntirish, talabalar ishini

mazmuni va talabalarning ish tartibini aniqlash, talabalar ishiga rahbarlik qilish. D) Ovoz yozishdan va radio, televidiniyadan multimedia resurslaridan foydalanish.	larni amalda ko'rsatish. B) Talabalarning obyekt va jarayonining mustaqil kuzatishlari Maqsadni tushuntirish, kuzatish obyektlarini aniqlash, talabalarning kuzatishlariga rahbarlik qilish.	tartibini va mazmunini tushuntirish va bajarilini nazorat qilish. D) Talabalarning ijodiy ishlari maqsadni tushuntirish, muammo qo'yish, talabalar ishiga rahbarlik qilish va yakun yasash.
--	--	--

Keyingi yillarda pedagogika fani va amaliyotida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda faollashtirishga yo'naltirilgan metodlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishga katta e'tibor qaratilayapti.

Biz, faollashtirishni ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy faktorlardan biri sifatida qaraymiz. Faollashtirish lotincha so'zdan olingan bo'lib - faol, ishchan) ma'nosini anglatadi, ya'ni shaxsning aqli va irodasini kuchaytirish orqali uning bilim olish va o'rgatish, faollashtirish qobiliyatini tushuniladi.

Faol ta'lim deganda – biz ta'lim-tarbiya jarayonida talaba va o'qituvchilarning ongli va faol ishtiroki, mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar majmuini tushunamiz.

Ta'lim oluvchining umumiy faolligi uning bilim va ko'nikmalarni egallash, jarayon va hodisalarning mohiyatini anglab olishga qaratilgan faoliyatini bildiradi.

Faollik tufayli shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim oluvchining «shaxsiy mulki»ga ko'chadi va bu bilimlarni istagan paytda ishga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim oluvchining faqatgina o'rganilayotgan obyektga, jarayonga yoki hodisaga ongli munosabati natijasida bilim, amaliy ko'nikma va ijobiy shaxsiy xislatlari hamda fazilatlar shakllanadi.

Faol bilish – ta'lim jarayonida muntazam ravishda, birin-ketin topshiriqlar berish, muammoli vaziyatlar hosil qilish natijasida yuzaga keladi. Faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, bu hol fanlarni o'rganish mazmuni, shakli, metod va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi. Faollik darajasini belgilashda o'quv materialning murakkablik darajasi inobatga olinishi lozim.

Ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirishda psixologik hamda pedagogik muammolar yuzaga keladi. Chunki, psixologlar ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faolligini psixologik xususiyat sifatida, pedagoglar esa ta'lim jarayonining asosiy qonuniyati va zamonaviy talabi sifatida qaraydilar.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faolligini oshirish uchun o'quv materiali murakkablik darajasidan kelib chiqib, mashg'ulotni o'tkazishning turli shakllari va metodlarini ishlab chiqishi kerak.

Faollikning quyidagi darajalari keltiriladi.

1. Faollikning birinchi darajasi – ta'lim oluvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini qayta takrorlashi, uni xotirada tiklashi hamda o'qituvchining bevosita rahbarligi va ko'rsatmalari asosida bajaradigan ishlari yoki berilgan namunaga qarab aynan bajaradigan topshiriqlari jarayonida namoyon bo'ladi. Chunki, ta'lim oluvchilarning o'tilgan nazariy materialini eslashi, unga mos keladigan ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni namunaga qarab yechimini topishga qaratilgan xatti-harakatlarini qayta xotirlashga xizmat qiladi.

2. Faollikning ikkinchi darajasi – o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonning mohiyatini tushunishni, ma'lum ma'noda ijodiy fikrlash elementlarini taqozo etadi. Faollikning bunday darajasi o'rganilayotgan obyekt va jarayonlardagi o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash, o'zlashtirilgan bilimlarni ma'lum o'zgartirilgan holat va vaziyatlarda qo'llanishini ko'zda tutadi.

3. Faollikning uchinchi darajasi ijodiy xarakterdagi xatti-harakatlarni talab etadi. Ko'zlangan o'quv maqsadga erishish yo'lida ijodiy faoliyatni ko'rsatadi. Qisman izlanish xarakteridagi faoliyat to'la ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Faollikning bu darajasida egallangan bilimlar tizimli, chuqur va puxta bo'lib, ulardan istalgan sharoitda foydalanish mumkin.

Faollashtirish darajasi birinchidan, ta'lim oluvchilarning o'quv materialini o'rganishga motivatsiya uyg'otish, ularda mustaqil ishlash va izlanish qobiliyatlari qanday darajada ekanligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan o'qitish va o'rgatish jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan sharoit, ta'limning shakli va faol metodlari hamda didaktik vositalarga bog'liq bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlari talabalar faoliyatini faollashtirishdan oldin ularning dastlabki bilim darajasi, o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi ko'nikmalarni hamda mustaqil ishlash qobiliyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ushbu xususiyatlarni har tomonlama tahlil qilmay turib, talabalarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmaydi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Amaliy metodlar to'g'risida referat tayyorlang
2. Suxbat metodining mohiyatini yoritib bering.
3. Ko'rgazmali metodlar to'g'risida referat tayyorlang
4. Og'zaki va ko'rgazmali metodlarning bir-biridan farqli jihatlarini yoritib bering.
5. Og'zaki va ko'rgazmali metodlarning bir-biridan farqli jihatlarini yoritib bering.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim berish metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. O'qitish metodini bilim manbalari bo'yicha qanday guruhlanadi?
3. Faollikning qanday darajalarini bilasiz?
4. Og'zaki metodlarga misollar keltiring.
5. Ko'rgazmali vositalarga nimalar kiradi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda ta'lim metodlari haqida tushunchalar, ularning klassifikatsiyasi bayon etilgan. Shuningdek ta'lim jarayonida talabalarni faollashtirishga ularning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishga qaratilgan metodlarning qo'llash afzalliklari to'g'risida fikr yuritilgan.



Tayanch iboralar

Ta'lim, metod, og'zaki metodlar, ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, faollashtirish, o'quv adabiyoti, mustaqil ish, laboratoriya, faoliyat.

2.3. Ishlab chiqarish ta'limi metodlari

O'quv maqsadi

Talabalarni ishlab chiqarish ta'limi metodlari bilan tanishtirish va ularda nazariy bilimlarni shakllantirish

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida ishlab chiqarish ta'limi o'quv jarayonining tashkil etuvchi qismi hisoblanadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish ta'limi maqsadi, mazmuni, shakli va metodlari bilan o'ziga xos xususiyatga ham ega.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi talabalarda ma'lum kasb, mutaxassislik sohasi bo'yicha kasbiy mahoratning shakllanishi hisoblanadi.

«Kasbiy mahorat» tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi quyidagi ko'rsatkich va mezonlarni ajratib ko'rsatamiz:

– *ishni bajarish sifati* – texnik talablarning ish natijalari bo'yicha bajarilishi, uning o'ratilgan ko'rsatkich va me'yorlarga mos kelishi; ijobiy natijalarni olish;

– *mehnat unumdorligi* – o'ratilgan vaqt me'yorlarining bajarilishi; mehnatni tashkil qilish va ishni bajarishning eng tejamli hamda unumli metodlarini, yuqori unumdorlikka ega bo'lgan texnika va texnologiyani o'zlashtirishga bo'lgan intilishni aniqlab beruvchi vaqt mezonini baholash qobiliyati va mahorati;

– *kasbiy mustaqillik* – mehnatning yuqori sifati va unumdorligini ta'minlovchi ish metodini mustaqil tanlash mahorati; ishlab chiqarish vaziyatlarida muammolarni mustaqil hal qilish, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati; ishda o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarishni amalga oshirish;

– *mehnat madaniyati* – o'z mehnatni rejalashtirish qobiliyati va odati, mehnatning maqbul metod va uslublari, zamonaviy texnika va texnologiyani qo'llash bilan ishlay olish mahorati; ish faoliyatida kasbiy bilimni qo'llash mahorati; ish o'rni va mehnatni to'g'ri tashkil qilish, mehnat xavfsizligi qoidalariga noya qilish;

– *mehnatga bo'lgan munosabat* – mehnatni tashkil etishni va metodlarni takomillashtirish, ish jarayoniga yangi jihoz va qurilmalarini joriy qilishga intilish va etakchilik qobiliyati, ilmiy yechimlar hamda ixtirolarni topishga bo'lgan intilish va qobiliyat;

– *mehnat faoliyatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi* – bajariladigan mehnat jarayonini iqtisodiy tahlil qilish, ishni bajarish jarayonida iqtisodiy jihatdan maqbul qarorlarni qabul qilish qobiliyati

– Bu ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarish ta'limi mazmunini, tashkil etilishi va usullarining barcha masalalarini ko'rib chiqish zarur

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida nazariy o'qitishning ko'plab metodlari ishtirok etadi. Shu bilan bog'liq ravishda faqat ishlab chiqarish ta'limi uchun xos bo'lgan metodlarni ko'rib chiqamiz. Bularga to'rt pog'onali, harakatni namoyish qilish, mashqlar, talabalarning mustaqil kuzatishi, yozma ko'rsatmalar, mehnatga ijodiy yondashuvni shakllantirish, shuningdek, ishlab chiqarish ta'limining ba'zi «faol» metodlari kiradi.

Biz ishlab chiqarish ta'limida samarali natija beradigan ba'zi ilg'or metodlarga to'xtalamiz.

Kasb-hunar kollejlarda talabalar o'zi tanlagan kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishlarida «to'rt pog'onali» metod eng samarali metod hisoblanadi. Bu metod O'zbekiston Respublikasi va Evropaning bir qancha davlatlari kasb-hunar ta'limida keng qo'llaniladi. Bu metodda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval bajariladigan kichikroq bir ishni tushuntirib beradi, so'ngra qanday tartibda bajarilishini bajarib ko'rsatadi. Keyin talaba shu ishni ko'rsatilgan tarzda qaytarishi ya'ni immitatsiya qilishi kerak. Talaba muayyan mashqni qaytarib bajarayotgan paytda amaliyot o'qituvchisi uning xatolarini to'g'ri lab turadi. Talaba ushbu mashqni bir necha marotaba qaytarishi

kerak. Misol tariqasida to'rt pog'onali metod doirasida kasb-hunar kollejlarning yengil sanoat yo'nalishlari uchun o'qitiladigan «Tikuvchilik korxonalari jihozlari» bo'yicha o'quv amaliyoti mashg'ulotlarini o'tkazishini ko'rib chiqamiz.

1-pog'ona – *tushuntirish - qiziqtirish – ma'lumot berish.* Mashg'ulot talabalarni tikuvchilik sohasi va unga qarashli zamonaviy tikuv mashinalariga qiziqishini uyg'otishdan boshlanadi. So'ngra o'qituvchi talabalarga amaliy mashg'ulotni bajarish uchun tikuv mashinasi to'g'risidagi ma'lumotlarni, unda bajariladigan tikuv jarayonini tushuntiradi. Bunda o'qituvchi barcha o'quv-didaktik materiallardan, masalan, tikuv mashinasining kinematik sxemalari, mashinada ishlash bo'yicha ko'rsatmalar, sozlash asboblari va gazlamalardan ko'rgazmali materiallar sifatida foydalanishi mumkin.

Amaliyot o'qituvchisi tikuv mashinasini ishlatishdan oldin qilinadigan tayyorgarlik ishlari ketma-ketligini tushuntiradi. Tikish sifatini namoyish etish maqsadida mashinaning to'g'ri sozlanganligi yoki uning ishida sodir bo'ladigan nuqsonlarni ko'rsatib o'tishi mumkin.

2-pog'ona – *namoyish qilish.*

Bu pog'onada amaliyot o'qituvchisi tushuntirgan ish bosqichlarini o'zi qilib ko'rsatadi, ya'ni tikuv mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish, ignani o'rnatish, gazlamani tepki ostiga joylashtirish va mashinani ishga tushirishni ko'rsatib beradi. Buning uchun kerakli tikuv mashinasi, gazlama va iplar va sozlash asboblari tayyorlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Amaliy ko'nikmalarni 3 marta namoyish qilish tavsiya etiladi:

1. Talabalarda to'la va haqiqiy tasavvur paydo bo'lishi uchun namoyish oddiy tezlikda o'tkaziladi.

2. Har bir ish bosqichini alohida va xususiyatlarini yaxshiroq ko'rsatish uchun sekin tezlikda namoyish qilinadi.

3. Talabalarda aniq tasavvur hosil qilish uchun oddiy tezlikda yana bir marta to'la ravishda ko'rsatiladi.

3-pog'ona – *ko'rsatilgan tarzda qaytarish.*

Talabalarning har biri amaliyot o'qituvchisining harakatlarini u ko'rsatgan tarzda qaytaradilar. Talabalar ishlayotgan paytda o'qituvchi ularni xatosini tuzatadi. Yaxshi ishni maqtaydi yoki tanqid qiladi.

4-pog'ona – mashq qilish

Talabalar tikuv mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish, ignani o'ratish va gazlamani tepki ostiga joylashtirib, tikish jarayonini bajarishlari uchun o'qituvchi ularga etarlicha gazlama va ip berib qo'yadi.

Agar ish natijalari sifat mezonlariga javob bersa, ya'ni gazlamadagi bahyaqator sifatli bajarilsa, ish tugatilishi mumkin.

Birinchi va ikkinchi bosqich bo'yicha talabalar dastlabki nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Ushbu usulni o'quv jarayoniga qo'llab o'tkazilgan tadqiqotlar va olimlar fikri bo'yicha, reja asosida ishlatilgan tashqi qo'zg'ovchilar va nazorat qilinishi mumkin bo'lgan reaksiyalargina etarli darajada tekshirilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, o'rganishning «To'rt pog'onali» metodi bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalarni berish mumkin:

1. O'zlashtirish (o'rganish) – bu qo'zg'ash ta'siri va reaksiya ketma-ketligi takrorlanishining natijasidir.

2. Takrorlash orqali «Shartli reflekslar orqali o'rganish» prinsipi hosil bo'ladi.

3. O'zlashtirishda erishilgan natijalar rag'batlantirilsa (maqtab turilcha), o'rganish samarasi oshib boradi.

Bugungi kunda bosqichlarni murakkabroq qilishga harakat qilinmoqda. Ya'ni shunday mashqlar kiritilishi mumkinki, ular doirasida talaba bir vaqtning o'zida bir nechta ko'nikmalar va jarayonlarni amalda bajarishi kerak. «Tushuntirish» va «Namoyish etish» pog'onalari esa, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bu metod kasb-hunar kollejlari maxsus fanlardan amaliy ko'nikmalarni o'rgatishda, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarida qo'llanilganda juda yaxshi samara beradi.

Ish harakati usullarini namoyish qilish metodi Bu metodni qo'llashdan maqsad talabalar ongiga ish harakatni aniq ko'rish tarzini yaratishdir.

Ish harakatining aniq va to'liq tarzi talabalar ongiga bir lahzada yuzaga kelmaydi. Avval u umumiy ko'rinishda taassurot qoldiradi. So'ngra asta-sekin faoliyatlar bo'yicha aniqlanadi.

Ish metodlari namoyishini qabul qila borib talabalar nafaqat tushunishlari, balki ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan ularga ko'rsatilayotgan barcha metodlarni alohida faoliyatlar bo'yicha

yodda saqlab qolishlari kerak. Shuning uchun ish metodlari namoyishini takrorlash, ya'ni bir necha marta amalga oshirish lozim.

Mashq – ko'nikma va mahoratlarning tashkil etuvchilari bo'lganligi kabi ishlab chiqarish ta'limining ham asosiy metodi bo'lib hisoblangan mashqlar bilan shakllanadi. Mashq deganda ongli ravishda ma'lum bir faoliyat metodi bo'yicha amaliy harakatlarni ko'p martalab takrorlash tushuniladi.

Mashqlarni mazmuni va o'tkazish metodlari xususiyatlariga qarab guruhlariga ajratish mumkin. Mashqlar ikki xil yondashuv – asosida tuzilishi mumkin. Birinchisiga didaktik maqsadlar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar; boshlang'ich mahoratni va murakkab mahorat shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar kiradi. Ikkinchisiga mazmun bo'yicha: ish metodlarini bajarishda yo'naltirilgan mashqlar; ish jarayonlarini bajarishda yo'naltirilgan; texnologik jarayonlarni boshqarishga yo'naltirilgan mashqlar kiradi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirish maqsadida ketma-ket murakkablashib boruvchi mashqlar tizimi ishlab chiqilishi lozim.

Talabalarning mustaqil kuzatuv. Bu metod asosan murakkab tuzilishdagi jihozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kasbni egallamoqchi bo'lgan talabalarning ishlab chiqarish ta'limida qo'llaniladi.

Kuzatuv talabalar tomonidan mustaqil ravishda, ishlab chiqarish ta'limi ustasining nazorati va uning ko'rsatmalari bo'yicha o'tkaziladi. Topshiriqda odatda mustaqil kuzatuvlar maqsadi qo'yiladi, ularni o'tkazish tartibi ko'rsatiladi va kuzatuvlar natijalarini qayd qilish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Yozma ko'rsatma berish. Bu metodni qo'llash ishlab chiqarish ta'limi darslarida mustaqil axborot manbai hisoblangan turli xil ko'rsatmali o'quv hujjatlaridan foydalanish bilan bog'liq. Ishlab chiqarish ta'limida ko'rsatmali, texnologik xaritalar va o'quv algoritmlari ko'p qo'llaniladi.

Texnologik xaritalar texnologik jarayonlarini o'rganishda qo'llaniladi. U o'rganilayotgan obyektga texnologik jarayonlar bajarilishi metodlari, ketma-ketligi, qoidasi, vositalari, tartibi, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni ochib beradi.

Texnologik xaritalar har tomonlama xususiyatga ega bo'lgan ishlarni bajarishda qo'llaniladi; ular faoliyat usulini bajarishning texnologik ketma-ketligi, tartiboti, texnik talablari, vositalarini ochib beradi.

O'quv algoritmlari talabalarga murakkab jihozlarni rostdash, ularga xizmat ko'rsatish va sozlashni o'rgatishda qo'llaniladi.

O'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishda faollik, ya'm fikriy, ongli ravishdagi, ijodiy faollik muhim ahamiyatga ega. U talabalarda o'z harakatlarini ko'rsatilgan namuna bilan ongli ravishda tuzatishlarida, ijobiy natijalarga olib keluvchi faoliyat metodlarini mustaqil tanlashlarida, o'z mehnatlarini rejalashtirish, xatolarni tahlil qilish va tuzatishda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishda talabalarning faolligi – bu ularning mashina, agregat, qurilma ishining tashqi belgilari bo'yicha ichki jarayonlarni tasavvur qilishlari va ushbu belgilarining tahlili asosida zaruriy hollarda uni rostdash bo'yicha maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilish qobiliyatidir; bu egallangan faoliyat metodlarini maqbullashtirish, o'zgaruvchan sharoitlarda mahorat bilan harakat qilish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarish ta'limining samarali metodlariga avvalambor ishlab chiqarish texnik vazifalarini yechish kiradi, ya'ni:

- ishlov berish, rostdash, sozlash ishlari;
- dastur bilan boshqariladigan avtomatlashtirilgan jihozlar uchun boshqaruv dasturlarini ishlab chiqish va sozlash;
- mashinalarning kinematik va prinsipial sxemalaridan foydalanib, ishlash tartibotlari va parametrlarini aniqlash;
- jihozlarni o'rnatish sxemalarini ishlab chiqish;
- ishlov berish, yig'ish, rostdash bo'yicha texnologik jarayonlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish.
- ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan taklif etilgan yoki talabalar mustaqil ishlab chiqqan bir necha texnologik jarayondan eng maqbulini tanlash.
- ish vaqti, materiallar, energiyani tejash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va hokazo.

Ishlab chiqarish ta'limining faol metodlariga, shuningdek, turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilishga va yechishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar ham kiradi. Bunday

mashqlar talabalarni haqiqiy sharoitlarda yuzaga keluvchi o'xshash vaziyatlarda harakatlarga tayyorlaydi.

Masalan mashq uchun mashinada ish jarayonini u yoki bu darajada o'xshatuvchi, shuningdek, muayyan ish joyida yuzaga keluvchi texnologik tartibotning asosiy buzilishlari vaziyatini yaratish zarur. Bunday vaziyatlar texnologik vazifalar deb ataluvchi topshiriqlarda berilishi mumkin.

Laboratoriya metodi – bu shunday ta'lim metodiki, unda talaba o'qituvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi. Laboratoriya metodining asosiy funksiyasi – o'rgatish va rivojlantirish. Bu metodni qo'llash bilan, biz talabalarda quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- asbob-uskunalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallash;
- mustaqil tadqiqotning yangi yo'llarini tanlash va ma'lum bo'lganlarini tekshirish;
- amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash, natijalarni qayta ishlash va ilgari olinganlari bilan taqqoslash.

Ayniqsa, muammoli (tadqiqiy) laboratoriya metodi samaralidir, bunda talabalar o'zlari gipotezani ilgari suradilar, uni amalga oshirish yo'lini aniqlaydilar, kerakli asbob-uskunalar va materiallarni tanlaydilar.

Laboratoriya usuli murakkabdir. U maxsus va ko'pincha qimmat uskunalar bo'lishini, o'qituvchi va talabalarning puxta tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi. Undan foydalanish juda ko'p energiya va vaqtni sarflash bilan bog'liq. Laboratoriya ishi vaqtida talabalardan namoyish usuliga qaraganda ancha katta faollik va mustaqillik talab qilinadi, ular bu yerda sust kuzatuvchi bo'lib emas, tadqiqotlarning qatnashchisi va bajaruvchisi sifatida harakat qiladilar.

Mashq – ta'lim metodi bo'lib, o'tilgan materialni amaliyotda qo'llash maqsadida, reja bilan tashkil etilgan amallarni ko'p marotaba bajarishdir. Bu metodning asosan o'rgatuvchi va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan. Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, u, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirishni ta'minlaydi, kamchiligi-motivatsion funksiyani sust bajarishdadir.

Mashqlarni quyidagi turlari mavjud: maxsus; sharhlangan, yozma, og'zaki, ishlab chiqarish – mehnat; laboratoriya – amaliy.

Sharhlangan mashqlar o'quv jarayonini faollashtirishga, o'quv vazifalarni ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi. Ularning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi va talabalar bajarilayotgan ishlarni sharhlaydilar, natijada ular o'zlashtiriladi va tushunib vetiladi. Avval bunga eng yaxshi o'quvchilar jalb etiladi, keyin esa materialni tushuntirishda butun guruh ishtrok etadi. Sharhlangan mashqlar metodi o'quv mashg'ulotining yuqori sur'atini ta'minlaydi, materialni barcha o'quvchilar tomonidan ongli ravishda, mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Yozma mashqlar. Ularning asosiy vazifasi – kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat. Shuning uchun, ular yetarli miqdorda va har xil bo'lishi kerak.

Grafik mashqlar matematika, fizika, chizmachilik, geografiya, rasm darslarida, ishlab chiqarishni o'rganish jarayonida ishlatiladi.

Laboratoriya-amaliy mashqlari mehnat qurollaridan, laboratoriya asbob-uskunalaridan (jihozlar, o'lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi, konstruktorlik-texnik mahoratni rivojlantiradi.

Ishlab chiqarish-mehnat mashqlari o'quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab bo'ladi: birinchisi – alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari, ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va h.k.) ko'zda tutilgan.

Individual (amaliy) metod. Individual (amaliy) metod laboratoriya metodidan shunisi bilan farqlanadiki, unda ko'pincha, o'quvchilar faoliyatida olingan bilimlar vazifasini yechishga qaratiladi. Nazariyotni amalda tatbiq eta bilish birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu metod bilim, mahoratni chuqurlashtirish vazifasini bajaradi, shuningdek, o'rganish faoliyatini kuchaytirishni ta'minlaydi. Amaliy metod o'quvchilarni vazifalarni vijdonlik bilan bajarishga, mehnat jarayonini puxta tashkil etishga boshqa metodlardan ko'ra ko'proq ko'maklashadi (ish sifatini sinchiklab tekshirish, xulosalarni tahlil qilish).

Ishlab chiqarish ta'limi metodlarini tanlash ketma-ketligi

1. Ishlab chiqarish ta'limi dasturlari mazmunining didaktik tahlili. Bunda standart talablari asosida:

- talabalarning o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar tizimini ajratish;

- o'zlashtirish darajasini aniqlash (tanishish, o'zlashtirish, ijodkorlik);

- bilimlar tizimini turkumlashtirish (ilmiy fakt, hodisa, jarayon, texnik-texnologik tushunchalar, ilmiy nazorat, qonun va qoidalar);

- kasbiy bilimlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini ajratish;

- mehnat funksiyalari natijasida shakllantirilgan malaka va ko'nikmalarni tahlil etish;

- o'quvchilardan ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarni shakllantirishga oid o'quv materiallarini tanlash va baholash.

2. Kasbning istiqboli va bu bilan bog'liq bo'lgan talablar tahlilida kasb egasiga qo'yiladigan talablar, uning boshqa kasb bilan o'rni almashтира olish imkoniyati, kasbiy faoliyatining istiqboli va shunga o'xshash kelajak bilan bog'liq masalalar.

3. Kelajakdagi kasbiy faolliyat sharoiti tahlili Bunda ishlab chiqarish turi (shaxsiy, kichik seriyadagi yoki yirik seriyadagi ishlab chiqarish), mehnatning tashkil qilinganlik sharoiti, ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashgan yoki avtomatlashtirilgan darajasi

4. Didaktik tahlil natijasini hisobga olish, ya'ni ishlab chiqarish dasturi mazmunidan kelib chiqadigan didaktik maqsad: talabalarning o'quv-o'rganish, o'quv-ishlab chiqarish faoliyati jarayonida qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan talablarni bajarish va talabalarning mustaqil ishlay olishiga erishish.

5. Asosiy didaktik maqsadlarga erishishni belgilash (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi).

6. Tayyorlanayotgan bo'lajak kasb egalarining kasbiy faoliyati sharoitida va bu kasbning istiqbolda rivojlanishini tashkil etib hisobga olish (kasbiy zarur bo'lgan ijobiy sifat belgilari, bilim, malaka va ko'nikmalar to'yxati).

7. Ishlab chiqarish ta'limi darajalarining aniq maqsadlarini shakllantirish, ifodalash.

8. Uyga berilgan topshiriqni tekshirish. Talabalar bilimi va ko'nikmalar darajasini tekshirishning bu metodi butun tekshirish sistemasida asosiy metodlardan biri hisoblanadi.

Psixologlarning tasdiqlashlaricha, o'quv materialim kitob bo'yicha yoki o'qituvchining so'zlaridan eslab qolish yo'li bilan bir marta ishlab chiqilganda, hatto kuchli talabalar ham uning taxminan 70-75%ini yaxshi o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Demak, uyga berilgan topshiriqlarni tekshirish, nazoratning boshqa metodlari bilan bir qatorda, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish vaqtida faqat bir metodga ko'proq e'tibor berish va boshqa samaraliroq metodlarni inkor etish yaxshi natijalarga olib kelmaydi.

9. Amaliy-laboratoriya ishlarini tekshirish. Amaliy-laboratoriya ishlari ta'lim metodi sifatida talabalarda mustaqillik darajasi, topshiriqlarning to'g'ri bajarilganligini, bajarilgan o'lchovlar, tuzilgan eskizlar, chiqarilgan xulosalarning to'g'riligini tekshiradi va qayd qiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish ta'limi va amaliy-laboratoriya ishlari jarayonida o'qituvchining tekshirishi natijasida aniqlangan ma'lumotlar va tayyorlangan yozma hisobotlarning natijalarini butun guruh ishtirokida muhokama qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatib o'tish va umumlashtirish zarur.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida 4 pog'onali metod bilim, ko'nikma va malakani shakllanish bosqichlarini aniqlang.

2. Ishlab chiqarish ta'limi darajalarning aniq maqsadlarini shakllantiring.

3. «To'rt pog'onali» metodini qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalarni bayon qiling.

4. Yo'nalishingizga mos kasb hunar kollejingizda o'qitiladigan 1 ta maxsus fandan mexnat mashqlarni va ularni bajarish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqing.

5. Yo'nalishingizga mos kasb hunar kollejingizda o'qitiladigan 1 ta maxsus fandan laboratoriya-amaliy mashqlarni va ularni bajarish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqing.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ishlab chiqarish ta'limining usullari hamda xususiyatlari haqida tushuncha bering.
2. Ishlab chiqarish ta'limining asosiy maqsadi nimada?
3. Ish harakati usullarini namoyish qilish metodini qo'llashdan maqsad nimada?
4. Ishlab chiqarish ta'limining «faol» metodlariga qanday ishlab chiqarish texnik vazifalar kiradi, ketma-ketligini izohlang?
5. O'quvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish maqsadida qanday mashqlar tizimini ishlab chiqish lozim?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mazkur mavzuda zamonaviy sharoitda yuksak kasb mahoratga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda kasb ta'limi muassasalari oldidagi yuksak mas'uliyat, ya'ni yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish uchun ishlab chiqarish ta'limini sifatli tashkil qilish muxim ahamiyatga ega ekanligi fikr yuritiladi.



Tayanch iboralar

Kasbiy mahorat, mezon, qobiliyat, mehnat madaniyati, metod, uslub, ixtiro, imitatsiya, ko'nikma, reaksiya, refleks, pog'ona, mashq, mahorat, texnologik jarayon, algoritm, avtomatlashtirish, texnologik xarita



2-bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti –Toshkent., 2000 -245 b.
2. Olimov va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Moliya -2006.
3. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma –Toshkent: «Fan» – 2009 172 b.

4. Rashidov X. va boshqalar «Kasbiy pedagogika» blokini o'qitish metodikasi –Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. 200 b.
5. Батышев С.Я. Профессиональная педагогика. "Профессиональное образование". М.:1997.
6. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. -М.: ИТПИМО,1995.–169 б.
7. Nuriddinov B.S., Abduquddusov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari. Monografiya. 2001.
8. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям. - М.: Ассоциация "Профессиональное образование", 1997. - 512 с.
9. Ramsden, P. (2003). Learning to Teach in Higher Education, London, Routledge
10. McCain, T. (2007). Teaching for Tomorrow: Teaching Content and Problem-solving Skills. Melbourne, Vic: Hawker Brownlow Education.

Elektron ta'lim resurslari

11. www.zivonet.uz
12. www.edu.uz
13. Infokom.uz.elektron jumali: www.infocom.uz
14. www.nuu.uz



2-bob bo'yicha xulosalar

Mazkur bobda kasb-hunar ta'limida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari, o'qitishning zamonaviy faol metodlari hamda ishlab chiqarish ta'limi metodlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, bu ma'lumotlar zamonaviy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga egaligi misollar tariqasida asoslab berilgan. Taqdim etilgan metodlar doirasida talaba bir vaqtning o'zida bir nechta ko'nikmalar va jarayonlarni amalda bajarishga erishadi. Kasb-hunar kollejlarda o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishda faollik, ya'ni fikriy, ongli ravishdagi, ijodiy faollik muhim ahamiyatga ega. U talabalarda o'z harakatlarini ko'rsatilgan namuna

bilan mos ravishda ongli ravishda tuzatishlarida, ijobiy natijalarga olib keluvchi faoliyat usullarini mustaqil tanlashlarida, o'z mehnatlarini rejalashtirish, xatolarni tahlil qilish va tuzatishda namoyon bo'ladi. Ta'limning ilg'or metodlari orqali o'zlashtirishda erishiladigan natijalar va o'rganish samarasi oshib boradi hamda bu metodlar kasb-hunar kollejlari maxsus fanlardan amaliy ko'nikmalarni o'rgatishda va ishlab chiqarish ta'limida juda yaxshi natija beradi.

3-bob. KASB-HUNAR TA'LIMI JARAYONINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

3.1. Kasb-hunar ta'limini tashkil etish turlari va shakllari

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda kasb-hunar ta'limini tashkil etish turlari va shakllari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Kasb-hunar kollejlarda ta'lim jarayoni quyidagi turlarda tashkil etiladi:

Ma'ruza – rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta'lim hamda tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma'lum bir maxsus soha bo'yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda ta'lim oluvchilarga etkaziladi. Shuningdek ta'lim beruvchi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari bilan tanishtiradi. Nazariy dars asosan maxsus jihozlangan o'quv xonalarida o'tkaziladi. Ma'ruza:

- umumlashtirilgan shakldagi ilmiy bilimlarga asos soladi,
- ma'ruzalar: informatsion, muammoli va aralash xillarga bo'linadi;

- ma'ruza ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari va amaliy mashg'ulotlarda ishlab chiqiladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlariga – aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali mashg'ulotlar.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari kasb-hunar ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv maydonchalarida va ish o'rnida joylashgan real vositalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari:

– bilimlarni chuqurlashtirib, kengaytiradi, aniqlashtiradi, mustahkamlaydi, nazariy bilimlar asosida amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi.

O'quv amaliyoti – o'quvchilar tanlagan kasbi bo'yicha amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu mashg'ulotlar o'quvchilardan ko'proq mustaqil faoliyat yuritishni talab qiladi.

O'quv amaliyoti – bu kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning mashg'ulotlarda topshiriqlar yoki mashqlarni bajarishlari hamda natijalarini tahlil qilish orqali ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlashdir. Asosiy e'tibor o'quvchining dastlabki shaxsiy mahoratlari va kompetensiyalarini namoyon qilishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. Ushbu turdagi shaxsga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etishga asosan o'quvchining mustaqil harakatlari va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini tanlash talab etildi.

Mustaqil ishlar – nazariy bilimlarni chuqurlashtirib, kengaytiradi va bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish uchun nazariy asos tayyorlaydi.

Kurs ishlari (loyihalari). Fanga oid topshiriq yoki loyihalarni o'quvchilarga bajartirish orqali ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar.

Maslahatlar. O'quvchilarga qo'shimcha mashg'ulotlar yoki maslahatlar tashkil qilish orqali ularda bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar.

Biz zamonaviy ta'lim talablarini to'la qondirish uchun quyidagi mashg'ulot turlarini tavsiya etamiz:

- integrallashtirilgan o'quv mashg'ulotlari (ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari birgalikda);
- muammoli ma'ruzalar;
- o'zaro hamkorlikda seminarlar
- «kollokvium» mashg'ulotlari
- to'garaklar
- loyiha ishi, uning natijaviy taqdimoti.

Har bir mashg'ulot turining qisqacha mazmuniga to'xtalamiz.

Integrallashtirilgan o'quv mashg'ulotlari – bu nazariy va amaliy mashg'ulot birgalikda muvofiqlashtirilgan shaklda o'tkazilishidir. Bunday mashg'ulotlar ikkala shaklga ajratilgan vaqtning umumiy miqdoriga rioya etilgan holda o'tkaziladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotning har biriga qat'iy vaqt o'rnatilmaydi. Bu mashg'ulot turi ancha samarali bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda qo'l keladi.

Muammoli ma'ruza – o'qitishning faol shakli bo'lib iqtisodiy jihatdan kam xarajatli mashg'ulot hisoblanadi. Ma'ruzada fan va sohaning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari, qoidalari, fundamental bilimlari haqida ma'lumotlar beriladi. Muammoli ma'ruza o'quvchining mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xamkorlikdagi seminar – bu ma'ruza mashg'ulotiga qo'shimcha bo'lib, o'quvchilarning yaxshi o'zlashtirishlariga turtki beradi. Ma'ruza paytida berilgan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish uchun kichik guruhlariga topshiriqlar berish va ularni bajartirishga qaratilgan mashg'ulot hisoblanadi. Seminarlar aniq bir mavzuni o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi mashg'ulotda maslahatchi yoki moderator rolini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ishlarni bajarishga yo'naltiradi. O'quvchilar berilgan topshiriqlarni referat, taqdimot yoki hisobot ko'rinishida tayyorlab himoya qilishadi va ularning ishlari baholanadi. Seminar mashg'ulotlar asosan amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan.

«Kollokvium» mashg'ulotlari. O'qitiladigan fanlarga oid ilmiy muammolar bo'yicha izlanishlar olib borish va ularni hal qilishga yo'naltirilgan «kollokvium» shaklidagi mashg'ulotlar ham o'tkazilishi o'quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, «kollokvium» mashg'ulotlari yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko'rish va mavzularini muhokama qilish uchun ham o'tkazilishi mumkin.

To'garaklar. O'quvchilarga darsdan tashqari vaqtda kasbiy ijodiy va maxsus topshiriqlarni bajartirish orqali ularda mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot turi.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (O'qituvchi va ta'lim oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan

hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasb-hunar ta'limining tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish davrida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan. Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlariga ega bo'lganligi bois hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. O'rta asrga kelib, ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan, chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr edi.

Hozirgi paytda kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanadi:

1. O'quvchisoniga ko'ra ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.
2. O'qitish joyiga ko'ra ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).
3. O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra 45 yoki 80 daqiqalik.

Kasb-hunar kollejlarda mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shakllarida olib borilsa, yanada samaraliroq bo'ladi.

1) Yakka tartibda ishlash

Bu ta'lim shakli o'quv jarayonini individuallashtirish va o'quvchilarni faollashtirishga ko'maklashadi. O'quvchilar ma'lum vaqt va o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha mos ravishda tinch ishlaydilar. Yakka tartibdagi ishni keng ko'lamdagi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo'naltirilgan individual ish bilan almashtirmaslik lozim.

Ushbu shakldagi o'quv mashg'ulotlarini ta'limda qo'llash imkoniyatlari quyidagi:

- natijalarni solishtirish (tanlovlar, musobaqalar) imkoniyati;
- o'zlashtirishni aniqlashda;
- axborotni mustaqil olish uchun,
- shug'ullanish va takrorlash uchun;
- o'quv yozuvlari va konspektlarni individual ishlab chiqish uchun.

2) Juftlikda ishlash:

Bu shakldagi o'quv mashg'uloti – o'qitishning 'dialogga ko'maklashuvchi' ijtimoiy shaklidir. U muvofiqlashtirish qobiliyatini o'rganishga yordam berishi hamda fikr almashish va o'zaro yordam tufayli qiziqtirishi hamda natijani yaxshilash mumkin. Juftlikda

ishlashni qisqa muddatli o'qitishda ham qo'llash mumkin. Juftlikda ishlashda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarga quyidagilar kiradi: bu kutilmaganda vaqtga bo'lgan ehtiyojning oshishi, o'quvchining bajarilgan ishga qo'shgan shaxsiy hissasiga nisbatan etarlicha baholanmaganligi yoki o'quvchilarning mavzuga bog'liq bo'lmagan ishlar bilan bandligi. Bunday muammolar yuzaga kelmasligi uchun o'qituvchi o'quvchilardan bajarilgan ish natijalari to'g'risida hisobot so'rashi, zarur hollarda o'zining fikrini bildirishi va natijani izohlashi lozim.

3) Kichik guruhlarda ishlash.

Eng samarali shakl bo'lganligi uchun biz batafsilroq to'xtalamiz. Bu o'qitish shaklida bir necha kishi (guruhning maqbul miqdori – 3-7 kishi) guruhning yagona maqsadini ko'zda tutgan holda masala va muammolarni mustaqil echadi, guruh taqdimotini ishlab chiqadi, o'zaro munosabatda bo'ladi;

Kichik guruhlarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalar.

Guruhlar har xil tamoyillar bo'yicha tuzilishi mumkin:

- ixtiyoriy;
- joylashuv tartibi asosida (bir-biri bilan yonma-yon o'tirganlar bir guruhni tashkil qiladi);
- hisoblash orqali (1-2-3-4, 1-2-3-4, bir xil sonlar bir xil guruhda);
- harflar yoki raqamlarni tortishni taklif qilish,
- belgilar tortishni taklif qilish;

Kichik guruhlarda ishlashning afzalliklari: -

– vaqtdan kam sarflanishi, guruh tarkibining har xil jinsliligi (qatnashuvchi o'g'il va qizlar), hech kim kamsitilmaydi.

- qiziqishi inobatga olinadi;
- o'quvchilar turli xil mavzular bo'yicha taqsimlanadi,
- mavzu haqida tushunchalar, belgilari va boshqalar bo'yicha o'quvchilar taqsimlanadi;
- barcha o'quvchilar bitta mavzu ustida ishlaydilar,
- yaxshi ishchi muhit natijaning yaxshilanishiga ko'maklashadi.

Kichik guruxlar uchun ishchi topshiriqni ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar

Ishchi topshiriqlar turli xilda quyidagicha ishlab chiqilishi mumkin:

– yopiq ishchi topshiriqlar: o'qituvchi o'quvchilar bajarilishi shart bo'lgan topshiriqni aniqlab beradi. Topshiriqlar doskada, yozuv qog'ozida, slaydda yozma ifodalanishi shart;

– ochiq ishchi topshiriqlar: topshiriq yo'llari, natijalari, usullarini ochiq qoldiriladi, biroq bajarilishi shart. O'quvchilarga tilga nisbatan tushunarli va mazmun jihatdan bir xil ifodalanishi kerak (masalan, «... ni o'lchash uchun apparatni ishlab chiqing»);

– erkin ishchi topshiriqlar: Hech qanaqa ishchi topshiriq mavjud emas, guruhda ishlashni davom ettirish to'g'risidagi kelishuv esa shart, masalan Loyiha doirasida (masalan, «Guruh... ni o'zlashtirish uchun javob beradi»).

Kichik guruhda topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar

– zarur hollarda yordam ko'rsatish;

– aniqlikka nisbatan ketma-ketlikka intilish: alohida guruh a'zolarining funktsiyasi aniqlangan bo'lsa, kichik guruhda o'zaro harakatlanish jarayoni uchun quyidagi foydali bo'lishi mumkin (rollar-rahbar; bayonnomani yurituvchi guruh kotibi; vaqt kuzatuvchisi; jarayonni kuzatuvchi va hokazo);

– alohida guruh a'zolarining umumiy natijaga qo'shayotgan hissasini doimiy kuzatib borish.

Kichik guruhlar ishini baholash bo'yicha ko'rsatmalar

– Natijalarni keng ko'lamda nazorat qilish va keyinchalik tahlil qilish;

– Guruhda ish natijalari yozma ravishda biriktirilgan va ko'paytirilgan bo'lishi mumkin (natijalarni ko'paytirish). To'g'ri, ko'pinchalik ularni izohsiz tushunish qiyin. Agar bir nechta guruh o'z ishini sharhlasa (izohlasa), unda bunga juda kam vaqt talab qilinadi. Bu erda natijalarni o'qib chiqish imkoniyatini berish maqsadga muvofiqdir. Hamkorlikdagi ish yoki kichik guruhdagi ishning borishda savollarni yozib olish va berilgan savollarni qisqa javob berishlari uchun mos ravishdagi guruhga tarqatish;

– Ishchi natijalar yoki mahsulotlarni taqdim qilish uchun navbatdagi usul – bu «Imkoniyatlar bozori». Alohida guruhlar quyidagilarni taqdim qiladi: devoriy gazetalar, modellar, video-fil'mlar, radiomontaj, kartinalar, saxna namoyishlari. Bu mahsulotdan bog'liq ravishda navbat bilan yoki bir vaqtning o'zida o'tishi mumkin. Guruh a'zolaridan biri mahsulotning taqdimotini o'z

mas'uliyatiga oladi. Qolgan barcha turli xil mahsulotlarni ko'rib chiqadi va savollar beradi.

Guruhdagi ish natijalari to'g'risida shuningdek, guruhlarining aralash tarkibidan ham bilib olish mumkin (yangi guruhlar tarkibida barcha eski guruhning bittadan a'zosi ishlaydi). Bu erda ko'pincha tezkorlik bilan almashishga erishish mumkin, biroq bunda ishtirokchilar turli xildagi axborotni oladilar. Ishlab chiqish jarayonining borishida barcha ishtirokchilar yangi kichik guruhlariga xisobot bera olishlari uchun belgilab borishlari kerak.

Kichik guruhlarda ishni tashkil etish o'tkazish metodikasi Mashg'ulotga kirish

- Maqsadni qo'yish
- Axborot yig'ish va rejalashtirish
- Guruhlarga ajratish
- Vazifalarni (rollarni) taqsimlash uchun stimul (rag'bat, qo'zg'atuvchi sabab)
- Topshiriqlarni taqsimlash
- Vaqtni aniqlash (belgilash)

Bu usul o'quvchilarda o'z-o'zini baholash kompetentsiyalarning rivojlanishiga ko'maklashadi va o'qituvchining baholashga muvozanatni ko'rsatadi.

1 Har bir guruh a'zosi guruhning umumiy natijasi uchun baho oladi. Bu usul shuningdek, hamkorlikdagi ish uchun mas'uliyat hissiyatini ham kuchaytirish mumkin.

2. Guruh o'zini o'zi baholaydi va uni o'qituvchi o'zining bahosi bilan solishtiradi hamda yakuniy natijani chiqarishda 50 % ga hisobga oladi. Bu usul o'quvchilarni baholash bilimdonligiga o'rgatish uchun qo'l keladi.

3 Guruhda ish yakunlangandan so'ng guruh ishi mazmuni yozma ravishda tekshiriladi va buning uchun har bir o'quvchi individual baho oladi.

4 Test topshiriqlari uchun alohida belgilardan olingan va guruhning umumiy natijasi bahosidan olingan o'rtacha qiymat yakunda har bir guruh a'zosi uchun alohida bahoni beradi.

Ikki usul ham aniq sharoitlarni yaratadi, biroq guruhdagi ish jarayonini e'tiborga olmaydi va guruhdagi hamkorlikka xalaqit qilishi mumkin.

Guruhiy ta'lim shakli. 25-30 o'quvchidan iborat guruhda ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarni hamda o'quv amaliyotlari o'tkaziladi.

Jamoaviy ta'lim shakli. Bu shaklda ma'ruza mashg'ulotlari 2 yoki 3 o'quvchilar guruhlaridan iborat (o'quvchilar soni 50-75 kishi) jamoada olib boradi.

Ommaviy ta'lim shakli. Bu shaklda ma'ruza ochiq darslar, ma'ruza konferentsiyalar 4 va undan ortiq o'quvchilar guruhidan iborat (o'quvchilar soni 75 kishidan ortiq) jamoada axborotni ommaviy uzatish metodikasiga asoslanadi.

Kasb-hunar ta'limining maqsad va vazifalari, ta'lim oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonumiyatlari va tamoyillarilarga ko'ra mashg'ulotlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalardan samarali foydalanish mashg'ulotni o'tkazish jarayonini;

2. Ta'lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, imkoniyatnini inobatga olgan holda o'qitish uchun shart-sharoit yaratish.

3. Fanlararo va mavzulararo o'zaro aloqadorlikka amal qilish.

4. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda ta'lim oluvchilarning ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayanish.

5. Ta'lim oluvchilarning yutuqlari va ijobiy jihatlarini rag'batlantirish.

6. O'quv axborotini mantiqiy ketma-ketlikda uzatish.

7. Axborot texnologiyalari, didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish.

8. Nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish.

9. Ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish.

10. Ta'lim oluvchilarda uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'z bilimi va kasbiy mahoratini oshira borish malakasini shakllantirish.

11. Mashg'ulotlarni o'quv maqsadiga erishini ta'minlaydigan qilib rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat etish va tashxislash.

Bundan tashqari, kasb ta'limi metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o'rgatish, hamkorlik qilish sanitariya-gigiena, etik va shu kabi talablar ham hisobga olinadi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Ta'lim jarayoni ishtirokchilariga tavsif bering.
2. Kasb-hunar ta'limida mashg'ulotlarga qo'yiladigan talablarning mazmuni va mohiyatini aniqlang.
3. Kichik guruxlarda ishlash metodikasini batafsil yoritib bering?
4. Kasb-hunar kollejlaridagi faoliyat ko'rsatayotgan to'garaklar haqida referat tayyorlang?



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

4. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni o'qitish va o'rgatishni qanday turlarda tashkil etish mumkin?
5. Integrallashtirilgan o'quv mashg'ulotlari qanday tartibda o'tkaziladi?
6. Shaxsga yo'naltirilgan qanday ta'lim shakllarini bilasiz, har birini izohlab bering.
7. Kasb ta'limida zamonaviy darslarga qanday didaktik talablar qo'yiladi?
8. Kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari qanday xususiyatlariga binoan turlanadi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzu kasb-hunar ta'limini tashkil etish turlari va shakllari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish vazifalariga qaratilgan.



Tayanch iboralar

Ta'lim shakllari, mashg'ulot turlari, integrallashtirilgan mashg'ulot, muammoli ma'ruza, loyiha ishi, mustaqil ishlar, o'quv amaliy ish, kollokvium, o'quv amaliyoti, ma'ruza, laboratoriya, seminar, ko'nikma, malaka, mustaqil ishlar, kurs ishlari, maslahatlar, individuallashtirilgan, ehtiyoj, tarbiya.

3.2. O'quv ustaxonalarning jihozlanishi

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda o'quv ustaxonalarning jihozlanishi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish

Kasb-hunar ta'limining moddiy-texnika bazasi yaxshi ta'minlangan va ulardan maqbul foydalanilgan holdagina, sifat jihatdan ko'zlanganday mutaxassis kadrlar tayyorlash imkoniyati tug'iladi. Shu bois o'quv muassasalarni o'zida ham, ishlab chiqarish korxonalarida ham yaxshi jihozlangan ustaxona, maydonlar tashkil qilinishi nazarda tutiladi. Ta'lim oluvchilar bu yerda ish o'rini oqilona tashkil etish malakalarini egallaydilar, shuni bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, moslamalar, mexanizmlar bilan tanishadilar, jarayonlarni bajarish tartibini, ishlab chiqarishi madaniyatini egallaydilar, o'quv vaqtidan oqilona foydalanish xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish va texnologik talablarga rioya qilishni o'rganadilar. Ta'lim muassasalarida o'quv ustaxonalarning mavjudligi ta'lim oluvchilarni frontal o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratadi, nazariy mashg'ulotlarni amaliyot bilan oqilona bog'lab o'rganilishiga imkon beradi, o'quv materiallarni fan dasturiga muvofiq izchillikda o'rganishni ta'minlaydi.

O'quv ustaxonalarni tashkil qilish, ularni jihozlash va rejasini tuzish ta'lim muassasasining turi, tayyorlanadigan mutaxassislik xarakteri va ishlab chiqarish xususiyatlarga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi maqsadlari foydalaniladigan o'quv ustaxonalari va yordamchi xizmat binolari puxta o'ylab joylashtirilishi hamda o'quv va texnologik talablarga to'liq javob berishi kerak. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarning tarkibi hamda maydoni sanoat, qurilish, transport, maishiy xizmat ko'rsatishning tegishli sohalarini loyihalashtirishning texnologik me'yoriga, shuningdek, qurilish qoidalariga javob berishi kerak.

Kasb-hunar kollejlarning yangi majmualarini, o'quv ustaxonalarni qurishda ta'lim muassasalarini loyihalashtiruvchi tashkilotlarning loyihalariga amal qilish lozim. O'quv ustaxonalarni birinchi qavatga joylashtirish, kelgusida uning kengaytirish mumkinligini

nazarda tutgan holda rejalashtiriladi. Ustaxonalarda bajariladigan ishlar natijasida shovqin chiqishini hisobga olib, ularni imkon boricha binoning alohida qanotiga yoki nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladigan binolardan uzoqroqda joylashtirish kerak.

O'quv ustaxonalarida ishlash uchun eng qulay sharoit yaratish quyidagicha bo'lishi zarur:

- havoning harorati qish paytida 15-16 °C dan past bo'lmasligi, yozda esa 20 °C dan oshmasligi kerak;

- ustaxona binosida havo almashinishi tabiiy yoki sun'iy ravishda amalga oshirilishi kerak.

Ustaxona poli iliq, yuzasi tozalash uchun qulay, sirpanmaydigan bo'lishi talab etiladi. Devorlar ochiq rangga, ship esa binoni yaxshiroq yoritilishi uchun oq rangga bo'yaladi.

O'quv ustaxonalari va maydonlari bilim yurtida tayyorlanadigan kasb va ixtisosliklarga ko'ra me'yorlanadi.

Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarining rejalashtirishda quyidagi umumiy talablarga amal qilinadi:

1. O'quv ustaxonalari mashg'ulotlarni amaliy ta'lim dasturiga muvofiq o'tkazishga moslashtirilgan bo'lishi kerak.

2. Har bir bo'lim maydoni va asbob-uskunalarini miqdoriga ko'ra hamda egallanadigan kasb, ixtisoslikka muvofiq 25-30 yoki 12-15 nafar o'quvchilar guruhini bir vaqtning o'zida o'qitishga mo'ljallanadi.

3. O'quv ustaxonalari guruhlarni frontal o'qitishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

4. O'quv ustaxonalarida tayyorlanadigan har bir kasb va ixtisoslikning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, alohida bo'limlar, shuningdek, asboblarni va materiallarni saqlanadigan omborxona, mexanika bo'limi va hokazolar tashkil etiladi.

5. Texnologik jarayon jihatidan bog'liq bo'lgan bo'limlarni bir-biriga yaqinroq joylashtirish zarur.

6. Silliqlaydigan, jilvirlaydigan va charxlaydigan dastgohlar odatda alohida binoga o'rnatiladi. Agar buning iloji bo'lmasa, bunday dastgohlar ustiga havoni so'rib oluvchi ventilatsiya o'rnatiladi.

7. Ish jarayonida ko'p miqdorda gaz, chang yoki kuchli shovqin chiqaradigan bo'limlar to'liq izolyatsiya qilinadi.

8. Ustaxonalar dasturning mazkur mavzusi o'rganilayotganda osib yoki o'matilib qo'yiladigan kerakli ko'rsatmali qurollar, jadvallar, o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati bilan ta'minlanadi.

9. Ustaxona devorining bir tomoniga guruh o'quvchilarga tegishli ko'rsatgichlar o'matiladi.

10. Ustaxonaning barchaga yaxshi ko'rinadigan joyiga birinchi yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan dori-darmon solingan aptechka va qaynatilib sovutilgan suvli bak qo'yiladi.

11. Ta'lim oluvchilarning ish o'midagi individual asbob-uskunalar komplekti va zarur jihozlar uchun maxsus moslamalar bo'lishi kerak.

12. Ustaxonada tozalash uchun ishlatiladigan materiallar, qirindi, qipiqni yig'ishga mo'ljallangan qopqoqli yashik, ularni yig'ishtirib olish uchun hokandoz, belkurak, ustaxonani tartibga keltirish uchun cho'tkalar bo'lishi kerak.

13. Ustaxonada yong'inga qarshi zaruriy inventar bo'lishi shart.

O'quv ustaxonalar o'quvchi ishlab chiqarish ta'limi dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo'ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan individual va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan asosiy va yordamchi o'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

O'quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. O'qituvchi o'z ish o'mida turib, o'quvchiguruhiga jamoaviy yo'l-yo'riq berish imkoniyatini.

2. Ta'lim oluvchilarning maqbul ishlari uchun eng qulay va xavfsiz sharoitni.

3. Ishlash, ta'mirlash vaqtida, shuningdek, materiallar tashishda har tomondan kelishning qulayligini faqat ishchi turadigan dastgoh orasidan o'tish joylarining kengligi 0,5-0,8 m, dastgohlar qatori orasidagi o'tish yo'lining kengligi eng kamida 1,2 m, aravacha, elektrtokar va boshqa transport vositalari o'tadigan joyning kengligi 2 m dan qilib belgilanadi. O'quv ustaxonasidagi barcha turdagi jihozlarning xavfli joylar to'r, kojuxlar bilan to'sib qo'yiladi.

Ish o'rni deganda o'quv ustaxonasi yoki sexning alohida ishchi ixtiyorida bo'lgan va u ishlab chiqarish topshirig'ini bajarishida kerak

bo'ladigan jihoz, moslama, asbob va materiallarning maqsadga muvofiq holda joylashtirilgan ma'lum qismi nazarda tutiladi.

Odatda ish o'rni quyidagilarni o'ziga qamrab oladi:

– ishchi foydalanadigan mehnat vositalari o'rnatilgan, normal ishlash uchun zarur bo'lgan maydon;

– ish bajariladigan jihozlar, mexanizm va moslamalar;

– material, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulotlar, chiqindilarni joylashtirish, saqlash uchun maxsus qurilmalar;

– asbob-uskunalar, moslamalar va texnikaga oid hujjatlarni joylashtirish va saqlash uchun maxsus qurilmalar;

– har bir ish o'rniga mo'ljallangan ko'tarma-transport vositalari;

– normal va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlovchi qurilmalar.

Shunday qilib ish o'rni amaliy mashg'ulotlar dasturini to'liq va sifatli bajarishiga sharoit yaratadigan qilib tashkil etilishi zarur. Mehnatni ilmiy tashkil etish asosida ish o'rni tashkil etish eng avvalo oqilona mehnat jarayonini, tahsil oluvchilar toliqishini kamaytirishni nazarda tutadi

O'quvchilar ish o'rnida qoidaga rioya qilishlari uchun quyidagi talablarga amal qilinadi:

– ishga kerakli bo'lgan barcha predmetlar zarur bo'lgan paytda darhol topish uchun qo'l ostida bo'lish kerak;

– ish jarayonida tez-tez ishlatiladigan asbob-uskunalar, materiallarni ishchiga yaqinroqqa, kamroq ishlatiladiganlari esa uzoqroqqa joylashtiriladi;

– foydalaniladigan barcha jihoz va materiallar taxminan bel balandligida joylashtiriladi;

– asbob va moslamalarni qaysi qo'l bilan olish qulay bo'lsa, o'sha tomonga joylashtiriladi;

– bir predmetni ikkinchisi yoki ishlov berilayotgan mahsulotning ustiga qo'yish mumkin emas;

– hujjatlar foydalanish uchun qulay, shu bilan birga iflos bo'lmaydigan joyda saqlanadi;

– yarim mahsulot, materiallar, tayyor mahsulotlar o'tish yo'llarini to'smaydigan hamda xalaqit bermaydigan, holatda saqlanishi zarur, yengil narsalarni og'irlaridan yuqoriroqqa qo'yiladi.

O'qituvchining ish o'mi mashg'ulotlarini samarali o'tkazish va ish vaqtining bekor ketishini kamaytirishni ta'minlashga yordam berishi kerak. U iloji boricha o'quvchilarni to'liq ko'ra oladigan, 25-30 smbalandlikda joylashtiriladi.

Fiziologik, psixologik nuqtayi nazardan olib qaraganda, kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni tahsil oluvchilarning o'sib-rivojlanayotgan organizmi uchun sezilarli yuklanish beradi. Shuning uchun ham o'quv rejimini yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan, tahsil oluvchi sog'ligiga zarar etkazmaydigan qilib tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarning ish rejimini belgilashda ish qobiliyatini quyidagi bosqichlari inobatga olinadi:

- 1-bosqichda tahsil oluvchi vazifani olib, ishga kirishadi, asta-sekinlik bilan mehnat unumdorlik oshib boradi;
- 2-bosqichda yuqori unumdorlikka erishiladi;
- 3-bosqichda ish unumdorligi pasayib, charchash holati vujudga keladi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Kollejda o'quv ishlab chiqraish ustaxonalarini joylashtirishning namunaviy rejasini ishlab chiqing.

2. O'quv ustaxonalari mashg'ulotlarini amaliy ta'lim dasturiga muvofiq o'tkazishga doir takliflar loyahasini ishlab chiqing va izohlab bering.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Kasb-hunar kollejlarida o'quv ustaxonalarini loyihalash va jihozlarga qanday asosiy talablarga amal qilinishi kerak?

2. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarining rejalashtirishda qanday umumiy talablarga amal qilinadi?

3. O'quv ustaxonasiga jihozlarni joylashtirishda nimalar nazarda tutiladi?

4. O'quvchiish b'mida qoidaga rioya qilishlari uchun qanday talablarga amal qiladilar?

5. Ta'lim oluvchilarning ish rejimini belgilashda ish qobiliyatining bosqichlariga izoh bering.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mavzuda o'quvchi ishlab chiqarish ta'limi dasturi talablarga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo'ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan individual va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan o'quv ustaxonalarini rejalashtirish bo'yicha nazariy ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Tayanch iboralar

Kasb-hunar ta'limi, ta'lim metodlari, jihozlar, moddiy-texnik bazasi, asbob-uskunalar, moslama, mexanizm, o'quv ustaxonalari.

3.3. Kasb-hunar ta'limida o'qitish jarayonini tashkil etish

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda kasb-hunar ta'limi jarayonini tashkil etish hamda o'qitish jarayonini tashkil etishda dastlabki tayyorgarlik bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

O'qitish jarayoni – pedagogning va u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil xarakterlari majmuidan iborat.

O'qitish o'quvchilar shaxsini shakllantirishning, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirishning, umumiy hamda maxsus bilim berishning eng muhim vositasidir. O'qitish jarayoni davomida o'quvchilarda yangi bilimlar shakllantiriladi, ularning mustaqil va erkin fikrlash xamda ijodiy ishlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

O'qitish ikki tomonlama jarayondir, u o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarni fanga qiziqishtirish, fikrlar va e'tiqodni tarkib toptirish hamda o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va o'quvchi baholashdan iborat.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materialini o'zlashtirish hamda o'zida fikrlar va e'tiqodni hosil qilish yuzasidan olib boriladigan sistemali mehnatdan iborat.

O'qitish mazmuni hamma vaqt tegishli o'quv fani dasturi bilan belgilanishini, o'quvchilarning o'qishini esa o'qituvchi yo'lga solib turishini nazarda tutadi. Muvaffaqiyatli ta'lim berishning asosiy sharti bu o'qitish va o'rganish orasidagi chambarchas uzviy bog'lanish deb hisoblamok kerak.


O'quv jarayonining to'g'ri qo'yilishi shu bilan xarakterlanadiki, har qaysi bosqichda o'quvchilar o'rganiladigan materialni tushunib oladilar, o'quv va malakalarini takomillashtiradilar, birorta yangi narsani idrok etadilar.

O'qitishning tashkiliy ko'rinishlari deganda, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi.

O'qitishning u yoki bu tashkiliy ko'rinishi guruhli va individual o'qitishning har xil ko'rinishida qo'shib olib borilishi, o'qitishda o'quvchimustaqilligining turli darajasi, o'quvchilarning o'qishiga o'qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan xarakterlanadi.

Kasb-hunar kollejlari xususan maxsus fanlarni o'rganishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir vaqtda o'tkazilsa yaxshi natija beradi. Bu hol mashg'ulotlarni rejalashtirishni osonlashtiradi, darslarda mustaqil ravishda grafik ishlar hamda hisoblashlar, mashqlar va shu kabilar o'tkazishni yengillashtiradi. Pedagogik adabiyotlarda darslarni har xil belgilari asosida klassifikatsiyalashning turli variantlari keltiriladi. Bunday alomatlardan biri o'rganiladigan materialning mazmunidir. Darslarni klassifikatsiyalashning boshqa bir alomati ularni o'tkazish metodlaridir. O'qitish metodlari deganda o'qituvchining ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyatida, darsni o'tkazish metodikasida ifodalangan tashkiliy va boshqa jixtlari majmui tushuniladi.

Kasb ta'limi muassasalarida o'qitish jarayonini quyidagi sxemaga muvofiq ketma-ketlikda tashkil etish va o'tkazish tavsiya etiladi.



O'qitish jarayonini tashkil etishda dastlabki tayyorgarlik. O'qituvchi o'qitish jarayonining ma'lum jihatlariga tayyorgarlik ko'rishi va moslashishi muhim ma'lumotlarni inobatga olishi orqali amalga oshadi.

O'quvchilar holatiga baho berish, ta'lim sharoitlari bilan tanishish, maxsus sohani yaxshi bilish – bularning hammasi nazariy va amaliy mashg'ulotga tegishli ilk shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlar sanaladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar shart-sharoitlarini quyidagi 3 ta tahlil orqali aniqlash mumkin:

- o'quvchilar tahlili (o'quvchilarga qaratilgan);
- shart-sharoit tahlili (o'qitish holatiga qaratilgan);
- kasbiy soha tahlili (o'quv materialiga qaratilgan).

O'quvchining o'qishga bo'lgan ehtiyoji o'qituvchi tomonidan qondirilishi lozim. Bu o'quvchining kelajak kasbiy faoliyati uchun kerakli bilim, ko'nikmalarni rivojlantirishga va xulqini yaxshilashga lozim bo'lgan ehtiyojdir. O'qituvchiga qo'yiladigan talab ham mashg'ulotlari davomida uning o'zi e'tiborni eng yaxshi natijalarga

erishishiga qaratilishi lozim. Uning mashg'ulotlari samarali, sifatli va har bir o'quv jarayoniga iloji boricha moslashtirilgan bo'lishi kerak. Ko'pchilik hollarda o'qituvchi mashg'ulotlarining sifati o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarni baholash bilan o'lchaydi. O'qituvchining samarali mashg'ulot o'tkazishi puxta tayyorgarlikni talab etadi.

Tahlil orqali o'qituvchi o'quvchilar guruhi to'g'risida muayyan ma'lumotlarga ega bo'ladi. Tahlil kamida birinchi mashg'ulotdan oldin ro'yxat shaklida yozma tayyorlanishi lozim. Agar o'qituvchi shundan so'ng guruh bilan tanishib olsa, u holda keyingi mashg'ulotlarda o'quvchilar tahlilini o'tkazmasa ham bo'ladi. O'qituvchi bu ma'lumotlardan o'quvchilar guruhi bilan shaxsan tanishish uchun foydalanadi. Chunki o'quvchilar dars amaliy mashg'ulotlar paytida ilk bilimlari va allaqachon mavjud bo'lgan tajribalarini qo'llaydilar, shu bilan birga o'z ishonchlarini ham ifoda etadilar. Ularning o'qishga bo'lgan qobiliyatlari, shaxsiy holatlari, jinsi va yoshlari ta'lim holatiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Har bir inson va har bir o'quvchilar guruhi turlicha bo'lgani kabi doimo yangi holatlar yuzaga keladi. Ular esa o'z navbatida o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilmog'i lozimdir.

O'quvchilar guruhidagi asosiy holat guruhdagi har bir o'quvchi-ning xulqiga ta'sir qiladi. Agar o'quvchilar tahlili o'tkazilmagan bo'lsa, u holda, ayniqsa, muammoli vaziyatlarda noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin.


O'quvchilar tahlili uchun quyidagi muhim ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:

1. Ta'lim yo'nalishi yoki kurs borasidagi ma'lumotlar.
2. Bir guruhdagi o'quvchilar soni.
3. O'quvchilarning o'rta yoshi (eng yosh-eng katta o'quvchi).
4. Jinsga ko'ra taqsimlash (o'g'il-qiz bolalar soni).
5. O'quvchilarning ta'lim darajasi (bitirgan maktabi).
6. Bungacha bitirgan maxsus sohasi yoki kurslari.
7. Til bilishlari (masalan, biror chet tili bo'yicha bilimlari).
8. Individual maxsus shart-sharoitlar (masalan, nogironlik).
9. Oilaviy sharoiti.
10. Qiziqishlari, bo'sh vaqtda o'zini tutishi.
11. Kelajakda kim bo'lmoqchi ekanligi.

12. Ba'zi o'quvchilarning alohida e'tiborga sazovor muvaffaqiyatlari.

13. Guruhdagi o'rin (etakchilik, «el qatori»).

Bu tahlil mashg'ulotlarni olib borish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni tashkil etish va yaratish borasidagi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar nazariy va amaliy mashg'ulotlar rejasiga qo'shib qo'yiladi.



Huquqiy shart-sharoitlar ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan o'quv rejasiga va boshqa rasmiy hujjatlari bilan bog'liqdir.

Ularga quyidagilar kiradi:

- kasbiy yo'nalish yoki ixtisoslik o'quv rejasiga;
- o'quv rejasiga mos fan dasturi;
- o'quv rejasiga mos ta'lim kursi;
- o'quv uslubiy majmua;
- bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari.

Bu orqali kutilgan va rasmiy reja hujjatlarida oldindan belgilab qo'yilgan mavzular o'rgatilishi ta'minlab berilishi kerak.

Mashg'ulotlarni tashkil etish borasidagi tashkiliy shart-sharoitlarga quyidagi zaruriy talablar qo'yiladi:

- o'qitish joyini tanlash;
- dars va amaliy mashg'ulotlar vaqti va davom etishi;
- amaliy namoyishlarga tayyorgarlik ko'rish;
- tashkiliy hujjatlar va ish joyini tayyorlash.

Texnik shart-sharoitlarga fan bo'yicha jildlar va moslamalar, yordamchi audiovizual vositalar, o'qitish va o'rganish vositalari (doska, flipchart, proyektor, videomagnitafon)ning mavjudligi va

ularning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokazolaming borligi bilan uzviy bog'liqdir. Amaliyot o'qituvchisi zaruriy shart-sharoitlar mavjudligiga va texnik moslamalarni istalgan paytda ishlatish mumkinligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Agar o'qituvchi o'quv faoliyatida ilk marotaba dars o'tkazishga tayyorlanayotgan bo'lsa, u holda, u o'zi dars bermoqchi bo'lgan kasbiy fanining umumiy qamrovi va mazmuniy tarkibiy qismining elementlari borasida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Ushbu tasavvursiz o'qituvchi na vaqtinchalik umumiy reja, na davriy va na mazmuniy batafsil reja tuza oladi.

Birinchi bosqich kasbiy soha maqsadlariga nazar tashlashdan boshlanadi. Maqsadlar asosida mazmunlar tanlanadi. Umuman olganda, mazmunlarni turli manbalardan olish mumkin, masalan:

- maxsus kitoblar yoki o'quv adabiyotlaridan;
- texnik adabiyotlardan (ilmiy texnikaviy jurnallar, maxsus maqolalar patentlar va hokazolardan);
- mashina va moslamalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalardan.

Biror kasbiy soha bo'yicha umumiy tasavvurga ega bo'lishning yaxshi metodlaridan biri bu tahlilni o'quv kitobi asosida grafik tasvirlar shaklida ishlab chiqishdir. Bu metod soha yoki mazmun tuzilmasi deb ham ataladi.

Mavjud bo'lgan va yaxshi qismlarga bo'lingan kitobning bo'limlariga asoslanish ham mumkin. Bunda avvalo aniqlik tamoyiliga rioya etiladi. Ko'pincha shunday bilim asoslari yuzaga keladiki, ularni bir-biridan aniq ajratgan holda tasvirlash mumkin bo'ladi. Maxsus kitoblarni bob va mavzularga bo'lish, o'quv qo'llanmalarda esa o'rganish bosqichlari va modullarga bo'lib mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish tavsiya etiladi.

Mazmuniy tuzilmasini ishlab chiqishda kasbiy soha mohiyatan qismlarga, katta mavzu va kichik mavzu sohalariga, shuningdek, mantiqiy aloqadorlik sohalariga bo'linadi. Muhim mavzular ta'kidlanadi, ikkinchi darajalilari esa quyiyoqdan joy oladi.

Darslar maxsus mantiqiy ketma-ketlik asosida olib borilishi mumkin.

Aksariyat hollarda kasbiy sohalar nazariy bilimlarni berish borasida dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullarning qat'iy

mantiqiy ketma-ketligi asosida ishlab chiqiladi. Masalan, maxsus o'quv kitobini qismlarga bo'lish mantiqqa asoslanadi. Unga ko'ra mavzular muayyan ketma-ketlikda joylashtiriladi.

Bilim bilan birga qobiliyat, ko'nikmalar va xulq ham o'rganiladi. Qobiliyat va ko'nikmalar – bu o'quvchilar muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlar va ta'sirlar hisoblanadi.

Ko'nikmalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

Qobiliyat va ko'nikmalarga kognitiv va psixomotorik o'rganish sohasida quyidagicha ta'rif beriladi.

Bu insonning o'z atrof-muhitiga faoliyat orqali munosabatda bo'lishidir, bunda – kuzatib bo'ladigan va bo'lmaydigan – ichki munosabat, shaxsiy tajriba va qadriyatlar, e'tiqod, hissiyot hamda moyillik muhim o'rin tutadi.

Amaliy ta'lim qismiga taalluqli kasbiy faoliyatni va mehnatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, chunki bunday ta'lim qismlari kasbiy-mantiqiy emas, balki harakatlarga yo'nalgan tarzda kechadi. Ko'pincha o'z sohasini a'lo darajada egallagan mutaxassislardan misol uchun biror ish tartibini tushuntirib berish so'ralsa, ular ko'pincha sergaklik bilan tushuntirishni boshlaydilar, ikkinchi darajali masalalarga to'xtalib, qisqa va lo'nda tushuntirib bera olmaydilar. Muhim bandlar ko'pincha ko'rsatilmay qolib ketadi. O'qituvchi bilimni o'quvchilar tomonidan o'rganilishi mumkin bo'lgan holatda berishi lozim. Unga ishonib topshirilgan mehnat predmeti odatlar doirasidan chiqarilib, o'quvchi ongiga kiritilishi kerak. So'ngra bilim shunday aniq tahlil qilib berilsinki, uni o'quvchi oz miqdordagi bosqichlarni o'tgan holda tizimli tarzda o'rganib olsin.

Amaliy mashg'ulot uchun mo'ljallangan ta'lim hujjatlari asosan harakatlarga yo'naltirilgan tarzda tuziladi. Ular misol uchun ma'lum bir maxsulotni tayyorlash jarayonidagi bajariladigan amallar va bosqichlarga asoslanadi. Amaliyot bosqichlari ham kasbiy tahlil asosida amalga oshiriladi. Bunda biror ish, biror jarayon yoki amaliy harakatlar ketma-ketligi asosida bajariladi, masalan:

- biror ish bajarishdagi bosqichlar ketma-ketligi;
- mahsulotni tayyorlash pog'onalari;

– rejalashtirish va tashkillashtirishdagi harakatlar.

Texnologik jihozlarni ishlatish ko'rsatmalari yoki ma'lum amaliy ko'nikma uchun ishning borishini, mehnat bosqichlarga bo'lish borasidagi namuna sifatida keltirish mumkin:



Amaliy mashg'ulot ish jarayoni to'g'risidagi texnik bilim asosida amalga oshiriladigan muayyan bosqichlariga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy soha tahlili quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

O'qituvchi o'quvchi uchun nafaqat mutaxassisligi bo'yicha barcha zarur bilim va tajribalarga, balki boshqa sohalar orqali ham chuqur tushunchalarga shuningdek o'qitish metodikasini yaxshi egallagan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu orqali uning o'quvchilar oldidagi obro'-e'tibori shakllanadi. Shuning uchun

o'qituvchidan doimiy o'z ustida ishlashi va «har sohadan xabardor» bo'lishi talab etiladi.

O'qitish faoliyatining amaliy qismini o'zlashtirib olishi uchun o'quvchilar amalga oshirishi kerak bo'lgan barcha mashqlarni o'zi ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Muammoli vaziyatlarni bilishi va bu borada maslahat bera olish uchun u vaqti-vaqti bilan ushbu amaliy mashqlarni qaytarib turishi lozim.

O'qituvchi nazariy bilimlar yuzasidan esa kasbiy soha bo'yicha yangi adabiyotlarga ega bo'lishi va ko'p o'qish uchun o'zida turtki, shuningdek, qiziqish his etishi kerak.

Buning uchun o'qituvchiga quyidagilar tavsiya etiladi:

- iloji boricha o'z sohasi yoki mavzusiga tegishli bo'lgan barcha kitob, nashrlar, jumallarni to'plab borish,
- kutubxonadagi kitobning muhim betlaridan nusxa olish;
- boshqa hamkasblari tajribalarni o'rganish;
- muayyan mavzuga tegishli qisqa tushuntirishlar bilan berilgan manbalar majmuasini to'plash.

Yetuk pedagog va mohir kasb ustasi bo'lish uchun quyidagi qoidani esdan chiqarmaslik kerak.

«Angishvonadek bilim bermoq uchun bir qop bilimga ega bo'lish kerak».



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'quv jarayonida ta'lim maqsadini aniqlab, mazmunini shakllantirish bo'yicha o'z takliflaringizni ishlab chiqing.
2. Muayyan mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun mo'ljallangan o'quv materiallarini ishlab chiqing.
3. Kasbiy soha tahlili sxemasini yoritib bering.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. O'qitish jarayoniga ta'rif bering.
2. O'qitish jarayonining ketma-ketlikda o'tkazish sxemasini tushuntiring.
3. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar shart-sharoitlarini qanday tahlil yo'llari orqali aniqlash mumkin?

4. O'quvchilar tahlili uchun qanaqa muhim ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi?

5. Shart-sharoitlar tahlili sxemasini tushuntiring.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mavzuda kasb-hunar ta'limi jarayonini tashkil etish hamda o'qitish jarayonini tashkil etishda dastlabki tayyorgarlik bo'yicha nazariy ma'lumotlar berilgan.

O'qitish jarayoni – pedagogning va u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil xarakterlari majmuidan iborat.

O'qitish o'quvchilar shaxsini shakllantirishning, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirishning, umumiy hamda maxsus bilim berishning eng muhim vositasidir.

Tayanch iboralar

O'qitish jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, baholash, faoliyat, ma'ruza, suhbat, ekskursiya, videotasvir, laboratoriya ishi, amaliy ish, aralash dars, muammoli vaziyat, o'quv reja.

3.4. Kasb-hunar ta'limida o'quv maqsadlarini belgilash

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda kasb-hunar ta'limida o'quv maqsadlari belgilash bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Kasb-hunar ta'limi muasasalarida o'qitish metodikasining boshlanishi – bu fanning o'quv maqsadlarini belgilashdir. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonlaridir. Bu jarayonlar avvaldan belgilangan muayyan o'rganish maqsadlariga erishish uchun olib boriladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni samrali tashkil qilish uchun oldindan mos keladigan o'quv maqsadlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi

1. O'quv maqsadlari. O'quv maqsadlari ta'lim jarayoni oxirida kutilayotgan natijaning yozma tavsifidan iborat. Ma'lumki, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi ishtirok etadi. O'quvchibu o'rganuvchi o'quvchi yoki tinglovchilardir. O'quv maqsadlari ta'lim jarayoni ishtirokchilari-ning qaysi biri tomonidan qaralishiga qarab, o'rganish va o'rgatish maqsadlariga ajratiladi. An'anaviy ta'limda odatda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalanadi. Bunda pedagog tomonidan maqsadning qo'yilishi uchun o'z faoliyatiga qaratilgan bo'lib, bu bilan ta'lim jarayonining aniq maqsadlariga erishganligini aniqlab bo'lmaydi. Chunki, ta'lim jarayoni natijasida, ta'lim oluvchi, ya'ni o'rganuvchining nimaga erishgani emas, balki ta'lim oluvchi ya'ni o'rganuvchining nimaga erishgani muhim bo'lgani uchun, kelgusida o'quv maqsadlari deganda o'rganish maqsadlarini tushunamiz.

O'quv maqsadlari – bu muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi.

Zamonaviy o'quv maqsadlarini belgilash usuli o'ziga xos xususiyatga ega. Bu shundan iboratki, o'quv maqsadlari (o'quv vazifalari deb ham ataladi) o'quvchilar harakatida ifodalanadigan va aniq ko'rinadigan hamda o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. O'quv maqsadlarini o'lchash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini ishlab chiqilishi kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'quv maqsadlari oldindan ko'zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Uni to'g'ri tanlash ta'lim jarayoni uchun o'ta muhimdir. Buni quyidagi ibora yordamida yaxshiroq tushunsa bo'ladi: «Qayerga borishni, oxirgi manzilini bilmasdan turib safarga o'tlanishdan hech qanday ma'no va naf yo'q».

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarning maqsadlari aniq bo'lgan taqdirdagina, ularning mazmunini belgilash va ularning didaktik nuqtayi nazardan ishlab chiqishga kirishish mumkin. Shu bois, mutaxassislik fanlari o'qituvchilari uchun o'quv maqsadlarini bilish, to'g'ri qo'ya olish va tanlash ko'nikmalariga ega bo'lish-ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

– affektiv (xulq, o'zini tutish, atrof-muhitga va tevarak atrofdagilarga munosabatning shakllanishi va qadriyatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq) o'quv maqsadlari sohasi.

Kognitiv o'quv maqsadlari sohasi. Kognitiv o'quv maqsadlari sohasi – o'quv materiallari, ma'lumotlar, axborotlar, turli dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullarni bilish (ya'ni xotirada saqlash va eslash) ularni miyada qayta ishlash orqali tushunish, amalda qo'llash, tahlil va sintez qilish, baholashni o'z ichiga oladi. U bilimlarni yodda saqlash, ya'ni xotirani chiniqtirish, intellektual aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Kognitiv o'quv maqsadlari Blum taksonomiyasi bo'yicha quyidagi darajalarga bo'linadi:

- **«Bilish»** darajasi kognitiv sohaning eng quyi bosqichi bo'lib, u tushunchalar, dalillar va tamoyillarni eslash demakdir. Bu bosqichda shaxs o'zlashtirgan bilimlarini xotirada saqlashi va eslashi, ularni nomlashi va aytib bera olishi kerak.

- **«Tushunish»** bosqichida o'zlashtirilgan bilimlar mohiyati oydinlashtiriladi va anglab yetiladi.

- **«Qo'llash»** bosqichida shaxsning o'zlashtirgan nazariy bilimlar turli shakllarda qo'llaniladi.

- **«Tahlil»** bosqichi shaxsga o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish imkonini beradi.

- **«Sintez»** bosqichi shaxsga o'zlashtirilgan bilimlarni o'zaro bir-biriga bog'lash va umumiy aloqadorliklarni aniqlash imkonini beradi.

- **«Baholash»** darajasi eng yuqori bosqich hisoblanadi. Bu bosqich olingan bilimlar asosida ma'lum qadriyatlarga taalluqli holatlarni baholash, qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va baholash mezonlarini yaratish ko'nikmalarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir daraja o'zidan oldingi darajadagi bilimlarni o'zlashtirishni taqozo qiladi.

Psixomotorik o'quv maqsadlari sohasi. Bu o'quv maqsadlari sohasi amaliy ish jarayonlari orqali hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarni egallashni ko'zda tutadi. Bunda psixika orqali boshqariladigan muskul harakatlari (motorik harakatlar) amalga oshadi. Amaliy faoliyat olib borish, misol uchun, biror asbobni ishlata olish malakasiga ega bo'lish psixomotorik o'quv maqsadlari sohasiga

taalluqlidir. Ushbu o'rganish sohasi inson miyasi tomonidan boshqariladigan harakatlarni ifodalaydi. Ular esa o'z navbatida motorik (muskul harakati bilan bog'liq) ko'nikmalarni talab etadi. Psixomotorik harakatlar oddiy, o'rta va kompleks harakatlarga ajratilishi mumkin.

Affektiv o'quv maqsadlari sohasi. Affektiv o'quv maqsadlari sohasi, shaxsning uni o'rab turgan atrof-muhitga nisbatan munosabati, boshqa kishilar bilan o'zaro muomalasi, xulqi, jamoat joylarida o'zini tutish kabi umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni egalashni nazarda tutadi. Uni aniqlashda maslak, manfaat, munosabat, qadriyat, intizom, dunyo-qarash, xavfsizlik (xususan, mehnat xavfsizligi) kabi emotsional holatlardan kelib chiqadi

	6. BAHOLASH	mezon va qadriyatlarga ko'ra o'zlashtirilgan xulqni va bilimlarni baholash.
	5. SINTEZ	dalillar, tushunchalar, uslublar va tamoyillarni umumiy aloqadorliklarini aniqlash orqali sintez qila olish.
	4. TAHLIL	dalillar, tushunchalar, uslublar va tamoyillarni tahlil qila olish.
	3. QO'LLASH	dalillar, tushunchalar, uslublar va tamoyillarni amalda qo'llashni bilish.
	2. TUSHUNISH	dalillar, tushunchalar, uslublar va tamoyillarni anglash va tushunish.
	1. BILISH	dalillar, tushunchalar, uslublar va tamoyillarni bilish

Shuni ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonining maqsadi har uchala o'quv maqsadlaridan iborat. Nazariy darsda ko'proq kognitiv soha, amaliy ta'limda esa ko'proq psixomotorik soha bo'yicha bilimlarni egallashga e'tibor qaratish lozim. Affektiv sohaga ko'pincha uncha e'tibor berilmasdan kelinar edi. Shaxs kamolotiga yangicha nazar bilan qaralayotgan, katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda bu soha yanada katta ahamiyat kasb etib bormoqda.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'quv maqsadlarning farqlarini aniqlab jadvalga tushiring va izohlarni keltiring.
2. Muayyan bir mavzuning aniq maqsadlarini aniqlang va tushuntiring.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Pedagogik taksonomiya bo'yicha o'quv maqsadlari qanday tartibda belgilanadi?
2. Yo'naltiruvchi maqsadlar qanday belgilanadi?
3. Aniq o'quv maqsadlari mohiyatiga ko'ra necha sohaga bo'linadi, qaysilar?
4. Kognitiv o'quv maqsadlari o'z ichiga nimalarni oladi?
5. Psixomotorik va affektiv o'quv maqsadlariga nimalar kiradi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda o'quv maqsadlari va mazmunlarini belgilash bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari va bu jarayonlar avvaldan belgilangan muayyan o'quv maqsadlariga erishish uchun olib boriladi. Agar o'quv maqsadlari belgilanmay o'tkazilsa, u holda darsning mazmuniy va didaktik tuzilishi buziladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni shakllantirish uchun oldindan mos keladigan o'quv maqsadlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.



Tayanch iboralar

O'quv maqsadlari, aniq maqsadlar, psixomotorik o'quv maqsadlari, yo'naltiruvchi maqsadlar, kognitiv o'quv maqsadlari, baholash, umumiy maqsadlar, affektiv o'quv maqsadlari, bilish.

3.5. O'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish


O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda o'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanishi tushuncha va bilimlarni shakllantirish

O'quv-didaktik materiallar (yoki o'quv vositalari) deganda, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi yoki ko'nikmani shakllantiruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. O'quv-didaktik materiallar sifatida nazariy darslarda matnli vizual vositalardan, misol uchun o'quv kitoblari, kartoteka va prospektlardan, amaliy mashg'ulotlarda kurs materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalardan foydalaniladi. Bunday o'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar, kompyuterlar, virtual stendlar, texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Predmet vositalari bundan farqli o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular elektron doska, proektor, kamera va kompyuterlar kiradi



Ish sohasiga tegishli asl narsalar, ya'ni mahsulotlar, jihozlar va asboblarni dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

O'quv maqsadlari jihatidan vizuallashtirish vositalarining funkuiyasi va turlari

Matnli-vizual vositalar



- maxsus adabiyot,
- o'quv-didaktik materiallar,
- o'quv dasturlari,
- sinov va nazorat varaqlari
- fotosuratlar va tasvirlar,

Tasvirlil-vizual vositalar



- eskiz, chizma va sxemalar,
- ramziy tasvirlar, reja-jadvallar,
- simvollar,
- diagramma va grafiklar

Texnologik jarayonlar bajarilish yoki mashinalar ishlash tartibi to'g'risida

Audio-vizual vositalar



- videofilmlar,
- fil'mlar,
- dia-tovushli mahsulotlar,
- kompakt disklar (CD, DVD)

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba material sifatida ishlatiladigan vositalar quyidagicha farqlanadi:

Ko'pincha o'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish, o'rganish uchun ishlatiladi.

O'quv materiallarni o'qituvchilar tomonidan darsni ko'rgazmali o'tkazish va bilim berish uchun qo'llaniladi.

Didaktik materiallar o'quvchilar tomonidan o'rganish uchun qo'llaniladi va o'qituvchi tomonidan tayyorlanadi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda o'qituvchi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar;
- doska tasvirlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

- baholash varaqasi, nazorat qog'ozi;

- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

Nazariy darslar o'tkazish paytida amaliy ko'rsatmalar berilgan quyidagi vositalar ishlatiladi: o'quv kitoblari, tarqatma materiallar, doska tasvirlari, slaydlar va modellar.

Amaliy mashg'ulotlar yoki amaliy ish jarayonlari paytida amaliy ko'rsatmalar bilan to'ldirilgan quyidagi vositalardan foydalaniladi: texnik, ekspluatatsion ko'rsatmalar, uslubiy ko'rsatmalar, modellar, jihozlar, asboblari va mahsulotlar.

O'quv-didaktik materiallarini tayyorlash uchun o'qituvchining vazifasi birinchi galda axborot resurs markazlarida maxsus sohaga tegishli materiallar borligini tekshirishi kerak. Agar o'quv va didaktik materiallar mavjud bo'lsa, u holda ularning fan o'quv maqsadlari va mazmunlariga mos kelish-kelmasligini tekshirishi kerak.

O'quv maqsadlariga moslashtirish paytida quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozim:

1. Manbalarda muayyan mutaxassislik sohasi uchun dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullar kabi mazmunlar berilganligiga.

2. Manbalar «o'zlashtirilishi shart bo'lgan bilimlar» va «o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan bilimlar» darajalaridagi mazmunlar mavjudligiga.

3. Materiallar bilim berishga qaratilganmi yoki ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallanganmi?

Ushbu mulohazalardan keyin o'qituvchi o'quv materiallarning nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar uchun mosligini belgilaydi.

Materiallar o'quv maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratishi lozimligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qitish va o'rganish materiallardan didaktik foydalanishga mos holda materiallarning mazmuni va tuzilishiga ko'ra o'qituvchi va ta'lim oluvchi materiallariga bo'linadi.

O'qituvchining qo'lidagi materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- o'quv maqsadlar va mazmunlar haqidagi ma'lumotlar;
- tashkiliy masalalarga oid ma'lumotlar;
- amaliy mashg'ulotlar va mashqlar o'tkazilishida qanday didaktik-uslubiy tartib qo'llanilishi haqida ma'lumotlar;
- mashqlar ta'rifi;
- o'quvchilarning nazariy va amaliy natijalarini tekshirish va baholash bo'yicha ma'lumotlar;
- test va sinovlarning savol va javoblari

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

O'quvchi uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar faqatgina o'quvchiga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallaridan farq qilishi mumkin.

Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi matn usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

O'quvchilarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- sodda tilda yozilgan o'quv mazmunlari;
- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (o'quvchilar tomonidan to'ldirilishi uchun);
- o'quvchining erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar;
- laboratoriyada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar;
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va o'quvchilar uchun);

- yashil qog'ozlar: o'quvchilarga topshiriqlar;
- qizil qog'ozlar: o'qituvchining uslubiy hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari.

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni yengillashtiradi va xuddi shu usuldan mazkur seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

O'qitish jarayonidagi eng muhim vositalar doskalar, elektron doskalar, flipchartlar va kodoskop (proyektor) hisoblanadi. O'qituvchi bu vositalar orqali ko'rgazmali tus beriladigan namunalar yaratishi kerak. Bo'r bilan yoziladigan doska uchun avval qog'ozda ishlangan va matnlar bilan to'ldirilgan suratlar, flipchartlar uchun esa qoida bo'yicha taqdimot namunalari bo'lishi mumkin.

Doska suratlari uchun namunalar asosan o'quv kitoblaridan olinishi yoki shaxsiy qarashlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi mumkin. Bunda ko'p vaqt sarf etmasdan oddiy shakllar orqali tuzilgan grafiklar, sxemalar, diagramma va shu kabilarni doskaga chizish mumkin. Matnlar uchun namunalar tayyorlash shart emas.

Shunga o'xshash tarzda flipchart suratlarini tayyorlash mumkin. Bu usul nazariy dars yoki amaliy mashg'ulotga tayyorlanishni yengillashtiradi.

Flipchart bloklarini birga olib yurish mumkinligi tufayli tasvirlar qog'ozlarga to'g'ridan-to'g'ri tushirilishi mumkin.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Mavzu tanlab ushbu mavzu bo'yicha tarqatma materiallar tayyorlang.
2. Tanlangan mavzu bo'yicha taqdimot materiallari tayyorlang.
3. Tanlangan mavzu bo'yicha elektron slaydlar tayyorlang.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. O'qitishning texnik vositalarni qanday guruhga bo'lish mumkin, izohlang?
2. O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda qanday texnikaviy-pedagogik talablar qo'yiladi?

3. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda o'qituvchi e'tiborini nimalarga qaratishi lozim?

4. O'quv maqsadlariga moslashtirish paytida qanaqa masalalarga e'tibor qaratish lozim?

5. Ta'lim jarayonida tasviriy ko'rsatmalardan qaysi hollarda foydalaniladi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mavzuda o'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimida o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo'lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo'la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omillaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o'qitishning texnikaviy vositalaridir.



Tayanch iboralar

Axborot manbai, o'quv materallari, texnik vositalar, ta'lim, tarbiya, jixozlar, obyekt, elektron ta'lim resurslari, didaktik materiallar.

3.6. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish

Kasb-hunar kollejlarida o'qitish jarayonini tashkil etishda nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar kalendar rejasini o'quv rejasi yoki o'quv materiali bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejasi faqatgina «yo'l ko'rsatuvchidir», uni o'qitish yoki o'rganish materiali sifatida tushunilmasligi darkor


Dars rejasi mashg'ulot jarayonini faqatgina boshqarib boradi shu uchun o'qitish va o'rganish materiallari o'rnini olmasligi kerak. Bunday reja o'quv maqsadlarini, modul yoki mavzuni o'qitish metodlarini va o'rganish materiallarini, shuningdek, qat'iy belgilangan vaqt chegarasini o'zida mujassam etadi.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish va rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim.

Olib borilgan dastlabki tajribalar shum ko'rsatdiki, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun keng qamrovli tayyorgarlik ko'rish shart emas. Bunday rejani tuzishda amaliyot o'qituvchisi o'zi o'zlashtirgan tajribalarga asoslanadi.

Maxsus fanlardan dars jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotni ushbu rejaga kiritish tavsiya etiladi.

Avvalo biz muhim bandleri bir nazar tashlaganda yaxshi o'qilishi uchun katta shrift bilan yoziladigan rejani tavsiya etamiz.



Biz hozir kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan «Tikuvchilik korxonalari jihozlari» fani bo'yicha tasvirlaydigan qismlarga bo'lish namunasi (1-jadval) mazmuniy jihatlar asosida tuzilsada, metodik jihatlar bilan ham to'ldirilishi mumkin.

Bosqich	Vaqt	Faoliyatlar va mazmunlar tasviri	O'qitish yoki o'rgatish usullari	O'quv va didaktik materiallar
«Pfaff» firmasining	2 s	Tikuv mashinasiga	Muayyan holatni	Tikuv mashinasining

moki bahyali tikuv ma- shinasiga iplarni taqish va tikuv jarayonini bajarish		ustki hamda ostki iplarni taqish va mashinada tikuv jarayonini bajarish	namoyish qilish va o'rganishni mashq qilish	kinematik sxemasi Tikuv mashinasi, ip va material, asboblari
---	--	---	---	--

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan amaliy mashg'ulot rejasining tuzilishini tasvirlaymiz.

1. Bosqich.

Bu ko'rsatkich mashg'ulot paytida yo'nalishni oson olish uchun zarur. Bosqich biror o'quv maqsadi belgilangan mavzuning boshi va yakuni bilan chegaradosh qismini o'zida mujassam qilishi lozim.

2. Vaqt.

Bu yerda bosqich davomiyligini baholash va uni rejada belgilash lozim.

3. Faoliyat.

Bunda bosqich bilan bog'liq faoliyatning turi belgilanishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

Nazariy dars uchun	Amaliy mashg'ulot uchun 4-pog'onali usul asosida
1. Moyillik	1. Moyillik va axborot
2. Axborot	2. Namoyish
3. Mavjud bilimlarni boshqa vaziyatlarda qo'llash	3. Imitatsiya (ko'rsatilgan tarzda takrorlash)
4. O'rganilgan mavzularni qayta ishlash uchun topshiriqlar	4. Mashq qilish
5. Tahlil qilish va sintez	
6. Baholash mezonlari	

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning 4 pog'onali usuli asosan o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan.

bo'lib, u 4 pog'onali doirasida kechadi. Bu pog'onalarga «Tushuntirish», «Namoyish etish», «Namoyish etilgan tarzda takrorlash» va «Mashq qilish» kiradi. Masalan, jadvalda keltirilgan amaliy mashg'ulotni o'tkazishda amaliyot o'qituvchisi tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tushuntirib beradi va mashinaga ustki va ostki iplarni taqib ko'rsatadi. So'ngra o'quvchi shu ishni ko'rsatilgan tarzda qaytarishi kerak. O'quvchi ishni bajarayotganda o'qituvchi uning xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

O'quvchilar faoliyatini ushbu sohada ko'rsatib borish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Tasvir.

Bunda katta va kichkina mavzular nomi kiritiladi. So'ngra muhim asosiy tushunchalar va yaxshi ishlab chiqilgan savollar kiritiladi. To'g'ri javoblar ham qo'shib qo'yiladi va alohida yoziladi.

5. O'quv va didaktik materiallar.

Bu ko'rsatkichga darsga mos keladigan va yordam berib, unga ko'rgazmali tus beradigan o'quv va didaktik materiallar kiritiladi.

Nazariy darslar	Amaliy mashg'ulotlar
Doska tasvirlari	Texnik chizmalar, sxemalar
Slaydlar	Nazorat ro'yxatlari va foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar
Matnli hujjatlar (matnli kitoblar dan nusxalar)	Ish rejalari
Javoblar varag'i kiritilgan yozma matnlar yoki topshiriqlar	Baholash varaqalari
Modellar, maketlar	Asboblar, yordamchi vositalar, mahsulotlar

Bir paytning o'zida o'quv va didaktik materiallarni ishlatib, biror mavzuni yontish uchun quyidagi muayyan usullar qo'llaniladi:

- ma'ruza, o'quv suhbat, munozara;
- taqdimot, namoyish, o'yin-mashg'ulot, muayyan holatni o'rganish,

– individual va guruh mashqlari.

Va nihoyat rejaning amalga oshirilgan bosqichlari asosida boshqa zarur hujjatlarni ham kiritish mumkin:

1. Titul qog'ozi:

- maxsus o'quv kitobning nomi;
- semestr;
- o'quv guruhlarining nomi;
- ta'lim olish muddati

2. O'quvchilar tahlili.

3. Darsni o'tkazish uchun dastlabki shart-sharoitlar tahlili.

4. Maxsus soha tahlili (maxsus soha bo'yicha grafik tasvir).

5. O'rganish maqsadlari jadvali

Rejani qayta tekshirish uchun ko'rsatmalar.

Bir marta tuzilgan reja quyidagicha qayta tekshirilishi lozim:

1. O'quv maqsadlarini o'ylab ko'rish. Ushbu darsning o'quv maqsadi kerakli ixtisoslikka mos kelishi tekshiriladi, ya'ni o'quvchilar qanday amaliy ko'nikmaga ega bo'ldilar yoki qanday ko'nikma va tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Darsning yakuniy natijasi qanday bo'lishi kerakligi o'rganiladi.

2. Guruhlar holatini o'ylab ko'rish.

O'quvchilar tanlagan kasbi to'g'risida nimani bilishlari, ularning maxsus soha bo'yicha qanday tushunchalarga ega ekanliklari, guruhning darsni o'zlashtirishi borasida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan qiyinchiliklar, guruhni kichikroq guruhlarga bo'linishi kerakmi yoki yo'qmi kabi masalalarni o'rganish kerak

3. Belgilangan vaqt to'g'risida o'ylab ko'rish.

Dars uchun qancha vaqt ajratish kerakligi (boshqa bunga tegishli faoliyatlarni ham inobatga olgan holda) kunning qaysi vaqtida dars o'tkazilishi lozimligi, qaydlar yoki vazifalarni tayyorlash uchun qancha vaqt zarurligi o'rganiladi.

4. Jihozlar to'g'risida o'ylab ko'rish.

Zaruriy asbob va moslamalar mavjudligi va ularning yaroqliligi, sinf xonasi barcha talablarga javob berishi, tashqaridan boshqa resurslar - biror shaxs, videofilm yoki boshqa yordamlar kerakmi yoki yo'qmi shu kabi muammolar o'rganiladi.

5. Maxsus soha bo'limlarini o'ylab ko'rish.

Maxsus soha tahlili maqsadga erishishda zarur bo'lgan barcha mazmunlarni qamrab olish uchun etarli mi? Darsni qismlarga bo'lish zarur mi?

Dars ichidagi tanlash yoki mazmunlar 1-chi pog'onada turishi lozim. Ularni biz o'quv maqsadlariga erishishdagi minimumlar deb ataymiz.

Agar tasarrufdagi vaqt kutilganidan ko'p bo'lsa, u holda 3-va 4-pog'onalaridagi mazmunlarni qo'shib qo'yish mumkin. O'qituvchisining ko'plab boshqa sohalaridagi bilimlarga ega bo'lishi uning mazkur holatni oson boshqarib borishiga yordam beradi.

Ba'zan darsni qismlarga bo'lish talab etiladi. Shunda quyidagi tuzilma vosita sifatida xizmat qilishi mumkin:

Pog'ona 1	Pog'ona 2	Pog'ona 3	Pog'ona 4
...bilishi	...o'zlashtirishi	...bilishga	...bilish uchun
shart...	mumkin...	yordam	qiziqarli...
...qila olishi	...qila olishi	beradi...	...qila olish
shart...	mumkin...	...qila olishga	uchun
		yordam	qiziqarli...
		beradi...	

Bundan asosiy maqsad «o'zlashtirilishi shart bo'lgan bilimlar»ni va «o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan bilimlar»ni berishdan iboratdir. Bu orqali barcha muhim mazmunlar, dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullar dars rejasida qanchalik darajada saqlanib qolgan - qolmaganligi nazorat qilinadi.

Bundan kelib chiqib, tarkibiy qismga tegishli maqsadlarga murojaat etish, topshiriqlar va testlar orqali nazorat qilish tavsiya etiladi. Bunga ko'ra biror dars oxirida topshiriqlar yozma ko'rsatilgan nazorat ishi olish va uning natijalarini baho varaqasiga qayd qilib borish kerak bo'ladi. O'quv maqsadlariga erishilmaganligi aniqlansa, u holda o'qituvchi boshqa choralarni ko'rishi, masalan: takrorlash darsini rejalashtirish lozim, shu bilan birga dars rejasiga yordam sifatida kiritiladigan qiziqtirish va o'rganish usullarni rivojlantirish mumkin.

6. O'quv va didaktik vositalarni rejalashtirilgan usullar hamohangligida nazorat qilish.

Rejalashtirilgan usullarga mos ravishda o'quv va didaktik vositalarning mavjudligi, topshiriqlar, shuningdek, namoyishlar va mashqlar nazorat qilinishi kerak. Ular etarli bo'lmasa, u holda ularni yanada rivojlantirish va ishlab chiqish lozim.

O'tkazilgan dars yoki amaliy mashg'ulotlardan so'ng shaxsiy natijalarni tahlil qilib ko'rish tavsiya etiladi. Buni biz dars jarayonlarining sifatini tahlil qilish, amalga oshirilgan rejaning ahamiyati va boshqa o'qituvchi tomonidan o'z hamkasblarining baholanishi, deb tushunamiz. Bu o'qituvchiga o'z natijalarini doimiy ravishda yaxshilab borishda ko'mak beradi. Ushbu tavsiyalarni va qoidalarni «Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari» fanini o'qitishda qo'llanilganda yaxshi samara beradi.

Nazariy dars quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi:

1. Qizitish va qiziqtirish(motivatsiya).

2. Ma'lumot berish.

3. Bilim berish.

4.O'rganilgan bilimlarni qayta ishlash bo'yicha topshiriqlar berish.

5. Tahlil va sintezlar.

6. Baholash.

Ushbu ketma-ketlik uchun vaqt odatda 45 yoki 80 daqiqani, tashkil etadi. Dars boshlanishidan avval darsga tayyorgarlik bosqichining natijalarini qisqacha tekshirib ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dastlabki tayyorgarlik	Tahlillar natijalari
Belgilangan vaqt:	Mazmunlarni o'quvchilarga etkazish uchun vaqt yetarlimi?
Xonalarga taalluqli sharoitlar:	Sinf xonasi bo'shmi? Stol va stullar yetarlimi?
Vositalar:	Doska, flipchart va proyektor ishlaydimi?

Hujjatlar:	Dars rejasi bormi? etarli tarqatma materiallar va topshiriq varaqlari mavjudmi?
------------	---

Qiziqtirish (motivatsiya)

Dars o'quvchilar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lmagan mavzular to'g'risidagi suhbat bilan boshlanadi. Iloji bo'lsa darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan, qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o'quvchilar-ning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda o'quvchilar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Agar dars birinchi bor yangi o'quvchilar guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, o'quvchilarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu o'quvchilarda ishonch tug'diradi, o'quvchilar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Ta'riflangan va tanlangan o'qitish fanlar yoki modullari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinzli(ichki) va ekstrinzli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga kasbiy soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin-mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

O'quvchilarga mavzularga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini yengillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni qo'yib chiqish uchun etarli daqiqalar berish va o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni yechish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

Mavzu tahlili orqali mavjud vaziyat elementlari alohida ko'rib chiqilishi mumkin. Shu o'rinda alohida xususiyatlar muhokama etilishi mumkin.

Mazkur xususiyatlarni bir butun qilib sintezlash to'g'ri tasavvur hosil qilish va aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Bu yerda gap bilimning aloqadorlik darajalarini aniqlash to'g'risida boradi. Amaliyotga yaqinlashish va o'zlashtirilgan bilimlarni kelajakda ishlatish uchun sintez orqali boshqa ilm-fan sohalari bilan bog'lash amalga oshiriladi.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin o'quvchilar o'zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. O'quv fani yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning natijalari, ularning amalga oshirgan va oshirmagan ishlari, shuningdek, o'qituvchilarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

Nazariy darslarni yuqoridagi ketma-ketlikda o'tkazishni «PFAFF» firmasining 45-909-0045-001-002 rusumli moki baxyali tikuv mashinasining tuzilishi va ishlash prinsipi» mavzusi misolida tahlil qilamiz.

1. Qiziqtirish (motivatsiya)

O'quvchilarni qiziqtirish maqsadida tikuvchilik mashinasozligiga qarashli kashfiyotlar va ixtirolar hamda fan va texnologiyaning oxirgi yutuqlari haqida, «Pfaff» firmasining tarixi va ushbu firmada hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan tikuv mashinalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Tikuv mashinasining sxematik ko'rinishini emas, balki mashinani o'zini ko'rsatib, uning ishchi organlari namoyish qilinadi. Mashinada ishlash qoidalari ko'rsatiladi. Bunda qo'shimcha tarzda mashina turlarini, rasm va

kinematik sxemalarini, undagi ishchi organlari harakatlarini tasvirlovchi sxemalarni flipchart yordamida vizuallashtirilishi ham mumkin. Shu tarzda tanlangan o'qitish predmetlari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya amalga oshiriladi. Bu usulga e'tiborni qaratish mavzuni o'rganishingizga tayyorgarlik uchun qulay vosita hisoblanadi. So'ngra ikkinchi bosqichga o'tiladi.

2. Ma'lumot berish

Bu bosqichda o'quvchilarga «PFAFF» firmasining 4545-909-0045-001-002 rusumli tikuv mashinasining mexanizmlari va ularning ishlash prinsiplari hamda sozlanishlari haqida chuqur ma'lumot beriladi. Tikuv mashinasida tikish jarayonini bajarish uchun gazlamaga muvofiq ignani va ipni tanlash, moki va boshqa ishchi organlarni o'rnatish va ustki, ostki iplar taqilishi to'g'risida bilimlar beriladi. O'qituvchi o'quvchilar uchun tarqatma materiallar tayyorlab, ularda bevosita mashinaning ishchi organlari, ignalar va iplarning tahlili yaqqol ko'rsatilgan bo'lishi kerak. So'ngra mavzu o'quvchilar muhokamasiga qo'yilishi mumkin.

3. O'zlashtirgan bilimlarni qayta ishlash uchun topshiriqlar berish

O'quvchilarga mavzuni to'liq berib, o'zlashtirib olgan mavzu ustida takrorlash ishlashlari uchun topshiriqlar berilishi zarurdir. Bunda ularga tikuv mashinasiga o'zlari iplarni taqishlari, ignani o'rnatish, mokini joylashtirish bo'yicha vazifalar tanlashlari mumkin. Bu ularda olgan bilimlarini passiv fazasidan, aktiv fazasi uchun imkoniyat yaratib beradi.

4. Tahlil va sintezlar

Har qaysi o'quvchi tikuv mashinasi to'g'risida olgan bilim va ma'lumotlarini qay tarzda qabul qilgan bo'lsa, shu tarzda tahlil qilinadi, chunki sintez orqali boshqa ilm-fan sohalar bilan bog'liqlik hosil qiladi.

5. Baholash

Har bir topshiriq vazifalar berilgandan keyin baholash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'zi uchun maxsus baholash varag'i tutib, passiv va aktiv berilgan fikrlarni baholab borishi shart, shundagina o'qituvchi xam, o'quvchi ham o'z maqsadiga erishdimi, yo'qmi ma'lum bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish

Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarga atroflicha tayyorgarlik ko'rish va o'tkazilishi lozim.

Ba'zi hollarda amaliy mashg'ulot nazariy darsga ulanib ketishi mumkin. Masalan: «Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunolari» fanidan tikuv mashinasi ishchi organlarning sozlanishlarini sxemalar orqali tushuntirish bilan bir qatorda tikuv mashinasining o'zida sozlanishlar bajarib ko'rsatiladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib, biz bevosita va bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar to'g'risida to'xtalamiz. Bevosita boshqariladigan amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniladi. Bularga sxemalar, prospektlar, videotasvirlar, jihozlarning maketlari va asl namunalari kiradi. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materialini o'quvchilar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar. Agar mashg'ulotlar savol va javoblarga asoslangan o'quv suhbatlari, muammoni muhokama qilish doirasida olib borilsa, yaxshi samara beradi.



Bilvosita olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar asosan o'quvchilarga yo'naltirilgan mashg'ulot bo'lib, unga tayyorlangan topshiriqlar vositasida matnli kitoblarni o'qish, mustaqil o'rganish orqali o'yin-mashg'ulot olib borish, biror vaziyatni o'rganish, o'quvchining o'zi mustaqil o'rganishiga turtki berish, bilimlarni o'zlashtirishga turtki berish kabilar kiradi. Masalan o'qituvchi tugma qadash yarim avtomatida mahsulotni ish zonasiga joylashtirish,

tugmani tutgichga o'rnatish va qadash jarayonini bajarib ko'rsatadi. So'ngra o'quvchilar bu jarayonni o'zlari mustaqil bajaradilar va bir necha marta takroran mashq qiladilar. Bu holda o'qituvchi kuzatuvchi yoki maslahatchi sifatida qatnashadi.

Jarayonga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga davra suhbatlari, guruh munozara olib borish, moderatsiya usullari kiradi.

Kasb-hunar kollejlari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun asosan o'quv ustaxonalaridan foydalaniladi.

O'quvchilar birinchi marta ustaxonalar, ish joylari va sharoitlar bilan tanishtiriladi va bir paytning o'zida to'g'ri va atrof-muhitga ta'sir etmaydigan faoliyat, mehnat xavfsizligi qoidalari, sog'liqni saqlash va energiyani tejash ishlatish haqida xabardor qilinadilar.

Mehnat xavfsizligi qoidalariga baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi holatlarning oldini olish borasidagi xatti-harakatlar kiradi. Bularga ish o'rni shaxsiy xavfsizlik, himoya vositalari va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish, yong'inni oldini olish choralarini, olov o'chiruvchi vositalar kiradi. Ko'p hollarda mehnat xavfsizligi qoidalari tushuntirish ishlari bilan bog'liq ravishda olib boriladi.

O'quv ustaxonalarida o'quvchilarga bajariladigan ish bosqichlari, asboblari va mashinalardan foydalanish, sifatini nazorat qilish usullari kabi turli amaliy ko'nikmalar o'rgatiladi.

O'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda 4 pog'onali usul yoki yo'naltiruvchi matn va loyiha usuli kabi zamonaviy usullarni qo'llashi tavsiya etiladi.

4 pog'onali metodga asoslangan faoliyat	Yo'naltiruvchi matn va loyiha metodlariga asoslangan faoliyat
1. Motivatsiya va axborot	1. Axborot
2. Namoyish	2. Rejalashtirish
3. Imitatsiya	3. Qaror qabul qilish
4. Mashq	4. Amalga oshirish
	5. Nazorat qilish
	6. Baholash

Tanlangan metod asosan amaliy qobiliyatlar va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan va nazariy bilimlarni mujassam etgan bo'ladi.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar rejası loyihasining variantlarini tushuntiring.
2. Kasb-hunar kollejlari da amaliy mashg'ulotlarni samarali o'tkazish tartibini ayting.
3. Bir paytning o'zida o'quv va didaktik materiallarni ishlatib, biror mavzuni yoritish uchun qanday metodlar qo'llaniladi?
4. Rejani qayta tekshirish uchun qanday ko'rsatmalarga rioya qilish lozim?
5. Nazariy dars qanday ketma-ketlikda o'tkaziladi, izohlang?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda kasb hunar kollejlari da nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Kasb-hunar kollejlari da nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berildi. Dars rejası dars jarayonini faqatgina boshqarib boradi va o'qitish va o'rganish materiallari o'rni ni olmasligi kerak. Bunday reja o'quv maqsadlarini, modul yoki mavzu, amaliy usullarni, o'qitish va o'rganish materiallarini, shuningdek, qat'iy belgilangan vaqt chegarasini o'zida mujassam etadi.



Tayanch iboralar

Dars rejası, aspekt, didaktik material, ta'lim metodlari, topshiriq, mashq, motivatsiya, kashfiyot, kinematik sxema, sintez, moderatsiya, qobiliyat, ko'nikma.

3.7. Kasb-hunar kollejlarida darslarni tahlil qilish metodlari

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda kasb-hunar kollejlarida darslarni tahlil qilish metodlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Kasb-hunar kollejlarida darslar zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan sharoitlarda o'tkazilishi lozim. Bu sharoitda nazariya amaliyot, ishlab chiqarish mehnati bilan uzviy bog'lanib, umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlarning o'zaro aloqadorligi ta'minlanadi hamda aqliy va jismoniy mehnat orasidagi farq imkon qadar yo'qotiladi. Bunday dars boshqacha tashkil etilganligi bois, bo'lajak kasb-hunar sohiblarini kamol topishiga qanday hissa qo'shganligini baholash kerak bo'ladi. Aynan manashu maqsadlarni ko'zda tutadi quyida taklif etilayotgan darsni kuzatish va tahlil qilish rejamiz. Bu darsni kuzatish va tahlil qilish rejasida quyidagilar ko'zda tutilgan: darsning yangi tuzilmasi va ta'lim metodlarini, umumta'lim, umumkasbiy, maxsus o'quv predmetlarining o'zaro bog'liqligini; kasbiy ta'limning o'ziga xos prinsiplari; kasbiy yo'nalganlik, predmetlararo aloqadorlik, politexnizm, uzviylik kabi prinsiplarni amalga oshirilishini; ta'limning maqbullashtirishg'oyasiga amal qilinganligi kabilar. Ushbu kuzatish rejasi zamonaviy darslarga qo'yilgan umumiy talablarni ham ishlab chiqishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar bunday rejalarini turlicha: «darslarni kuzatish va tahlil qilish sxemalari», «savolnoma», «dasturlar» sifatida o'rganadilar. Ularning barchasining maqsadi tahlil etilayotgan darslarning turli jihatlarini, komponentlarini, borish yo'nalishlariga qo'yilgan talablarni berishdan iborat:

1. O'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati.
2. Darsning bosqichma-bosqich tuzilishi.
3. Darsning mazmuni.
4. Aniq maqsadlarni amalga oshirilishi.
5. O'qitishning texnik vositalaridan foydalanish darajasi.
6. Tahsil oluvchilarning mustaqil ishlarini yo'lga qo'yilganligi

7. Tahsil oluvchilarni faollashtirish omillaridan foydalanilganligi kabilar.

Pedagogik amaliyotda nisbatan ko'proq darsni umumiy (majmuaviy) tahlil qilish rejasidan ko'proq foydalaniladi. Darslarni kuzatish va tahlil qilish rejasidan qaysi birini tanlash: darsga qanday maqsadni ko'zlab qatnashishga; kuzatuvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga; qatnashuvchi egallab turgan lavozimiga va kuzatishni tashkil etish shakli kabilarga bog'liq.

Darslarga ishtirok etish maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash va umumlashtirish;
- o'qitish sifati va samaradorligini nazorat qilish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish kabilar.

Shu o'rinda darsga jamoaviy yoki individual qatnashish shakli ham muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim. Darsga qatnashishdan oldin o'qituvchining taqvimiy-mavzular rejasi, dars rejasi va ishchi rejasi bilan tanishishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darsni borishi haqida ma'lumotlarni yozib borishi uni obyektli baholash uchun asos hisoblanadi. Tahlil qilingan darsdan so'ng o'qituvchining yutuq va kamchiliklari muhokama etiladi. Darsning natijasini muhokama etishda eng avvalo so'z dars bergan o'qituvchiga beriladi. U o'zining maqsadiga yetishganligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Shundan so'ng darsga qatnashganlar o'z fikrlarini iolji boricha dalillar keltirib bildiradilar. Afzallik va kamchiliklarini ko'rsatadilar, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ham tavsiya sifatida bildiradilar. Bu paytda ma'lum munozara ham bo'lishi mumkin. Har qanday darsni tahlil etishda, eng avvalo, o'quv materialining o'ziga xosligini tahsil oluvchilar va o'qituvchining xususiyatlarini hisobga olishni unutmaslik zarur. Muhokama oxirida darsning mazmundorligi, ko'zlangan maqsadga erishilganligi, mavjud yutuq va kamchiliklarini o'zida ifodalovchi qisqacha xulosa qilinadi. Undan so'ng tahlil etuvchilar tomonidan kuzatish va tahlil etish rejasi haqidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

*Kasb-hunar kollejlari*da nazariy mashg'ulotlarni tahlil etish rejasi.

1. Shahar (qishloq).
2. Kasb-hunar kolleji.

3. Kurs.
4. Guruh.
5. Ixtisosligi.
6. O'quv predmeti.
7. O'qituvchi.
8. Sana.
9. Kuzatuvchining F.I Sh. va egallab turgan lavozimi.
10. Mashg'ulot (dars) mavzusi va uning tartib raqami.
11. Dars turi.
12. Dars ko'rinishi.
13. Darsning tashkil etilishi.

1. Dars moddiy-texnik ta'minotining tayyorligi:

- yassi ko'rsatmali qo'llanmalar;
- hajmli ko'rsatmali qo'llanmalar;
- kino va diafilmlardan lavhalar;
- elektron ta'lim resurslari;
- ishlaydigan modellar, asboblari, maketlar, trinajyor (mashq qurilma)lar;
- tarqatma materiallarning mavjudligi;
- axborot-ma'lumot olish manbalari, sxemalar, jadvallar va boshqalar;
- o'qituvchi va tahsil oluvchilarning ish o'rinlarini jihozlanganligi.

2. O'qituvchining darsga tayyorlarligi:

- dars rejasi va matnining mavjudligi;
- dasturiy materialni bilishi;
- predmetlararo aloqadorlikdan foydalanishi;
- ishlab chiqarishning aniq sohasini o'ziga xos xususiyatlarini bilish;
- xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish;
- tahsil oluvchilarning individual o'ziga xoslik jihatlarini bilish;
- o'qitishning texnik vositalaridan foydalana olish malakasi.

3. Tahsil oluvchilarning tayyorgarligi:

- qatnashishi, tashqi ko'rinishi, daftar va boshqa o'quv predmetlarining mavjudligi;
- avval o'tilgan materiallar mazmunini bilishi;

– tahsil oluvchilarni ushbu darsdagi materialni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi (kayfiyati).

4. Darsni oqilona tashkil etilganligi:

– darsni o'z vaqtida aniq boshlanganligi, o'qitishning texnik vositalari, ko'rsatmali materiallardan oqilona foydalanishi;

– dars rejasining o'rganilayotgan material mazmuni, tuzilmasiga mos kelishi;

– darsning bosqichlari bo'yicha tempi (tezligi)ning oqilonaligi;

– o'qituvchi va tahsil oluvchilar faoliyati nisbatining oqilonaligi

5. Darsga o'qituvchining faoliyati:

– tahsil oluvchilar oldiga darsning vazifalarini to'g'ri va tushunarli qo'yilganligi;

– o'rganilayotgan materialning o'quv dasturiga nechog'lik to'g'ri kelishi;

– o'rganilayotgan materialni davlat ta'lim standartiga nechog'lik xizmat qilishini ta'minlanganligi;

– umumta'lim, umumkasbiy va maxsus bilimlardan tayangan holda foydalanib, yangi bilim va ish-harakat usullarini shakllantirishi;

– texnik-texnologik malakalarni shakllantirish;

– darsda o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish shakli (yoppasiga, guruh, individual);

– tahsil oluvchilarning izlanuvchan faoliyatini tashkil etish;

– tahsil oluvchilarning bilish faolligini shakllantirish;

– ta'lim prinsiplarini amalga joriy etishi (predmetlararo aloqadorlik, kasbiy yo'nalganlik, politexnizm, uzviylik, tushunarlik va shu kabilar);

– o'qitishda nisbatan ko'p qo'llangan metodlar; yangi o'rganilgan materialni mustahkamlash, bilim va malakalarni takomillashtirish bo'yicha mashqlarni bajarilishini tashkil etilishi;

– o'rganilayotgan mavzu, predmet va egallanayotgan ixtisoslikka tahsil oluvchilar qiziqishini uyg'otish metodlaridan foydalanishi;

– tahsil oluvchilar bilim va malakasini nazorat etib baholashi;

– o'tgan mashg'ulotlar bo'yicha tahsil oluvchilarning o'zlashtirmaganliklarini bartaraf etishni tashkil etilganligi;

– uyga berilgan vazifaga yo'llanma berilganligi

6. Darsda tahsil oluvchilarning o'quv faoliyati:

- dars vazifalariga ongli munosabati;
- mehnat operatsiyalarining to'g'ri bajarilishi;
- o'lchov-tekshiruv priborlaridan foydalana olish malakasi;
- o'z ish o'rni va mehnatini oqilona tashkil etilishi;
- texnik va texnologik talablarga amal qilishi;
- ma'lumotnoma va maxsus adabiyotlardan foydalanish malakasi;
- berilgan ishni aniq vaqt ichida bajara olishi;
- o'quv ishlarida yuqori natijalarga erishish uchun bo'lgan xohishi;
- material, energiya, vaqt kabilami iqtisod qilishga intilishi;
- o'z ish o'rni, jihozlar va asbob-uskunalariga ehtiyotkorlik munosabatlari;
- mehnat tashabbuskorligini ko'rsatishi

7. Darsni umumiy baholanishi:

- tahsil oluvchilar tomonidan yangi materialni o'zlashtirilishi (anglanganligi, mustahkamligi);
- umumkasbiy malakalami shakllanganlik darajasi;
- darsdan ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasi;
- umumiy xulosa.

8. Mashg'ulotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar va tavsiyalar

1. Dars o'tgan o'qituvchining imzosi.
2. Kuzatib tahlil etuvchi(lar)ning imzosi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish rejasi (metodikasi).

1. Shahar (qishloq).
2. №_ sonli kasb-hunar kolleji.
3. Kurs
4. Guruh
5. Mutaxassisligi
6. O'quv predmeti
7. O'qituvchi.
8. Sana.
9. Kuzatuvchining F.I.Sh. va lavozimi.

10. № dars mavzusi
11. Dars turi
12. Dars ko'rinishi
13. Darsni tashkil etilganligi:
 - o'qituvchi (usta)da dars rejasining mavjudligi;
 - ustaxonaning sanitariya-gigiyena holati;
 - darsni kerakli didaktik, maxsus va yordamchi jihozlar, asbob-uskunalar va shunga o'xshashlar bilan ta'minlanganligi;
 - o'quv rejalashtirish hujjatlarining mavjudligi;
 - dars vaqtini oqilona bo'linishi va undan foydalanish darajasi;
 - darsning boshlanishi.
14. Darsni didaktik tahlili:
 1. Dars maqsadlarining qo'yilishi: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.
 2. Didaktik prinsiplarini amalga joriy etilishi.
 3. Darsda ishlab chiqarish ta'limi tizimlaridan foydalanilishi.
 4. O'quv materiavli mazmunining maqbulligi.
 5. Dars tuzilmasi.
 6. O'qitishni individuallashtirish usullari.
 7. Darsda tahsil oluvchilarni ijodiy faolliklarini shakllantirish usullari.
 8. Darsda yangi malakalarni shakllantirish: (o'quv-bilish, konstruktiv-texnik, tashkiliy-texnologik, operatsion-nazariy).
 9. Darsda nazorat va tahsil oluvchilar o'z-o'zini nazorat qilishini tashkil etilganligi.
15. Metodik tahlil:
 - O'qitish metod va usullari (yo'l-yo'riq ko'rsatish).
 - O'qish metodlari (o'quv ishlab chiqarish faoliyati)
 - Darsda tahsil oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
 - Darsda tahsil oluvchilar mustaqilligini namoyon bo'lishi.
16. Psixologik tahlil:
 - Dars davomida tahsil oluvchilarning qiziqishini uyg'otishda turli usul, vosita, shart-sharoit kabilardan foydalanilganligi.
17. Darsning borishi.
- Kirish yo'riqnomasi:

– tayanch bilim, ko'nikma va malakalarning dolzarblashtirish hamda tizimlashtirilganligi;

– tahsil oluvchilarni o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishga psixolog tayyorgarligi;

– dars maqsadlarining qo'yilishi va o'quv material mazmunini tushuntirilishi, ko'zda tutilgan kasbiy malakalarni amaliy faoliyatda zarurligini ko'rsatilishi;

– ish o'rni, jihozlar, moslamalar, qurilmalar, texnik hujjatlar bilan tanishtirilishi;

– jihozlar, asbob-uskunalar, priborlar, moslamalar va shu kabilardan to'g'ri foydalanish va xavfsizlik qoidalariga amal qilishni tushuntirilishi;

– ish usullarining bajarilishini ko'rsatish;

– o'quv ishlab chiqarish ishlarining bajarilishi ketma-ketligini tushuntirilishi;

– ish davomida qo'yiladigan tipik holatlar mohiyatini tushuntirish;

– bajarilayotgan o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bosqichma-bosqich va ketma-ket nazorat qilib borilishini tushuntirish;

– tahsil oluvchilar bilimi va ular tomonidan xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishni tanlab nazorat qilinishi;

– kirish yo'l-yo'rig'ini tahsil oluvchilar tomonidan to'g'ri va to'liq o'zlashtirilganligini tanlab nazorat qilish;

– o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun sarflanadigan vaqt birligini ko'rsatib o'tilganligi;

– tahsil oluvchilarga o'quv ishlab chiqarish vazifalarini berilishi

Tahsil oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi.

– mashq;

– operatsiyalar;

– majmuaviy ish;

– laboratoriya-amaliy ish.

Maqsadli kuzatuv va nazorat:

– alohida tahsil oluvchi yoki guruh ishining boshlanishi;

– tahsil oluvchilar ish o'rni tashkil etilganligi;

– ma'lum bosqichda o'quv-ishlab chiqarish ishining bajarilish

sifati;

– tahsil oluvchilar tomonidan asbob-uskunalar, moslamalar, ko'rsatmali-texnologik xaritalar kabilardan to'g'ri foydalanilayotganligi;

– tahsil oluvchilarni xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinishi;

– tipik xatolardan xabardor qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish

Joriy yo'l-yo'riq.

– tahsil oluvchilarga asosiy va yordamchi ish-harakat usullarini to'g'ri bajarish tartibini tushuntirish;

– darsda o'quv ishlab chiqarish ishlarining jadalligini aniqlash;

– sifat va samaradorlik ko'rsatgichlarini nazorat qilish hamda xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilmaslik holatlarini oldini olish;

– qiyin ish-harakat usullarini qo'shimcha ravishda ko'rsatish va mohiyatini tushuntirish

Yakuniy yo'l-yo'riq.

– o'quv guruhining o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish;

– guruh ishining iqtisodiy jihatdan tahlil etish;

– tahsil oluvchilar yo'l qo'ygan texnik xatolarni tahlil etish;

– darsga yakun yasash;

– uyga vazifa berish.

18. Dars bo'yicha umumiy xulosa

– darsning ijodiy tomonlari;

– kamchiliklari;

– tavsiyalar.

O'qituvchi (usta)ning imzosi

Kuzatuvchining imzosi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Muayyan bir darsni kuzatib tahlil qilib chiqing va xulosalaringizni daftarga yozing.

2. Darsni kuzatishdan maqsad nima va darsni kuzatish kuzatuvchi uchun ahamiyatli tomonini aniqlang



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim jarayonida darslarga ishtirok etish maqsadlari qanday bo'lishi kerak?
2. Kasb-hunar kollejlarda nazariy mashg'ulotlarni tahlil etish rejasini tushuntiring.
3. Kasb-hunar kollejlarda darsning moddiy-texnik ta'minoti qanday bo'lishi kerak?
4. Kasb-hunar kolleji o'qituvchisining darsga tayyorgarligi qanday darajada bo'lishi zarur?
5. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish rejasini tushuntiring.



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda kasb-hunar kollejlarda darslarni tahlil qilish metodlari bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Bunday dars boshqacha tashkil etilganligi bois, bo'lajak kasb-hunar sohiblarini kamol topishiga qanday hissa qo'shganligi aniqlanadi. Darsni kuzatish va tahlil qilish rejasida quyidagilar ko'zda tutilgan: darsning yangi tuzilmasi va ta'lim metodlarini, umumta'lim, umumkasbiy, maxsus o'quv predmetlarining o'zaro bog'liqligini va h.k.



Tayanch iboralar

Umumta'lim, umumkasbiy, politexnizm, uzviylik, komponent, majmuaviy, diafilm, model, asbob, maket, trenajyor, standart, pribor, sanitariya-gigiyena, prinsip, individuallashtirish, konstruktiv, texnologik, operatsion, psixologik, operatsiya, xarita.

3.8. Kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllari

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Ishlab chiqarish ta'limi turli shakllarda joriy qilinadi. Bularga kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonasida ishlab chiqarish sayohati, amaliyoti va maslahatlar, ishlab chiqarish korxonalar ustaxonalarida amaliyotlar, ish o'rinlarida diplom oldi ishlab chiqarish amaliyoti va boshqalar kiradi.

Ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllarini ko'rib chiqamiz.

Ishlab chiqarish ta'limi – o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulot bo'lib, uning maqsadi ishlab chiqarish sharoitlarida unumli mehnat uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida bilimlarni yaxlitlashtirish va ularni o'quvchining amaliy faoliyati jarayonida har tomonlama qo'llash amalga oshadi. Bu ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining tuzilmasini, mazmuni va o'qitish usullarini, shuningdek, ularning davomiyligini aniqlab beradi.

Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari tuzilmasi boshlang'ich ko'rsatma, joriy ko'rsatma va yakuniy ko'rsatmalar kiradi.

Boshlang'ich ko'rsatma berish quyidagi vazifalarni yechadi: a) o'quvchilar oldida turgan ishlar mazmuni va uni bajarish mumkin bo'lgan vositalar bilan (asbob, moslama, jihoz va hokazo) tanishtirish; b) mehnatning yakuniy natijasiga (mahsulotga) bo'lgan talablar va texnik hujjatlar bilan tanishtirish; d) butun ishni va uning alohida qismlarini (usullar, operatsiyalar va h.k.) bajarish qoidalari va ketma-ketligini tushuntirish; e) mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, xatolar haqida o'quvchilarni ogohlantirish; f) zarur hollarda operatsiyalarning bajarilishi ustidan o'z-o'zini nazorat qilish usulini namoyish etish.

Joriy ko'rsatma berish o'quvchilar tomonidan amaliy ishlar bajarilayotganda o'tkaziladi. U odatda, yakka tartibda va guruh bo'yicha o'tkaziladi.

Joriy ko'rsatma berishda usta butun o'quv guruhi diqqatini o'rganilayotgan operatsiyani bajarishning eng samarali usullariga qaratadi, topshiriqni bajarishga sust tayyorlangan o'quvchilarga yordam beradi va hokazo. Usta faoliyatining yutug'i ko'pincha butun guruh va har bir o'quvchi ishi ustidan maqsadga yo'naltirilgan kuzatuvni tashkil etish mahorati bog'liq bo'ladi. Guruhni faollashtirishga musobaqa elementlari, o'yin vaziyatlarini kiritish, alohida operatsiyalar bajarilishini bosqichma-bosqich baholash bilan erishiladi.

Yakuniy ko'rsatma berish bir necha didaktik va tarbiyaviy maqsadlarga ega: guruhda jamoaviy va yakka tartibdagi mehnat natijalarini obyektiv baholash, ilg'or o'quvchilarni aniqlash va ularni rag'batlantirish, u yoki bu mehnat operatsiyalarini bajarishda umumiy va yakka tartibdagi xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlash va hokazo. Yakuniy ko'rsatmalarni to'g'ri berish o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ularda o'z mehnati natijasi uchun javobgarlik, jamoaviylik, bajarilgan ishdan qoniqish hosil qilish, mehnatga bo'lgan estetik munosabat hissiyotini uyg'otadi va uni shakllantirishga ko'maklashadi.

O'rganilayotgan materialning maqsadlari va mazmuniga bog'liq ravishda ishlab chiqarish darslarining quyidagi turlari mavjud:

- maqsadi o'quvchilarga o'rganilayotgan usul yoki operatsiyalarni bajarish uchun ishlab chiqarish-texnik bilim, boshlang'ich ko'nikma va mahorat berish bo'lgan mehnat usul va operatsiyalarini o'rganish bo'yicha darslar;

- maqsadi o'quvchilarni asta-sekin murakkablashib borayotgan o'quv ishlab chiqarishlari, mehnatni tashkil etish va texnologik jarayonni rejalashtirish, ko'nikma va mahoratlarni takomillashtirish va mustahkamlash, turli birikmalarda avval o'rganilgan operatsiyalarni bajarish bilan tanishtirish, kompleks ishlarni bajarish bo'yicha darslar.

Maxsus tajriba maydonlarda ishlab chiqarish darsi. O'quv sharoitlarida ko'pincha ko'nikma va mahoratlarni shakllantirish

uchun ishlab chiqarish haqiqiy vositalardan foydalanishning imkoni bo'lmaydi.

Maxsus tajriba maydonlariga turli xil avtotransport vositalari bilan jihozlangan maydonchalar, qurilish mashinalari va mexanizmlari bilan jihozlangan o'quv-qurilish maydonchalari, harakatlanuvchan katta yukli kranga ega bo'lgan ochiq maydonchalar, geologik va geodezik ishlar uchun o'quv maydonchalari va hokazolar kiradi.

Maxsus tajriba – o'quv maydonchalarida kasb-hunar kollejlari yo'nalishlariga qarab, masalan, qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji maydonchasida qishloq xo'jalik mashinalarini o'rganish va ular bilan ishlar, maishiy xizmat kasb-hunar kollejida tikuvchilik mashinalarini o'rganish va ular bilan ishlar amalga oshiriladi.

O'quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha mashg'ulotlar. O'quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilar o'quv va ishlab chiqarish faoliyati ko'lamini kengaytirishning muhim shartlaridan biridir.

O'quv ustaxonalarida ishlash o'quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi, chunki o'qitish sharoitlari ishlab chiqarish sharoitlarga yaqin va o'quvchilarga murakkab mahsulot ishlab chiqarish jarayonini o'zlashtirish imkonini beradi.

Tayanch ishlab chiqarish korxonalari ustaxonalarida mashg'ulotlar. O'quvchilarning korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilg'or ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlari tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

O'quvchilarni korxona ustaxonalarida o'qitish malakasi kichik mutaxassislarini tayyorlashdagi hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu yerda o'quvchilar ishlab chiqarish holati, yangi jihozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Korxonada ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilarning kompleks ishlarni bajarishda muhim ko'nikmalarni mustahkamlashlari va

takomillashtirishlariga, texnologik jarayonlarni rejalashtirish mahoratiga ega bo'lishlariga, turli mahsulotlarning assortimentlari bilan keng tanishib chiqishlariga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqarish amaliyoti. Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o'qitishning so'nggi oylarida o'tkaziladi. Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida yechiladigan vazifalarga quyidagilar kiradi: o'quvchilarning ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatdan moslashishi; kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratlarni takomillashtirish; tanlangan kasb bo'yicha ixtisoslashtirish; murakkab ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mustaqil ishlash tajribasini to'plash; progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini o'rganish; yuqori unumli asbob va moslamalarni, ishlab chiqarish ilg'orlari tajribasini o'zlashtirish; korxona texnik va texnologik hujjatlarni, ish o'rinlarida mehnatni ilmiy tashkil qilish masalalarini o'rganish; ko'nikma va mahoratni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, murakkab ishlab chiqarish vazifalarini yechishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o'rinlarida tashkil etiladi. Korxona odatda, amaliyotga rahbarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislarni ajratadi. Ta'lim olishning bu davrida o'quvchilar korxonada mustaqil ishlashga to'liq tayyorlanadilar.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Kasb-hunar kollejjida ishlab chiqarish ta'limi mashg'uloti-ning zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan dars rejasini tuzing.
2. Ishlab chiqarish amaliyoti va o'quv amaliyoti o'rtasidagi farqni izohlang.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim jarayonida ishlab chiqarish ta'limi qanday shakllarda joriy qilinadi?
2. Ishlab chiqarish ta'limini tushuntiring.

3. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari tuzilmasida qanday ko'rsatmalar beriladi?

4. O'rganilayotgan materialning maqsadlari va mazmunidan bog'liq ravishda ishlab chiqarish darslarining qanday turlarini bilasiz?

5. O'quvchilarning korxonada ishlab chiqarish ta'lim olishlaridan asosiy maqsad nimada va qanday bilim, ko'nikma hamda malakalarga ega bo'ladilar?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mavzuda kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllari bo'yicha nazariy ma'lumotlar berilgan. Ishlab chiqarish ta'limi shakllarini tatbiq etish imkoniyatlari to'g'risida bilimlarni shakllantirish ko'zda tutilgan.



Tayanch iboralar

Amaliyot, ishlab chiqarish ta'limi, boshlang'ich ko'rsatma, joriy ko'rsatma, yakuniy ko'rsatma, asbob, moslama, jihoz, usul, operatsiya, faoliyat, musobaqa, didaktik, estetik, jamoaviy, ko'nikma, mahorat, geologik, geodezik, kompleks, assortiment, ijtimoiy, psixologik, fiziologik, mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish.



3-bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Olimov va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Moliya - 2006.

2. Avliyoqulov N.X. Pedagogik texnologiyalar. T. 2009.

3. Mirsaidov K.D. Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. - T.: O'qituvchi, 1996. - 105 b.

4. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarim o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent., «Fan» - 2009. 172 b.

5. Olimov Q.T. Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari KHK uchun darslik. Toshkent., «G' G'ulom» - 2002.

6. Olimov Q.T., Uzoqova L.P. Kasbiy fanlarni o'qitishda qiziq-tirish (motivatsiya) usulini qo'llash // Kasbiy ta'lim muammolari:

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Samarqand, 2003. – 75 b.

7. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям. - М.: Ассоциация "Профессиональное образование", 1997. - 512 с.

8. Кушнер Ю.З. Воспитательная деятельность мастера производственного обучения. М.: Минск. 2001.

9. Trilling, B. & Fadel, C. (2009). 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times, San Francisco, CA, Jossey-Bass.

Elektron ta'lim resurslari

10. www.zivonet.uz

11. www.edu.uz

12. Infokom.uz. elektron jurnali: www.infocom.uz

13. www.nuu.uz

14. www.bimm.uz

3-bob bo'yicha xulosalar

Ushbu bobda kasb-hunar ta'hmini tashkil etish turlari va shakllari, o'quv ustaxonalarning jihozlanishi, kasb-hunar ta'limi jarayonini tashkil etish, kasb-hunar ta'limida o'quv maqsadlari va mazmunlarini belgilash, o'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish, kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish, kasb-hunar kollejlarda darslarni tahlil qilish metodlari, kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilgan. O'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilishi shu bilan xarakterlanadiki, har qaysi bosqichda o'quvchilar o'rganiladigan materialni tushunib oladilar, o'quv va malakalarini takomillashtiradilar, birorta yangi narsani idrok etadilar. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar asosida maxsus fanga oid ilmiy muammolar bo'yicha izlanishlar olib borish va ularni hal qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ham o'tkazilishi o'quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi.



1. Ta'lim oluvchilarni darslarga qatnashish intizomini yaxshilash va ularni fanlar bo'yicha uzluksiz tayyorgarligini tashkil etish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqing.

2. Kasb-hunar kollejlari o'quv-bilish faoliyatini samarali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha fikr-mulohazalaringizni ishlab chiqing.

3. Mashg'ulotda ko'rsatmali qo'llanmalardan haddan tashqari ko'p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi degan tushunchaga sizning munosabatingiz.

4. Tasavvur qiling, siz amaliyot o'qituvchisiz. Siz o'z kasbiy sohangiz uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalar o'zingiz yangiliklar qila olishingiz mumkinligi yuzasidan tushunchalaringizni referat shaklida rasmiylashtiring.

5. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda o'qituvchi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e'tiborini nimalarga qaratishi lozimligi to'g'risida fikrlaringiz.

6. Agar o'quv va didaktik materiallar mavjud bo'lsa, u holda ularning fan o'quv maqsadlari va mazmunlariga mos kelish-kelmasligini tahlil qilib chiqing.

4-bob. KASB-HUNAR KOLLEJI O'QITUVCHISINING INNOVATSION KASBIY FAOLIYATI

4.1. Innovatsiyalar tushunchasi, mohiyati va mazmuni

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda innovatsiyalar tushunchasi, mohiyati va mazmuni bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

«Innovatsiya»larni ishlab chiqish (lot. In-v, Novus-yangi) va qo'llanish to'g'risida ma'lumotlar birinchi marta XIX asming nashr etilgan ilmiy iqtisodiy adabiyotlarda berilgan XX asming 30-yillariga kelib iqtisodiy tadqiqotlarning maxsus sohasi sifatida innovatika shakllandi. Uning vujudga kelishiga g'arb davlatlari firmalarining turli xil yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llashga mummoli vaziyatlarni engib o'tish vositalarini izlash sabab bo'ldi.

O'tgan asming 70-yillariga kelib innovatsiya bilimlarning mustaqil, murakkab va keng tarmoqli sohasi bo'lib qoldi. So'ngra umumiy innovatika, pedagogika, psixologiyaning va boshqarish nazariya chegarasida «pedagogik innovatika» ajralib chiqdi.

Taxminan ana shu paytda bizning mamlakatimizda innovatsion tadqiqotlar ilmiy faoliyatning mustaqil yo'nalish bo'lib shakllandi. Biroq vatanimiz ilmiy-pedagogik hamjamiyatining jiddiy diqqat-e'tiborini pedagogik innovatika faqat XX asming 1995-2000 yillariga kelib o'ziga tortdi, bunda o'zgargan ta'lim paradigmasi va yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar sababi bo'lgan edi.

Vatanimiz pedagogika nazariyasi va amaliyotida innovatsion pedagogik faoliyatni tadqiq etishning turli xil yo'nalishlari qaror topdi. Shubhasizki, zamonaviy pedagogika ham yangiliklarni tadqiq etish masalalari bilan shug'ullangan, bunda olimlar u o'z diqqatini asosan fan yutuqlarini joriy qilishga va ilg'or pedagogik tajribani tarqatishga qaratgan. Tadqiqotlarda o'qituvchi obrazi u yangi g'oyalarni va ishlash usullarini qo'llagan holda berilib va natijah ishlashi uchun uni yangi bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlash

kerak bo'lgan inson sifatida gavdalanar edi. Aslida esa bunday bo'lmadi, yangiliklardan haqiqiy foydalanish uchun pedagogik tajribaning u yoki bu namunalari bilan oddiygina tanishib chiqish, mavjud yondashuvlarni tavsiflash va hatto ularni tahlil qilishning o'zi etarli emas.

Ma'lumki, pedagogik jarayonning o'ziga xosligi shundaki, u asosan «pedagog va Ta'lim oluvchilarda»ning shaxsiy sifatleri bilan muvofiqlashtiriladi. Pedagogik faoliyat oldindan ishlab chiqilgan va ideallashtirilgan loyiha asosida tashkil qilinadi.

Pedagogik faoliyatning tayyor stsenariysi pedagogga har kuni yangi amaliy masalalarni echishni xamda oldindan bilib bo'lmaydigan vaziyatlarni hal qilishni nazarda tutmaydi. Ma'lumki, yaxshi namunadan uning mohiyatini va aniq sharoitlarga moslashishini tushunmasdan turib oddiy nusxa ko'chirish, odatda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi va ba'zida eng ilg'or tajriba ham samarasiz bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayoni maqsadi didaktik masalani shunchaki va shunday anglab olishdagina hamda o'quv bilish faoliyatining u yoki bu turlarining imkoniyatlarini o'ylab ko'rishdagina emas balki yangiliklarni kiritib eng samarali innovatsion texnologiyalarni qo'llab o'quv jarayonini oldindan puxta loyihalashtirishdan iboratdir.

Pedagogning innovatsiyalardan samarali foydalanish asosan pedagogning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog'liq. Pedagogda shaxsiy tayyorgarligining etarli emasligi, yangiliklar haqida tasavvurlarining va shaxsiy imkoniyatlarining torligi o'quv muammosin anglab etilmasdan qolishda namoyon bo'lishi mumkin.

Keyingi 15-20 yilda pedagogika fanida ta'limning yangi paradigmasi doirasida juda ko'p yangi va zamonaviylashtirilgan pedagogik g'oyalar paydo bo'ldi. Bularga ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish g'oyasi; o'qitish va tarbiyani optimallashtirish va ixchamlashtirish g'oyasi; butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish g'oyasi; pedagogik muloqotning hamkorligi va noan'anaviylik g'oyasi; yaxlit va yagona pedagogik jarayon g'oyasi; rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi o'qitish g'oyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyasi va bitta umumiy strategiya – o'qitish va tarbiyalash jarayonida ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishini faollashtirish

strategiyasi bilan birlashtirilgan ko'pgina boshqa g'oyalar kiradi. Biroq pedagogika fanining ilg'or pedagogik g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqishdagi katta yutuqlariga qaramay ularning pedagog-amaliyotchilar tomonidan amalga tatbiq etilishi etarli darajada emas. Buning asosiy sababi oliy o'quv yurtida qaror topgan va ko'pchilik o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni reproduktiv o'zlashtirishga, o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishga mo'ljallangan keyingi amaliyot bilan mustahkamlangan tafakkur tarzi bo'lsa kerak.

Shuning uchun bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarni ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni kiritish, yangiliklarni yaratish, baholash va o'zlashtirish jarayonlarni boshqarish masalalariga tayyorlash dolzarb bo'lib qolmoqda.

Innovatsiyalarning mohiyatini tahlil qilish uchun «pedagogik innovatsiya», «novatsiya», «yangilik» kabi tushunchalarning ma'nosini ochish masalasi muhim ahamiyatiga ega. Shu bilan birga shuni ham ta'kidlash zarurki, bu atamalar fanda XIX asrning oxiridan boshlab foydalanib kelinayotganiga qaramay, ularning aniq bir izohi yo'q.

Pedagog olimlar innovatsiyani – bu jamiyatning qonuniy rivojlanishi ta'sirida o'zgarib turuvchi insonning ehtiyojlarini qonoatlantirish uchun yangi amaliy tajribani yaratish, tarqatish va foydalanishning kompleks jarayoni, shuningdek, ijtimoiy va moddiy muhitda shu yangilik bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar deb ta'kidlashadi. Mualliflarning fikriga ko'ra, predmetli mazmunga bog'liq holda texnik (unumli, texnologik va ijtimoiy iqtisodiy, tashkiliy, madaniy, ta'limiy) innovatsiyalar ajratiladi.

«Psixologiya» lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: «Innovatsiya» bu yangilik kiritish, ya'ni ijtimoiy amaliyotda muhim o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi turli xil yangiliklarni yaratish va jori qilishdir.

Ba'zi ilmiy ishlarda «Innovatsiya» bu ta'limning rivojlanishi uchun istikbolli buladigan va uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir kursatadigan tashabbuslar va yangiliklarning turli xilligi asosida yuzaga keluvchi dolzarb axamiyatga ega va tizimli tashkil etuvchi yangiliklar sifatida ifodalaniladi.

Aynim chet ellik mualliflar innovatsiyalarni insonning ma'naviy ijod jihatlarini (ilmiy va aqliy faoliyatning) deb ta'kidlashadi va innovatsiyalarni avvalgi ta'lim shakllaridan sifat jihatidan farq qiluvchi yangi fikrlar, xulq yoki buyum usullari kabi qarashadi.

Ilmiy tadqiqotlarda «Pedagogik innovatsiyalar» ko'pincha ta'limni yangilash, isloh qilish jarayoni sifatida, material (g'oya, g'arakat, shakl, vosita, kontsepsiya, dastur) sifatida, ilg'or o'qitish metodlarini aniqlash va zamonaviy sharoitlarda qo'llanish uchun eng ma'qul va eng moslashganni tanlab olish tariqasida ta'riflanadi.

Ba'zi tadqiqotchilar «Pedagogik innovatsiyalar» o'quv tarbiyaviy jarayoniga yangilikni kiritish va sifatini yaxshilash hamda o'zgartirish tarzida ham ishlab chiqiladi chiqiladi. Shuningdek ko'pchilik mualliflar tomonidan «yangiliklar» biror jihati bilan mutlaqo yangi bo'lishi kerakligi, zamonaviy va ilg'or bo'lishi kerakligi, ta'kidlanadi.

Shunday qilib, innovatsiyani ko'pchilik pedagog-tadqiqotchilar pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va o'quv jarayonida qo'llanish tarzida tushuniladi. Shu bilan birga, bu ta'rif pedagogik innovatsiyaning mohiyatini juda to'liq aks ettirmagandek taassurot qoldiradi. «Pedagogik innovatsiyaning» faqatgina jarayonli xususiyatini ko'rsatish etarli emas, balki doimiy ravishda uning natijadorligini ham nazarda tutish kerak. Ya'ni, yangiliklarni «yaratish, o'zlashtirish, qo'llanish» ijobiy (avvalgidan yaxshiroq) natija berishi kerak. Shuning uchun mazkur ta'rifni yana bir so'z bilan to'ldirish mumkin deb hisoblaymiz. Pedagogik innovatsiya-bu pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, qo'llanish jarayoni va natijasidir. Bu erda «yangilik» sifatida ham vosita, ham metod, ham metodika, ham texnologiya, ham dastur va h.k. lar ishtirok etishi mumkin.

«Pedagogik innovatsiya»ning ta'rifida doimo «yangilik», «yangi» va h.k. atamasi doim ishtirok etishini sezib olish qiyin emas. Ba'zi olimlar mazkur atamaga quyidagicha talqin beriladi: «Pedagogik innovatsiya-bu birinchi marta yaratilgan, yaqin o'tmishga yoki hozirgi vaqtga tegishli, etarlicha tanish bo'lmagan yoki kam tanilgan g'oya yoki loyixadir».

Agar birinchi ta'rif «birinchi bor yaratilgan» shu paytgacha mutlaqo noma'lum bo'lsa, u holda keyingi tavsiflar: «yaqinda» va

avniqsa, yangidan kashf etilgan», eskilikning yangicha ko'rinishi elementi, avval noma'lum bo'lgan biror narsa borligidan dalolat beradi. Yangilik – bu esdan chiqarilgan eskilikdir, deb bejiz aytmaydi.

Pedagogikada yangilik – bu taqdim etilgan ko'rinishda bunday birikishda hali ilgari surilmagan yoki hali foydalanilmagan faqat g'oyalar, yondashuvlar, metodlar, texnologiyalargina emas, balki ular o'zgaruvchan sharoitlarda va vaziyatlarda qo'llash masalalarini etarlicha samarali (juda bo'lmaganda avvalgidan ko'ra samaraliroq) hal qilishga imkon beruvchi ilg'or asosni ifodalovchi pedagogik taraqqiyot elementlari mazmuni yoki alohida elementlaridir.

Pedagogikada «yangilik»ning quyidagi tavsiflarmi taklif etiladi: boshqa narsada ma'lum bo'lganni takrorlash; ma'lum narsani uncha muhim bo'lmagan o'zgarishlar bilan takrorlash; avval ma'lum bo'lganni aniqlashtirish; avval ma'lum bo'lganni jiddiy yangi elementlar bilan to'ldirish; sifat jihatidan yangini yaratish.

Shunday qilib, pedagogik innovatsiyalar deganda biz vosita, metod, usul, texnologiya va xokazo emas, balki ularni yaratish, uzlashtirish va amalda qo'llash, baxolashni hamda boshkarishni tushunamiz.

Innovatsiyalarni qollanilishi bir jixatdan ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish zarurligidan iborat bo'gan pedagogik amaliyotning obyektiv extiyojlariga bogliq bo'lgan, ikkinchi jihatdan esa ularni qo'llanish samaradorligi pedagoglarning subyektiv sifatlariga, ularning pedagogik innovatsiyalarning obyektiv zarurligini anglaganlik darajasiga bolik. Shuning uchun bulajak kasb ta'limi o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini innovatsiyalar kontekstida karab chikishni zarur deb xisoblaymiz.

Ko'pchilik olim-pedagoglarni ishlari pedagogik innovatsiyalar quyidagicha guruxlanadi: Innovatsiyalar obyektiga bo'yicha ta'lim mazmunida innovatsiyalarga; o'qitish va tarbiyalashning texnologiyasida innovatsiyalarga; ta'lim muassasalarini boshqarish tizimida innovatsiyalarga; ta'lim muhitida innovatsiyalarga bo'linadi. Kelib chiqish xususiyatiga ko'ra esa tashqi va ichki innovatsiyalarga ajratiladi. Shu bilan birga tashqi innovatsiyalar yuqori tashkilotning buyrug'i yoki yo'riqnomasi bo'yicha qabul qilinadi va amalda joriy

qilinadi. Pedagogik tizimga ichki innovatsiyalarni joriy qilish amaliyotga nisbatan pedagogik refleksiyalar natijasida yuz beradi.

«Yangiliklarni kiritish»ni yaratish, o'zlashtirish, baholash, qo'llanish doim ijodiy faoliyat bilan birga qo'yilganligi uchun «innovatsiya» va «ijod» tushunchalarining nisbatini ko'rib chiqish zaruriyati mavjud.

Kasb ta'limi muassasasi o'qituvchisining pedagogik ijodiyoti xususiyati shundan iboratki, uning kasbiy pedagogik faoliyatining obyekti va bir vaqtda sub'ekti bo'lib ta'lim oluvchining shaxsi turadi. Ijodiy faoliyatning boshqa barcha turlari pedagogik ijodiyotga o'zining murakkabligi va mas'uliyati bo'yicha pedagogik faoliyat jarayonida mutaxassislikni shakllantirishda ta'lim oluvchi shaxsini «ijod» qilish va «yaratish»da yuz beradi.

Ijod avval mavjud bilimlarning naqd vaziyatlari chegarasidan tashqariga chiqish tarzida ta'riflanishiga asoslanib, ijod chuqur xossa tarzida shaxsiy mazmun bilan to'ldirilgan muammoni asl holida qo'yish bilan ifodalanadi.

Ijod – bu bilimlar yig'indisi emas, balki intellektning alohida yo'nalishi, shaxsning intellektual hayoti bilan faol faoliyatidagi uning kuchlarining namoyon bo'lishi orasidagi maxsus o'zaro aloqadir.

Pedagogik ijod – bu insonga o'zining ichki dunyosini, avvalo o'z aqlini anglab olishiga yordam berish, unga o'zining intellektual kuchlarini yig'ishga yordam berish, unga go'zallikni o'z mehnati, o'z kuchlari bilan tushunishga va yaratishga o'rgatishdir.

Inson faoliyatini algoritmlik va ijodiy tashkil etuvchiga shartli ravishda ajratgan holda shuni ta'kidlash joizki inson ijodiy izlanishga quyidagi sharoitlarda harakat qiladi:

A) masalani echish algoritmi mavjud bo'lmaganda,

B) echim algoritmi mavjud bo'lsa ham, lekin noma'lum bo'lganda (yoki umuman ma'lum emas, yoki mazkur shaxsga ma'lum emas);

V) algoritm ma'lum, lekin haddan ortiq murakkab emas va masalaning individual xususiyatlarini hisobga olish uni hal qilishning yo'lini jiddiy qisqartirishi mumkin.

Pedagogik mehnatning o'ziga xosligi foydalanilayotgan usullar va malakalarning ayrim doimiyliги mavjud bo'lsa-da, to'liq dasturlashtirishning mumkin emasligidan iboratdir. Doimiy ravishda

o'zgarib turadigan nostandart vaziyatlarda bunday standartlash-tirilgan metodlarning qo'llanilishi doimiy ravishda zamonaviylash-tirishni va tuzatish kiritishni talab etadi. Individual ijod harakatining manbai sifatida pedagogik faoliyatda qayd etilgan va ma'lum bo'lgan umumiy harakatlar bilan yuzaga kelayotgan amaliy masalalarni hal etish uchun yangi echimlarni topish zaruriyati o'rtasidagi yashirin va ochiq qarama-qarshilik hisoblanadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik rivojlanishni uning pedagogik masalalarni echishning to'rtta darajasini o'z-lashtirish jarayoni sifatida qaraladi:

I – pedagog avval hal qilingan muammoni mustaqil hal qiladi;

II – pedagogik vaziyatning maqsadini bilgan holda va uni tushunib harakat qilishning o'zlashtirilgan usullardan foydalanib muammoni hal qiladi;

III – pedagog faoliyatning maqsadini ko'radi, lekin unga pedagogik holat uncha ravshan emas, chunki u umumiy emas, bu daraja pedagogdan evristik faoliyatni, o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning faol shakl almashtirilishini talab etadi,

IV – yorqin ifodalangan tadqiqotchilik asosiga ega ijodiy daraja. Ijod psixologiyasida tafakkur tabiati to'g'risidagi tasavvurlarga ikkita nazariy yondashuv ajralib turadi. Birinchisi «moslashuvchan» variantiga ko'ra, ijodiy tafakkur xulq shakli sifatida o'rgatish natijasi bo'lib hisoblanadi va faqat ayrim kishilar ijodiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Ijodga o'rgatish uchun o'quv materialiga ijodiy tafakkur va evristik elementlarini kiritish zarur. Ikkinchi variant tafakkurni muammoli vaziyat natijasida vujudga keladigan unumli jarayon sifatida tushunish bilan bog'liq. Bunda asosiy ko'rsatkichlar tadqiqotchilik faolligi va bilishga oid qobiliyatlar hisoblanadi.

Aynan innovatsion faoliyatda insonning ijtimoiy ahamiyatga ega o'z faoliyati sohasida innovatsion masalalarni qo'yish va hal qilishda uning imkoniyatlari o'lchovini tavsiflovchi sintetik sifatni ifodalaydi.

Pedagogik ijod muammosi pedagogikani fan yoki san'at sifatida ta'riflash atrofidagi to'xtalayotgan baxslarda o'z aksini topadi. Ilmni va san'atni bir-biriga qarama-qarshi qo'yuvchi maktablardan biri intuitivizm bo'lib, unga muvofiq ijodiy jarayon ijodkorning individualligiga bog'liq bo'ladi va hech qanday qonunlarga

bo'ysinmaydi. O'qitish- bu san'atdir, har bir yaxshi o'qituvchida o'z usullari mavjud va bu bilan har bir yaxshi o'qituvchi har qanday boshqa yaxshi o'qituvchidan farq qiladi», degan so'zlarini keltirib, B.S.Gershunskiy bunday deb ta'kidlaydi. Avvalo etika va axloqiy nuqtai nazaridan namuna bo'lgan, o'zining innovatsion faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog yaxshi o'qituvchidir

Shunday qilib, ijodni dinamik jihatdan qarab chiqish jarayonli kategoriya sifatidagi «innovatsiya» tushunchasiga haqiqatan ham jinsdoshdir. Ammo shu bilan birga, ijod – natijasi yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish hisoblangan faoliyatdir, innovatsiya yangilikni faqat yaratishgina emas, balki yangilikni o'zlashtirish va qo'llash hamdir. Demak, bir tomondan, ijodiy faoliyat innovatsion faoliyatning komponenti sifatida ishtirok etadi, ikkinchi tomondan esa innovatsion faoliyatni amalga oshirish umuman olganda reproduktiv faoliyat asosida ham mumkindir (mazkur sharoitda allaqachon ishlab chiqilgan va aprobatatsiyadan o'tkazilgan yangilikni joriy qilishda, ya'ni butun innovatsiyaga emas, balki innovatsiya jarayoni bosqichlaridan biriga nisbatan innovatsion faoliyatni amalga oshirishda).

Pedagogik innovatsion jarayonning turli tadqiqotchilari uning davriy xususiyatiga eng jiddiy jihatiga ya'ni istagan innovatsiyaning tug'ilishi, rivojlanishi va «qarama-qarshisiga» aylanishiga e'tibor berishadi.

Yangi g'oya o'z ichiga o'zini amalga oshirishning sharoitlari va zarurligini, shuningdek ma'lum bir tizimni yangilash imkoniyatini qamrab olib, mazkur tizimning avvalgi ma'lum bir ma'noda eskirgan borlig'i bilan qarama-qarshilikka keladi. Shubhasiz, etilgan imkoniyat qanchalik uzoq vaqt amalga oshirilmasa, mavjud qarama-qarshilikning xususiyati shunchalik dolzarbroq bo'ladi. Yangilikning qarama-qarshiliklar majmui orqali rivojlantirish, innovatsiya maqsadlarini amalga oshirish, innovatsion jarayonning mantiqiy yakuniga-innovatsiyaning o'zgartirish tarzidagi mohiyatini inkor qilishga olib keladi.

Har qanday innovatsiyaning hayotiy tuzilmasi ko'proq miqdordagi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi innovatsion jarayonlarning vujudga kelishi, tez rivojlanishi, o'zlashtirilishi. ommalashtirilishi, natijaliligi, eskidan foydalanish (yangilikdan

etarlicha uzoq vaqt foydalanish va buning natijasida ko'pchilik inosonlar uchun u oddiy hodisa, me'yor bo'lib qoladi), krizis (imkoniyatlarni yangi sohalarida qo'llanishning tugallanganligi nazarda tutiladi) hamda yakuniy (yangilik shunday bo'lishdan to'xtaydi, boshqasiga yanada samaraliroq bo'lgan boshqasiga almashtiriladi yoki yanada umumiy samarali tizim tomonidan yutib yuboriladi) bosqichidir.

Ammo davriylik bilan bir paytda pedagogik innovatsiyalar qonuniy xususiyatga ham ega bo'ladi. Masalan, N.R.Yusufbekova ta'limda innovatsion jarayonning quyidagi qonuniyatlarini ajratadi:

1. Pedagogik innovatsion muhitning qaytmaydigan nobarqarorligi. Ya'ni, ta'lim tizimida har qanday innovatsion jarayon o'zining amalga oshirilishida o'zi amalga oshayotgan ijtimoiy-pedagogik muhitga qaytmaydigan destruktiv o'zgarishlarni muqarrar kiritadi. Bu xususan, biror pedagogik jarayonlar yoki hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buzila boshlashiga olib keladi; pedagogik yangilikning ijtimoiy-pedagogik muhitga bostirib kirishi pedagogik ongning, yangilik baholarining bo'linishiga olib keladi va pirovardida, u-to'g'risidagi uning ahamiyati va himmati to'g'risidagi fikrlarning qutblanishiga olib keladi. Keyinchalik yaxlit tasavvurni tiklash mumkin bo'lmay qoladi. Yangilikka qarshi turuvchilar har doim topiladi, ular uni psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy yoki tashkiliy-boshqaruv sabablariga ko'ra qabul qilishmaydi. Bundan tashkari, pedagogik yangilik qanchalik darajada ahamiyatliroq bo'lsa, nobarqarorlik shunchalik asosliroq bo'ladi.

2. Innovatsion jarayonni yakuniy bosqichini amalga oshirish. Mohiyati shundan iboratki, har qanday yangilik tabiiy va ongli ravishda amalga oshirilishi kerak.

3. Innovatsiyalarni stereotiplashtirish (andozalashtirish), ya'ni pedagogik jarayonda amalga oshiriladigan har qanday pedagogik innovatsiyalar tafakkur va amaliy harakatning andazasiga aylanish an'anasiga ega ekanini tasdiqlaydi. Pedagogik jarayonning stereotipga aylanishi, bu keyingi innovatsiyalarni amalga oshirish yo'lida to'siq bo'ladi.

4. Pedagogik innovatsiyalar davrining takrorlanuvchanligi, ya'ni yangi sharoitda ularning takroran vujudga kelishi, bu esa ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun

pedagogika nazariyasi va amaliyotida innovatsiyalar alohida qarshi ta'sirni vujudga keltiradi, chunki pedagogik hamjamiyat pedagogikada «mutlaq» yangilikni yaratish juda qiyinligi, ayniqsa ko'p asrlar davomida to'plangan tajribagi tayanmasdan yaratish qiyinligini esdan chiqaradi.

Shunday qilib, pedagogik innovatsiyalar – bu pedagogik yangiliklarni yaratish ularni pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi, amalda qo'llanilishi, baxolanishi hamda boshqarish jarayoni va natijasidir.

4.2. O'qitishning innovatsion metodlari

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda innovatsion ta'lim metodlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.



4.2.1. Mustaqil harakatga yo'naltirilgan o'qitish metodi

Jamiyatning barcha jabhalaridagi o'zgarishlar kasb-hunar kolleji o'quvchilarini tayyorlash jarayoniga ta'sir qiladi va yangi-yangi talablarni qo'yadi. Hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega, o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan kichik mutaxassislariga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, kasb-hunar kolleji o'quvchilaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o'rgatish orqali ta'minlanadi. Buning uchun kasb-hunar kolleji o'quvchilarida kasbiy kompetentsiyalar bilan bir qatorda ijtimoiy va shaxsiy kompetentsiyalari ham shakllantirilishi kerak. Shu sababli o'quvchilarda axborotni mustaqil izlash, topish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlash, topish va tahlil qilish hamda amalda qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularni muntazam o'rganish va bilim olishga o'rgatiladi. Bunday qobiliyatlar va kompetentsiyalarni shakllantirish hamda

rivojlantirish o'qitish jarayoniga boshqacha yondashuvni, ya'ni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Biz yangi texnologiyalardan biri bo'lgan «Harakatga yo'naltirilgan o'qitish va o'qish» haqida fikr yuritamiz.

«Harakatga yo'naltirilgan o'qitish va o'qish» tushunchasi haqidagi barcha baxs-munozaralarda quyidagi yagona g'oya ilgari suriladi. Bu kasb-hunar uchun muhim bo'lgan mehnat faoliyatlarga yo'naltirilgan o'quv jarayonini harakatli o'qitish asosida tashkil etish va o'tkazish orqali o'quvchilarda kasbiy kompetentsiyani shakllantirish va o'stirish g'oyasidir.

Harakatga yo'naltirilgan o'qitish:

- ishlab chiqarish vaziyatlarida o'quvchining mustaqil rejalashtirish, o'tkazish va baholash harakatlariga asoslangan kasbiy faoliyatni o'rganishga yo'naltirilgan;

- o'quvchilarning dastlabki tajribasiga mos keluvchi, faoliyatli va muammoli ta'limlarga asoslangan;

- barcha o'quv jarayonlari elementlarining psixologik qonuniyatlarga asoslangan ravishda tuzilishi (kognitiv-psixologik nazariyalar, harakatlarni rostdash nazariyalari, ikki turdagi nazariyalarning pragmatik bog'lanishiga asoslanish, masalan, abstrakt ya'ni xayoliy, mavhum, o'zida begona harakatni xayoliy tasavvur qilish);

- o'quvchilarni o'zlashtirish imkoniyatlari darajasida mustaqil harakat orqali o'qitish, bunda ta'lim oluvchilar o'zida begona harakatlarni xayoliy tasavvur qilish orqali emas, balki faol harakat orqali o'rganadilar (voqeani o'rganish orqali, loyiha orqali, tajriba orqali o'qish);

- muayyan kasbiy harakatlarga o'rgatish, natijalarini nazariy bilimlar orqali emas, balki sinov tarzida aniqlanadi (masalan, elektrik sxemaning ishlash qobiliyatini sinab ko'rish);

- o'quvchilarda egallagan bilimlaridan qobiliyatini o'stirish maqsadida o'quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish; (shaxsning o'sishi, umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishi);

- yangi bilimni shakllantirish va uzatishga yo'naltirilgan (xatoni qidirish ularni bartaraf etish);


- mustaqil ishbilarmonlikni belgilarini egallash kabi harakatga yo'naltirilgan o'qitish (masalan, korxona nuqtai nazaridan yoki mutaxassis kabi fikrlash va harakat qilish);

- kasbiy va shaxsiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar.

Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni harakatga yo'naltirilgan metodlar asosida o'qitish jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi roli o'zgaradi va yangi o'quv madaniyati yuzaga keladi. Bu yangi ta'lim paradigmasi butun umr davomida ta'lim olish g'oyasiga asoslanadi va o'qish faolligi, o'z-o'zini boshqarish, mustaqil o'rganish, o'qish hamda o'rganishga qayta yo'naltirish asoslarini o'zida aks ettiradi. Mustaqil tashkil etilgan ta'lim o'zida yangi o'quv madaniyatining asosiy modelini namoyon qiladi.

Bu metod an'anaviy metodlardan farqli ravishda o'quvchilarga o'z-o'zini namoyon qilishning juda yuqori darajasini belgilaydi.

Yangi o'quv shaklini faqat bilimlarni uzatish nazariyasidan va o'z-o'zini boshqarish ta'limiga o'tishni bildiradi.




Harakatga yo'naltirilgan o'qish hamda o'rganishni tashkil etish asosan mustaqil ta'lim jarayoni va o'quv harakatlariga tayanadi, uning belgilari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- faoliyatga yo'naltirilgan;
- o'z-o'zini boshqaradigan;
- faol harakat;
- kompetentsiyani rivojlantiruvchi;
- o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan xolda.

Ularni joriy qilish yangi o'quv madaniyatini va rolini tushunishdagi o'zgarishlarni ko'zda tutadi.

O'quvchi harakatining farqli belgilari. Harakat maqsadga yo'naltirilgan va ongli ravishda, ya'ni harakat natijalari fikran aniqlangan



Inson faoliyati ierarxik (shajaraviy) ketma-ketlikda joylashgan harakat elementlaridan tashkil topgan. Harakatni umumiy va xususiy maqsadlar amalga oshirishda harakatning «psixologik tuzilmasi» shakllanadi hamda u «muayyan harakatlarni» boshqaradi.

Harakatlar abstrakt fikrlash orqali amalga oshirilishi va ularning natijalari tekshirilishi mumkin (masalan, xayoliy tajriba). O'qituvchilar uchun rejalashtirish bo'yicha namunaviy dasturlardan ularning tartibli harakatga asoslangan tuzilmada amaliy qo'llanilishi haqida bilib oladilar.

Harakatga yo'naltirilgan o'qitishni amalga oshirish bo'yicha qadamlar

1 – qadam: Mazmun va hajmdan iborat ish maqsadlarini aniqlash; chegaraviy ruxsat etilgan ish vaqtini aniqlash.

2 – qadam: Ishning dastlabki tuzilmasi, bilimlardagi nuqsonlarni qoplash va axborotga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash.

3-qadam: Internet tarmog'idan foydalanishda izlanishga tayyorlanish, izlanish strategiyasi: axborot qidirish mashinalari, kataloglar.

4-qadam: Axborotni qidirish, baholash, maqbul bo'lgan axborotni aniqlash, axborotni qisqartirish.

5-qadam: Axborotni qayta ishlash, qattiq diskga, axborot tashuvchisiga hujjatlashtirish yoki bosmadan chiqarish.

6-qadam: Ish natijalarini nazorat qilish, umumlashtirish va baholash

Harakatlanish qo'llanmasi yordamida o'qish foydalanuvchiga bir qator **afzalliklarni** taklif qiladi:

- yakka tartibda o'qish imkoniyati;
- har tomonlama o'qish imkoniyati;
- shaxsiy mas'uliyat ostida mustaqil rostdanadigan o'qish imkoniyati;

- oldingi yutuqlarga muvofiq differentsiyalash (farqlash) imkoniyati;

- shaxsiy e'tibor hissiyotini oshirish va o'qishga qiziqtirishni kuchaytirish imkoniyati;

- hamkorlikda harakatlanishga tayyorlik imkoniyati va jamoada ishlay olish qobiliyati;

- muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

- o Ammo joriy hal qilishning bir qator **muammolari** ham mavjud:

- o'quvchilar axborotni mustaqil qidirib topish zaruriyatini tan olishlari kerak;

- yakka tartibda mustaqil harakatlanish qobiliyati va mos ravishda o'qituvchi bilan differentsiyalashgan holda rivojlanishi kerak;

- raqamli axborot tashuvchilari va internet tarmog'i bilan ishlash (shu jumladan maxsus fan bo'yicha mashg'ulotlarda ham) resurslarini, shuningdek, murakkab bo'lmagan maktabni tashkil etishni talab qiladi;

- komp'yuterlar va dasturiy ta'minotning nisbatan tez amortizatsiyasi uzluksiz moliya vositalarini yetkazib turishni talab qiladi;

- o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan keng masshtabda ilgarilab ketishga ehtiyojni sezadi, maxsus pedagogik va psixologik bilimdonlik texnik ma'lumot bilan to'ldiriladi;

- harakatlanishga qo'llanmani tayyorlash va ishlab chiqish o'qituvchidan vaqt sarflashni talab qiladi.

Maxsus fan bo'yicha mashg'ulotlarda bilimlarni mustaqil egallash uchun harakatga yo'naltirilgan qo'llanmani ishlab chiqish ma'lum darajada ahamiyatga ega bo'lib shu bilan birga kuzatadigan

ta'riflami o'z ichiga oladi. eskizlar (yoki maketlar) yordamida o'quvchilarni qog'oz bilan ishlash uchun qiziqtirish kerak.

Harakatga yo'naltirilgan yo'riqnomaning umumiy tuzilmasi

1. Kasbiy faoliyatlar uchun harakatga yo'naltirilgan qo'llanma
2. Harakatlarga yo'naltirilgan qo'llanmaning nomi «sarlavha» foydalaniladigan axborot tashuvchisi bilan aniqlanadi; Titul varag'ining kengaytirilgan mazmuni.
3. «Axborot manbai» dan axborotni mustaqil olish
4. «Axborot tashuvchisi yoki internet sahifasining aniq belgisi»dan foydalanib o'ylangan topshiriqni mustaqil echish.
5. Axborot yuboruvchilar doirasi kasb-hunar kolleji kasbi, bo'lajak mutaxassisligi.
6. Ta'lim sohasi: Namunaviy o'quv dasturi asosida ifodalash.
7. Foydalanish uchun tayanchlar: bilimlarning ma'lum darajasi sharoitida.

1 – qismning mazmuni.

- o'quvchilarga murojaat qilish;
- a. fan sohasi, mutaxassislik bo'yicha rejalashtirilgan bilimlarni egallashni tushunarli holda yaxlitlashtirish;
- b. o'quvchilarda xususan, tanlangan axborot manbalari yordamida maxsus axborotlarni mustaqil o'zlashtirishga qiziqish uyg'otish, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishda bilimdonlik va foydalanishni tavsiflash;
- c. axborot manbalari yordamida o'qishni boshqarish, yo'naltiradigan savollar orqali umumiy holda jarayonni tuzib chiqishi mumkin; algoritmi yaratish maqsadida qadamlarning oddiy ketma-ketligi; harakatlarni aniq tasvirlash; o'quvchilar uchun ko'rgazmali tasvirlarni yoki ekranda ko'rsatiladigan tasvirlarni nazorat qilish;
- d. oldingi yutuqlar bo'yicha differentsiyalashni ko'zda tutish (masalan, 1-qismni ixtiyoriy taklif qilish).

2- qismning mazmuni.

I O'ylangan muammoli vaziyatda raqamli axborot tashuvchilari yoki internet sahifalarini qo'llash;

II muammolarni tushunarli qilib tavsiflash,

III topshiriqni qidirishga ifodalash.

IV. natijalarni hisobga olish uchun axborot tashuvchilarini aniqlash;

V. nazorat shartlarini aniqlash,

VI. o'qitishning raqamli texnik vositalarini qo'llashning kelgusidagi imkoniyatlari nuqtai nazaridan yakuniy qiziqtirish

Bilim olishning butun jarayoni davomida o'qituvchi murabbiy sifatida ishtirok etadi: u – tashkilotchi, o'quv maslahatchisi, axborot yig'uvchi va kuzatuvchi. U vaqtinchalik chegaralarni aniqlaydi, ikkilangan vaqtida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi va ish natijalarini nazorat qiladi. Uning maxsus fan bo'yicha jony darsdagi harakatlanishga yo'naltirilgan qo'llanma mazmuni ma'lum darajada o'quvchilarni qiziqtiradi va ishdagi yutuqni aniqlab beradi.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Harakatga yo'naltirilgan o'qitish va o'qish tushunchasini izohlang. Maxsus fanlarni harakatga yo'naltirilgan o'qitish jarayonida o'quvchilar va o'qituvchining roli nimadan iborat bo'ladi?

2. Harakatga yo'naltirilgan o'qitish o'quvchilarning qanday kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim hisoblanadi?

3. Harakatga yo'naltirilgan o'qish hamda o'rganishni tashkil etish qanday o'quv harakatlarga tayanadi, uning belgilarini ayting.

4. O'quvchi harakatining farqli belgilarini tushuntiring. Harakatga yo'naltirilgan o'qitishni amalga oshirish bo'yicha qadamlarni izohlang.

5. Harakatga yo'naltirilgan yo'riqnomaning umumiy tuzilmasiga izoh bering.

4.2.2. Faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish metodi



Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim – bu o'quvchilarning faol ishtirokidagi o'qitish bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi muvofiqlashtirilgan harakat orqali o'quv jarayoni tashkil etiladi hamda boshqariladi. Faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish muammo va izlanishlar o'tkazish, ijodiy fikrlar va g'oyalar bilan boyitilgan quyidagi metodlarni qo'llash imkonini beradi:

– ish jarayonni tashkillashtirish uchun tayyorgarlik metodlari, bularga «guruhda ishlash» va «taqdimot» kiradi.

– g'oyani yig'ish uchun «aqliy hujum» uyushtiriladi, ya'ni vujudga kelgan har qanday fikr, g'oya o'rtaga tashlanadi, fikr rivojlantiriladi;

– har 3 kishidan 5 kishiga «nuqtali gap tuzilmalari» ahamiyati va joylashuviga qarab birin-ketinlikda tarqatiladi. Eng asosiysi bu metodda so'z va aytilgan fikr, g'oya erkinliklari saqlanadi, chegaralanmaydi. His-hayajonli va ijtimoiy guruhlar jarayonini yaxshilash uchun quyidagi qoidalar zarur:

– suhbat uyushtirish qoidasi;

– fikr almashishning doimiy vositasi bo'lib kelgan devoriy gazeta, e'lonlar doskasi (doimiy ishchi guruhi uchun), shuningdek, har bir ishtirokchi o'z fikrini talab qilinmaydigan holda erkin bayon qilishlari mumkin;

– bir vaqtning o'zida bayonnoma, ushbu bayonnomada devoriy gazeta singari (3 ta ustun mavjud bo'ladi): 1) vaqt ko'rsatkichi, 2) fikr va g'oyalar uchun ishchi ruknida ustuncha ko'rsatiladi va 3) ustunga ijtimoiy mavzudagi voqea-hodisalarni qayd qilib borish uchun;

– sheriklardan interv'yu olish metodi: doimiy turli qarashlar, fikr, nuqtai-nazar va g'oya kengligini hamda ularni ba'zida cho'chitib ham turish kerakligini ta'minlaydi.

O'qituvchi tomonidan o'quv mashg'ulotlarda foydalanilayotgan o'quv jihozlari oldindan tanlanib, saralanadi va didaktik tayyor holatga keltiriladi. Lekin maxsus axborotlar tizimini mustaqil tadqiq qilish qobiliyatini oshirish uchun va o'quvchi o'z fikrlarini baholashi, o'ylab ko'rishi hamda aniq axborotni tanlashi uchun – algoritmlar, ya'ni maxsus qoidalar majmuasini yaratish kerak bo'ladi.

Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, odatda, avval real vaziyat tarzida o'rgatish uchun 1-qadam, so'ngra undan umumiy qonuniyatlarni keltirib chiqarish yoki umumiy tamoyilni tushuntirib berish uchun (induktiv yondashuv) uchun (2-qadam) bo'lib hisoblanadi. Bunday ta'limda avval faoliyat turini bajarish ko'rsatib beriladi. So'ngra aniq topshiriqlar beriladi.

Faoliyatga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari quyidagicha tashkil etiladi



Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim stsenariylarini qo'llashga mujassamlashtirilgan bo'lib, ular rejalashtirish darajasida harakat tizimlari asosida tuzilgan va kompleks kasbiy harakatlarni aks ettirish vositasida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan.



Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim tuzilmasi

Faoliyatga yo'naltirilgan ta'limning asosini o'quv vaziyatlari tashkil qiladi.

O'quv vaziyatlari – bu ta'lim dasturining elementlari bo'lib, -unda o'qish va o'rganish jarayonining tashkil ettirishda o'quv maydonini aniqlashtiradi.

- ta'lim maqsadiga va kasbiy malakalarni egallashga yo'naltiriladi;

- faoliyatga yo'naltirilgan holda ifodalanadi;

- topshiriqni bajarishda vazifalarni har tomonlama va ishonchli qo'ya oladi;

- mutaxassislik bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi;

- o'zida mustahkam o'zaro bog'langan harakatlarni namoyish qiladi

O'quv vaziyatlari quyidagi bosqichlarda ishlab chiqiladi.

Umumiy didaktik rejalashtirish.

1. Tahlil.

• o'quv dasturi tahlili;

• mintaqaviy korxonalar va muassasalarda namunaviy hamda ishonchli harakat maydonlar tahlili;

• o'quvchilarning dastlabki bilimlar tahlili;

• o'quv fanlari va o'quv maydonlari orasidagi bog'liqlikni o'rnatish;

• o'ziga xos qabul qilingan shartlar, ya'ni o'qituvchilar soni va malakasi;

• binolar soni va jihozlanishi, amaliyot o'tkazish bo'yicha hamkorlar tahlili o'tkazildi.

2. Muvofiqlashtirish. Amqlashtirilgan didaktik rejalashtirish orqali amalga oshirildi.

3. G'oyalarni izlash.

• Harakatli kasbiy maydonlaridan izlash;

• kasbiy ta'lim ustalari va o'qituvchilarning tashabbusi;

• o'quvchilar tashabbusi;

• o'qituvchilarning «Aqliy hujumi» – assotsiogrammlar,

• boshqa kasb ta'limi muassasalarining kontsepsiyalari va nazariyalari o'quv adabiyotlari va boshqa manbalar.

4. O'quv vaziyatlarini tanlash va ishlab chiqish.

• Kasbiy muammolar → topshiriqni bajarish bo'yicha amalga oshirila-digan ishlar,

- boshlang'ich va maqsadli vaziyatlarni tavsiflash;
- shaxsiy kompetentsiyani namoyish qilish;
- kasbiy harakatlarning borishi (bosqichlari);
- o'quv mazmuni bo'yicha o'quv vaziyatlarini ishlab chiqish;

5. Umumiy shartlarni rejalashtirish.

• O'qituvchilar jamoasini tuzish (asosiy mavzuiy yo'nalishlar bo'yicha);

- o'qituvchi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- texnika vositalarini va kasbiy metodlarni aniqlash;
- natijalarini baholash mezonlari va vositalarni ishlab chiqish;
- maxsus fanlardan mashg'ulotlar o'tkazish uchun binolar, kabinetlar, laboratoriyalar va ustaxonalarni rejalashtirish

6. Mehnat hajminini aniqlash.

Assotsiogramma, kalendar reja, ko'rsatmalar, chizma yoki rasm, Web -sahifa, taqdimot, hujjatlar tuzish.

Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni faoliyatga va harakatga yo'naltirilgan o'qitishni integrallashtirilgan shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi.

Integrallashtirilgan o'quv mashg'ulotlari - bu nazariy va amaliy mashg'ulot birgalikda muvofiqlashtirilgan shaklda o'tkazilishidir. Bunday mashg'ulotlar ikkala shaklga ajratilgan vaqtning umumiy miqdoriga noya etilgan holda o'tkaziladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotning har biriga qat'iy vaqt o'rnatilmaydi.

O'quv vaziyatini rejalashtirishga quyidagi misollar keltirilgan.

Misol: O'quv predmeti bo'limi. Gen muhandisligiga asoslangan, o'zgarishlar bilan shartlanadigan yangi strategiyalarni ishlab chiqish.

Topshiriq: Kalanxoe o'simliklaridagi A-tuproq bakteriyalarini aniqlang!

Amalga oshiriladigan faoliyatlar bo'yicha o'quv dasturi

Harakat-lar	Kompetentsiyani rivojlantirish	O'quv soati	
Rejalash-tirish (12 o'quv soati)	O'simliklar organlarining morfologiyasi va fiziologiya-sini tahlil qiling:		Sinf xonasi -modellar Laboratoriya -mikroskopiya -bo'yash usullarini o'rganish Ekskursiya
	-ildiz	2	
	-shoxlari	2	
	-bargi	2	
	-gullari	2	
	-mevasi	2	
	Bilimlarni nazorat qilish	2	
Axborot yig'ish (8 o'quv soati)	Gen muhandisligiga asoslangan o'simlikshunoslik usullari haqida axborotlarni toping va muhokama qiling	2	Sinf xonasi
	-irsiyatni ko'chirish usullari:	2	
	-irsiyatchilik-Gen muhandis-ligiga asoslangan sinovlar seriyasi	2	
	Tuzatish-bilimlarni nazorat qilish	2	
Amalga oshirish (10 o'quv soati)	Kalanxoedagi bo'rtiqlarning qo'zg'alishini ko'rsatish		Mikrobiologik laboratoriya
	-A tuproq bakteriyalarini ko'paytirish	2	
	-O'simliklarni chatishtirish	2	
	-Mikroskopda kuzatish uchun laboratoriya	2	

	-bo'rtiqlarni ko'rib chiqish -natijalarni aniqlash	2	
Baholash	Taqdimotni ishlab chiqish	2	Informatika xonasi
Nazorat qilish (4 o'quv soati)	Natijalarini namoyish qilish va solishtirish Taqdimot Qo'llash uchun xulosalar chiqarish	4	Taqdimot qilish metodikasi



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar


1. Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim deganda nimani tushunasiz?
2. Fanlar bo'yicha faoliyatga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari qanday o'tkaziladi? Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim tuzilmasini tushuntiring.
3. His-hayajonli va ijtimoiy guruhlar jarayoni metodini yaxshilash uchun qanday qoidalar zarur?
4. Faoliyatga yo'naltirilgan ta'limning asosini o'quv vaziyatlari tashkil qiladi. O'quv vaziyatlari nima? O'quv vaziyatlari qanday ishlab chiqiladi?
5. Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni faoliyatga yo'naltirilgan o'qitishni qanday shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi?

4.2.3. Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga qiziqtirish metodi

Nazariy nuqtayi nazaridan qiziqtirish organizmining mos ravishdagi ichki va tashqi qo'zg'atuvchilari bilan birgalikdagi ehtiyoji holatidan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy signallar sifatida tashqi qo'zg'atuvchilar bo'lishi mumkin. Qiziqtirishning rivojlanishi psixologiyasida hodisalarni virtual va real haqiqatda qayta fikrlash etakchi o'rin tutadi. Mavjud o'quv sohasidan tashqari qiziqtirish doimo ta'lim uchun xuddi shunday namunalarga ko'maklashadi («O'ziga o'zi yoqayotgan kishigina boshqalarni yoqishi mumkin»).



O'quv motivatsiyasini qo'llash shartlari



Darsning boshlanishida o'quvchilarni qiziqitirish

1. Ichki qiziqitirishni (fanning mohiyatiga tegishli bo'lgan) birinchi navbatga qo'yish.

2. Asosiy o'quv muammosini ilgari surish.

3. O'quvchilarning oshib ketishi yoki kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

4. Haqiqiylik va amaliyot bilan aloqa o'rnatish.

5. Kelajak uchun ahamiyatini aniqlash.

6. Barcha o'quvchilarga murojaat qilish.

7. Usullarni almashtirish.

8. Mehnat hajmini aniq belgilash.

9. Faoliyat xatolarga yo'l qo'ymaslik.

Motivatsiya (qiziqitirish) metodi. Motivatsiya metodida darsda o'quvchilar bilan qiziqarli, hattoki, darsga taalluqli bo'lmagan mavzular to'g'risidagi suxbat bilan boshlanadi.

Iloji bo'lsa darsga bog'liq bo'lgan mavzular yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoya tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o'quvchilarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki

keyingi darslarda o'quvchilar o'rganadigan faniga e'tiborini qaratishga yordam beradi

Agar dars birinchi bor yangi o'quvchi guruhida o'tilayotgan bo'lsa, o'qituvchi qisqacha o'zini tanishtirib o'tib, o'quvchilarga ham o'zlarini tanishtirish imkoniyatini berish kerak. Bu o'quvchilarda ishonch tug'diradi, o'quvchilar o'zlariga bildirilayotgan hurmatni his qiladilar. Ta'riflangan va tanlangan o'qitish fanlarni va modullari asosida nazariy fan maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinli (ichki) va ekstrinli (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga maxsus soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi mavzuni boshlashdan avval o'tilgan mavzular qisqacha, umumlash-tirilgan holda qaytarilishi kerak.

O'quvchilarga mavzularga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Mavzuga kirilmay turib, tarqatma materiallar tarqatilmaydi. Ularni mavzuga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni o'qib chiqish uchun etarli daqiqalar berish va o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarga tafakkur qilish va qayta ishlash imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun zarurdir. Ular bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Guruhlarda ishlash yoki mustaqil ravishda topshiriqlarni echish va natijalarni taqdim etish samarali o'qitish usullari hisoblanadi.

U har bir topshiriq yoki mashqdan keyin o'quvchilar o'zlari bajargan ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir imkoniyat esa natijalarni guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. O'quv fani yakunida suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning natijalari, ularning amalga

oshgan va oshmagan ishlari, shuningdek, o'quvchilarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar qanday tartibda bo'lishi kerak?

2. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar qanday tuzilishi lozim?

3. O'quv motivatsiyasini qo'llash shartlarini tushuntiring. Harakatlanish qo'llanmasini tuzish bo'yicha qadamlarning ketma-ketligini ayting.

4. Harakatlanish qo'llanmasi yordamida o'qish foydalanuvchiga qanday afzalliklarni taklif qiladi?

5. Ta'lim jarayonida darsning boshlanishida o'quvchilarni qiziqtirish usullarini ayting.



Tayanch iboralar

Harakat, kompetentsiya, muammoli vaziyat, kognitiv, psixologik, paradigma, an'anaviy, faoliyat, ierarxik, texnologiya, obyekt, metodika, g'oya, sub'ekt, traektoriya, o'qish, tarbiya, ta'lim, g'oya, faoliyat, ehtiyoj, materiya, tizim, shakllar, qiyofalar, trivial, ekskursiya, model, stimul, motivatsiya.



Mustaqil ish topshiriqlari

1. O'quvchilar guruhini kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir kichik guruhga maxsus fanidan 4-8 soatga mo'ljallagan amaliy mashg'ulot mavzusi beriladi. Kichik guruxlar amaliy mashg'ulot mazmuni chuqur o'rganilib faoliyatga yo'naltirilgan o'quv dasturi va texnologik xaritasini tuzishlari kerak.

2. Har bir kichik guruhga quyidagi mavzular bo'yicha topshiriqlar beriladi. Kichik guruxlar adabiyotlar, ilmiy ishlar, internet yangiliklari va boshqa manbalardan mustaqil ravishda material to'plab hamda taqdimot tayyorlaydilar. eng yaxshi natijaga erishgan va chiqish qilgan kichik guruhga maksimal ball qo'yiladi.

Izoh: kichik guruhlar slaydlar, qiziqarli va isbotlovchi materiallar hamda natijalar tasvirlangan slaydlar bilan chiqish qilishlari kerak.

Baholash: har bir kichik guruh taqdimotini qolgan ikkita kichik guruhlar ekspert sifatida baholaydilar. Eng oxirgi taqdimot natijalari bo'yicha o'qituvchi o'z fikrini bayon qiladi va umumiy ballarni e'lon qiladi.

4.2.4. Darslarda suhbat va munozara o'tkazish va morfologik matritsa metodlari

 Darsda suhbat: o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro ta'sir, shuningdek, o'quv dasturiga muvofiq berilgan o'quv mazmuni bo'yicha o'quvchilar orasidagi o'zaro ta'sir o'rganiladi. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan boshqarilish va nazorat qilinishi, hamda ijtimoiy hatti-harakatning asosiy qoidalarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Bu metodning etakchi funksiyasi- motivatsiya qilish: aniq maqsadni ko'zda tutadigan va mohirona qo'yilgan savollar yordamida siz o'quvchilarni o'z bilimlarini berilgan mavzu bo'yicha esga olish va bayon etishga, sizning rahbarligingizda boshqa o'quvchilar bilan muhokama qilishga undaysiz.

O'quvchilar siz bilan birga, qadamma-qadam yangi bilimlarni mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, yakunlash va umumlashtirish yo'li bilan o'zlashtiradigan va tushunadilar.

Suhbatning afzalligi yana shundan iboratki, u fikr yuritishni maksimal faollashtiradi, o'quvchilarning bilim olish kuchini taraqqiy ettirishga imkon beradi.

Belgilangan maqsadi bo'yicha suhbatlar quyidagilarga bo'linadi:


- kirish yoki tashkil qiluvchi (didaktik vazifasi: o'quvchilarni mashg'ulotda ishlashga tayyorlash);

- yangi bilimlardan xabardor qilish (didaktik vazifasi: o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirish);

- sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi: o'quvchilar tomonidan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash, eslab qolish va anglash).

Butun guruh axborotni qabul qilishdan kutilayotgan natijaga olib borishga yo'naltirilgan harakat tartibini jarayon o'z ichiga oladi

➊ Suhbatni boshqarish metodikasi



➋ Morfologik matritsa metodi

Morfologik matritsa – bu o'qitishning metodik usullar kompleksi bo'lib, unda muammo bir nechta elementlariga ajratiladi, muammo elementlarini echish uchun izlash amalga oshiriladi va mos tarzda imkon qadar echim variantlarining ko'proq soni kiritiladi.

Didaktik maqsadi. Morfologik matritsani qo'llashning didaktik maqsadi shundan iboratki, muammoni to'laligicha tasavvur etish, shuningdek strukturalash va majburiy biriktirish yo'li bilan

muammoni echishga, ko'maklashish hisoblanadi. Shu bilan birga, bu texnologik muammoni ijodiy echishni ham rag'batlantiradi.

Metodik maqsadi. Muammo echimlari variantlarini aniqlashdan iborat.

Variantlar: morfologik quti, morfologik tablo, funksional analiz, atributiv ro'yxatni tuzish, ketma-ket morfologiya, echimlar daraxti.

Analogik metodlar: so'rov varag'i, lateral fikrlash metodi.

Ilmiy asoslari. Morfologik matritsa muammolarni echishning sistematik, analitik texnologiyasi hisoblanadi. Qo'yilgan muammo sistematik tarzda parametrlarga qo'yilib chiqadi. Bu muammo parametrlari bir-bindan mustaqil bo'lishi kerak. Parametrlar va ularning hosilalari jadval ko'rinishida, matritsa (ikki o'lchamli) va quti (uch o'lchamli) sifatida bo'lishi mumkin. Ikkala ko'rinish yordamida munosabatlarning bog'liqligini yaqqol ko'rsatish mumkin.

Kelib chiqishi. Morfologik metod asoschisi bo'lib shveysariyalik fizik va astronom olim Frits Tsvikki hisoblanadi. «Morfologiya» so'zi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, «shakl va shakllantirish haqidagi ta'limot» ma'nosini bildiradi. Ma'lum metod bo'yicha hosil qilingan har bir tartib morfologiya deb aytiladi, shuning uchun «tartiblashgan fikrlash ta'limoti» deb ham aytiladi.


Qo'llanish sohalari. Morfologik metod kompleks yoki cheklangan, texnik yoki notexnik muammoni yechishning yangi kombinatsiyalarini yoki turli imkoniyatlarini topish maqsadida qo'llaniladigan sistematik strukturaviy analiz hisoblanadi. Shuning uchun morfologik matritsa yangi mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar uchun bo'shliqlarni topish uchun qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, u analitik maqsadlar, shuningdek innovatsion jarayonlarni vujudga keltirish uchun qo'llanilishi mumkin. Metod ham guruh ishida, ham mustaqil ishlashda qo'llanilishi mumkin.

Amalga oshirish shartlari.

Agar uni rasmiy jihatdan qarasak, morfologik matritsa parametrlar va ifodalardan iborat bo'ladi. Bunda parametrlar (nima?) barcha echimlarda uchraydigan o'zgaruvchilar hisoblanadi; bu parametrlar bir-biridan real mustaqil bo'lishi, barcha mumkin bo'lgan echimlar uchun voqelikka to'g'ri kelishi va muammoni to'liq qamrab

olishi kerak. Ko'rinishlar (qanday?) parametrlar uchun ruxsat etilgan shakllantirish imkoniyatlari hisoblanadi. Bajariladigan funktsiyaga mumkin bo'lgan/ruxsat etilgan echimlar qarshi qo'yiladi.

Amalga oshirish bosqichlari. Morfologik matritsani tuzish jarayoni sxemasi qo'yidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin.



Tavsiflanishi kerak bo'lgan muammo mavjud.

1. Muammo muhim, bir-biridan mustaqil bo'lgan muammo elementlariga (parametrlarga) ajratiladi.

2. Har bir element uchun dastlabki muammoga qaramasdan barcha mumkin bo'lgan echimlari (ko'rinishlari) yozib olinadi. Ular o'ng tomonga parametrlar bilan birga yozib olinadi.

3. Asosiy muammo har bir elementi uchun bir-biridan mustaqil ravishda eng qulay ko'rinishi tanlanadi; har bir bo'lishi mumkin bo'lgan kombinatsiya har bir yacheykadan har bir ko'rinish bo'yicha asosiy muammoning echimini beradi.

4. Asosiy muammoning optimal echimi ajratilib ko'rsatiladi/tagiga chiziladi.

O'tkazish qoidalari. Parametrlarni aniqlash: avval ehtimolli parametrlarning oddiy ro'yxatini tuzing va qo'yidagi talablar bajarilishigacha uni qayta ishlanadi:

- mantiqiy mustaqillik: parametrlar bir-birini shartlashi mumkin emas,

- umumiy voqelik: parametrlar bir qismiga emas, balki barcha echimlarga taalluqli bo'lishi kerak;

- muhimlik: faqat asosli mulohazalarni qabul qilish.

Parametrlarning umumiy soni 7-10 ta bo'lishi kerak, o'zicha olingan ko'rinishlar optimal echimni bermaydi, ammo boshqa ko'rinishlar bilan birlashtirilganda optimal umumiy echimga olib kelishi mumkin.

Quyida morfologik matritsani qo'llashga yana bir misol keltirilgan:

Yuvish vositasi uchun o'ralmani ishlab chiqish

<i>Belgi</i>	<i>Ko'rinish 1</i>	<i>Ko'rinish 2</i>	<i>Ko'rinish 3</i>	<i>Ko'rinish 4</i>
<i>shakli</i>	parallelepiped	tsilindr	tetraedr	shar
<i>material</i>	karton	plastik	folga	taxta
<i>rangi</i>	oq	oq-qora	Oltin rang	zangori
<i>tashish uchun qulayligi</i>	dastalari	ushlash uchun teshiklar	ilmoq	remen'
<i>mahkamlash</i>	qopqog'i	probka	dozator	ventil'
<i>o'lchash</i>	stakancha	tarozi	qoshiq	tabletkalar
<i>qo'shimcha foydasi</i>	o'yinchoq	Taqinchoqlar uchun quti	konteyner	chelak

Kuchli jihatlari. Bu texnologiyani qo'llash tufayli muammoni hal qilish jarayoni sistemalashtiriladi. Ammo, u shuningdek yangi g'oyalarni topish uchun va muammoni ijodiy hal qilish uchun qo'llaniladi. Morfologik matritsa kompleks muammolar hamda vazifalarning turlicha qo'yilishi imkonini beradi, chunki muammoni qo'yish aniq hamda tushunarli amalga oshadi. Metod echimlar variantlari ko'p bo'lgan vaziyatlarda ustivorlarni ishlab chiqishda foydalidir. Ayniqsa mazkur metodni g'oyalarni ishlab chiqish fazasida maqsadga muvofiqdir. Vizualizatsiya tufayli metod komponentlar uchun ko'pgina echimlarni umumiy echimga birlashtirishni osonlashtiradi. Yangi g'oyalar oddiy bo'lmagan kombinatsiyalarga olib keladigan optimal ko'rinishlarni majburiy birlashtirish natijasida vujudga keladi. Morfologik matritsaning keyingi yutug'i bo'lib natijalarni (doskaga yoki qog'ozga) matritsaga yoki qutiga yozib olish orqali avtomatik bayonlashtirish hisoblanadi.

Talablar. Ma'lum sharoitlarda morfologik matritsani tuzish katta vaqtni talab qilishi mumkin. U mos muammo sohasi haqida katta, yuqori darajali bilimlarni talab qilishi mumkin. Muhim shart bo'lib muammoni aniq belgilash va parametrlar mustaqilligi hisoblanadi. Bundan tashqari, parametrlar va ko'rinishlar bir-biridan yaqqol ajralishi kerak. Parametrlar hamda ko'rinishlarni aniqlash katta mashg'ulotni talab qiladi, ba'zi joylarda murakkab bo'lishi mumkin. Quyidagini e'tiborga olish muhimdir:

- matritsani tuzish doim ham darrov amalga oshmaydi;
- matritsaga «o'sish» uchun vaqt kerak. Qayta ko'rib chiqish ko'pincha natijani yaxshilashi mumkin.

Analogik metodlar bilan taqqoslash.

So'rovnoma va almashtirish metodi bilan taqqoslash.

Osborn so'rovnomasi 50-yillar boshida amerikalik reklama mutaxassisi Aleksandr Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Gap to'qqizta kompleksni qamrab oluvchi savollar majmui haqida boradi. Metodning maqsadi shundaki, ijodiy fikrlashni turli sohalarga rejali yo'naltirish orqali amalga oshirishdir.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Morfologik matritsa texnologiyasining mohiyati nimada?
2. Morfologik matritsani qo'llashning didaktik maqsadini ayting.
3. Morfologik matritsani tuzish jarayoni sxemasini tushuntiring.
4. Suhbat va munozara metodining etakchi funktsiyalarini ayting.
5. Suhbatning afzalligi nimada?
6. Suhbatni boshqarish metodikasi sxemasini tushuntiring.

4.2.5. Analogiyalar va tarmoqli rejalashtirish metodlari



Analogiya [yunoncha: analogia] bir xillik yoki o'xshashlikni, belgilarda bir vaqtdagi farqlarda belgilar bo'yicha ma'lum muvofiqlik ma'nosini bildiradi. Analogiyalar metodi xulosalashning mantiqiy metodi bo'lib, unda predmetlar va hodisalar bo'yicha ularning bir xilligi yoki o'xshashligi bo'yicha xulosa qilinadi.

Didaktik maqsadi. Analogiyalar metodining didaktik maqsadi muammolarni echishda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini yaxshilashdan iborat.

Metodik maqsadi. Analogiyalar metodining metodik maqsadi, bilimlar hamda ko'nikmalarning ishonchli, sinalgan faoliyat usullaridan yangilariga ko'chirishni bildiradi, ya'ni muammolarni echish uchun analogiya asosida qilingan xulosani qo'llashdan iboratdir.

Asosiy belgilari. Analogiyalar metodining asosiy belgisi va elementi bo'lib analogiya bo'yicha xulosa hisoblanadi. Bunda xulosa ikki obyekt bo'yicha namuna bo'yicha analogiya asosida qilinadi: A V bilan o'xshashlikka ega. V b xususiyatga ega, demak A ham b xususiyatga ega. Bunda obyektlar bo'lib jonzotlar, narsalar yoki fenomenlar bo'lishi, o'xshashlik xususiyatlarda, strukturalarda yoki funktsiyalarda bo'lishi mumkin. Analogiyalar bo'yicha xulosalar reduktiv/tiklovchi xulosalarga kiradi. Ular doimo ehtimolli xulosalar bo'lib, gipotetik xarakterga ega va tajribada tasdiqlanishni talab qiladi.

Qo'llash sohalari. Analogiyalar metodi ko'rgazmali tushuntirish uchun ko'p qo'llaniladi. Misol uchun, bu metod matematik mashqlarda qo'llanilib, ularda o'quvchilar boshqa ko'pgina mashqlar uchun echimlarni topishda qo'llaniladi. Ko'pincha yangi hali o'rganilmagan loyihani boshlashda ham analogiyalar metodi qo'llaniladi. Bunda tanish bo'lgan va o'xshash sharoitlarda bajarilgan loyiha bilan taqqoslash o'tkaziladi. Analogiyalar bo'yicha xulosani ham tabiiy fanlarda, ham ijtimoiy fanlarda chiqarish mumkin.

Sharti. Bu metodni qo'llash sharti bo'lib muammoli vaziyatning mavjudligini ongli qabul qilinishi hisoblanadi.

Amalga oshirish bosqichlari.

Analogiyalar metodi quyidagi metodik bosqichlarga bo'linadi:

1. *Vazifa yoki muammoli vaziyat* ochish qiyin bo'lgan ishning predmeti yoki holati orqali beriladi; echimni topish uchun o'xshash predmetlar yoki holatlarni qidirish kerak.

2. Noma'lum predmetlar yoki ish holatlari belgilarini ma'lum predmet yoki ish holati bilan o'xshashligini topish maqsadida *tahlil qilish*.

3. Noma'lum predmetlar (ish holatlari) va ma'lum predmet yoki (ish holati) orasida o'xshash hamda farqlanadigan belgilarni sintezlash

4. Ma'lum muhim belgilar o'xshashligi, mosligi asosida bitta yoki bir necha boshqa belgilar bo'yicha o'xshashligi hamda mosligi haqida *xulosa qilish*.

5. Belgilar mazmunida alohida fikrlarni chiqarish va uning amaliyotdagi to'g'riligini tasdiqlash.

Analogiyalar texnologiyasini qo'llashga misollar.

Misol: Magnitli zanjir.

1. Magnit maydon sharoitlarining murakkabligi; tushuntirish uchun oson va tushunarli ish holatlarini saqlash; diqqat markazida texnik maydonlar.

2. Magnit maydon alohida xususiyatlari (oqim yo'nalishlari yopiqligi, magnitli harakatlantiruvchi kuch va magnit oqim harakati orasidagi bog'liqlik va hok.); texnik maydonlar ferromagnit o'zakda jamlanadi.

3. Elektr toki zanjiri va magnit maydoni orasida moslik qo'yidagi xususiyatlarda mavjud bo'ladi (tok chiziqlari va oqim yo'nalishi chiziqlari tutash chiziqlar bo'ladi; elektr toki kuchlanish bilan ifodalanadi, oqim magnit harakat kuchi bilan ifodalanadi; elektr zanjirlar o'tkazgich bilan bog'langan, texnik maydonlar ferromagnit o'zakda jamlangan. Farqlovchi belgilar (elektr toki oqadi. Magnit oqimi – yo'q, elektr tokda energiya o'zgarishi, magnit maydonda esa energiya to'planishi) yuz beradi, barcha belgilar muhim hisoblanadi.

4. Analogiya bo'yicha xulosalar: magnit maydoni elektr tokiga nisbatan analogiya bo'yicha magnitli zanjir sifatida ko'rsatilishi mumkin.

5. Magnit zanjirni qo'llash ichki kuchlanishning pasayishida asossiz bo'ladi, chunki magnit oqim statik xarakterga ega; shuningdek, energetik nisbatda energiyalarning turli xarakteri tufayli asossiz bo'ladi.

6. Magnit maydoni hisoblarida analogiyalarni qo'llash.

Germaniyada yangi fan sifatida paydo bo'lgan «Biomkada» (biologiyaga yo'naltirilgan muhandislik fani) (Berlin texnika universiteti /TU Berlin sayti), texnik muammolarni echish uchun asoslar sifatida tabiat/biologiya jalb etiladi, ya'ni biologik

evolyutsiya printsipli asosida texnik sistemalar ishlab chiqiladi. Faoliyat ko'rinishi ehtimolligi bunda analogiya bo'yicha quyidagi faoliyatlarni tashkil qiladi:

1. Istalgan texnik funktsiyalarni aniqlash.
2. Bu funktsiyalarni bajaradigan namunalarni (hayvonlar/o'simliklar strukturalari) aniqlash. Biologik strukturalar kataloglarini topish uchun qo'llash, olingan bilimlarni echilishi kerak bo'lgan muammoga ko'chirish.

Kuchli jihatlar. Obyektiv voqelik o'zining cheksiz ko'rinishlarida ikkita obyekt (jonot, narsalar, fenomen) orasida ko'p sonli o'xshash xususiyatlarni (struktura, funktsiya va boshq.) namoyon qiladi. Bu dalil odamlarga voqelikni analogiyalar bo'yicha qilingan mulohazalarni ko'chirish orqali tushunish imkonini beradi. Analogiyalarni shakllantirish o'qishning keyingi davomiyligiga, vaziyatlarni to'g'ri tushunishga, muammoni echishga va muammoni echishga ijodiy yondashuvga ko'maklashadi. O'qish osonlashadi, chunki ma'lum bo'lgan bilimlar bilan parallellar o'tkaziladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, «muammoni echish qobiliyati oldingi o'rganilgan ma'lumotni analogiya sifatida qo'llash haqida ko'rsatma berilganda sezilarli oshadi».

Kamchiligi. Analogiyalar muammoni echishning asosiy printsipli sifatida qo'llanilishi mumkin, ammo ularni to'g'ri qo'llay olish kerak. Shuning uchun, analogiya xulosasidan keyin keluvchi isbot kuchi ko'pincha shartli beriladi, ya'ni faqat ikkala obyekt o'z strukturasini bo'yicha o'xshash bo'lsa yoki bir-biri bilan shakli mos bo'lsa, *barcha* muhim belgilar o'xshash ya'ni mos keladi va ko'chirishda ma'lum asosiy printsiplarga rioya qilinadi, natijada analogiya bo'yicha xulosa qilish mumkin bo'ladi. Agar bunday bo'lmasa, analogiya bo'yicha xulosa qabul qilinmaydi. Analogiyalar bo'yicha xulosalar asosiy belgilar bo'yicha moslikdan kelib chiqishi tufayli, ular empirik tarzda doimiy tekshirishni talab qiladi.

Modellashtirish metodi bilan taqqoslash. Ikkala metodlarning muhim elementi bo'lib analogiya bo'yicha xulosa hisoblanadi. Modellashtiruvchi metodda analogiya bo'yicha xulosa shundan kelib chiqadiki, asl (narsa yoki ish holati) va qo'llanilgan model (masalan, o'qitish vositasi modeli va fikrlash modeli) barcha asosiy belgilar bo'yicha muvofiq keladi.

Tarmoqli rejalashtirish metodi

Tarmoqli rejalashtirish – bu o'qitishning kompleks metodik usuli bo'lib, vaqtli va mantiqiy ketma-ketlik jihatdan loyihani rejalashtirishni, kompleks loyiha uchun alohida tsikllarini grafik ko'rsatish yordamida loyihani boshqarish hamda nazorat qilishni yaxshilaydi.

Didaktik maqsadi. Tarmoqli rejalashtirishning didaktik maqsadi, o'z-o'zini tashkil etish kompetentsiyasini yaxshilashdan iborat

Metodik maqsadi. Tarmoqli rejalashtirishning metodik maqsadi, loyihalarni samarali (yaxshi qo'yilgan, tejamkor, uzluksiz) rejalashtirish va o'tkazishdan, shuningdek, umumiy muvaffaqiyatni nazorat qilishdan iborat

Sinonimi. Loyiha menejmenti uchun instrument yoki yordamchi vosita.

Variantlari: kattalashgan tarmoqli grafik, qismlashgan tarmoqli grafik, oraliq maqsadlarni qo'yib chiqish rejasi, standart tarmoq grafigi, al'ternativ tarmoq grafigi, bir necha loyihalar uchun tarmoq grafigi, sistematik tarmoqli rejalashtirish.

Analogik metodlari: vazifalarni bajarish muddatlari nazorat ro'yxati, operativ reja, texnologik jarayon kartochkalari, struktogramma, ustunli diagramma (Gant diagrammasi), chiziqli diagramma (vaqt va yo'lni belgilovchi diagramma)

Asosiy belgilari va asoslari. Tarmoqli rejalashtirish – murakkab strukturali kompleks loyihalarni samaraliroq rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish vositasidan biridir. Biroq, bu metodni kichik loyiha ishlarini tayyorlash hamda nazorat qilish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Shunday qilib, tarmoqli rejalashtirish predmeti bo'lib istalgan turdagi loyihalar hisoblanadi. Loyihani operativ va kalendar rejalashtirish berilgan metodning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi. Tarmoqli grafik/reja – loyiha uchun alohida komponentlarini ularning vaqtini va mantiqiy ketma-ketlikda grafik tarzda ko'rsatishdir.

Kelib chiqishi. Tarmoqli rejalashtirish metodi frantsiyalik rejalashtirish bo'yicha mutaxassislar tomonidan katta loyihalar doirasida ishlab chiqilgan. Bu vaqtga kelib shunday fikr bo'lganki,

bitta tarmoqli rejalashtirish metodi orqali loyihani boshqarishning barcha qiyinchiliklarini bartaraf etish mumkin. Asosiy maqsad bo'lib loyiha-ning minimal davomiyligini va uning jarayonlari ketma-ketligining ehtimolli variantlarini aniqlash bo'ldi.

Qo'llanilish sohalari. Hozirgi vaqtda tarmoqli rejalashtirish metodi kompleks loyihalar yoki katta loyihalar uchun, masalan, istalgan turdagi qurilish loyihalari, mashinasozlik va sanoat jihozlarini ishlab chiqarish, montaj ishlari, shuningdek reklama kompaniyalarida hamda ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llaniladi. Tarmoqli rejalashtirish metodi loyihani boshqarishning dasturiy ta'minoti uchun asos hisoblanadi.

Shartlari. Tarmoqli rejalashtirish metodi butun loyiha davomida, ya'ni uning oxirigacha qo'llanilishi mumkin. U rejadagi va amaldagi holatni taqqoslash yordamida doimiy qaytar aloqa uchun xizmat qiladi. Metodni amalga oshirish struktura va vaqt analizini taqozo etadi, keyingi yondashuvlar esa xarajatlar analizini hamda ishlab chiqarish hajmi analizini kiritadi. Tarmoq grafigini tuzish uchun turli tahlil ishlarini o'tkazish shart hisoblanadi.

Amalga oshirish bosqichlari. Bu loyihani o'tkazish zarur bo'lgan barcha jarayonlarning (ish, faoliyat, harakat jarayonlari) ulaming vaqtdagi va mantiqiy ketma-ketlikda quyidagi savollarga javob berish tizimida amalga oshiriladi.

- Qanday jarayonlarni (ish, faoliyat, harakat jarayonlari) o'tkazish va hisobga olish kerak?
- Qanday jarayonlar qay tarzda bir-biriga bog'liq bo'ladi (oldingi, keyingi)?
- Qanday jarayonlar parallel olib boriladi?
- Alohida jarayonlar qanchalik uzoq davom etadi?
- Qanday manbalar kerak bo'ladi (moddiy, moliyaviy, kadrlar)?
- Qanday muhim muddatlar belgilanishi kerak?
- Kritik jarayonlar, ya'ni vaqt rezervisiz jarayonlar yoki bufer vaqt mavjudmi?

Bu fikrlarning natijalari sifatida jadval ko'rinishida bajarilgan ishlar ro'yxatini tuzish mumkin:

№	Jarayon nomi	Oldingi jarayon tartib raqami	Davomiyligi, min
1	...	-	...
2	...	...	...
...	...	...	...

Struktura va vaqt tahlili tugashidan keyin tarmoq grafigi tuzilib, uning ostida alohida jarayonlarni ularning ketma-ketligi va bog'liqligidagi grafik ko'rsatish tushuniladi. Grafiklar nazariyasi, tarmoqli rejalashtirish metodi nazariy asoslar tilida: «Birikkan konturlarsiz yo'naltirilgan, baholangan va o'zaro bog'langan tarmoq grafigi deyiladi».

Ishlar ro'yxati. Grafiklar nazariyasiga qisqa quyidagi asosiy tushunchalar tushuntirilishi kerak: grafikni bir-biriga (chekli yoki cheksiz) qirralar bilan bog'langan (chekli yoki cheksiz) tugunlar miqdori sifatida tushunish mumkin. Yo'nalish ko'rsatilgan qirrani strelka sifatida tasvirlash mumkin. YO'pilgan kontur ostida «tugunni o'z-o'zi bilan bog'lovchi» strelkani tushunish mumkin. Yo'l/marsh-rut «bir strelka oxirgi tuguni boshqa strelkaning boshlang'ich tuguni bo'ladigan strelkalar qatorini» bildiradi. Agar yo'l chetga chiqmasa, bunda zanjir deyiladi.

Tarmoqli grafik. Tarmoqli grafik bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tugun jarayonini va strelka yo'nalishini saqlaydi. Tugunlar (to'g'riburchak, aylana va boshq.) mos jarayon haqida ma'lumotni saqlaydi, strelkalar jarayonlar orasidagi munosabatni ifodalaydi, ya'ni ular jarayonlar tartibi bo'yicha tugunlarni bog'lashadi.

Quyidagilarni farqlash tavsiya etiladi:

- obyektlar va jarayonlar strelkalar ko'rinishida ko'rsatilgan tarmoq grafiklari (kntik yo'l metodi, kritik yo'l metodiga asoslangan tarmoq grafigi);


- obyektlar va jarayonlar tugunlar ko'rinishida ko'rsatilgan tarmoq grafiklari (potentsiallar metodi, potentsiallar metodiga asoslangan tarmoq grafigi);

- tugunlar voqealarni bildiradigan tarmoq grafiklari (dasturlarni baholash va tahlil metodi, dasturlarni baholash hamda tahlil metodiga asoslangan tarmoq grafigi).

Jarayonlar. Strelkali tarmoq grafiklari jarayonlarni strelkalar ko'rinishida tasvirlaydi va ko'rsatadi. Tugunli tarmoq grafiklari jarayonlarni tugunlar ko'rinishida tasvirlaydi hamda ko'rsatadi. Voqealar tugunlari saqlagan tarmoq grafiklarida voqealar tugunlar ko'rinishida tasvirlanadi va ko'rsatiladi (voqealarni strelkalar ko'rinishida ko'rsatish qabul qilinmagan). Strelkalar, tugunlar yoki voqealar ketma-ketligi loyihadagi jarayonlar ketma-ketligiga mos keladi. Deyarli barcha loyihalarda vaqtda harakatlar erkinligini, ya'ni kritik jarayonlarni topish mumkin. Bu vaqt rezervi jarayonni o'tkazish yoki uni uzaytirish uchun mumkin bo'lgan erkin vaqt makonini beradi. Barcha kritik jarayonlarni ketma-ket tartiblash natijada loyihaning eng davomiy yo'li hisoblangan kritik yo'lni beradi. Quyidagi namunani keltirish mumkin:

Ehtimolli tarmoq grafigi


jarayon	eng barvaqt boshlanish	eng barvaqt tugallanish
Davomiylik	eng kech boshlanish	eng kech tugallanish



Biron oldingi jarayonda tartibning bog'liqligi yoki munosabati qo'yidagi tarzda ko'rsatilishi mumkin:



Qoida: jarayon A tugashi jarayon B boshlanishi hisoblanadi. Bir necha oldingi jarayonlarda tartib munosabati:



Amalga oshirish qoidalar:

A, B va C jarayonlar tugashi D boshlanishi hisoblanadi.

Tarmoq grafigini tuzishning quyidagi keyingi qoidalar bo'lishi mumkin

- har bir tarmoq boshlang'ich va oxirgi tugunga ega;
 - ikki tugun to'g'ridan-to'g'ri faqat bitta strelka yordamida bog'lanishi mumkin;
 - strelkalar yo'nalishi aylanaga olib kelmasligi kerak;
 - to'g'riburchakning chap tomoni alohida jarayon boshlanishini ifodalaydi, to'g'riburchakning o'ng tomoni alohida jarayon tugallanishini ifodalaydi;
 - to'g'riburchak kattaligi jarayon davomiyligiga dahli yo'q.
- Strelka uzunligi vaqt intervaliga dahli yo'q.

Kuchli jihatlari. Tarmoqli rejalashtirish metodi loyihalarni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishning ko'p vositalaridan biri bo'lib, u shuningdek manbalarni ham e'tiborga oladi. Istalgan turdagi yirik loyihalarda rejalashtirish va o'tkazish jarayonini optimallashtirish uchun hamda loyihani sustlashtiruvchi ehtimolli kritik jarayonlarni topish, rejaga kiritish uchun (alohida e'tiborni talab qiladi) tarmoqli rejalashtirish metodi qo'llanilishi mumkin. Tarmoq grafigida muddatlarga amal qilinmaslik yoki jarayonlar o'zgarishi ma'lum bo'ladi. Loyihaning umumiy borishi oldindan puxta ishlab chiqiladi, natija bo'lib ishonarli kalendar reja hisoblanadi. Tarmoq grafiglari jarayonlar orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi, temperatura o'zgarishi tufayli uni o'zgartirish kerak emas, ya'ni operativ va kalendar rejalashtirish alohida o'tkaziladi. Tarmoqli rejalashtirish metodi asoslarini oson va tez o'rganish mumkin.

Kamchiligi. Tarmoqli rejalashtirish metodini loyiha borishi oldindan belgilanmagan taqdirda o'tkazib bo'lmaydi. Mayda loyihalarda uni qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki metodni optimal ishlab chiqish katta vaqt va kuchni talab qiladi. Katta

loyihalar komp'yuter (dasturiy ta'minot)siz o'tishi ham ancha qiyin. Harakatlarni bajarish bo'yicha konkret ish qadamlar ham tarmoq grafigida ko'rsatilmaydi. Aniqlanganki, tarmoq grafigi rejadan chetga chiqishdan himoya qilinmagan.

Analogik metodlar bilan taqqoslash.

Ustunli diagramma bilan taqqoslash. Ustunli diagramma ostida loyiha jarayonlarim vaqt shkalasida gorizontal qo'yilgan ustunlar ko'rinishida qo'yish hisoblanadi. Bu yordamchi vosita alohida jarayonlarni grafik ko'rinishda ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Oddiy ustunli diagrammada jarayonlar orasidagi bog'liqlik ko'rsatilmaydi, shuning uchun uni loyihalarni rejalashtirish uchun kam qo'llaniladi. Ustunli diagrammaga nisbatan tarmoqli grafikda loyiha jarayonlari orasida ham tartibli, ham bog'liqlik hisobga olingan.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Tarmoqli rejalashtirish texnologiyasining ahamiyati, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'ting.

2. Tarmoqli rejalashtirish texnologiyasining didaktik va metodik maqsadi nimadan iborat?

3. Tarmoqli rejalashtirish texnologiyasining qo'llanilish sohalarini ayting.

4. Analogiyalar texnologiyasining mohiyati nimada, ta'lim jarayonida qo'llash afzalliklarini aytmg.

5. Analogiyalar metodi qanday metodik bosqichlarga bo'linadi?

4.3. O'qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil qilish

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda o'qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil qilish bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Respublikamizda 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilab qo'yilgan milliy modelimizning maqsad va vazifalarni amalga

oshirish borasida, bugungi kun talablariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlay oladigan va zamonaviy texnologiyalardan erkin foydalana oladigan malakali pedagog kadrlarga qo'yilgan talablar tobora ortib bormoqda. Chunki, o'quvchi yoshlarimizning komil inson bo'lib etishishi va ta'lim tarbiyani qanchalik chuqur egallashi o'qituvchining zamonaviy innovatsion texnologiyalarni yaratish va ularni amalda qo'llash qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Aynan bu shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Uzluksiz ta'limi tizimida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va ta'lim-tarbiya jarayomida yangi pedagogik-innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish orqali bu masalaning echimi topiladi.

Ta'lim jaryoniga kiritilgan yangilikning ahamiyatiga qarab innovatsion faoliyatni besh bosqichga bo'lish mumkin:

1. Yangilanish;
2. To'ldirish;
3. Dasturlash;
4. Rivojlantirish;
5. Mukammallashtirish;

Har bir bosqich keyingisi bilan uzviy aloqada bo'lib, bir-birini to'ldirib faoliyat shakllanadi, ya'ni «To'ldirish» bosqichida «Yangilanish» o'z o'rnida qoldirilib o'zgarishlar bilan to'ldiriladi. Oxirgi bosqich «Mukammallashtirish»da esa, ustamonlik oshadi va ushbu ustamonlik faoliyatning eng yorqin namunasi sifatida paydo bo'ladi.

Innovatsion faoliyatning asosiy bosqichi dasturlash yoki modellashdirish hisoblanadi. Bunda muayyan muammo bo'yicha dolzarb axborotlar yig'iladi va bu o'qituvchining qiyin vaziyatdan chiqa olishiga yordam beradi. Tanlangan variant amalga oshiriladigan g'oya bo'lib xizmat qiladi. U innovatsion faoliyatning asosini tashkil qiladi, ya'ni bunda pedagogik faoliyat shakllari, mazmuni, uslublari yoki yaxlit pedagogik texnologiyalar tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta'limi tizimi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatini shakllantirishda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim. Ijodiy qobiliyat har doim tashqaridan beriladigan yordamga muhtoj bo'lib qolmasligi kerak. Bu pedagogik ahamiyatga xos xususiyat hisoblanib, muntazam intilishlar va izlanishlar bilan rivojlantirish mumkin.

Pedagogik jarayonda innovatsion faoliyatni shakllantirishning yana bir jihati, «muammo» va «ziddiyat» kabi tushunchalarning mohiyatini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, innovatsion faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud kamchilik va muammolardan kelib chiqadi. Bundan ko'rinadiki, uning asosini muammoli vaziyat tashkil etadi.


An'anaviy ta'lim bilan innovatsion ta'limning farqi shundaki, an'anaviy ta'limni tashkil etishda ta'lim vazifalari va shart-sharoitlari bir-birini to'ldirib, ishonchli manbalarga asoslanib tashkil qilinsa, innovatsion ta'limda, aksincha, ta'limning vazifa va shart-sharoitlari bir-birini rad qilib, ishonchsiz va ba'zida keragidan ortiqcha yoki etarli bo'lmagan ma'lumot asosida shakllantiriladi. Bunda dars jarayonida pedagogik muammolarni yuzaga keltirish va ularni hal qilish echimlarini topish ehtimolligini oshirishdan iborat va natijada innovatsion g'oya va fikrlar yuzaga keladi. Masalan, o'quvchilarning o'qishga qiziqishlarining pasayishi natijasida pedagoglar ana shu innovatsion uslublarni o'z darslarida qo'llashlariga to'g'ri keladi.

Har bir pedagog o'z faoliyatini xolisona tanqid qila olishi va undagi mavjud kamchiliklarni to'g'rilashga harakat qila olishi, bu innovatsion faoliyatga qo'yilgan ilk qadamlar hisoblanadi. Bu jarayonning amalga oshishiga katta ta'sir ko'rsatadigan omillar – bu insonparvarlik, hamkasblar namunasi va pedagogik jamoaning qo'llab-quvvatlashi hisoblanadi.

Innovatsion g'oyalarni yaratish, ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy qilish - innovatorlarning maqsadli yo'naltirilgan faoliyatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy innovatorlar «Kim o'z muammosi ustida ishlamasa, unda yangi fikr tug'ilmaydi» deyishadi. Sababi, pedagog o'zining eski ish uslubini yangi uslublar bilan almashtirishi kerak.

Shu asnoda aytish joizki, zamonaviy pedagog olimlarning fikriga ko'ra, innovatsion g'oya qachonki, zamonaviy talablardan kelib chiqib, amaliyotga joriy qilinsa va uzluksiz ta'lim tizimida o'z qiziquvchilarini topsa hamda o'quvchilar tomonidan ijobiy qabul qilinsagina, bu pedagogik yondashuvni innovatsion texnologiya deb atasa bo'ladi yoki aksincha bo'lsa, u g'oyaligicha qolaveradi.

Quyidagi shaklda o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirishning namunaviy tuzilmasi keltirilgan.



Innovatsion yutuqlar ba'zan pedagogdan uning natijalariga kamroq kuch sarflab faoliyat ko'rsatishini va innovatsiyaning har bir turi uning mustahkamlanishini talab etadi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishida turli jarayonlar yoki harakatlar yordam beradi, ya'ni jamoada hamkasblari tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar va ularni tuzatish uchun rahbar xodimlar tomonidan berilgan maslahatlar hamda ularni jamoa yig'ilishida ko'rib chiqilishi o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining psixologik mexanizmlari hisobga olinmasa, innovatsion jarayon buzilishi mumkin. Shuning uchun ham, pedagog faoliyatida pedagogik jamoa muhim rol' o'ynaydi. Chunki pedagog o'z jamoasidan qo'llab-quvvatlashninishini kutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq qilish jarayonini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ta'lim-tarbiyaning mualliflik g'oyasini yaratish;

2. Dastur va rejalarni innovatsion pedagogik faoliyatga mos ishlab chiqish;
3. Dastlabki tajriba-sinovdan o'tkazish;
4. Tajriba natijalari va ijodiy izlanishlar asosida mualliflik g'oyalarini amalga oshirish;
5. Pedagogik innovatsiyaning yaxlitligini rasmiylashtirish;
6. Innovatsiyaning keng qamrovli miqyosda amaliyotga joriy qilishiga tayyorgarlik ko'rish.

Uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda dars mashg'ulotlarining zamonaviy ta'limiy, ijodiy – amaliy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funktsiyalarini aniq belgilab olishlari hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida innovatsion faoliyatini takomillashtirib, zamon talabi darajasidagi etuk mutaxassislarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

4.4. Imkoniyatlari cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash muammolari va ularni hal qilish imkoniyatlari

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda imkoniyatlari cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashdagi muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalaridagi kabi uzluksiz ta'lim tizimida ham amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining «Yuksak ma'naviyat engilmas kuch» kitobida ta'kidlaganlandek, «Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'nfat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemaol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz».

Ta'lim tizimini rivojlantirishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari qabul qilinib, ularda qo'yilgan vazifalarning ijrosi bo'yicha keng ko'lamli ishlari olib borilgan va davom etmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonlari tezkor rivojlanish dinamikasi ta'lim tizimi oldida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli, malakali mutaxassislarni tayyorlash talabini qo'yadi. O'rta maxsus, kasb-hunar tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish, ularni o'quv jarayoniga joriy qilib borish hamda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga tadbqiq etish hisoblanadi. Shuningdek imkoniyati cheklangan yoshlarni zamonaviy ta'lim talablari asosida kasb-hunarga tayyorlash, ularni ishga joylashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishi umuminsoniy qadriyatlarga tayanib inson o'zining shaxsiy hayotini qurishi bilan bog'liq. Bugungi ta'lim kontseptsiyasi ham har bir insonga u sog'lom yoki jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lsin madaniyat tashuvchisi, bilim oluvchi, faoliyatli, ijodiy va ma'naviyatli shaxs sifatida qarashga yo'naltirilgan.

Imkoniyati cheklangan yoshlarning aholiga nisbatan nisbati bir qator omillarga jumladan millatning sog'lom turmush tarziga, sog'likni saqlash tizimining rivojlanishiga, tarixiy hamda siyosiy jarayonlarga bog'liq bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatda mavjud bo'lishi bu ijtimoiy fenomen bo'lib har qanday mamlakat o'zining rivojlanishi tendentsiyasiga hamda imkoniyatiga qarab ularga nisbatan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshiradi.

Bizning mamlakatimizda imkoniyati cheklangan yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularning kasb-hunar egallashlari uchun sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilib, bir qator diqqatga e'tibor ishlar amalga oshirildi. Jumladan «Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasida

nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 204-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi nizomga muvofiq imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlarning maqomi va faoliyati xususiyatlari belgilab berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 17-maydagi 100-son qarori bilan «Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari to'g'risida» nizom tasdiqlangan bo'lib, unda imkoniyatlari cheklangan shaxslar bo'lgan o'quvchilarni chuqurlashtirilgan ixtisosli, tabaqalashtirilgan o'qitish, intellektual rivojlantirishni ta'minlash va ularning jismoniy va aqliy kamol topishi xususiyatlariga muvofiq tanlangan kasblar bo'yicha mutaxassislikni egallashi kollejning asosiy maqsadi qilib qo'yilgan.

Ixtisoslantirilgan kasb-hunar kollejining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab berildi:

- Imkoniyatlari cheklangan shaxslar mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning kasbiy-ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- Davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini amalga oshirish;

- O'quvchilarning tanlangan kasbga muvofiq o'qishni ta'limning navbatdagi bosqichlarida davom ettirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur va etarlicha bo'lgan bilimlari va kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish;

- O'quv-tarbiya jarayonining reabilitatsiya qiluvchi yo'nalishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

Hozirgi kunda ushbu kollejlarda bir nechta yo'nalishlar bo'yicha imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha ta'lim va tarbiya faoliyatlari amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, imkoniyati cheklangan yoshlar mustaqil hayotga tayyorlashda ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji alohida o'rin egallaydi. Kollej imkoniyati cheklangan yoshlarda kasb-hunarga shakllantirish bilan bir qatorda, ularning ijodiy qobiliyatlarini va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishi, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarini mustaqil hal qilishga o'rgatishi lozim. Shuningdek imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlaydigan

kollejlarda oldida tibbiy profilaktik ishlarni va psixologik mashg'ulotlarni ham olib borish ham vazifalarini quyilishi lozim.

So'nggi yillarda imkoniyati cheklangan yoshlarni o'qitish va kasb-hunarga tayyorlash muammolari bo'yicha tadqiqotlar ko'paya boshladi. Hozirgacha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan yoshlarni o'qitish va kasbga tayyorlashning ba'zi bir ilmiy va metodik jihatlari, ijtimoiy va pedagogik xarakterdagi ba'zi muammolari, davolash pedagogikasining ma'lum bir elementlariga qaratilgan nazariy izlanishlar olib borilgan, ammo kompleks hamda yaxlit fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazilmagan. Imkoniyati cheklangan yoshlarni umr bo'yi o'qish va o'rganishlarining tizimli tuzilmasi ishlab chiqilmagan hamda ta'lim turlari orasidagi integratsiya o'rnatilmagan.

Biz tomondan o'tkazilgan dastlabki izlanishlar shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashda bir qator ziddiyatlar ham vujudga keladi. Jumladan, o'quvchining jamiyatga moslashuvidagi talabi bilan uning jismoniy imkoniyati orasida, ota-onaning imkoniyati cheklangan yoshlarni ixtisoslashtirilgan kollejlarda o'qitish xohishi yo'qligi va boshqa ta'lim muassasalari esa ularni qabul qilmasligi orasida, maxsus pedagogika sohasidan o'qituvchilarni tayyorlashga bo'lgan talab bilan imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv reja va dasturlar hamda metodikalarning ishlab chiqilmaganligi orasida.

Shuningdek o'rganishlar natijasida bugungi kunda imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash jarayonida quyidagi muammolar va kamchiliklar borligi aniqlandi:

- imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning pedagogik-psixologik shartlari, tamoyillari va ularga quyiladigan talablar ishlab chiqilmaganligi;

- ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlarida ta'lim yo'nalishining o'quv rejalarini ishlab chiqishda imkoniyati cheklangan shaxslar psixologik xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlari va tibbiy tavsiyalar inobatga olinmaganligi;

- o'quv rejasida fanlar orasidagi integratsiya va ta'minlanmaganligi va ularni o'qitishning ketma-ketligi inobatga olinmaganligi;

– ta’lim jarayonida ilg’or tajribalar pedagogik va axborot texnologiyalardan etarli darajada foydalanilmayotganligi,

– imkoniyati cheklangan o’quvchilarni ishga joylashtirish va monitoringini yuritishning samarali metodikasi ishlab chiqilmaganligi va amaliyotda joriy etilmaganligi.

Ushbu ziddiyatlar va muammolarni hal qilish uchun quyidagi bir qator vazifalarni ilmiy-metodik jihatdan quyidagicha hal qilish tavsiya etiladi:

1. Imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning bugungi muammolarini ilmiy, ijtimoiy va uslubiy jihatdan chuqur o’rganish va tahlil qilish. Buning uchun imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash bo’yicha pedagogik, psixologik, tibbiy va maxsus adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqotlarni shuningdek o’qitish jarayonini hozirgi holatini chuqur o’rganish va tahlil qilish talab etiladi. Shuningdek kollej o’quvchilari, o’qituvchilari hamda ishlab chiqarish ta’lim ustalaridan so’rovnomalar va suxbatlar xam o’tkazish tavsiya etiladi. O’rganishlar natijasida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2. Imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash ilmiy tamoyillari, pedagogik va psixologik shartlarini hamda talablarini ishlab chiqish va nazariy jihatdan asoslash. Ilmiy tamoyillarni imkoniyati cheklangan yoshlar kasb-hunarga tayyorlash xususiyatlarini inobatga va zamonaviy ta’lim talablari asosida ishlab chiqish, bunda psixolog olimlar va tibbiyotning etakchi mutaxassislarining ishtiroki muxim ahamiyat kasb etadi. Va albatta imkoniyati cheklangan o’quvchilarni kasb hunarga tayyorlashda o’quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish talabini inobatga olish juda muxim. Xar bir o’quvchi o’zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o’quv faoliyatiga katta ta’sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o’rganishi va hisobga olishi o’qitish sifatini oshirish va har bir o’quvchining mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi

O’quvchining xususiyatlarini bunday o’rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog o’quvchilarning darslardagi va ishlab chiqarish ta’limi vaqtida ustaxonalardagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va

tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, maslahatlarda va darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan suhbatlashadi. O'quvchining kuchli va o'z tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, o'quvchilarning hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning kolleja kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi

3. Integrativ va modulli yondashuv asosida o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish.

O'tkazilgan izlanishlar natijasida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejaridagi ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va fan dasturlarida imkoniyati cheklangan shaxslarni o'qitishning xususiyati inobatga olinmaganligi, fanlar va amaliyotlar orasida integratsiya o'rnatilmaganligi aniqlandi. O'quv reja va dasturlarni takomillashtirishda va o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda quyidagi umumiy talablarni inobatga olish zaruriyati mavjud:

- birinchidan, o'quv rejalarni tuzishda imkoniyati cheklangan shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash xususiyatlarini e'tiborga olish hamda tibbiy profilaktika va psixologiyaga oid fanlarni kiritish;

- ikkinchidan, fanlararo va amaliyotlar maqbul ketma ketligi va ular orasidagi integratsiya ta'minlanishi lozim;

- uchinchidan, O'quv dasturlar modulli texnologiya asosida ishlab chiqilishi kerak. Modulli o'quv dasturlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasbi bo'yicha texnologik jarayonlarning bajarilishi va faoliyat usullari bo'yicha etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi bilim va mehnat topshiriqlari sistemasini qamrab oladi. Faqatgina modulli o'quv dasturi o'quv-uslubiy majmuasining asosiy komponenti bo'lib xizmat qiladi va o'quv materialini uzatishning esa etakchi vositasi hisoblanadi. Modulli o'quv dasturlarida egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirilishi kerak.

- to'rtinchidan, O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish. O'quvchilarda o'rganishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani shakllantiruvchi o'quv materiallari ishlab chiqish lozim qaysiki amaliy vaziyatlarda qo'llash uchun etarli va mustahkam bilim, hamda ko'nikmalarni ta'minlash kerak bo'ladi;

– ta’lim jarayonida ilg’or tajribalar pedagogik va axborot texnologiyalardan etarli darajada foydalanilmayotganligi;

– imkoniyati cheklangan o’quvchilarni ishga joylashtirish va monitoringini yuritishning samarali metodikasi ishlab chiqilmaganligi va amaliyotda joriy etilmaganligi

Ushbu ziddiyatlar va muammolarni hal qilish uchun quyidagi bir qator vazifalarni ilmiy-metodik jihatdan quyidagicha hal qilish tavsiya etiladi.

1. Imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning bugungi muammolarini ilmiy, ijtimoiy va uslubiy jihatdan chuqur o’rganish va tahlil qilish. Buning uchun imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash bo’yicha pedagogik, psixologik, tibbiy va maxsus adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqotlarni shuningdek o’qitish jarayonini hozirgi holatini chuqur o’rganish va tahlil qilish talab etiladi. Shuningdek kollej o’quvchilari, o’qituvchilari hamda ishlab chiqarish ta’lim ustalaridan so’rovnomalar va suxbatlar xam o’tkazish tavsiya etiladi. O’rganishlar natijasida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2. Imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash ilmiy tamoyillari, pedagogik va psixologik shartlarini hamda talablarini ishlab chiqish va nazariy jihatdan asoslash. Ilmiy tamoyillarni imkoniyati cheklangan yoshlar kasb-hunarga tayyorlash xususiyatlarini inobatga va zamonaviy ta’lim talablari asosida ishlab chiqish, bunda psixolog olimlar va tibbiyotning etakchi mutaxassislarining ishtiroki muxim ahamiyat kasb etadi. Va albatta imkoniyati cheklangan o’quvchilarni kasb hunarga tayyorlashda o’quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish talabini inobatga olish juda muxim. Xar bir o’quvchi o’zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o’quv faoliyatiga katta ta’sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o’rganishi va hisobga olishi o’qitish sifatini oshirish va har bir o’quvchining mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

O’quvchining xususiyatlarini bunday o’rganish uzoq vaqt mobaynida olib boriladi. Pedagog o’quvchilarning darslardagi va ishlab chiqarish ta’limi vaqtida ustaxonalardagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va

tayyorlagan buyumlarini tekshiradi, maslahatlarda va darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan suhbatlashadi. O'quvchining kuchli va o'z tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri va irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, o'quvchilarning hayotiy va mehnat tajribalarini, ularning kolleja kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi

3. Integrativ va modulli yondashuv asosida o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish.

O'tkazilgan izlanishlar natijasida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejaridagi ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va fan dasturlarida imkoniyati cheklangan shaxslarni o'qitishning xususiyati inobatga olinmaganligi, fanlar va amaliyotlar orasida integratsiya o'rnatilmaganligi aniqlandi. O'quv reja va dasturlarni takomillashtirishda va o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda quyidagi umumiy talablarni inobatga olish zaruriyati mavjud:

- birinchidan, o'quv rejalarni tuzishda imkoniyati cheklangan shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash xususiyatlarini e'tiborga olish hamda tibbiy profilaktika va psixologiyaga oid fanlarni kiritish;

- ikkinchidan, fanlararo va amaliyotlar maqbul ketma ketligi va ular orasidagi integratsiya ta'minlanishi lozim;

- uchinchidan, O'quv dasturlar modulli texnologiya asosida ishlab chiqilishi kerak. Modulli o'quv dasturlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasbi bo'yicha texnologik jarayonlarning bajarilishi va faoliyat usullari bo'yicha etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi bilim va mehnat topshiriqlari sistemasini qamrab oladi. Faqatgina modulli o'quv dasturi o'quv-uslubiy majmuasining asosiy komponenti bo'lib xizmat qiladi va o'quv materialini uzatishning esa etakchi vositasi hisoblanadi. Modulli o'quv dasturlarida egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirilishi kerak.

- to'rtinchidan, O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish. O'quvchilarda o'rganishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani shakllantiruvchi o'quv materiallari ishlab chiqish lozim qaysiki amaliy vaziyatlarda qo'llash uchun etarli va mustahkam bilim, hamda ko'nikmalarni ta'minlash kerak bo'ladi;

– beshinchidan, o'qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi funksiyalarini kuchaytirish kerak. Ishlab chiqilgan amaliy mashqlar va topshiriqlar sistemasi o'quvchilarning ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi (fikrlash, taqqoslash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va boshqalar). O'qitishning tarbiyaviy yo'naltirganligi esa o'quvchilarning mehnatga estetik, ekologik, texnik va texnologik jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan topshiriqlar va mashqlarni tanlash orqali ifodalanadi.

4. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni integrativ va modulli yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish.

Bizga ma'lumki o'qitish jarayoni - pedagogning va u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil xarakterlari majmuidan iborat.

O'qitish jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarda kasb-hunarni shakllantirish bilan bir qatorda ularning shaxsini shakllantirish, aqliy va jismoniy kamol toptirishga qaratilgan faoliyatlar xam olib boriladi.

O'qitish ikki tomonlama jarayondir, u o'qituvchining faoliyati va o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilishdan, o'quvchilarga fanga qiziqishni, fikrlar va e'tiqodni tarkib toptirishdan, mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish shuningdek baholashdan iborat.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish xamda o'zining mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv reja asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qitish mazmuni hamma vaqt tegishli fanning modulli dasturi bilan belgilanishini, o'quvchilarning o'qishini esa o'qituvchi yo'lga solib turishini pazarda tutib, muvaffaqiyatli ta'lim berishning asosiy sharti ta'lim berish mazmuni, o'qitish va o'qish orasidagi chambarchas uzviy bog'lanish deb hisoblamog kerak.

Modulli o'qitishda o'quv jarayonining to'g'ri qo'yilishi shu bilan xarakterlanadiki, har qaysi bosqichda o'quvchilar o'rganiladigan materialni tushunib oladilar va amaliy faoliyatni bajaradilar, o'quv va malakalarini takomillashtiradilar, birorta yangi narsani idrok etadilar. Bu texnologiya imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitishda yaxshi samara beradi.

O'qitishning tashkiliy ko'rinishlari deganda, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o'tadigan faoliyati tushuniladi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitishda asosan kichik guruxlarda individual va individual shakllardan foydalanish tavsiya etiladi. Ta'lim metodlarini xam tanlash barcha talablar va xususiyatlar inobatga olinishi kerak. Maxsus fanlarini o'rganishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar bir vaqtda o'tkazilsa yaxshi natija beradi. Bu hol mashg'ulotlar sistemasini rejalashtirishni osonlashtiradi va darslarda mustaqil ishlar, mashqlar va amaliy ishlarni o'tkazishni engillashtiradi.

Ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlardan nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejasini aslo o'quv rejasi yoki o'quv materiali bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejasi faqatgina "yo'l ko'rsatuvchidir", u o'qitish yoki o'rganish materiali sifatida tushunilmasligi darkor. Dars rejasi dars jarayonini fakatgina boshqarib boradi va o'qitish va o'rganish materiallari o'zini olmasligi kerak. Bunday reja o'quv maqsadlarini, modul yoki mavzu, amaliy usullarni o'qitish va o'rganish materiallarini, shuningdek, qat'iy belgilangan vaqt chegarasini o'zida mujassam etadi.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish va rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatishda ishlab chiqarish ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish ta'limi - o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulot bo'lib, uning maqsadi ishlab chiqarish sharoitlarida unumli mehnat uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish xisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida bilimlarni yaxlitlashtirish va ularni o'quvchining amaliy faoliyati jarayonida har tomonlama qo'llash

amalga oshadi. Bu ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining tuzilmasini, mazmuni va o'qitish usullarini, shuningdek ularning davomiyligini aniqlab beradi.

5. Imkoniyati cheklangan yoshlar bilan ishlaydigan tibbiyot xodimlari kasb-hunarga o'rgatadigan va o'qitadigan psixologlar, pedagoglar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish. Imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlaydigan kollejlarning yo'nalishi va ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlari o'zaro uzviy bog'lanishi lozim. Buning uchun maxsus fan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'lim ustalari modulli texnologiya asosida fanlarni o'qitish metodikasini chuqur o'rganishlari, mutaxassislikning mahorat va amaliy ko'nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. O'qituvchilar va ustalar yangi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, hamda tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasiga ega bo'lishi juda muhim.

Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, ko'proq o'quvchilarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihati muhimki, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun o'qitishni samarali tashkil qilish lozim. Buning uchun albatta kollej huzurida o'qituvchi va ustalar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil qilish lozim.

Shuni xulosa qilib ta'kidlash joizki bugungi kunda imkoniyati cheklangan yoshlarni ijtimoiy hayotga to'liq jalb etish, ularning ta'lim olishi va kasb-hunarni egallashiga imkoniyat yaratish, o'quv rejalar va dasturlarni zamonaviy talablarga bo'yicha takomillashtirish hamda o'qitish va o'rgatish jarayoni samarali metodikalar hamda pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlarni har tomonlama reabilitatsiya qilishga, kasb-hunarni egallagandan keyin ishchi joylashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki har qanday inson u sog'lom yoki imkoniyati

cheklangan yoki zaif bo'limasini to'laqonli hayot kechirishga, o'zini ruxan va jismonan rivojlantirib borishga umuman olganda jamiyat uchun foydali shaxs bo'lib etishishga xaqli.



4- bob bo'yicha adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". 1997 y.
2. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent - Ma'naviyat. 2011. –63 b.
3. Olimov va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Moliya. 2006.
4. Olimov Q.T., Sayidaxmedova M.S., Jalolova D.F., Bozorova M.Q., Boltayeva M.L., Alimov A.A. Pedagogik texnologiyalar o'quv qo'llanmasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 300 b.
5. Golish L.V. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish". – T., 2001 y.
6. "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari to'g'risida"gi Nizom. Toshkent. 2007 y.
7. Чуракова С.Н. Подготовка учителя к интегрированному обучению детей с ограниченными возможностями в общеобразовательном классе: канд.пед наук. ...дисс. Волгоград.: 2003. – 143 с.
8. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. – Moliya. 2006. – 186 b.
9. Olimov Q.T., Jalolova D.F. Xorijiy ta'lim tajribalari. Metodik qo'llanma. Buxoro. – 2011. –116 b.
10. Alimov A.A. Improving the preparation of future teachers of special disciplines in Uzbekistan. Eastern European Scientific Journal Germany. p. 113-116
11. Alimov A.A. *Uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini shakllantirish usullari. Xalq ta'limi jurnali. Toshkent. 2015. №6. –74-78 b.*
12. Алимов А.А. Процесс развития способностей учащихся при самоконтролируемом обучении. Ежемесячный научный

журнал "Молодой учёный", – Россия, Казань, 2015. – ноябрь-1, №21(101), – С. 751-753.

13. Mirzayeva F.T. Jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish muammolari va ularni hal qilish yo'llari. Uzlüksiz ta'lim jurnali. Toshkent, 2016. №2. –93-98 b.

14. Mirzayeva F.T. Problem of preparation for the profession of students with disabled and various solutions. Eastern European Scientific Journal. Germany. p. 113-116

15. Сластелин В.А., Подымосова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М., "Магистр", 1997 г.

16. Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогической инноватики: Опыт разработки теории инновационных процессов в образовании, – М., 1991 г.

17. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsiyalar. // J. Maktab va hayot. – T., 2009. - №1. – B.7.

18. Хомерикн О.Г. Системное управление инновационным процессом в общеобразовательной школе: дисс. ... канд. пед.наук. – М., 1996.

19. Поташник М.М., Лазарев В.С. Управление развитием школы. – М. Новая школа, 1995.

20. Ваквитц К. / Wackwitz. Специальная дидактика для аграрного хозяйства. Дрезден. – 2010.

21. Ваквитц К. / Wackwitz. Шаги для самостоятельного получения специальной информации. Дрезден. – 2010.

22. Backerra, Hendrik; Maßorny, Christian; Schwarz, Wolfgang: Kreativitätstechniken. Kreative Prozesse anstoßen, Innovationen fördern. Die K7. 2. Aufl., München, Wien: Carl Hanser Verlag 2002.

23. Bugdahl, Volker: Kreatives Problemlösen im Unterricht. Frankfurt am Main: Cornelsen Scriptor 1995.

24. Schaudé, Götz: Kreativitäts-, Problemlösungs- und Präsentationstechniken. 3. Aufl., Eschborn: Rationalisierungs-Kuratorium der Deutschen Wirtschaft (RKW) e.V. 1995.

25. Leontev, A. Tätigkeit, Bewußtsein, Persönlichkeit (Faoliyat, anglash, shaxs) Berlin, 1987.

26. Galperin, P.J. Zu Grundfragen der Psychologie (Psixologiya-ning umumiy savollariga tegishli) Berlin, 1980.

27. Matern, B.; hrsg, von Hacker, W. Psychische Regulation von Arbeitstätigkeiten: innere Modelle - Strategien in Mensch-Maschine-Systemen - Anforderungen, Beanspruchung und Belastung (Mehnat faoliyatining psixologik regulyatsiyasi: ichki modellar – odam – mashina tizimiga strategik talablari, talab va yuklama) Berlin, 1976.

28. Miller, G.A.; Galanter, E.; Pribram, K.H. Strategien des Handelns: Pläne und Strukturen des Verhaltens (Harakat strategiyasi: rejalar va hulq tuzilishi) Stuttgart, 1973.

29. Gonsalves, A. M., & Pedro, N. (2012). Innovation, e-Learning and Higher Education : An Example of a University' LMS Adoption Process. *World Academy of Science, Engineering and Technology* 66 2012, 6(6), 258-265. Retrieved from <http://www.waset.org/journals/waset/v66/v66-46.pdf>

30. Muijs, D. & Reynolds, D. (2011). Effective Teaching: Evidence and Practice, 3rd Edn, Los Angels, Sage.

Elektron ta'lim resurslari

19. www.ziyonet.uz

20. www.edu.uz

21. Infokom.uz.elektron jurnali: www.infocom.uz

22. www.nuu.uz

23. www.bimm.uz



4-bob bo'yicha xulosalar

Mazkur bobda kasb-hunar ta'limi pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta'limni samarali tashkil qilishda innovatsion metodlar, pedagogik jamoada innovatsion faoliyat, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik mahorat, zamonaviy ta'lim sharoitida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari to'g'risida va ularning kirib kelishi o'qitishning yangi shakllarini ishlab chiqishni taqozo etishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'qituvchi avtoritar fikrlashdan voz kechib, yangi demokratik shakldagi pedagogik faoliyat bilan to'g'rilanib, o'quvchi hamkorligi, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish kerak bo'ladi. Bularning hammasi ruhiy va fiziologik kuchni va eski

uslublardan voz kechib, yangi innovatsion uslublarga o'tishini talab etadi. Innovatsion jarayonning murakkabligi shundaki, u pedagogdan faoliyatida psixologik o'zgarish kiritishni talab etadi. Shuni ta'kidlash joizki, muvaffaqiyatli ta'lim tizimi yuksak malakali va pedagogik mahoratga ega ilg'or o'qituvchilardan boshlanadi



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Pedagog faoliyati uch narsaga asoslanadi: boshqarish turi, axborot jarayoni turi, axborot berish vositalari turi. Ushbu faoliyat turlariga yana nimani qo'shimcha qilgan bo'lar edingiz.

2. O'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda yuqori samaradorlikka faqat uslubiy jihatdan yuksak darajada ishlab chiqilgan multimediali interfaol dasturiy ta'limotni va kompyuterli texnologiyalarni qo'llash orqali erishish mumkin degan fikrga sizning fikr va mulohazalaringiz.

3. Innovatsion va an'anaviy o'qitish shakllari bilan taqqoslang va uni tahlil qilib chiqing. Natijalarni guruhdagi o'quvchilar bilan o'rtoqlashing.

4. Innovatsion o'qitish metodlarining imkoniyatlarini misollar shaklida izohlab bering.

5-bob. KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA MUSTAQIL VA IJODIY ISHLARNI TASHKIL QILISH HAMDA O'TKAZISH

5.1. Mustaqil ishlar shakllari

O'quv maqsadi


*Ta'lim oluvchilarda mustaqil ishlar shakllari
bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish*

Kasb -hunar kollejlari mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash,
- seminarlar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish,
- loyihalar va amaliy topshiriqlarni bajarish,
- diplom ishiga tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolar yechimlarini topish,
- maket, model va namunalarni yaratish,
- hisoblashlar va grafik ishlarni bajarish;
- berilgan mavzu bo'yicha kompyuterlardan kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va referat tayyorlash;
- elektron darsliklardan foydalanib topshiriqlarni bajarish.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin. O'quv dasturlarida o'quvchi mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

O'quvchi mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli bo'limlarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, savollar va topshiriqlar majmui ishlab chiqiladi.



Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha o'quvchilarga zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Og'zaki mustaqil topshiriqlar:

– darslik bo'yicha materialni o'rganish va takrorlash, chizmalar va sxemalarni o'qish, turli texnik adabiyotlar hujjatlar va materiallarni o'rganish asosida o'qituvchi savollariga javoblar tayyorlash, ishlab chiqarish faoliyati tahlili kabilar kiradi. Materiallarni anglab mustahkamlash va yodlashga mo'ljallangan.

Yozma mustaqil topshiriqlar:

– hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlash-tiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Grafik mustaqil topshiriqlar:

– ularga turli chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash, ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va h.z), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar:

– o'quvchilar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida ma'lum detal tayyorlash, tugun va mexanizmlarini yig'ish, texnik jarayonlarni ishlab chiqadilar. Ushbu ishlarni bajarganda o'quvchilar asbob-uskunalarni tanlash, ishlov berish rejasini aniqlash va hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar kabi ishlarni amalga oshiradilar.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Muayyan bir mavzu bo'yicha mustaqil ish rejasini ishlab chiqing.

2. Ushbu mustaqil ishni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar bering.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Kasb-hunar kollejlarda mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadi nimalardan iborat?
2. O'quvchining o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda qanday shakllardan foydalaniladi?
3. O'quvchilarning mustaqil ishini tashkiliy shakllarining sxemasini tushuntiring.
4. Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha o'quvchilarga qanday zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mavzu o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin hamda o'quv dasturlarida o'quvchi mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi to'g'risida nazariy ma'lumotlar beradi.



Tayanch iboralar

Mustaqil ish, qobiliyat, referat, laboratoriya, loyiha, amaliyot, maket, model, elektron darslik, o'quv dasturi, uslubiy ko'rsatma, grafik, buklet, konferensiya, seminar.

5.2. Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish hamda o'tkazish

O'quv maqsadi

Ta'lim oluvchilarda mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Har bir fan bo'yicha o'quvchi mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi o'qituvchi shaxsiy ish rejasida qayd etiladi.

O'quvchi mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedra yoki bo'limda tuzilgan va bo'lim yoki kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

O'quvchining mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari guruh jumalida qayd etilib boriladi.

O'quvchi mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

O'quvchining mustaqil ishi, muayyan fan o'quv dasturida ajratilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi bo'yicha o'quvchining umumiy bahosiga kiritiladi.

O'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha olgan baholari guruh baholash oynasida yoritib boriladi.

O'quvchi mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli bo'lim yoki kafedra tomonidan belgilanadi va ilmiy-pedagogik kengashida muhokama qilinib tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari o'quvchilarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida o'quvchilarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda guruhlarda, bo'lim yig'ilishlari va kollej ilmiy-pedagogik kengashida muhokama etib boriladi.

O'quvchining mustaqil ishi bo'yicha bajargan ishlari (hisobot, referat, hisoblashlar va h.k) ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

Yuqori darajada baholangan o'quvchilarning mustaqil ishlari ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida mustaqil ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun muassasa rahbariyati va o'qituvchilar ayni vaqtda ham yaxshi pedagog, ham muassasa sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak.

Kasb-hunar ta'limi muassasalarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish kerak:

- o'quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarni takomillashtirish,

- ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

– ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Mustaqil ishlarda ishtirok etish muassasadagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi. Kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi mustaqil ishlarning mazmuni Kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan tasdiqlangan mustaqil ishlar to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar, hamda kasb-hunar ta'limi muassasasidagi ta'lim jarayonini o'rganish shundan dalolat beradiki, biz bugun o'quvchini mustaqil bo'lishga va o'rganishga qanday qilib o'rgatishimiz haqida o'ylashimiz kerak.

Masalan, o'quv xonasida hamma band. O'quvchilar guruh-guruh bo'lib ishlashmoqda. O'quvchilar uchun o'quv adabiyotlari etarli. Bir o'quvchi nimadir o'qiyapti. Ikkinchisi berilib daftarlariga bir nimalarni yozmoqda. Umuman o'quv xonasida hamma qandaydir ish bilan bandligi sezilib turibdi.

Ushbu dars shaklini kuzatib beixtiyor savol tug'iladi – o'qituvchi qani, agar o'quvchilar mustaqil ishlayotgan bo'lsalar o'qituvchi nima bilan mashg'ul? U o'quvchilarni muntazam nazorat qilish va ularga nima qilish kerakligi to'g'risida qat'iy ko'rsatmalar berish kerak emasligiga qanday qilib erishdi. Bu holatda shunday fikr tug'ilishi mumkin. «Qanday ongli o'quvchilar! O'qituvchining omadi bor ekan». Ammo real ta'lim sharoitida o'quvchilarning ongli va faol bo'lishlari bu – o'qituvchi ishining samarasidir.

Masalan: Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

1. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi (odatda 3-4 ta).
2. Har bir kichik guruh o'tilgan mavzular bo'yicha bir nechta savol (yoki topshiriq)lar tuzadilar.
3. So'ngra guruhlar o'zaro savollar bilan almashadilar.
4. Guruhlar «raqib» guruh tuzgan savollarga javob beradilar va eng ko'p savolga to'g'ri javob bergan guruh muvaffaqiyat qozongan deb hisoblanadi.

Demak, Kasb-hunar ta'limi muassasasida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan

maslhg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, ob'ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining maxsus fanlardan mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish bo'yicha maslhg'ulotlarni o'tkazish jarayoni modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelning har bir komponenti mohiyatiga to'xtalamiz.

1. Umumiy o'quv maqsadlari. O'quv maqsadlari muayyan ta'lim jarayoni yakunida o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi.

Har bir fanning o'quv maqsadlari to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy o'quv maqsadlarning mazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. Umumiy o'quv maqsadlari yo'naltiruvchi maqsadlarni aniqlashtiradi. Umumiy o'quv maqsadlari o'quvchi muayyan maxsus fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka haqida umumiy tasavvumi beradi. Quyida tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan «Kiyimni modellashtirish va badiiy bezak» fanidan umumiy o'quv maqsadlari belgilangan.

O'quvchilar ushbu fanni o'zlashtirgandan keyin quyidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

- kiyim modelini yaratish, tarixi, ularning vujudga kelishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi;

- moda va uning jamoatchilik tarzida vujudga kelishi hamda «Moda» to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi.

- kiyim modelini yaratish, badiiy bezash va ishlab chiqarish usullarini bilishi;


- kiyim kompozitsiyasi to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi;

- kiyim shakllari va ko'rinishlarini bilishi;

- kiyim modelini yaratishda ranglarning tutgan o'rini tushunishi.

– kiyim modelini yaratishda bezak beruvchi elementlarni bilishi.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish jarayoni modeli



Quyidagi amaliy ko'nikmalarni egallashi kerak

- o'ziga xos uslubdagi kiyim yechimining turlari, ko'rinishlarini tanlay olishi;
- kiyim kompozitsiyalarni ishlab chiqish;

– kiyim modelini yaratishda bezak beruvchi elementlarni tanlash;

– modelni yaratishda ranglarning xususiyatlarini tanlay olish;

– ayollar yengil ko'ylagning asos va eng chizmasini ishlab chiqish;

– kiyim qirqimlariga ishlov berish, shim taqilmasiga «molniya» tasma qo'yib tikish

Quyidagi malakalarga ega bo'lish kerak:

– kiyim kompozitsiyalarini yaratish;

– ayollar yubkasini modellashtirish;

– kiyim modelini yaratishda applikasiya va gajim tayyorlash va bezash;

– erkaklar shimini modellashtirish;

– kiyimlarga bezak berish

2.3. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish hamda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarning dars ishlanmasi hamda texnologik xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi. Biz tomondan «Tikuvchilik ishlab chiqarish» mutaxassisligiga o'qitiladigan «Kiyimni modellashtirish va badiiy bezak» maxsus fani bo'yicha mashg'ulotlar dars ishlanmalari, texnologik xaritalari ishlab chiqildi hamda shu asosda tajriba-sinov ishlari olib borildi.

4. Mustaqil ish

Kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati juda katta.

Mustaqil ishlar o'quvchining umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati

shundaki, o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi. Ta'limiy ahamiyati esa o'quvchi bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va boshqarish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil va ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda «oddiydan-murakkabga» hamda «umumiydan-xususiyga», «mavhumdan-aniqlikka» tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy ishlashiga ahamiyat berish kerak. O'qituvchi o'quvchi bajaradigan mustaqil ishlarni hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo'llarini o'rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

Kasb-hunar ta'limi muassasasida mustaqil ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish hamda unga rahbarlik qilish uchun muassasa rahbariyati va o'qituvchilar ayni vaqtda ham yaxshi pedagog, ham ta'lim sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak.

5. Mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar kichik guruhlarda hamda individual shaklda olib borilishi lozim. Individual shakl asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi. Har bir o'quvchi o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va inobatga olishi o'qitish sifatini oshirish hamda har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Pedagog o'quvchilarning darslardagi va ishlab chiqarish ta'limi vaqtida ustaxonalardagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari va ijodiy ish sifatida tayyorlagan

buyumlarini tekshiradi, maslahatlarda, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan ishlaydi.

O'quvchining kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri hamda irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, ularning hayotiy va mehnat tajribalarini, kollejga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi.

Bugungi kunda maxsus fanlar o'qitish jarayonida kichik guruh bo'lib ishlash shaklining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Maxsus fanlar bo'yicha nazariy bilimlarni berishda va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda o'quvchilar bir necha kichikroq o'quv guruhlariga taqsimlanadi hamda bu guruhlar mustaqil ishlaydilar. Kichik guruhlarining ish natijalari keyinroq butun guruh doirasida muhokama qilinishi mumkin.

Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar o'rganilishi kerak bo'lganda, shuningdek o'quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Bir nechta o'quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o'zaro hamkorlik vujudga keladi.

Guruhli bo'lib ishlashda ikkita holat farqlanadi:

- bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi;
- har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi.

Bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida bir necha guruhlariga bir xil topshiriqlar beriladi. Topshiriq va mashqlarni yechish sharoitlari ham bir xil bo'ladi. Shunday qilib, har xil yechimlar guruh ishi tugaganidan so'ng bir-biri bilan taqqoslanishi mumkin. Ko'pincha bunday hollarda raqobat holati yuzaga keladi. Ychim topilishi vaqtida esa raqiblikka o'xshash holatlar vujudga keladi. Bu yerda muhim narsa shuki, guruhlardagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari imkon qadar bir xil bo'lishi kerak.

Har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida beriladigan ish topshirig'i bir necha qismlarga bo'linadi. Faqat bu qismlar birlashtirilgandagina topshiriqning mazmuni aniq ko'rinadi.

Har bir guruh topshiriq oladi va mustaqil ravishda uning ustida ishlaydi.

Bunday yondashuvda bir guruh o'quvchilari faqat o'zlariga berilgan topshiriqlarni bilishadi xolos, ya'ni boshqa guruhlar ishlari haqida deyarli xabarlar bo'lmaydi. Shuning uchun ham natijalar qisman birlashtirilishi zarur.

Kichik guruhlarda ishlashda berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, chunki ularda o'quvchilar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor. Guruhiy ish uchun quyidagi o'qitish shakllari mos keladi:

1) Ustaxona shaklidagi guruhiy ish:

Ustaxonada bajariladigan amaliy mashg'ulot doirasidagi vaziyatga o'xshash kelajak faoliyat bo'yicha senariylar va muammolar ishlab chiqiladi. Buning uchun dolzarb muammolar o'rganib chiqilishi kerak. Bu muammolar o'quvchilarning dastlabki bilimlar darajasini inobatga olgan holda hamda ijodiy fikrlash bilan bog'liq holda o'quvchilarni yechimlarga undashlari kerak.

2) «Reja o'yini» shaklidagi guruhiy ish:

«Reja o'yinlari» belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar bunda muammoga bo'lgan har xil ta'sirlar natijaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rilishi kerak. O'quvchilar o'yin jarayonida o'zaro raqobat munosabatida bo'ladilar.

3) Loyiha shaklidagi guruhiy ish:

Loyihaviy ish bir loyihani aniq belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruhiy ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo'yicha aniq taqsimlanishi kerak bo'ladi.

6. Didaktik vositalar va materiallar.

Kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, o'quv-uslubiy adabiyotlar, didaktik materiallar bilan ta'minlash juda muhim.

O'quv-didaktik materiallarga o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Maxsus fanlar bo'yicha o'quv-didaktik materiallar sifatida nazariy darslarda matnli-vizual vositalardan, amaliy mashg'ulotlarda kurs materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar,

jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar kabilardan foydalaniladi.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar ...) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi. Shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funksiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Predmet vositalari tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flipchart, kodoskop (proyektor) kamera va kompyuterlar kiradi.

Ish sohasiga tegishli asl narsalar, ya'ni mahsulotlar, jihozlar va asboblarni nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak.

O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi. Agar o'quv va didaktik materiallar etarli bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirib tayyorlanishi kerak.

7. Faol ta'lim usullari.

O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish shuni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi.

O'quvchilarning faolligi ularning o'quv materialni egallab olishida o'quv xonasida, laboratoriyada, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Faollilik o'quvchilarning o'quv va mehnat

faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan.

O'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishda faollik, ya'ni fikriy, ongli ravishdagi ijodiy faollik muhim ahamiyatga ega. U o'quvchilarda o'z harakatlarini ko'rsatilgan namuna bilan mos ongli ravishda tuzatishlarida, ijobiy natijalarga olib keluvchi faoliyat usullarini mustaqil tanlashlarida, o'z mehnatlarini rejalashtirish, xatolarni tahlil qilish va tuzatishda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishda o'quvchilarning faolligi – bu ularning mashina, agregat, qurilma ishining tashqi belgilari bo'yicha ichki jarayonlarni tasavvur qilishlari hamda ushbu belgilarining tahlili asosida zaruriy hollarda uni rostdash bo'yicha maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.

Faol usullarini tanlash birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi yoki o'quvchilarning o'quv adabiyotlari va boshqa materiallar bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi.

Ikkinchidan, ta'lim usullarini tanlash o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq o'quv materialiga bog'liq bo'ladi. Bir mashg'ulotning o'zida bir nechta faol usullar qo'llanilishi mumkin.

Uchinchidan, o'quvchilarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi o'quv materialini o'quvchilarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bayon qiladi, didaktik vositalar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi.

O'quvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Faollik – ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ish-harakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

8. Aniq o'quv maqsadlari

Mavzular bo'yicha aniq o'quv maqsadlari mazmuni o'z navbatida umumiy maqsadlardan kelib chiqadi. Aniq o'quv maqsadlar aniq ifoda etilganligi tufayli ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Aniq o'quv maqsadlari bir mavzuga oid nazariy va amaliy

mashg'ulot yoki mustaqil ishlar bo'yicha o'l-chanishi mumkin bo'lgan aniq yakuniy bilim, ko'nikma, malaka hamda xulqni ifodalaydi. Aniq o'quv maqsadlari odatda ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi. Quyida «Kiyimni model-lashtirish va badiiy bezak» fanining «Ayollar kiyimi modellarini yaratish» mavzusi o'quv maqsadini belgilanish keltirilgan. Biz ushbu fanning barcha nazariy va amaliy mashg'ulotlari hamda mustaqil ishlar bo'yicha o'quv maqsadlarni ishlab chiqdik.

***Mavzu: Ayollar belli kiyimi modellarini yaratish
(6 soat).***

O'quv maqsadlari:

Ta'limiy: O'quvchilarda ayollar klassik yubkasini modellash-tirish, andoza tayyorlash va bichish bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirish,

Tarbiyaviy: O'quvchilarning yakka holda va kichik guruhlarda ishlash qobiliyatini shakllantirish, kasbga bo'lgan qiziqishlarini o'rttirish,

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Mashg'ulot davomida o'zlashtiriladigan amaliy ko'nikmalar:

- ayollar yubkasi turli variantlariga tashqi ko'rinishiga qarab texnik tavsif berish va ajratish;

- turli modeldagi ayollar yubkasining asos konstruksiyasi bo'yicha texnik model-lashtirish,

- yubka andazalari konturlarini chizish,

- yubka andazasini qir-qirish va uni rasmiylashtirish, gazlamaga joylashtirish hamda bichish.

Mashg'ulot davomida shakllanadigan nazariy bilimlar:

- ayollar yubkasi konstruksiyasini qurish usullari,

- yubkani model-lashtirish usullari,

- yubka andozasini tayyorlash usullari;

- yubka andozalarini rasmiylashtirishga qo'yilgan talablar;

- yubkani bichish texnik shartlari.

9. O'qitish jarayoni. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari hamda texnologik xaritalari asosida o'qitish jarayoni tashkil etiladi. Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish

topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. Har bir mashg'ulot o'quv maqsadiga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin. O'quv mashg'ulotlari pedagogik texnologiyalarga asoslangan «Yo'naltiruvchi matn» metodi bo'yicha o'quv mashg'ulotlar olib borilgan.

10. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlari.

O'qituvchining maxsus fan bo'yicha mustaqil va ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarga mustaqil bilish, fikrlash va ijodiy izlanishga majbur qiladigan, muammoli hayotiy dalillarga asoslanadigan vaziyatli topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi topshiriqlarni ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash orqali bajarishlari lozim.

O'qituvchilar mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'quvchilarning intilishlarini olqishlashi hamda to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. O'quvchi yakka holda samaraliroq ishlaydimi, yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; yoki unga elektron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

O'quvchi topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim.

Savollar yoki topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarni rivojlantirish, noma'lum yoki noaniq ma'lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin auditoriyadan tashqari mustaqil ishni tashkil qilish birmuncha murakkab jarayon. Chunki bu jarayonda o'quvchi mustaqil tarzda fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan holda bajarishlari kerak.

11. Joriy, oraliq baholash.

O'quvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat

o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida o'quvchilar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Bilim va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilishi to'g'risida o'quvchi va o'qituvchi muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. O'qituvchiga o'quvchilarning qaysi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi ish etarli darajada o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa o'quvchining o'rganish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchilarning o'quv materiallarini bilish, tushunish, xotirada saqlab qolish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z-o'zini baholash darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarning o'qishga qiziqishi, o'z yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'quv qiyinchiliklarni engish ishtiyoqi tug'iladi.

Natijalarni baholash orqali butun ta'lim jarayoni tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim jarayonida kutilayotgan o'quv maqsadiga erishilayotganlik darajasi tekshiriladi. Ta'lim berish davomidagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini ham inobatga olib baholashda quyidagilarni e'tiborga olish muhimdir:

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash;
- ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash;
- o'qituvchi o'z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- joriy va oralik o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- baholash natijalari bo'yicha ota-onalarga ma'lumot berish;
- dastlabki bilim va ko'nikmalar ta'lim natijasini baholash;
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun.

Baholashni quyidagi uch bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

Boshlang'ich baholash ta'lim jarayoni boshida o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Bunday baholash natijalari orqali maxsus fanni o'qitish jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o'tkazib borilishi lozim. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Oraliq baholash maxsus fan asosiy bo'limlari yoki modullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan keyin o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari baholanadi. Bu bilan o'quvchining bo'lim yoki model bo'yicha o'quv materialini qanchalik darajada o'zlashtirganligi haqida ma'lumotga ega bo'linadi. Lozim bo'lsa o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi. O'quvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida o'quvchilar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

12. Ta'lim natijasi. O'quvchilarni baholash monitoringini o'tkazish.

Yakuniy baholash o'quvchining fan bo'yicha o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash maxsus fanni o'qitish jarayonining yakunida o'tkaziladi. U joriy va oraliq baholash natijalarini jamlaydi. Ushbu model asosida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish jarayoni tashkil etildi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot uchun dars ishlanmasini ishlab chiqing.
2. Tanlangan mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzing.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Kasb-hunar ta'limi muassasalarida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun asosiy e'tiborni nimaga qaratish kerak?

2. Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar qanday tartibda bo'lishi kerak?

3. Kasb-hunar ta'limi o'quvchilarning maxsus fanlardan mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish jarayoni modelining har bir komponentini yoritib bering.

4. Guruhli bo'lib ishlashda qanaqa holatlar farqlanadi, guruhiiy ish uchun qanday o'qitish shakllari mos keladi?

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish hamda o'tkazish, rahbarlik qilish va bu jarayonda qo'llanadigan uslublar to'g'risida fikr yuritilgan. O'quvchi mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedra yoki bo'limda tuzilgan va bo'lim yoki kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar

Mustaqil ish, o'quv dastur, baholash mezonlari, hisobot, referat, umumilmiy, umumkasbiy, obyekt, model, mahorat, moda, kompozitsiya, dars ishlanmasi, texnologik xarita, individual qobiliyat, ijodiy qobiliyat, tafakkur,

5.3. O'quvchilarni mustaqil axborot olish va qayta ishlashga o'rgatish


O'quv maqsadi

O'quvchilarda mustaqil axborot olish va qayta ishlashga o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Axborotni qabul qilish anglash orqali amalga oshiriladigan umumiy shartlarni qabul qilishga ko'maklashuvchi bilimlar o'quv

jarayonlarining samaradorligini oshirish va uni boshqarish imkoniyatini ochib beradi. O'quv mazmunini qabul qilish orqali eslab qolishga oid empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ravishda qabul qilingan axborot xotirada yaxshi saqlanib qoladi.

Darslarda o'quvchilarning mustaqilligiga ko'maklashish, guruh tarkibidagi o'quvchilarning turli jinsda ekanligini hisobga olgan holda o'qituvchi tomonidan darsning ko'rgazmaliligini ta'minlash tavsiya etiladi.



Mustaqil holda axborot olish turlariga quyidagilar kiradi.

A) Bevosita haqiqiy vositalardan, jarayonlar, obyektlar, holatlardan axborot olish:

- Real vositalar

Bularga:

- gerbary, o'simliklar yig'ish;
- preparatlar (surkama preparatlar, uzoq muddat saqlash uchun preparatlar, osma tomizg'ilar);
- ekish materiallaridan namunalar;
- o'g'itlardan namunalar;

Ekskursiyalar, tashriflar va sayohatlardan olinadigan ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- korxonalarga qatnashish;
- ko'rgazmalarda qatnashish;
- ekskursiyalar va sayohatlar.

Kuzatuv orqali olinadigan ma'lumotlar:

- ishlab chiqarish / texnologik jarayonlar,
- hayvonlarning fe'l-atvori;
- turli xil o'sish davrlaridagi o'simliklar;
- mashinalar va asboblardagi kuch uzatishlar;

Sinovlar va tajribalar orqali olinadigan ma'lumotlar:

- ochiq havodagi tajribalar (masalan, maktab bog'i, qayta ishlab chiqarilgan xomashyolar uchun bog'lar);
- o'qituvchi tomonidan namoyish qilish yoki o'quvchilar tomonidan sinov o'tkazish ko'rinishidagi maxsus xonadagi yoki laboratoriyadagi tajribalar.

B) O'qitishning texnik vositalari yordamida axborot olish.

O'qitishning texnik vositalari haqiqiylik bergan tajribalarning faqat ikkilamchisiningizina uzatadi. Chunki u haqiqiy emas, balki uning aksi yoki o'xshatishi bo'lib hisoblanadi. Shunday bo'lsada, ular qisqa vaqtda va ta'lim muassasasi sharoitlarda haqiqiylikni ko'rgazmali tushuntirib berish imkonini beradi va axborot olishda o'z hissasini qo'shadi.

S) Slaydlar va taqdimotlarni (masalan, taqdimot uchun dasturli ta'minotdan foydalanish bilan) – ko'rib chiqish va mumkin bo'lgan takrorlash vaqtini tanlash tufayli kuzatuvchiga turg'un axborot olish imkonini beradi.

O'quvchilarda axborotning xoitirada yaxshi saqlanib qolinishini ta'minlashga quyidagi talablarni inobatga olish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarga mos keladigan mazmunni tanlash,
- axborot mazmunining ahamiyatliligi va tushunarliyiligi ta'minlash;
- mazmunining aniq tasvirlanishi.

Ishchi tavsiyalar:

- maqsadga yo'naltirilgan ravishda qo'llash haddan ziyod zo'riqishlarga yo'l qo'ymaslik (ko'p davom etuvchi passiv o'quv holatlarida o'quvchilar toliqadi va diqqat qilish qobiliyati pasayadi);
- diqqatni saqlab qolish uchun bajarilishi lozim bo'lgan ishchi topshiriqlar;
- asosiy (muhim) fikrlarni yakuniy mustahkamlash.

D). Modellardan axborot olish

Modellar – bu haqiqiylikni oddiylashtirib, abstrakt aks ettirish yoki texnik mahsulotni kichraytirilgan masshtabda o'xshatish.

E) Film va videolar – bu dinamik tasvirlargi yozib olish va qayta ishlash uchun elektron usul bo'lib, uni axborot tashuvchilariga saqlash mumkin.

– magnit tasmasiga bir xil yozib olish, bir xil ishlov berish: VHS formatidagi videokasseta;

– magnit tasmasiga raqamli yozib olish, raqamli ishlov berish: (mini) DV va raqamli videomontaj;

– DVD videodiskiga yoki qattiq diskka MPEG-2 formatigacha siqish bilan raqamli yozib olish;

– xotira xaritasiga MPEG-4 formatigacha siqish bilan raqamli yozib olish

Afzalliklari

– haqiqiy tasavvur qilish orqali murakkab jarayon va obyektlarni bevosita qabul qilish va yangiliklarni o'zlashtirish,

– rivojlanish, voqealar, harakat jarayonlari va boshqalar to'g'risida yaqqol ko'rgazmali tasavvurlar hosil qilish;

– narsalar va fikrlar o'zaro bog'liqligining keng ko'lamlarida alohida hodisalarni tasvirlash;

– tezkor suratga olish, sekin suratga olish kabi muhim texnik imkoniyatlarni qo'llash

Ishchi tavsiyalar:

– o'quvchilar oldida o'quv maqsadlarini qo'yish va ishchi topshiriqlar hamda kuzatuvlar bo'yicha topshiriqlarni tarqatish yordamida foydalanishga tayyorlash;

– foydalanish vaqtini cheklash (20 daqiqagacha);

– topshiriqlarni nazorat qilish va ochiq savollarga javob berish yordamida foydalanishni baholash.

Film – bu o'qitish uchun emas, balki o'quv mazmunini ko'rgazmali tasavvur qilish uchun yordamchi vositadir

M) Bosma manbalar (darslik va maxsus adabiyotlar, maxsus jumallar, ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqalar).

Talablar:

- o'quvchilarga o'zining hajmi va ifodasi bo'yicha mos kelishi;
- mazmun bo'yicha dolzarbligi va mosligi;

- muayyan va ko'rgazmali tasvirlanishi,
- bilim va ko'nikma orttirishga qulayligi.

Bo'lajak o'qituvchi axborotlarni mustaqil izlash va topish bo'yicha quyidagi metodik kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak

**Metodik
kompe-
tensiya**

- axborot qidirish va yozib olish haqidagi asosiy bilimlarni egallash;
- atamalar va xorijiy so'zlar to'g'risida asosiy bilimlarni egallash;
- texnik matnlarni tuzish uchun masalalarni qoplash bo'yicha dasturlar;
- o'zlashtirishni nazorat qilish - o'quvchilar tomonidan tahlil - savollarga javoblar.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. An'anaviy texnik o'qitish vositalarga misollar keltiring.
2. Zamonaviy texnik o'qitish vositalarga misollar keltiring.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish maqsadi nimalardan iborat?

2. Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar qanday tartibda bo'lishi kerak?

3. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar qanday tuzilishi lozim?

4. Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talabni aniqlang.

5. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish jarayoni modelini tushuntiring.

6. Dars jarayonida guruhli bo'lib ishlashda qanday holatlar farqlanadi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mavzuda mustaqil axborot olish va qayta ishlashga o'rgatish bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltirilgan.



Tayanch iboralar

Hisobot, referat, hisoblash, milliy mustaqillik, nazariy va amaliy izlanishlar, amaliy ko'nikma, nazariy bilim, malaka, shaxsiy imkoniyat, tushunuvchanlik, didaktik vosita, loyihaviy ish, filipchart, kodoskop, proyektor, model, maket, ko'rgazmali tasavvur.



5-bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Olimov va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent. Moliya -2006

2. Махмутов М.И и др. Педагогические технологии развития мышления учащихся Казань -1993.-88с.

3. Jalolova D.F. Maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish (Kasb-hunar kollejlarning «Tikuvchilik ishlab chiqarish» yo'nalishi misolida): Ped. fan. nom. dis. – T.: 2009. – 140 b.

4. Ziyomhammadov B., Abdullayeva SH., «Ilg'or pedagogik texnologiyalari» T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001. – 80 b.

5. Jalolova D.F. Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlardan mustaqil ishlarni tashkil etish, o'tkazish va baholash. Uslubiy qo'llanma. –Buxoro, Texno-tasvir. 2005.- 45 b.

6. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishni psixologik asoslari. Psix.f.d.i.d. olish uchun yozish dissertatsiya. –T., 2005 - 59 b.

7. Sadiqova F.M. Mustaqil ishlarni tashkil etishning didaktik tamoyillari // J. Kasb-hunar ta'limi. -2007. -№5. - B.7-8.

8. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям - М.: Ассоциация "Профессиональное образование", 1997. - 512 с.

9. Wilhite, S. C. (1990). Self-efficacy, locus of control, self-assessment, self-assessment of memory ability, and study activities

Elektron ta'lim resurslari

10. www.ziynet.uz
11. www.edu.uz
12. Infokom.uz.elektron jurnali: www.infocom.uz
13. www.nuu.uz
14. www.bimm.uz

5-bob bo'yicha xulosalar

O'quv ko'llanmaning «Kasb-hunar ta'limi muassasalarida mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil qilish hamda o'tkazish» deb nomlangan bobida mustaqil va ijodiy ishlar shakllari, mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish hamda o'tkazish, o'quvchilarni mustaqil axborot olish va qayta ishlashga o'rgatish bo'yicha ma'lumotlar va takliflar bayon qilingan bo'lib, mustaqil ishlarni bajarish uchun fanlar bo'yicha o'quvchilarga zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Kasb-hunar ta'limi muassasalarda mustaqil ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun muassasa rahbaryati va o'qituvchilar ayni vaqtda ham yaxshi pedagog, ham ta'lim sirlarini yaxshi biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkinmi? Ushbu shakllardan foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqing va guruhdagi o'quvchilarga taqdim eting.

2. Taqdim etilgan tavsiyalardan foydalanib, maxsus fanning tegishli bo'limlarida mustaqil ishning tashkiliy shakllari, savollar va topshiriqlar majmuini ishlab chiqing.

3. Grafik shakldagi mustaqil topshiriqlarni amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar bilan taqqoslang. Taqqoslashlar natijasini grafik

shakliga keltiring. Har bir shaklni kamchilik va ahamiyatli tomonlarini izohlang.

4. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash shakli bo'yicha fikr-mulohazalaringizni referat shaklida rasmiylashtiring.

5. O'quvchi mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari bo'yicha shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqing.

6. Mustaqil ishlarning tarbiyaviylik va ta'limiy ahamiyati to'g'risida fikr mulohazalaringizni misollar yordamida bayon eting.

7. Siz pedagog sifatida mustaqil va ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda nimalarga e'tiboringizni qaratgan bo'lar edingiz? Fikrlaringizni izohlab bering.

8. Siz dars berayotgan fandan o'quv va didaktik materiallar etarli bo'lmasa, sizning harakatlaringiz nimadan iborat bo'lar edi? Harakatlar ketma-ketligini yozib chiqing.

9. Guruh tarkibidagi o'quvchilarning turli jinsda ekanligini hisobga olgan holda darsning ko'rgazmaliligini ta'minlash yo'llarini ishlab chiqing va o'quvchilar e'tiboriga havola eting.

6-bob. KASB-HUNAR TA'LIMIDA KASBIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

6.1. Tarbiya – kasbiy faoliyatni tashkil etish vositasi

O'quv maqsadi

Talabalarni tarbiya orqali kasbiy faoliyatini tashkil etish, pedagogikada mavjud tarbiya berish usullari bilan tanishtirish

«Tarbiya san'ati – deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa, hatto oson tuyulish xususiyatiga ega, u qanchalar tushunarli va oson tuyulsa, o'sha inson u bilan nazariy va amaliy jihatdan shunchalar kam tanish», degan edi K.D. Ushinskiy.

Tarbiya asosan, quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko'rsatish va tushuntirish, rag'batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontrish va tahlil qilish. Ana shunday ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga keltirib, ma'lum tomonga yo'naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to'g'rilab hamda shuning bilan birga faoliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada tarbiya berish usuli ikki turga bo'linishi qayd etilgan. Avvalgi usul, (ilhomlantiruvchi) san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul, (majbur etish) esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Tarbiya beruvchi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchilarning qo'llaydigan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat, mazkur mamlakatda yashovchining muallimi, tarbiyachisi bo'ladi. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o'z yo'lida bolalar yoki mehnatkashlarga tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.

Forobiy tarbiyaning usuli deganda axloqiy fazilatlarni tushunadi. Uning tasavvurida axloqiy fazilatlar bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlardir. Ammo bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham, Farobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilarning aqliy faoliyatning natijasi sifatida ham talqin etilganligini ko'ramiz. Forobiy ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqida»... *insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l, – ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat, nazariy bilimlar va omiliy kasb-hunar, xulq - odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan amalga oshiriladi*» deb ta'lim beradi.

Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi deb uqtiradi allomamiz.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy, axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi deb tushuntiradi.

Bahouddin Naqshband tarbiyaviy qarashlarining markazida orif insonni shakllantirish g'oyasi yotadi.

Orif inson avvalo aqli, ilmi va ma'rifatli bo'lishi lozim. Uning ta'limotiga ko'ra insoniy ilmi shariat, ilmi ma'rifat va ilmi haqiqatni o'z ichiga olgan tasavvur ta'limotidan iborat bo'lishi lozim. Bu yo'l orqali insonlar mavjud dunyo tilsimlarini o'rganishlari va bilishlari imkoniyatiga ega bo'ladilar.


Xo'ja Bahouddin Naqshbandning bu ta'limotini o'rganuvchilarga piru ustoz bo'lib ta'lim berganlar. Piru ustoz Naqshband muridlar (shogirdlar)ning dunyoqarashini kengaytirib Valiy avliyo darajasigacha aqlini rivojlantirganlar, ularga ta'lim berish uslubiyotini ishlab chiqqanlar. (Bu toifa uch qismga bo'linadi: muqallid, oif va mukammal). Bu pedagogika buyuk sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilishida g'olibona harbiy yurishlarida, mamlakatda asosiy tartib o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish,

xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik mehr-shavqat, odamiylik va axloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga katta yordam bergan. Ustozning axloq va odob haqidagi ta'limotiga quyidagilar kiradi:

- adolat va adolatsizlik;
- so'z va ishning birligi;
- do'st va dushmanlik;
- botirlik va qo'rqqoqlik;
- so'z va shirinsuxanlik.

Ta'lim-tarbiya ishlari ham Naqshband g'oyalarini ifoda etuvchi mafkura sifatida amalga oshiriladi. Farzandlarga islom diniga e'tiqod qilishni o'rgatish bilan birga alloma mehnatni sevishni, axloqli bo'lishni, odamlarga yordam ko'rsatishni, bilim olish, hunar o'rganish va boshqa olijanobliklarni uqtiradilar. Masjid va madrasalarda talabalar ongida ollohga yaqin bo'lishning to'g'ri va samarali yo'li tarki dunyochilik emas, balki jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mehnatni qadrlash, ilm va bilim olishdir. Mukammal axloqqa erishish, xullas jamiyat hayotida faol ishtirok etishni taqozo etadigan xulq-atvorni, sa'y-harakatni o'zida mujassam etadigan mafkura izchil ravishda singdirildi.

Agar bolalarga jazo berish sabablarini chuqur tahlil qiladigan bo'lsak, burchakda tik qo'yish yoki shinnlikdan mahrum qilish jazosini atroflarida shu «sho'r suv»ni «shimish»ga olib keladigan shunday muhitni yaratib qo'rganlarini sezmaydigan kattalarga berish kerak bo'ladi. Lekin ularning shularsiz ham muammolari ko'p, shuning uchun ular o'zlariga tinmay: «Men o'z ehtiyojlarimni boshqarayapmanmi? Nimani afzal ko'rib, nimani ko'proq qadrlayapman? Va bu xatti-harakatim boshqalarga bo'lgan munosabatlarimda qanday aks etayapti?» degan savollarni beraverishdan tortinadilar. O'z hissiyotlarini boshqarish, ularni (o'z erkinligini) cheklash, boshqasini (va uning erkinligini) hisobga olish – tarbiyaning asosi. Shu ma'noda, o'quv dargohini (o'qituvchilar) mutaxassislar rahbarligi ostida mashq qilib ko'rish mumkin bo'lgan mashq maydonchasiga o'xshasa bo'ladi. Tajribali tarbiyachi, eng avvalo, har bir talabaning o'z hissiyotlarini hisobga olib, uni maqsadga yo'naltiradi, ularni boshqarish uchun sharoit yaratib beradi. Bu jadvalda shunday ko'rinish kasb etadi:



Hissiyotlar boshqarilishi – bu dolzarblikni tushunish, qiziqish harakatga undovchi sabab – faollik, qaror qabul qilish demak. Agar har birimiz o'z dunyoqarashimizni kengaytirish orqali o'z hissiyotlarimizni boshqarish, muvofiqlashtirish, me'yorga intilishni o'rgansak, hayotimizdan jahldorlik, ochko'zlik, munofiqlik ketib, aqlimiz kiradi. Ongimizning aynan shu qismi o'z hayotimiz ma'naviyati darajasini boshqaradi, ya'ni yaxshilik yoki yomonlik; ijodiy yaratuvchanlik yoki bema'ni vayrongarchilik; boshqalarga nisbatan sevgi yoki nafratga o'z munosabatimizni belgilaydi.

Xulosa qilib aytsek, tarbiyani o'z hissiyotlarini, xohish va istaklarini boshqarish jarayoni, deb aytsek xato bo'lmaydi.

Pedagogik jarayonda o'z hissiyotlarini boshqarishni har bir talabaga o'rgatish bu maqsadni aniq mo'ljalga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

O'qituvchi auditoriya bilan o'zaro muloqot (o'quv jarayonidan alohida vaqtda emas) o'z vaqtida tarbiyaviy jarayon borayotganligini anglay olishi darkor. Qiziqishlarini saqlab qolish, asoslab bera olish, faolliklarini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarda pedagogik jarayonda maqsadni yuzaga keltiradi, ular kasbiy faoliyatda juda zarur bo'lgan o'zliklarini anglash mashqini oladilar.


O'quv jarayoniga qadam qo'ygan talabalar o'qish mazmunida qo'yilishi kerak bo'lgan o'z ichki ehtiyojlari (ichki normalar)ga ega bo'ladilar, ya'ni ba'zi bir tashqi narsalar (informatsiya) hozircha ularga begona bo'lgan har qanday narsa ularni hushyorlikka chorlaydi.

Narsa hodisaning tarkibini sistemali (tizimli) ravishda ko'rish kerak, ya'ni ma'lum ilmiy bilimni zanjirga aylantirish: sistema

(elementlar va aloqalanish), yoki podсистема (elementlar va aloqalar) va h.k.

Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo'lib – malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifalar xizmat qiladi va ular kasbiy faoliyatga o'qish yordamida madaniyatga ega bo'ladilar.

Kasbiy faoliyat mazmunini, uning quyidagi qurilma ko'nnishida ko'rish mumkin:




Jadvaldan ko'nnib turibdiki, o'lchovga mazmun va mezon ta'sirini ko'rsatish orqali amalga oshadi va u kasbiy madaniyatni shakllantiradi. Bu shaxsning kasb ko'nikmalarini o'stirishga xizmat qiladi.

Ko'pincha kattalarning ta'limdagi odatiy texnologiyalari – ma'lumotlarni berishgagina yo'naltirilgan bo'ladi va shu sababli talabalarga har qanday mazmunda bo'lishi mumkin bo'lgan o'z muammolarini hal qilish metodi, usuli va texnologiyasini o'zlash-tirishga sharoit yaratilmaydi. Bunda mazmun tuzilmasi fikrlash texnikasini, uni taqdim etish usuli esa kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirmaydi. Bu kasbiy faoliyat uchun salbiy holatdir.

Faqatgina pedagogik texnologiyalarda talabaning ichki xususiyatlarini o'stirish, ularni ichki mazmuniga bog'liq holda amalga oshirilgan taqdidrigagina tarbiya va ta'limda unumdorlikni kam yo'qotishi mumkin. O'qituvchi «mening yo'limdan yur» talablari o'miga «Atrofqa qara, o'yla, tanla, mening yordamimda o'rgan» talabiga o'shagina bu kasbiy faoliyatni tashkil etish maqsadli bo'ladi. «Taraqqiyot va ta'lim biror kishiga tayyor holda xabar berilmaydi va taqdim etilmaydi. Buning uchun istagan har bir odam unga o'z

faoliyati, o'z kuchi va o'z intilishi orqali erishadi» - degan edi, A. Disterveg.



Pedagogik faoliyatda o'qituvchining fikrlashi (fikrlash texnikasi), so'z bilishi (kommunikativ) qobiliyati, izlanuvchan ongi va anglanganligi (refleksli) harakatida namoyon bo'ladi.

Fikrlash texnikasi qobiliyatlarni rivojlantirish, izlanuvchanlik texnikasini egallashdan kelib chiqadi.

Har qanday pedagogik texnologiya ham o'qituvchi, ham talabadagi fikrlash texnikasini amalga oshirish jaryonida sodir bo'ladi va rivojlanadi.


Tabiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning funksiyasi ta'lim jarayonining asosini tashkil etadi.

Atrofimizga qaraylik: bizni norozi qiladigan hamma holatlar bir-birimizni tushunmaslik, bir-birimiz bilan kelisha olmasligimiz, o'z fikrimizni o'zgalar diqqatiga etarli darajada asoslab, nuqtayi nazarimizni, himoya qila olmasligimizdan kelib chiqadi. Donishmandlardan biri «oxirgi dalil-o'q» deb bekorga aytmagan. Demak, o'q otishning raqobatdoshi - ko'proq, salmoqliroq dalillarni keltirish ekan, ya'ni fikrlash ekan, u albatta - natijali bo'ladi. Pedagogik jaryonda *kommunikatsiya* ro'y beradi - intellektual va hissiy mazmunlar almashadi, ya'ni pedagogik muhitda qayd etilganidek.

to'g'ri va teskari aloqa, ya'ni natijali kommunikatsiya sodir bo'lishini tashkil etish orqali o'qituvchida yuqori malaka shakllanadi.

Refleksiv qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlarining ishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik ijodkorlik va mahorat ko'pincha o'qituvchining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Biror yangilik yaratishga, o'z harakatlarini, tajribalarini qaytarishga urinish, agar sharoit o'zgarishi, ya'ni yangilik elementlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bunda o'qituvchiga ijodiy qobiliyatlar zarur bo'ladi.

Agar ta'lim sub'ekti to'g'risidagi bizning tasavvurimiz bizni o'rab turgan olam yaxlitligiga mutanosib ravishda: fikr - so'z - harakat («ruh» - «sotsio» - «bio») bilan hamjihat bo'lsa, bizning pedagogik jarayondagi vazifamiz – shu yaxlitlikni ta'minlash uchun asos bo'ladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:



Fikr, so'z, harakat mazmunidan o'rin olgan qobiliyatlar o'zgarishi – tabiat in'om etgan hamma narsani ongimizda rivojlantirishi mumkin.

Moyillik, pedagogik jarayonda aynan metodlar – talabalarning faoliyat yo'nalishini aniqlaydi va belgilaydi, o'qituvchining mahoratiga bog'liq ravishda u yoki bu qobiliyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan o'quv yurtini faqat ilm olish maskani emas, balki mashq maydonchasi sifatida ham ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Chunki u yerda bo'lajak kasbiy faoliyat egalari o'z qobiliyatlarini malakali mutaxassislar rahbarligida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda metod boshqaruvchi rolida bo'ladi. Qarang:



Ba'zan metod unumdorligi kasbiy faoliyat unumdorligi bilan almashtiriladi. Ayni paytda, metod tanlashda quyidagi asosiy mezonlardan foydalaniladi:

- talabalar qobiliyatini rivojlantirish;
- faoliyatning kasbiy vositalar bilan mutanosibligini ta'minlash;
- refleksiya, kommunikatsiya, fikrlash texnikasining ijtimoiy-madaniy o'lchovlarga muvofiqlashtirish;
- pedagogik jarayonning mazmuni va maqsadlariga mutanosiblikni ta'minlashdan iborat.

Kasbiy faoliyatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy buyurtma olgan zamonaviy oliy ta'lim tizimining yaxlitligi birinchi darajali bo'lgan sifat o'zgarishlarini o'z boshidan kechirmoqda.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

Muayyan bir mavzuga pedagogik vazifalar hamda o'quv natijalarini shakllantiring.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Pedagogik vazifaga ta'rif bering.

2. Pedagogik vazifa o'z ichiga nimalarni oladi?
3. Kasbiy faoliyat mazmunining asosi bo'lib nima xizmat qiladi?
4. Pedagogik ijodkorlik va mahorat nimaga bog'liq?
5. Metod tanlashda qaysi asosiy mezonlardan foydalaniladi?
6. Ushbu mezonlarga izoh bering.



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Mavzuda o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik mahorat bilan yondashuv hamda bu vaziyatlar boshqarishda buyuk ajdodlarimizning fikrlarining ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.



Tayanch iboralar

Tarbiya, tarbiyachi, donolik, aql, tafakkur, axloq, axloqiy fazilat, bilimdonlik, donolik vijdonlilik, kamtarlik, mulohazalilik, adolatlilik, ma'naviy yuksaklikka intilish, orif inson, muqallid, oif va mukammal, refleksiv qobiliyat.

6.2. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati to'g'risida

Talabalarni zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati bilan tanishtirish va nazariy bilimlarni kengaytirish

Zamonaviy ta'lim to'g'risida so'z yuritganda, muayyan mutaxassisim tayyorlashda ta'lim va tarbiya berishni asosiy qonuniyatlari amalga oshirish shart. Bunday qonuniyatlardan biri «Pedagog-o'qituvchi» munosabatini erkinlashtirish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbi-pedagogik faoliyatining xususiyati shundaki, u xuddi ikki taraflama mehnat predmetiga egadir. Bir tomondan uning asosiy vazifasini insonlar bilan o'zaro munosabat tashkil qilsa, ikkinchi tomondan ma'lum bir kasb sohada maxsus bilim, ko'nikma va mahoratga ega bo'lishni talab qiladi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi uchun bu ma'lum bir kasb faoliyat bo'yicha bilim va mahoratidir.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish ta'lim ustasi talabalarning mehnat faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olishi kerak. Bu kasb tarbiyashunoslik va maxsus soha bo'yicha tayyorgarlikni talab etadi. Demak, ishlab chiqarish ta'limi ustasi xushmuomala bo'lishi, shuningdek, ma'lum shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbining o'ziga xosligi uning ijtimoiy, jamoaviy va ijodiy tavsifidan iboratdir.

Oliy ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish ta'limi ustalari ishining tahlili shuni ko'rsatdiki, bugun u Davlat ta'lim standartida belgilangan tayyorgarlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda tarbiyaviy, tashkiliy, boshqaruvchanlik, o'quv uslubiy ishlarni bajarish kabi mahoratga ham ega bo'lishi kerak.

Bu yerda bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ish bo'yicha ko'nikma va mahorati, ta'lim jarayoni faoliyati jarayonida shakllanishi kerak. Aynan usta talabalarda kasb madaniyati bo'yicha dunyoqarash, odob-axloqning shakllanishi bo'yicha bosh vazifani hal qiladi. Bu funksiyalarni bajarish uchun ustaning o'zi mos ravishda tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

Ta'kidlab o'tganimizdek, ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb faoliyati avvalambor talabalar bilan bog'liqdir. Bu o'zaro harakat, ya'ni «Pedagog-o'qituvchi» tarbiyaviy munosabatlari doirasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish ta'limi ustasi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatiga ikki taraflama yondashish kerak. Birinchidan, kasb ta'limi mazmuni bo'yicha usta u yoki bu maxsus sohada ma'lum bilim, ko'nikma va mahoratlarning tashuvchisi hisoblanadi, biroq shu vaqtning o'zida talabalar bilan o'zaro harakatda bo'lib, u burch, vijdon, adolat tashuvchi shaxs sifatida xizmat qiladi.

«Usta-talaba» tizimidagi o'zaro munosabatlar muhim pedagogik shartlardan biri bo'lib, bo'lajak kichik mutaxassislarni tarbiyalashning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ishlar sohasidagi bilim va mahorat darajasi faqat ularning pedagogika, psixologiya, ishlab chiqarish ta'limi uslub bo'yicha savollarga bergan javobi bo'yicha baholanadi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatida tarbiyaviy yo'nalish inobatga olinmagan va o'quv rejasida ham bunday fan yo'q.

Nazariy jihatdan u yoki bu faoliyat tayyorgarligini baholash quyidagi komponentlar asosida amalga oshiriladi. Bular motivatsiyali yo'naltiruvchi ijtimoiy-psixologik va jarayonli komponentlardan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining motivatsiyali komponenti tarbiyaviy ishga ijobiy munosabatni, tarkib toptirish, rivojlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. «Tarbiyaviy ishda motivatsiya» deganda tarbiyaviy faoliyat mazmunini, yo'naltirilganligi va tavsifini aniqlovchi motivatsiyalar, to'plami tushuniladi.

Tarbiyaviy faoliyatning tashqi motivatsiyalari mavjud bo'lib, ularga ta'lim muassasasidagi ishning ustuvorligi, pedagog sifatida shaxsiy va kasbiy o'sish imkoniyati, tarbiyaviy motivatsiyalarga ishlab chiqarish ta'limi ustasi faoliyatining jarayoni va natijasini kiritish mumkin. Shuningdek, motivatsiya sifatida va boshqaruv motivatsiya ham mavjud bo'lib, bular ishlab chiqarish ta'limi ustasi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi harakatida yuzaga chiqadi.

Ustaning etakchi tarbiyaviy motivatsiyasi bo'lib, talaba shaxsi-ning bo'lajak malakali kichik mutaxassis sifatida shakllanishiga g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishga tayyorgarlikning yo'naltiruvchi komponenti ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasb faoliyati xususiyatlarini va sharoitlarni to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini o'z ichiga oladi va qiziqish, yondashuvchanlik, dunyoqarash, ishonch hosil qilish, ko'zlangan maqsad orqali kasbiy yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Qiziqishi asosan yo'naltirilganlikning birinchi shakli hisoblanib, o'rta maktabda shakllanishni boshlaydi. Tarbiyaviy ishga qiziqish bir qancha talablarga ega bo'lib, insonlarning o'zaro ta'siri bilan bog'liqdir. Qiziqish shuningdek tarbiya sohasidagi ma'lum bilimlarga bo'lgan talabni ham ifodalaydi. Maktabda olingan bilim tarbiyaviy ishga bo'lgan qiziqishga asos bo'lishi mumkin.

Qiziqish mehnat faoliyati sifatida talabalarni ma'lum yo'nalishda harakatlanishlariga majbur qiladi.

Tarbiyaviy ishga bo'lgan qiziqish «Bilimga chanqoqlik»ni keltirib chiqarsa, yondashuvchanlik- «Faoliyatga chanqoqlik»ni yuzaga keltiradi. Yondashuvchanlikni bo'lajak ishlab chiqarish ta'limi ustasining o'qitish va tarbiyalash jarayonida doimo rivojlantirib borish zarur.

Ma'lumki, dunyoqarash dunyo haqidagi uning qonuniyatlari haqidagi, insonni o'rab turgan mavjudotlar, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlar va tasavvurlar tizimini bildiradi.

Tarbiyaviy faoliyatga nisbatan kasbiy dunyoqarash, qiziqish va yondashuvchanlikdan farqli ravishda tarbiyaviy ish haqida to'liqroq integratsiyalangan tasavvumi beradi.

Kasbiy dunyoqarash, fikrlash va iroda bilan birga asta-sekin shakllanib va rivojlanib boradi. Tarbiyaviy ishda kasbiy dunyoqarashni shakllantirish–ishlab chiqarish ta'limi ustasini tayyorlashdagi bosh vazifa bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy-psixologik komponent – ishlab chiqarish ta'limi ustasining talabalar bilan muomala va o'zaro hamkorlik qilishdagi adekvat faoliyatini ta'minlaydi.

Jarayonli komponent ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy uslub va usullarini egallashida, ularni bajarish uchun bo'lgan bilim, ko'nikma va mahoratni sintez qilishda ifodalanadi.

Tarbiyaviy faoliyat – darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhii ishlarni shakllantirishni, psixologo-pedagogik tashxis o'tkazishni, talabalardan shaxs sifatida shakllanishini, otonalar bilan ishlashni o'z ichiga olishi mumkin.

Demak, ishlab chiqarish ta'limi ustasi pedagog kabi bo'lib, uning vazifasi bo'lajak kichik mutaxassisni shaxsini tarbiyalash va shakllantirishdan iboratdir.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining kasbiy xususiyatlarini jadvalga tushiring va har biriga izoh bering.
2. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining motivatsiyali komponenti ta'sir qiluvchi omillarni aniqlang.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbi pedagogik faoliyatining xususiyati nimadan iborat?

2. «Usta-talaba» tizimidagi o'zaro munosabatlarga nimalar kiradi?

3. Ustaning etakchi tarbiyaviy motivatsiyasi bo'lib nima xizmat qiladi?

4. Tarbiyaviy faoliyatga ta'rif bering.

5. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining tarbiyaviy ishlar sohasidagi bilim va mahorati qay tarzda baholanadi?

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati hamda zamonaviy ta'limda muayyan mutaxassisi tayyorlashda ta'lim va tarbiya berishni asosiy qonuniyatlarining amalga oshirilishi, «Pedagog-o'qituvchi» munosabatini erkinlashtirish to'g'risida fikr yuritiladi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi kasbi – pedagogik faoliyatining xususiyati shundaki, u xuddi ikki taraflama mehnat predmetiga egadir. Bir tomondan uning asosiy vazifasini insonlar bilan o'zaro munosabat tashkil qilsa, ikkinchi tomondan ma'lum bir kasb sohada maxsus bilim, ko'nikma va mahoratga ega bo'lishni talab qiladi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi uchun bu ma'lum bir kasb faoliyat bo'yicha bilim va mahoratidir.

Tayanch iboralar

Mehnat faoliyati, kasb madaniyati, mahorat, tarbiyaviy motivatsiya, qiziqish, yondashuvchanlik, o'zaro hamkorlik, kasbiy dunyoqarash, tabiat va jamiyat

6.3. Talabalarni kasbga yo'naltirish ishlari

O'quv maqsadi

Talabalarda kasbga yo'naltirish bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Mustaqil respublikamizning buyuk kelajagini yaratishda yosh avlodni faol qatnashishga jalb etish bevosita kasbga yo'naltirish ishi bilan bog'liq.


Yoshlarni kasbga yo'naltirish muammosi bilan pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar kabi boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar shug'ullanadi. Bu muammo ustida ko'p soha mutaxassislarining shug'ullanishi uni majmuaviy hal etilishiga sharoit yaratadi. Yoshlarda fan-texnika, texnologiya asoslari haqida mukammal bilim, kasbiy ish-harakat usullari shakllantirish, ular tomonidan ongliklik, mustaqillik, ishbilarmonlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlarni o'z mulkiga aylantirishiga erishish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini muhri vazifasidir.

Kasbni to'g'ri tanlash – inson hayot faoliyatidagi muhim ish bo'lib, u har bir shaxsning qiziqishi, moyillik, imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Mutaxassis o'zi bajarayotgan ishga ijodiy yondashib, mehnat unumdorligini oshirib borsa, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, kasbiy mahorati darajasini oshira borsagina mehnatdan qoniqish hosil qiladi. Yoshlarning kasb tanlashi ongli zaruriyat va ayni paytda jamiyat manfaatlariga mushtarak bo'lishi ularning kamolot yo'lidagi shaxsiy muddaolarni qondirishi lozim. Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo'naltirishda bir tomondan – turli kasblar va ixtisosliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan – shaxslarning qator xususiyatlari bilan farqlanishi o'ziga xos muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi. Umuman ilk kasbga yo'naltirish ishlari oiladan boshlanib, atrof-muhit, ota-ona, kattalar, qo'ni-qo'shni, mahalladoshlar kabilar ham unga ma'lum ta'sirini ko'rsatadi.

Kasb-hunar tanlashda har bir shaxs avvalo nimani bilishi, xohlashini, qo'lidan nima kelishini, ya'ni nimani uddalay bilishini va jamiyat uchun nima qilishi kerakligini bilishi zarur. Bu holatni mantiqan quyidagicha ifodalash mumkin. Kerak-xohlayman, bilaman-uddalayman.

Bilim-shaxs rivojlanishi jarayonida egallangan axborotlar majmuidir. Bilim egallash manbalari: uzluksiz ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, jamiyat (oilalar, mahalla, tanishlar, qarindosh urug'), hayot faoliyati kabilar.

Moyillik – ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga undovchi omil.



Qiziqish – u yoki bu obyektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o'rganishga bo'lgan intilish. Insonlarning qiziqishi quyidagi sohalarga bo'linishi mumkinligini fanda isbotlangan: insonlarga, texnika, tabiatga, belgilarga, badiiy obrazlar.

Layohat – shaxsning tabiiy tug'ma xususiyatlari bo'lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, qobiliyat sifatida faoliyat davomida namoyon bo'ladi. Qobiliyat umumiy va maxsus bo'lishi mumkin.

Jamiyatning oliy ta'lim sohiblariga bo'lgan ehtiyojlari: tanlangan kasbning mehnat mazmuni va istiqbollari haqidagi bilimlarni egallash; tanlangan kasbga o'zining mosligini va shu yo'nalishdagi o'quv yurtida o'qiy olish imkoniyatlarini anglab etish; tanlangan kasbning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunish kabilarni belgilaydi.

MEHNAT PREDMETI BO'YICHA KASBLARNING TASNIFLARI

Inson- Texnika	Inson- tabiat	Inson- inson	Inson- belgilar tizimi	Inson- badiiy obrazlar
Texnik ti- zimlar bilan munosabatda bo'lish talab etiladigan mehnat fao- liyat: Asbob- soz-chilangar, tokar, radio- texnik, avto- mobillarni sinovchi, ta'mir- lovchi chi- langar va shu kabilar	Tabiat bilan munosa- batda bo'lish talab etila- digan meh- nat faoliya- ti: Dehqon- fermer, asa- larichi, chor- vador, zoo- texnik va shu kabilar	Insonlar bilan mu- nosabatda bo'lish ta- lab etila- digan fao- liyat: Tar- biyachi, o'qituvchi, to'garak rahbari va shu kabi- lar.	Belgilar ti- zimi bilan munosabat- da bo'lish talab etiladigan faoliyat: Harf teruv- chi, ofset bosma bo- suvchi, va shu kabilar	Rassom, kulol, kashta- do'z, dizayner loyihalov- chi va shu kabilar.

MEHNAT QUROLLARI BO'YICHA KASBLARNING TURLARI

Qo'l mehnati bilan bog'- liq: asbobsoz- chilangar, avtomobil- larni ta'mir- lovchi chilan- gar, bo'- yoqchi,	Mexanizm va mashina- larni ishla- tish bilan bog'liq: To- kar, frezo- lovchi, hay- dovchi, kombaynchi	Avtomatik qu- rilmalarni ish- latish bilan bog'liq: Dasturli stanoklar ope- ratori, nazorat- o'lchash uskuna- lari va avto- matik qurilma-	Maxsus qobi- liyatlarini ishga solish bilan bog'liq: O'ymakor, rassom, kulol, dizayner, mu- siqachi, badiiy
--	---	--	--

suvoqchi va shu kabilar	va shu ka- bilar	larni ta'mirlov- chi chilangar	so'z ustasi va shu kabilar.
----------------------------	---------------------	-----------------------------------	--------------------------------

MEHNAT SHAROITI BO'YICHA KASBLARNING TURLARI

Ma'naviy ja- vobgarligi yuqo- ri darajada bo'l- gan: Jamoat tar- tibini saqlash, davlat va Vatan himoyasi, xizmat ko'rsatish, shaxs tarbiyasi bilan bog'liq faoliyat	O'ziga xos sha- roitga ega: Yer va suv ostida, yuqori harorat ostida, shovqin tebra- nish, o'ta nam yo- ki quruq sharoitda faoliyat ko'rsatish kabilar bilan bog'- liq dengizchi, met- ro haydovchisi, uchuvchi, quyuv- chi va shu kabilar	Maishiy xiz- mat bilan bog'liq shart- sharoitlar: Operator- dasturchi, havaskorlik raqs jamoasi, tabiatshunos va shu kabilar.	Ochiq havo- dagi mehnat sharoiti: Dehqon-fer- mer, cho'pon, DAN xodimi va shu kabi- lar
---	--	--	--

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Mehnat sharoiti bo'yicha kasb turlariga misollar keltiring va izohlang.
2. Layoqat va qobiliyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlang.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Yoshlarni kasbga yo'naltirish muammosi qanday hal etiladi va bu muammo kimlar tomonidan yechiladi?
2. Kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati nimadan iborat?
3. Mehnat qurollari bo'yicha kasblarning qanday turlari mavjud?
4. Mehnat sharoiti bo'yicha kasblarning qanday turlari mavjud?

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzu yoshlarni kasbga yo'naltirish kasbga yo'naltirish muammosi. Bu muammo ustida ko'p soha mutaxassislarining shug'ullanishi hamda uni majmuaviy hal etilishi to'g'risida bilimlar taqdim etilgan, zero, kasbni to'g'ri tanlash - inson hayot faoliyatidagi muhim ish hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Kasbga yo'naltirish, kasbiy ish-harakat usullari, ishbilarmonlik, ijodkorlik, moyillik, layoqat, qobiliyat, xizmat ko'rsatish, ta'sir ko'rsatish

6.4. Kasb-hunar kollejlari ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish metodikasi

O'quv maqsadi

Talabalarni ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish metodikasi bilan tanishtirish va nazariy bilimlarni kengaytirish

Kasb-hunar kollejlari ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etishda o'qituvchi mustaqil ravishda bilim olish va malaka oshirish kurslari orqali ilmiy-uslubiy ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o'rganib borishi kerak.

Kasb-hunar kollejlari tashkil etiladigan ilmiy-uslubiy ishlarining vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- **Kasb-hunar kollejdagi** pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;

- talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;

- ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumil-miy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-uslubiy ishlarda ishtirok etish oliy ta'lim muassasalaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni, tashkiliy shakllari va ularga rahbarlik qilishga ta'lim tizimi oldida turgan vazifalardan kelib chiqadigan quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. G'oyaviy yo'nalganlik.
2. Ilmiylik
3. Aniq bir maqsadga qaratilganlik va tizimlilik.
4. Ijodiy yo'nalganlik.
5. Ta'sirchanlik va jozibadorlik.

Kasb-hunar kollejlari metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu nizomga muvofiq jamoaviy va individual uslubiy ishlar olib boriladi

Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- kasb-hunar kollejlari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari,
- kasb-hunar kollejlari rahbari, uning o'rinbosarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlar.

Uslubiy ishlar shakli va mazmuni bo'yicha ham pedagogik xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiq- lashtirilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Kasb-hunar kollejlari uslubiy ishlari umumiy mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Uslubiy ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, oliy ta'lim ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan umumiy mavzuni tadqiq

etadi. Buning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolarini hal etishga muayyan hissa qo'shadi, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Ushbu mavzu kasb-hunar kollejlari ishining muayyan bosqichida uning uchun dolzarb bo'lishi: kasbiy ta'limga oid avvalgi tajribalarga bog'liq va ularning uzviy davomi bo'lishi; ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasiga yangilik kiritilishi; daliliy materiallar bilan boyitishi, umuman ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilish kerak. Bunday mavzularga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

- talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;
- tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;
- predmetlararo aloqadorlikni ta'minlash;
- ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
- tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish;
- fanlar va kasblarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;
- darsning samaradorligini oshirish yo'llari;
- yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Uslubiy ish kasb-hunar ta'limi istiqbol va joriy ish rejalarda mustaqil bo'lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari oliy ta'limning ichki nazorat rejalari o'z aksini topadi. Uslubiy ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

- kelajakdagi rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);
- rejalarni ta'lim-tarbiya va uslubiy ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;

– rejalarning ijodiy xarakteri, ya'ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishiga zarur imkoniyat yaratish;

– uslubiy ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg'un qo'shib olib borish,

– tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlar va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko'rsatilishi).

Uslubiy ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o'ziga jalb etilishini hisobga olib, tadbirlarni mazmuni va o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotda uzoq vaqtlardan beri «Uslubiy ishlarning umumiy rejasi» tuziladi. O'zini oqlayotgan mazkur rejada oliy ta'limdagi barcha uslubiy ishlar tizimi taqvim muddatlar va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi. Quyida pedagogik amaliyotda keng ko'lamda qo'llanilayotgan ana shunday reja shaklini keltiramiz.

Kasb-hunar ta'limning o'quv yili uchun uslubiy ishlarni umumiy rejasi.

Kasb-hunar kolleji jamoasi uslubiy ishlarining mavzulari:

Oy	Pedagogik kengash	• Uslubiy komissiyalar							Instruktiv-uslubiy majlislar	Ilg'or tajriba maktabi	Ilmiy-amaliy konferentsiyalar	Seminar-amaliyotlar	Pedagogik o'qishlar	Ma'ruza, sayohatlar	Eslatma
		Maxsus fanlar va ishlab chiqarish	Umumiy asboby fanlar	Ijtimoiy fanlar	Umumiy ilmiy fanlar	Boshlang'ich harbiy tayyorgarlik va jismoniy	Guruh murabbiylari	Tarbiyachilar							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16

Kasb-hunar ta'limdagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini pedagogik kengash belgilaydi. Institut rahbariyati uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va muhandis-pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarini

tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, oliy ta'limni yuqori organlari oldida o'zi rahbarlik qilayotgan oliy ta'limdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Rahbariyatning o'quv-ishlab chiqarish ishlari bo'yicha o'rinbosari umuman oliy ta'limdagi uslubiy ishlarning, shuningdek maxsus fanlar turkumi o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi.

Ijtimoiy o'quv predmetlari va tarbiyachilar bilan olib boriladigan uslubiy ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlari bo'yicha o'rinbosari, umumta'lim o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarga esa ilmiy bo'lim mudiri rahbarlik qiladi. Quyidagilar rahbariyat o'rinbosarlarining xizmat vazifalariga kiradi:

- kasb-hunar ta'limdagi «Uslubiy ish rejasini»ni tuzish;
- uslubiy komissiya majlislari, instruktiv-uslubiy kengashlar va boshqa shakllari uchun haftaning doimiy kuni va oyning doimiy haftasini belgilash;
- ochiq darslar o'tkazish, bir-birining darslariga kirish jadvalini ishlab chiqish;
- talabalar va muhandis-pedagoglar bilan olib boriladigan individual uslubiy ishlarni rejalashtirish;
- kasb-hunar pedagogik kabinetini ishini yo'lga qo'yish va uslubiy komissiyalar raislanga yordam berish;
- o'qituvchilar va muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda ularning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'zi o'qitadigan o'quv predmetining o'qitish vositalari bilan majmuaviy ta'minlash;
- ilg'or tajribalar, zamonaviy texnologiyalar, vositalarni o'rganish hamda amalga joriy qilishda o'qituvchilarga yaqindan ko'mak berish;
- kasb-hunar ta'limdagi uslubiy ishlarning borishi va natijalari haqida pedagogik kengashga hisobot berish kabilar.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar kollejlari an'anaviy va noan'anaviy uslubiy ishlardan uyg'un holda foydalanish, o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, ta'limni jadallashtirish, samarali ta'lim texnologiyalarini amaliyotga keng ko'lamda tatbiq etish kabilarga imkon beradi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Noan'anaviy dars bilan an'anaviy dars o'rtasidagi farqlarni aniqlang
2. Kasb-hunar kollejlarida ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqing va guruh e'tiboriga havola qilib, muhokamaga qatnashing.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Pedagogik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
2. Talabani kasbga yo'naltirishning ahamiyati to'g'risida tushuncha bering.
3. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasi qanday jihatlarga ega bo'lishi kerak?
4. Kasb-hunar ta'limda ilmiy uslubiy ishlar qanday tashkil etiladi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzu kasb-hunar ta'limda ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish va amalda joriy etishga bag'ishlangan bo'lib, bu talabalarda o'zlarining pedagogik faoliyatlarida ilmiy-uslubiy ishlarni tashkillashtirish borasida muhim rol o'ynaydi



Tayanch iboralar

Ilmiy-uslubiy ish, ilmiy-g'oyaviy saviya, umumkasbiy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, uzviylik, ijodiy yo'nalganlik, ta'sirchanlik, ilg'or tajriba, kasbiy mahorat, pedagogik malaka, faollik, mustaqillik, uslubiy kengash, seminar-trening, pedagogik o'qish.



6-bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Olimov va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent. Moliya.-2006.

2. Abu Nasr Forobiy . Fozil odamlar shahri – Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq – Toshkent, O'qituvchi, 1993 Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar – T.,2010 y.
4. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям. - М.: Ассоциация "Профессиональное образование", 1997. - 512 с.
5. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent, O'qituvchi, 2001.
6. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari – T.: Universitet, 1998.
7. Green M. Existential encounters for teachers // Philosophic alternatives in education / Ed by G Gutek. Columbus, 1984 P.216.
8. Prokopenko J., White J., Bittel L., Eckles R. Modular programmed for supervisory development — Switzerland, Genewa: Introduction and trainers guide, 1981.-Vol. 1-5.
9. Wilson, S. M. & Peterson, P. L. (2006). Theories of Learning and Teaching: What Do They Mean for Educators? Washington, DC, National Education Association.
10. Slavin, R. E, (1996). Education For All, Lisse, Swets & Zeitlinger

Elektron ta'lim resurslari

11. www.ziyounet.uz
12. www.edu.uz
13. Infokom.uz. elektron jumali: www.infocom.uz
14. www.nuu.uz
15. www.bimm.uz

6-bob bo'yicha xulosalar

Ushbu yakunlovchi bobda tarbiya - kasbiy faoliyatni tashkil etish vositasi, zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati to'g'risida, talabalarni kasbga yo'naltirish, oliy ta'limda ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish metodikasi to'g'risida fikrlar yuritilgan.

Zamonaviy ta'lim to'g'risida so'z yuritganda, muayyan mutaxassisni tayyorlashda ta'lim va tarbiya berishni asosiy qonuniyatlari amalga oshirilishi shart. Oliy ta'limda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni, tashkiliy shakllari va ularga rahbarlik qilish ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta'limning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarilishi bevosita u yerda faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog'liqligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Guruhdagi talabalarning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirish omillari to'g'risida fikr yuriting. Natijalarni guruhdagi talabalar bilan o'rtoqlashing.

2. Talabalar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan tipik xatolarni oldini olish imkoniyatlarini ishlab chiqing va misollar shaklida izohlab bering.

3. Oliy ta'limda jamoaviy shaklda tashkil etilib, o'tkaziladigan uslubiy ishlarga yana nimalarni qo'shimcha qilgan bo'lar edingiz? Bu uslubiy ishlarni tushuntirish maqsadida referatni rasmiylashtiring.

4. «Usta-talaba» tizimi bo'lajak kichik mutaxassislarni tarbiyalashda qanday afzalliklarga ega va bu afzalliklarni tahlil qiling.

5. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining talabalar bilan muomala va o'zaro hamkorlik qilishdagi faoliyat turlarini ishlab chiqing hamda guruhdagi talabalar ishlab chiqqan faoliyat turlari bilan solishtiring. Siz ishlab chiqqan faoliyat turlarini afzalligini asoslab bering.

6. Ochiq darslar va o'zaro darslarga kirish o'qituvchilarga kasbiy pedagogik mahoratini yuqori ekanligini ko'rsatib berish bilan birga yosh o'qituvchilarga o'mak ko'rsatishdan iboratdir. Mana shunday yosh o'qituvchilarni pedagogik mahoratini yanada oshirish borasida fikr va mulohazalaringiz.

7-bob. TALABALARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASH JARAYONI

7.1. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning ahamiyati

O'quv maqsadi

Talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida o'qituvchi ham, talaba ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, o'qituvchi uchun talabalarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi o'quv materiali yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali etarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtiril-maganligi ma'lum bo'ladi. Bu talabaning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ishi metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari o'qituvchining o'quv dasturidagi materiallarni talabaning bilish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilishi va baholanishi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarining qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq va ravshan bo'ladi. Bu talabaning ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, talaba ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan talaba o'z

bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmaslgi, yaxshi tushunmaslgi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, talabalarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlarini tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Talaba o'z bilimlarining ijobiy tavsifi, ta'lim muassasasida va uydagi ishinmg uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda talabalarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha talabaning shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. O'qituvchi talabaning o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularim, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida talaba qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim tizimida o'qitilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lim rejasi, uning katta-kichik bo'limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat talabaning, balki o'qituvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalari, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturining qism bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanishning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Talabani muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin

Nima uchun baholash kerak?

- O'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- Keyingi bosqichga o'tishdan oldin, avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- Natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- Talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- Yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- O'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- YAlpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- Ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- Talabalarni yutuqlarga qiziqitirish uchun;
- Tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- Nazariy bilimlarni;
- Amaliy ko'nikma va malakalarni;
- Xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini;

Qachon baholash kerak?

- Ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- Ta'lim jarayoni davomida (joriy va oraliq baholash);
- Ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- ta'lim maqsadiga yo'naltirilganlik;
- muntazam o'tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlarga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa-affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari talabaning qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, talabalarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir talaba uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak. O'qituvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Talabaning bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Talabalarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan o'qituvchi bilimlarni tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, izohlash kabi muayyan odat paydo bo'ladi. Talabalar

bugunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat o'qituvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javob bera boshlaydilar.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Sizningcha nimani baholash kerak va qanday baholash qulayroq, izohlab bering
2. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarini ishlab chiqing va shu to'g'risida taqdimot tayyorlang.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati nimadan iborat?
2. Baholashning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholashning tarbiyaviy ahamiyati nimada?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda bilimlarni, ko'nikma va malakalarni baholashning tarbiyaviy ahamiyati hamda talabalarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati, qiyinchiliklarni yengish, o'qituvchi talabaning o'ziga nisbatan munosabatini, ta'lim jarayonida talabaning o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetishida baholashni ta'lim olish jarayonidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.



Tayanch iboralar

Baholash, ko'nikma, reyting, baholash tamoyillari, test, obyektivlik, topshiriq, mezon, malaka, bilim.

7.2. Baholash tamoyillari

O'quv maqsadi

Talabalarda baholash tamoyillari, ularning maqsadlari to'g'risida bilimlarni shakllantirish

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samardorligining poydevori hisoblanadi:

- *o'quv maqsadlariga asoslanganlik;*
- *haqiqiylik;*
- *haqqoniylik;*
- *ishonchlilik;*
- *qulaylik.*

O'quv maqsadlariga asoslanganlik. Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta'lim mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirayotganda, har doim quyidagi ikki savolni e'tiborga olish lozim:

Baholash topshiriqlari ta'lim jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?

O'quv maqsadlari darajasiga baholash shakllari, usullari va mezonlari to'g'ri tanlandimi?

Masalan, yo'l harakatlari qoidalari bo'yicha olgan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar og'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Haqiqiylik. O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijagina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

Talaba erishgan natijalar to'g'risida asoslangan va ishonchli axborotlar berilishi kerak. Talaba egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarini o'lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

3. Haqqoniylik (obyektivlik). Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, shuningdek, baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan talabalar oldindan tanishgan bo'lishlari lozim. Talabalarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

4. Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Usul ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchun talabalarda bir-biriga o'xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalari bir xil bo'lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun turli ekspertlar yordamida turli vaqtlarda baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Baholash ishonchliligining ikki tomoni bor:

Baholash usulining ishonchliligi. Agar foydalanilayotgan baholash usulining ishonchliligi yuqori bo'lsa, talabaning o'zlashtirish darajasi baholashning har xil usullaridan foydalanganda ham o'zgarmay qoladi (olingan natijalar bir xil, o'zgarmas bo'ladi).

Baholashning o'zlashtirish darajasini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o'tkazilganda ham, uning bir xil bo'lishi, o'zgarmasligi tushuniladi.

Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi holatlarda ko'proq bo'ladi:

- hamma talabalar qo'yilgan talabni aniq tushunsa,
- baholash shartlari oldindan ma'lum bo'lsa va unga rioya qilinsa,
- hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlari to'la asoslangan bo'lsa;
- tasodifiy xatolarni kamaytirish maqsadida mos baholash turlari qo'llanilsa.

5. Qulaylik. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'quv ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va talaba uchun qulay bo'lishi lozim Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim Bunda mavzunmg muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lmagan qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Siz natijalarni baholash mobaynida yana qanday usullardan foydalanar bo'lardingiz, izohlab bering.

2. Haqqoniylik tamoyilidan foydalanib, baholash shart-sharoitlarini ishlab chiqing.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning necha xil tamoyili mavjud?

2. Baholashda ishonchlilik tamoyilidan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati nimada?

3. Baholashning shakli va usullarini tanlashdanimani e'tiborga olgan ma'qul?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda baholashning asosiy tamoyillari, ularga izohlar, ularning ahamiyatli tomonlari, baholashda amal qilinadigan har bir tamoyil to'g'risida to'liq fikrlar bayon etilgan.



Tayanch iboralar

O'quv maqsadlariga asoslanganlik, haqiqiylik, haqqoniylik, ishonchlilik, qulaylik.

7.3. Baholashning reyting tizimi

O'quv maqsadi

Talabalarda reyting tizimi bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish

Reyting tizimidagi ta'lim jarayonida baholash quyidagi nazorat turlari orqali aniqlanishi mumkin:

- nazorat qilish;
- xulqni baholash;
- nazariy va amaliy bilimlarni baholash.

1. **Nazorat qilish orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:**

- talabani bilim ko'rsatkichlari darajasini, malakasini shakllantirish;

- talabani doimiy baholash va ular olgan baholarni taqqoslab borish;

- talabani o'qishga intilishi va o'zaro bellashish imkoniyatini shakllantirish;

- talabalarning bilim saviyasi va malaka ko'nikmalarini haqqoniy baholash;

- o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini to'g'ri baholash.

2. **Xulqni baholash orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:**

- talabalarning darslarga qatnashish intizomini yaxshilash va ularni fanlar bo'yicha uzluksiz tayyorgarligini tashkil etish;

3. **Nazariy va amaliy bilimlarni baholash orqali o'zlashtirganlikni aniqlash:**

- o'qituvchi va talabaning o'z qobiliyatini oldindan rejalashtirish;

- ta'lim jarayonining borishini tezkor tahlil qilish;
- o'z faoliyatida zaruriy o'zgarishlar kiritish imkoniyatlarini yaratish

Reyting tizimi yuqorida sanab o'tilgan barcha nazorat turlarini o'zaro taqqoslash orqali ta'lim jarayonidagi baholash tizimini yaratadi. Reyting tizimida talabalar bilimi doimiy ravishda nazorat qilinib va baholanib boriladi. Reyting nazorat tizimi asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fanning talaba o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlari ballar bilan baholash yotadi. Respublikamiz ta'lim muassasalari o'quv jarayonida qo'llanilayotgan reyting tizimiga asoslangan holda ikkita nazorat turidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Har bir o'qituvchi o'z fani bo'yicha reyting tizimini loyihashtirishda quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Har bir fan bo'yicha semestr davomida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal 100 ballni tashkil etadi

2. Har bir fan uchun ajratilgan maksimal ball nazorat turlari bo'yicha taqsimlanadi:

Joriy nazorat. Joriy nazorat o'tkazishning asosiy maqsadi talaba qay darajada rivojlanayotganligini aniqlash, ta'lim jarayoni talabalarini o'rganish va uni yaxshilashdan iborat. Joriy nazoratda og'zaki so'rov seminar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, kurs ishlari, uy vazifasi va boshqa so'rov turlaridan foydalaniladi. Barcha so'rov turlari qisqartirilgan kodlar bilan belgilanadi.

Amaldagi reyting tizimida joriy nazorat o'tkazishda har bir talabani baholash uchun so'rovlar soni chegaralangan. Har bir darsda tayyorlanib kelgan talaba javob berishi va ball olishi mumkin, lekin o'qituvchi qolgan talabalarni ham e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim.

Oraliq nazorat. Oraliq nazoratning asosiy maqsadi talabalar tomonidan ma'lum bir mavzu, bob yoki modul bo'yicha erishilgan natijalarni (belgilangan standartlarga erishganligini) aniqlashdan iborat. Oraliq nazoratni topshirish barcha talabalar uchun majburiy hisoblanadi.

Yakuniy reyting ko'rsatkichi. Yakuniy reyting ko'rsatkichini aniqlash uchun semestr yakunida yoki o'quv predmeti yakunida talabaning barcha mavzular bo'yicha olgan ballari hisoblanib, o'rtachasi aniqlanadi. Semestrda fan yuzasidan necha soat dars o'tilgan bo'lsa, har biriga maksimum 100 balldan ajratilib, semestr yakunida o'rtacha ball hisoblanadi va reyting jumaliga qo'yiladi.


O'quv rejası va fan dasturiga asosan tuzilgan tizim – mavzu rejası bo'yicha hamda ajratilgan soatlarni e'tiborga olgan holda, har bir talabani semestr davomida necha marta nazorat qilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, nazorat va so'rov turlari aniqlab chiqiladi va ma'lum bir fan bo'yicha «Reyting ballarining taqsimoti» tuziladi.

Nazariy bilimlarni baholash. Ta'lim jarayonida talabalarning nazariy bilimlari va aqliy layoqatini baholashda og'zaki hamda yozma baholash topshiriq shakllaridan foydalaniladi.

Og'zaki shakldan ko'proq og'zaki savol-javoblarni qisqa vaqt ichida o'tkazish uchun foydalaniladi. Ushbu jihatiga ko'ra, bu baholash topshiriq shaklidan oraliq nazoratni amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Og'zaki topshiriq shaklining turlari:

- ochiq;
- yopiq.



Og'zaki shaklning ochiq turi deganda, talabaning so'ralgan material yuzasidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda erkin va ijodiy yondashish asosida javob berishi nazarda tutiladi.

Yopiq turda esa talaba faqat berilgan material doirasida javob berish bilan cheklanib qoladi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Maxsus fandan ochiq turdagi topshiriq shakllarini ishlab chiqing.

2. Baholashning reyting tizimini yoritib taqdimot tayyorlang va uni ta'lim jarayonida taqdim eting.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning ahamiyati hamda mohiyati nimada?

2. YAKuniy baholashda necha ball ajratiladi?

3. Oraliq nazoratni asosiy maqsadi nimadan iborat?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda reyting tizimidagi ta'lim jarayonida baholashning nazorat turlari, nazorat qilish, xulqni baholash, nazariy va amaliy bilimlarni baholash, nazorat qilish orqali o'zlashtirganlikni aniqlash hamda talabaning bilim ko'rsatkichlari darajasini, malakasini shakllantirish, talabani doimiy baholash va ular olgan baholarni taqqoslab borish, talabaning o'qishga intilishi to'g'risida fikr yuritiladi.



Tayanch iboralar

Baholash, ko'nikma, reyting, baholash tamoyillari, test, obyektivlik, topshiriq, mezon, malaka, bilim.

7.4. Zamonaviy testlar va ularning turlari

O'quv maqsadi

Talabalarda zamonaviy test turlari to'g'risida nazariy bilimlarni shakllantirish

Bugungi kunda test topshiriqlarining bir qator turlaridan ta'lim jarayonida talabalarning nazariy bilimi va aqliy layoqatini baholashda foydalanilmoqda

1. Bir tanlovli testlar

Bir tanlovli test topshiriqlari yagona javobni tanlash imkoniyati berilgan topshiriqlar hisoblanadi.

Bir tanlovli savollar «asos» deb yuritiladigan tugatilmagan jumla yoki savollardan iborat bo'lib, unga ketma-ket to'rtta yoki beshta haqiqatga yaqin bo'lgan javoblar tanlovi keltiriladi. Talaba ular orasidan bitta to'g'ri javobni tanlashi kerak. To'g'ri javob «kalit» deb, noto'g'ri javoblar «chalg'ituvchi» javoblar deb ataladi.

Misol: Qanday metodlar «Interfaol metodlar» deb ataladi?

a) katta hajmdagi o'quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etiladigan metodlar;

b) talabalarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida talaba bo'lgan metodlar;

d) muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan metodlar;

e) hammasi to'g'ri

Javob **B**

2. Ko'p tanlovli testlar

Ko'p tanlovli test topshiriqlarida javoblar varianti bir nechta to'g'ri javoblardan iborat bo'ladi.

Misol. Qanday baholash shakllari mavjud?

1) me'yoriy

2) joriy

3) mezoniy

4) yakuniy

Javoblar:

A) 1 va 2

B) 1 va 4

V) 1 va 3

G) 2 va 4

Javob: B

3. To'ldiruvchi testlar

Bu topshiriqni yechish to'liq bo'lmagan matnlarga kiritiladigan tushunchalar, gap bo'laklari, simvollar va sonlardan tashkil topadi hamda talabadan berilgan jumlaning kerakli so'z bilan to'ldirishi so'raladi.

Misol. Talaba va o'qituvchining muayyan maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan yo'llar yig'indisi _____ deb ataladi.

4. Muqobil javobli (alternativ) testlar

Bunday testlardagi savollarga javob «HA» yoki «YO'Q» deb belgilanadi. Ba'zan topshiriqlarning savoli bilan javoblari ham birga berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarda faqatgina bitta to'g'ri va bitta noto'g'ri javoblar berilgan bo'ladi. Topshiriq shartiga ko'ra to'g'ri javobni topib, belgilash kerak bo'ladi.

Misol. Interfaol metodlar an'anaviy ta'lim metodlari hisoblanadimi?


(To'g'ri javobning tagiga chizing). Javob: HA YO'Q

5. Muvofiqlashtiruvchi testlar

Bunday test topshiriqlarida talabalarga ikkita ro'yxat taqdim etilib, ulardan birida savollar turkumi, ikkinchisida esa javoblar turkumi aks ettirilgan bo'ladi. Talabalar savollar turkumiga muvofiq keluvchi javoblarni topishlari va belgilashlari talab etiladi.

Misol:

A ro'yxat: metodlar



Yoki javob: A2, V3, S1.

Muvofiqlashtiruvchi testlar bir qiymatli yoki ko'p qiymatli bo'lishi mumkin. Bir qiymatli testlarda ustunlardagi savollar va javoblar miqdori bir xil nisbatda, ya'ni bir savolga bir javob to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. Ko'p qiymatli muvofiqlashtiruvchi testda esa ustunlardagi savollar va javoblar miqdori har xil nisbatda, ya'ni bir necha savolga bir javob to'g'ri kelishi mumkin, yoki aksincha bir savolga bir necha javob to'g'ri kelishi mumkin.

Javobni belgilashda birinchi ustundagi savollarga ikkinchi ustundagi javoblarni topib, uni « $\rightarrow$ » belgisi orqali ifodalash mumkin. Yoki javoblarni savollar belgisi va javoblar raqamini mos ravishda belgilash mumkin.

6. Ketma-ketlikni aniqlash testlari

Bu turdagi topshiriqlarda berilgan jarayonlar ularga taalluqli mantiqqa asoslangan holda, to'g'ri tartib bilan joylashtirilishi lozim.

Tartibsiz joylashtirilgan topshiriqlar umumiy, lekin bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlariga va ularga taalluqli bo'lgan darajaga ko'ra tartibga solinishi kerak (to'g'ri ketma-ketlikda, kamayib yoki o'qib boruvchi tartibda).

Misol. Nazariy dars bosqichlarini to'g'ri ketma-ketlikda ifodalang:

1. Yangi mavzu bayoni

2. Uyga vazifa

3. Mustahkamlash

4. Tashkiliy

5. Xulosa yasash

Javob: _____

4

1

3

5

2

7. Qisqa javobli testlar

Qisqa javobli test-javobi bir yoki bir necha soʻzdan iborat koʻrinishdagi test hisoblanadi. Ushbu testlarda javoblar qisqa koʻrinishda beriladi.

Misol. Tartiblangan, oʻzaro uzviy bogʻlangan va birgalikda umumiy funktsiyani bajaruvchi elementlar toʻplamiga nima deb ataladi?

Javob: _____

8. erkin javobli testlar

Bu turdagi topshiriq savollarga javoblar aniq belgilab qoʻyilmaydi, balki talaba erkin va toʻlaqonli javob berishi mumkin boʻladi.

Misol: Ilgʻor taʼlim texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etishning dolzarbligini izohlab bering.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Toʻldiruvchi testlar, muvofiqlashtiruvchi testlar va muqobil javobli testlarning oʻxshashlik tomonlarini aniqlang va farqli tomonlarini aniqlab Venn diagrammasiga joylashtiring.

2. Bir tanlovli testlarga misollar keltiring va izohlab bering.



Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Testning afzallik va salbiy tomonlari to'g'risida fikrlaringizni bayon eting.
2. Zamonaviy test turlariga misollar keltiring?
3. Maxsus fanlarda bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishda qaysi turdagi testdan foydalanish qulayroq?
4. Muqobil testlarni erkin javobli testlardan farqli xususiyatlari nimada?
5. Ko'p tanlovli testlar qanday tuziladi?



Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

Ushbu mavzuda zamonaviy test turlari jumladan bir tanlovli testlar, ko'p tanlovli testlar, muqobil testlar, qisqa javobli testlar, erkin javobli testlar, ketma-ketlikni aniqlash testlari va ularga misollar, ulami tuzish yo'llari, bir-biridan farqi, afzalligi va salbiy tomonlari to'g'risida fikrlar bayon etilgan.



Tayanch iboralar

Bir tanlovli, ko'p tanlovli, muqobil javobli, qisqa javobli, erkin javobli, ketma-ketlikni aniqlash, muvofiqlashtiruvchi, alternativ, to'ldiruvchi.



7-bob bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. A Nishonov, B Haydarov va boshqalar. Baholash metodlari. Toshkent. Osiyo taraqqiyot banki. 2003. - 156 b.
2. Olimov Q.T., Sayidaxmedova M.S., Jalolova D.F., Bozorova M.Q., Boltayeva M.L., Alimov A.A. Pedagogik texnologiyalar o'quv qo'llanmasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 300 b.
3. Rashidov X.F. va boshqalar. «Kasbiy pedagogika» blokini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. 200 b.
4. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «Fan» – 2009. 172 b.

5. Olimov Q.T. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Monografiya. Toshkent – 2007. 87 b.

6. Olimov va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiylari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Moliya -2006.

7. Olimov Q.T. Noan'anaviy o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishdan o'ziga xos farqli xususiyatlari // O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida yangi pedagogik texnologiyalar muammolar va echimlar. – Buxoro, 2006. - 21 b.

8. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: Fan, 2004. - 119 b.

9. Golish L., Fayzullayeva D. Kasb-hunar kollejlari modulli dastur asosida ta'lim berish // Kasb-hunar ta'limi. -Toshkent, 2002. - №4. - 24 b.

10. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям. - М.: Ассоциация "Профессиональное образование", 1997. - 512 с.

11. Wolfe, C. R. (2001). Learning and Teaching on the World Wide Web, London, Academic Press.

12. Torrance tests of creative norms. Technical manual. - N.Y., 1996.

13. Entwistle, N. J. & Tait, H. (1990). Approaches to learning, Evaluations of teaching and preferences for contrasting academic environments, Higher Education, Vol. 19, pp. 169-194. <http://dx.doi.org/10.1007/BF00137106>

Elektron ta'lim resurslari

14. www.zivonet.uz

15. www.edu.uz

16. Infokom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz

17. www.nuu.uz

18. www.bimm.uz



7-bob bo'yicha xulosalar

Ushbu yakunlovchi bobdabilim, ko'nikma va malakalarni baholash metodlari, baholash mezonlari, talabalarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari, baholash tamoyillari, baholashning reyting tizimi, zamonaviy test turlari, test turlarining kamchiliklari va xususiyatlari to'g'risida to'liq ma'lumotlar keltirilgan. Baholash natijasida nafaqat talabani, balki o'qituvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalari, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatida ham baho beriladi.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilish to'g'risida fikr yuriting. Natijalarni guruhdagi talabalar bilan o'rtoqlashing.

2. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati to'g'risida referat tayyorlang.

3. Nima uchun baholash kerak? nimanı baholash kerak?, qachon baholash kerak? degan savollarga javoblar majmuini ishlab chiqing va auditoriyaga taqdim eting.

4. Nazariy bilimlar baholanayotganida:

– kognitiv o'quv maqsadlarga erishganlik darajalari aniqlanadi;

– amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik;

– hulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa affektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Mana shu o'quv maqsadlariga erishilganligiga misollar keltiring.

5. Maxsus fandan ochiq va yopiq turdagi topshiriqlarni ishlab chiqing.

6. Zamonaviy test turlarining har binga misollar keltiring.

7. Zamonaviy test turlaridan foydalanib, krossvord ishlab chiqing.

IZOHLI LUG'AT

A

Analiz (bo'laklariga ajratish) – narsa, voqea va hodisalarni tarkibiy qismlarga, bo'laklarga ajratishdir. Masalan, anorni qattiq po'st, qat-qat parda va donachalarga ajratish.

Asoslanganlik prinsipi – turkum o'quv predmetlarini o'rganish obyekti (predmet, hodisa, jarayon, hatto tirik mavjudot sifatida inson)ning mohiyati, muhim xususiyatlari, aloqalari, obyektiv olam bilan muayyan munosabatlarini o'zida ifodalaydi. U har bir o'quv predmetini tegishli fan asoslari sifatida talqin etib, o'zi uchun «yadro», «o'zak» hisoblangan tizimlashtiruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladi va ushbu ma'lumotlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi, uning aniq soha bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishida tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Axborotchilik kompetentlik – Axborot resurslari, texnologiyalari, olingan axborotlarga o'z munosabatini bildira olish yoki pedagogik ishlov berib o'quvchilarga tushunarli holga keltirish

B

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Bilim — bu o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

Bilimlar – bu odamlarning ijtimoiy-siyosiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir.

Bilimlar banki – bu ma'lumotlar majmualarini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmui. Shuningdek, **bilimlar banki** – bu izlanuvchilar tomonidan bir necha yo'nalishlar bo'yicha kompyuter xotirasiga kiritilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar to'plami hamdir.

Bilimlar bazasi – muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va

ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmui.

Boshlang'ich maktab – ta'lim oluvchilarga boshlang'ich umumiy ma'lumot beradigan umumta'lim ta'lim-tarbiya muassasasi. Uning **vazifasi** – ta'lim oluvchilarga yozish, o'qish, hisoblash malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, tabiat va jamiyat haqida ilk bilim berish, xulq-odobga o'rgatishdir.

Umumiy o'rta ta'lim tugallangandan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

V

Vosita – o'quv jarayonini predmetli qo'llab-qo'vvatlanishi. Vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar.

D

Darslik – DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Deduktiv xulosa (ikkiga ajratish, keltirib chiqarish), umumiy hukmlardan xususiy hukmlarga qarab borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat metod, tafakkur shakllaridan biridir.

Didaktika grekcha so'z bo'lib, «didasko» – o'qitish, «didaskol» – o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. «Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimai ta'lim nazariyasini anglatadi. Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571–1635) fanga kirtgan. Didaktika nomi ostida nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya. A. Komenskiy (1592–1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktika nomi ostida Komenskiy «Hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati», deb tushundi. Didaktikaning mohiyatini ishlab chiqishda G. Pestalotssi, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, V. Ostrogorskiy, P. Kapterev kabi mashhur olimlar katta hissa qo'shishdi. Bu yo'nalishda didaktlar Yu.K.

Babanskiy, N. Gruzdev, M. Danilov, B. Esipov, L. Zankov, M. Skatkin kabilar ham ancha ishlarni amalga oshirishdi.

Didaktika pedagogikaning «Nima uchun o'qitish kerak», «Nimani o'qitish kerak», «Qanday o'qitish kerak», «Qanday hajmda o'qitish kerak», «Kimlarni o'qitish kerak», «Qayerda o'qitish kerak», «Nimadan foydalanib o'qitish kerak» kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi Ta'lim jarayoni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari, odamlar faoliyati va hayotiy ehtiyojlari, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yutuqlariga hamma ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlariga qo'yilgan katta talablarga asoslanadi.

Didaktika sohasidagi natijalar uning oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarni hal qilish boshqa fan yutuqlaridan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi.

Didaktik vositalar va tarqatma materiallar – bu fanni o'qitishda zarur bo'lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko'rgazmalar va texnik vositalar, asbob-uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallardir. Ular: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hokazolardir.

Didaktik tamoyillar – bu ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir. Shuning uchun ham o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim oluvchining o'rganuvchanlik faoliyatini bir qolipga solib, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar majmuasi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Didaktik tamoyillar nazariy va amaliy ta'limida maqsad, mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari, o'qitish vositalari va usullari; mehnat va tarbiyaviy faoliyat; ta'limning turli bosqichlari hamda pedagogik va mehnat jarayonlari; ta'lim oluvchilarning jamoaviy rivojlanishi va har birining alohida rivojlanishi o'rtasidagi aloqadorliklarni aks ettiradi.

Z

Zamonaviy kasb-hunar ta'limining asosiy xususiyati – uning integratsiya yo'nalishi (tendensiyasi) hisoblanib, bu holat ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Agar tashqi integratsiya umumjahon ta'lim makonini qurish bilan bog'liq, ya'ni turli mamlakatlarda to'plangan tajribalardan foydalanishni ko'zda tutgan bo'lsa, ichki integratsiya predmetlararo yondashuv asosida integrativ kurslar tuzishni ko'zda tutadi. Ana shunday integrativ o'quv predmetlaridan biri kasb-hunar ta'limi pedagogikasining o'zi hisoblanadi. Chunki u kichik mutaxassislar tayyorlashning zaruriy mazmuni va darajasini belgilovchi Davlat ta'lim standartlariga binoan yaratilmoqda.

I

Ilmiy bilim ta'lim – tarbiyani takomillashtirish muammolari yechimlarini topishda qo'l keladi va u tizimli, asosli narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi. Bilimdan empirik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi.

Ilmiy bilimlar, obyektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni ular tadrijiy (evolutsion) tarzda rivojlanib turadi. Bilimlar asosida o'quvchilarning kuzatuvchanlik, sinchikovlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

Induktiv tafakkur (keltirib chiqarish) – juz'iy yoki yakka hollardan umumiyga, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakllaridan biridir.

Insonparvarlashtirish prinsipi – pedagogik amaliyotda insoniylashtirish bilan birgalikda qo'llaniladi. Bu har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan yunoncha «humanus» insoniylik va «humanitas» insoniyat so'zidan olinib, bir o'zakka ega bo'lsada, ularning boshqa-boshqa ma'nolar anglatishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot prinsipi – pedagogik jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini nazarda tutib,

barcha turdagi ta'lim muassasalari faoliyatini bu jarayon ishtirokchilari imkoniyatlari, davlat va jamiyat talablari, fan taraqqiyoti, ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olish, ularni uyg'unlashtirish, integratsiyalashtirishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy kompetentlik – o'ziga javobgarlikni olish, oldiga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida o'z qiziqishlarini ishlab chiqish va jamiyat talablariga uyg'unlashtira olish

Ixtisoslik – birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

Ishlab chiqarish ta'limi – kasb-hunar ta'limi muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim qismidir

Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi - o'quvchilarda ma'lum bir aniq ixtisoslik bo'yicha kasbiy mahorat asoslari bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi nazariy ta'limga – nisbatan faol jarayon bo'lib hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchining vazifasida axborot uzatish funksiyasi bo'lib, rahbarlik qilish, yo'naltirish va yo'l-yo'riq ko'rsatish vazifalari kuchaytirilgan bo'ladi

Ishlab chiqarish ta'limining sifatli o'tishi uchun o'qitishning texnik vositalari, eng avvalo moddiy-texnik baza, jihozlar, shuningdek, o'quv-ishlab chiqarish obyektlarining to'g'ri tanlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish mehnati – ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi, lekin ishlab chiqarish ta'limi ishlab chiqarish mehnati bilan chegaralanib qolmaydi

Ishlab chiqarish ta'limi samaradorligi o'quv va ishlab chiqarish vazifalarning o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi

Ishlab chiqarish ta'limi tizimi deb bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikma va malakalarni maqbul darajada tarkib toptirish maqsadida o'quv materialini, maqsadga muvofiq tizimlashtirilgan holda, o'quvchilar mulkiga aylantirish izchilligiga aytiladi

Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik prinsipi – ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning maqsadga muvofiqligi, ularga bo'lgan davlat va jamiyat ehtiyojlarida o'zaro mutanosiblik.

Y

Yo'l-yo'riq berish (instruktaj) – o'qituvchi yoki muhandis-pedagogning o'quvchilarga berilgan topshiriq (vazifa)ni xavfsizlik texnikasi qoidalariga to'liq rioya qilgan holda amalda bajarish tartibi haqida o'quvchilar diqqat-e'tiboriga havola etiladigan yo'l-yo'riqlar, talablar va o'zgarishlar mazmuniga ega bo'lgan fikrim bayon qilish shaklidir.

K

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash – Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi

Kasb – muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyatining turi.

Kasb – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasi, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) turidir.

Kasb-hunar kolleji – o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtidir.

Kasbiy yo'nalganlik – moyillik, qiziqishlar, munosabatlar, kutilayotgan natijalar.

Kasbiy kompetentlik – kasbiy bilim, malaka va ko'nikma, ixtisoslik.

Kundalik bilim – sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi va insonning atrof-muhitga moslashuvchi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashish.

Ko'nikma – bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat.

Ko'nikma – bu shunday aqliy va jismoniy harakatlar, metodlar va yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, ular yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishiladi yoki muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi.

Ba'zan ko'nikmalar shaxsga malaka hosil qiladi va uning malakali ishlashiga yordam beradi, ba'zilar, aksincha, shaxsdagi malakalik sifatiga salbiy ta'sir etadi va uni o'zgartiradi. Bunday hol malaka va ko'nikmalarning o'zaro ta'siri deb yuritiladi.

Har qanday malaka ko'nikma bo'la oladi, lekin har qanday ko'nikma malaka bo'la olmaydi. Ko'nikmalar avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina, malaka bo'ladi. Masalan, o'quvchining turli harakatlarini, shakllarni yozish jarayoni avtomatlashgan bo'lgani uchun ham ko'nikilgan harakat bo'lib qolgan. Shuning uchun o'quvchi harflarni chiroyli va to'g'ri yoza oladi. Bu harakat o'quvchining **malakalashgan ko'nikmalaridir**. Juda ko'p marta takrorlash tufayli o'quvchilarning harflar shakllarini yozishlar bilan bog'liq harakatlari avtomatlashadi.

Kichik mutaxassis — bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

Kasbiy ta'limning shakllanishi – yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik vazifa bo'lib, insoniyat jamiyati o'z tarixida bu masalani turlicha yechimini topishga harakat qilgan. Dastlabki paytlarda bolalarni mehnatga tayyorlash bevosita mehnat faoliyati jarayonida amalga oshirilgan.

Kommunikativ kompetentlik – og'zaki va yozma muloqot texnologiyalarini o'zlashtirganlik, shuningdek, kompyuter dasturlari va Internet tizimi bilan ishlay olish.

Kognitiv kompetentlik – muntazam ravishda o'zining kasbiy mahoratini oshirishga intilish, shaxsiy imkoniyatlarini dolzarblashtirish va amalga joriy etish, mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish qobiliyati, o'zini doimo rivojlantirishga intilishi va shu kabilar.

M

Mazmun (o'qitish, ta'lim) – o'quvchilar o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi. **Mazmun** – ilmiy bilimlar yig'indisi bo'lib, amalda qo'llash uchun beriladigan ko'nikma va malakalar jarayonida u ta'lim oluvchilarning fikrlash, o'ylash, mulohaza yuritishi orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim – bu milliy pedagogik kadrlar tayyorlashning boshlang'ich shakli. Maktabgacha ta'limning **vazifasi** bolani sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash, ulardagi o'qishga intilish hissini uyg'otish va uni muntazam ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim bola 6 – 7 yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Uning maqsad – vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar ishtirok etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim – bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Malaka – mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ish-harakat usullarining aniq, tez fursatda, talab darajasida bajarilishidir. Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, u haqida toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Malaka – kasbiy ish-harakat usullarini maqsadga muvofiq maksimal darajada aniq tez va talab darajasida bajarishdir.

Maxsus ma'noda»Ta'lim oluvchi ↔ ta'lim beruvchi» darajasida ta'lim sifati – bu muntazam ravishdagi o'lchamlar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatini, ta'lim oluvchilar faoliyati, ta'lim natijalarining ta'lim-tarbiyasiga mosligini belgilovchi darajadir.

Maqbullik prinsipi – pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, mavjud imkoniyatning hisobga olinishi, oz vaqt, mablag' va zo'riqish kuchlari sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi

Maqsad – qo'yilgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

Maqsadlar – ta'hmni boshqaruv faoliyatiga qarab, aynan bir oddiy ta'limiy masala echimiga qaralishidan tortib uzluksiz ta'lim tizimidagi turli faoliyatlargacha belgilanib berilaveradi.

Maqsadga erishish belgilangan reja asosida olib boriladi va shu asosda maqsad sari harakatlar boshlanadi. Bundan harakat jarayoni **monitoringi** muhim rol o'ynaydi, chunki bu harakatning borishi muntazam nazorat ostida boradi hamda kerakli rostlash ishlari olib boriladi.

Maqsadga erishildi deyiladi, agarda ta'lim oluvchining bilim darajasi o'qituvchining o'rganilayotgan fanga taalluqli Davlat ta'lim standartlari asosida ifodalangan talabi darajasiga yetib borsa.

Muhim kasbiy fazilat – diqqat-e'tiborlilik, kuzatuvchanlik, qat'iyatlilik, kirishuvchanlik, mustaqillik, o'zini nazorat qila olishlik

Muhim kasbiy psixologik-fiziologik fazilatlar – ekstra-vertivlik, chamalash, reaktivlik.

Maxsus kompetentlik – kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy bajarishda o'zi va o'zgalar ishini obyektiv baholash.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li

Metod iborasi (yunoncha - teshvyoaz - tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan.

Metodika – bu metodikaga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), oldindan o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilishdir.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi.

Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika fanini o'qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar

N

Nazariy vazifalar – ilg'or kasbiy pedagogik tajribalarni o'rganish, kasb-hunar ta'limining holatini aniqlash, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish;

Nazariy bilim – empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi.

Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika – texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Demak, bilimni obyektiv mavjudod haqidagi yoki muayyan sohaga oid ma'lumotlar majmui, deb ham ifodalash mumkin.

Natija – dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir.

Natijalar (mahsullar) – o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi.

Natijani o'zlashtirish – olingan natijalarni amaliy o'zlashtirilishiga tayyorlash jarayonidan iboratdir, ya'ni iste'mol uchun tayyorlash. Bunga tadqiqotchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim tuzatishlar kiritish har kimning qo'lidan kelavermaydi.

Nazariyaning amaliyot (hayot) bilan bog'liqlik prinsipi – o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot faoliyatida qo'llangan yoki dasturulamali bo'lib xizmat qilgandagina ahamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda qo'llanmagan bilimlar asossiz bo'lib, qisqa vaqt davomida unutiladi.

Nazariy bilimlar amaliyotga nisbatan ilgarilab borishi, amaliy mashg'ulotlarda uning to'g'rligini tekshirilishi lozim.

O

Oliy ta'lim – turli oliy maktablarga xo'jalik, fan, texnika va madaniyat tarmoqlari uchun yuqori oliy malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim jarayonida oliy ma'lumot olinadi. «Oliy ma'lumot» tushunchasi esa muayyan ixtisoslikdan nazariy va amaliy vazifalarni hal etish imkoniyatini beradigan bilim va malakalar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim – malakali mutaxassislar

tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim. Bu ta'lim 18 – 19 yoshdan boshlanib 4 yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (akademiyalar, universitetlar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillovchi bakalavriyat va magistraturaga ega.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim – Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni oliy o'quv yurtlarda va ilmiy tadqiqot muassasalarida (doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olish mumkin. Oliy o'quv yurtidagi keyingi ta'lim bosqichlarida (doktorantura) dissertatsiya himoyachi bilan yakunlanadi.

Operatsiya tizimi – mehnat jarayonlarini aniq operatsiyalarga bo'lishga asoslanadi. Unga 1868-yilda Moskva shahridagi Bauman nomidagi oliy texnika bilim yurtida asos solingan. D.K. Sovetskiy, V.P. Markov va ularning maslakdoshlari bu tizimning asoschilari hisoblanishadi. Bu tizim manbalarda «rus tizimi» deb ham yuritiladi.

Oliy kasb-hunar ta'limi – yuqori malakali mutaxassislarni ikki (bakalavriyat va magistratura) bosqichda tayyorlaydi.

«Rgosessus» iborasi lotinchada «ilgari harakatlanish» o'zgarish ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida uning muqobili sifatida «jarayon» tushunchasidan foydalaniladi.

P

Paradigma – (yunoncha **paradigma** – **namuna** – **o'rnak** ma'nolarini anglatadi) – ilmiy muammolarni hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya. Masalan, tug'ilish nazariyasiga tegishli muammolarni aksariyat hollarda differensial tenglamalar nazariyasi yutuqlari orqali hal qilinadi yoki o'quvchi-yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash milliy g'oyalar asosida hal etiladi va hokazo.

Pedagogikpsixologiya – ta’lim jarayonida bilim, ko’nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

Pedagogika – ta’lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish haqidagi fandır.

Pedagogik jarayonning tizimlilik (yaxlitlik, bir butunlik) **prinsipi** – ta’lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi (kamoloti)ning uyg’unligi, muayyan tizimga ega ekanligini anglatadi.

Politexnik prinsip – zamonaviy texnik va ishlab chiqarish texnologiyalarini umumiy asoslari bilan tanishtirish, tizimli bilim hosil qilish demakdir.

Predmet tizimi – shogird tomonidan buyumning izchil ravishda, muayyan miqdorda, butun murakkabligida boshidan oxirigacha tayyorlanish jarayonini qamrab oladi.

R

Reduksiyalash prinsipi – fan-texnika taraqqiyoti, ilg’or ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga keng ko’lam va tezkorlikda joriy etilishi bilan bevosita bog’liq bo’lgan axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida o’quv materialini imkoni boricha ixchamlashtirish, ya’ni eng muhim tizim hosil qiluvchi qismini ajratib olishni ko’zda tutadi. Bu ixchamlashtirish Davlat ta’lim standarti orqali belgilangan mazmunning yetarli va zarur darajasiga o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatmasligi zarur.

Refleksivlik prinsipi – subyektning o’z shaxsiy faoliyatiga, o’zlashtirgan hayotiy tajribasiga baho berishi, o’zgalarning u haqidagi fikrlari va ular bilan hamkorlik muloqoti va munosabatlarini tavsiflaydi.

Rivojlantiruvchi maqsad – ta’lim jarayoni ta’sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o’qishga, mehnatga bo’lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

S

Siyosatshunoslikta’limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog’liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi

Sintez (birikish, qo’shilish) – analizga qarama-qarshi bo’lgan fikrlash jarayonidir. Unda o’rganilayotgan narsa, voqea va

hodisalarning alohida qismlarini, bo'laklari bir butun qilib birlashtirish.

T

Ta'lim deganda shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topishi, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlari yo'nalishlari tarixan maydonga kelishi, ijtimoiy namuna bo'lishga va har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi.

Ta'lim berish – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish-o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturi – o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'lim standarti – bu standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan mazkur ta'lim turida ta'lim oluvchini o'qitish va tarbiyalashda qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni.

Ta'lim tamoyillari – bu o'qituvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim tamoyillari ta'lim berishning ma'lum obyektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Ta'lim vositalari – o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishim ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar.

Ta'lim maqsadi – har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar

olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Raqobatbardoshlik har bir pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini bozor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan aytganda, o'z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi. Bunday maqsadlarning yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi.

Raqobatbardoshlik pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlari uchun eng zarur shart bo'lib, bunda yakuniy natijani tayyorlagan o'qituvchi va o'quvchining raqobatbardoshligiga erishish asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu unga bo'lgan talab yuqori bo'lishini ta'minlash uchun muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ta'lim mazmuni – insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri.

Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi.

Ta'lim menejmenti va marketingi – bu pedagogik texnologiyaning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarga muvofiqligini aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tatbiq qilish masalalarini hal qiluvchi soha.

Ta'lim menejmenti va marketingida tegishli dolzarb yo'nalishlar aniqlanib, mutaxassislar tayyorlash uchun takliflar tayyorlaydi, tegishli tartibda biznes-rejalari tuzish va ularni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bunday muammolarning aniq yechimini topish uchun ta'lim menejmenti va marketingi bo'yicha chuqur hamda puxta bilimga ega, tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

Ta'lim monitoringi – pedagogik tizim faoliyati haqida axborotlar yig'ishni tashkil etish, saqlash, qayta ishlash va ularni sinflarga ajratish tizimidan iborat bo'lib, kuzatilayotgan obyekt holatini va kelguvsida uning rivojlanishi dinamikasini oldindan bashorat qilish jarayoni.

Ta'lim monitoringi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi, ta'lim natijalari darajasini taqqoslash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar majmuasini tayyorlashni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ta'lim monitoringi pedagogik tizim faoliyatidan olingan daliliy xulosaviy natijalarni uning maqsadiga nechog'lik mosligini ko'rsatuvchi, tezkori aloqani ta'minlovchi mustaqil boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirishning didaktik asosi hamdir.

Ta'lim monitoringi tadqiqot natijalarini muntazam ilmiy asoslangan holda kuzatish (dinamik jarayonni kuzatish uchun) hamda ularni berilgan etolon bilan qiyoslash jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi.

Ta'lim sifati – bu ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv massasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi.

Sifat kategoriyasi insonning obyektiv reallikni bilishdagi ma'lum bosqichini ifodalaydi. Bilish jarayonining dastlabki bosqichida obyektsubyekt oldida o'zining ayrim yoki bir necha xossasi bilan namoyon bo'ladi. Bevosita hissiy idrokda sifat ko'plab xossalarning majmui tarzida ko'rinish beradi.

Talab etilgan darajadagi ta'lim sifatiga ma'lum ijtimoiy-pedagogik tizim orqali erishish mumkin. Bu tizim quyidagi qismlardan tashkil topadi: DTS; bo'lajak mutaxassislarining me'yoriy modeli; ta'lim sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda monitoringi.

Ta'limiy maqsad – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olishdir.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sinda o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

Ta'limda zamonaviylik – ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajribada sinalgan didaktikaga oid yangiliklar, faol metodlar va shakllar, tartib-qoidalarni joriy etishning majburiyligi milliy dastur

g'oyasidir. Ta'limning taraqqiyot darajasi uning mazmuniga kiritilayotgan fan-texnika yangiliklari bilan tavsiflanadi

«Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish – ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini) xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, egiluvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil va h.k.), bilish (ta'lim oluvchilarni qarama-qarshilik va muammolarni ko'rish, savollar qo'yish, farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishni bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni.

Ta'limda iroda sohasini rivojlantirish – ta'lim oluvchida maqsadga intilishni shakllantirish jarayoni bo'lib, unda asab va muskullarning zo'rqiqlashini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish (qanday faoliyat ko'rsatish), faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish kabi qobiliyatlar muhim hisoblanadi

Ta'limda motivatsion sohani rivojlantirish – ta'lim oluvchining intellektual bilimlarga, tabiatni anglashga, jamiyatga, fikrlash va bilish qonuniyatlariga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish jarayoni.

Ta'limda emotsional sohani rivojlantirish – ta'lim oluvchida o'z hissiyoti va ruhiy holatlarini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, unda ortiqcha xavotirni yengish va o'zini xolisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishlikni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya odam rivojlanishini maqsadga bo'ysundiradi

Tasniflagichda quyidagi ta'riflar qo'llanilgan: tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari. Kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zarur shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon

Taqqoslash – narsa va hodisalardagi tafovut hamda o'xshashlikni, tenglik va notenglikni topa olishga yo'naltirilgan fikrlash operatsiyasi demakdir.

Texnologik vazifalari – metodik materiallar, o'quv reja, dastur, qo'llanmalar ishlab chiqish, pedagogika yutuqlarini amaliyotga joriy etish, tadqiqot natijalarini tahlil etish va h.k.

Tuzilma (lotincha struktura, tuzilish) bu tizimdagi elementlarning joylashishini anglatadi

Tushuncha – voqelikdagi narsa hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bir so'z yoki so'zlar birikmasi bilan ifodalashdan iborat tafakkur shakl. Ta'lim jarayoning dialektik xarakterga egaligi bois, tushunchalar asta-sekin chuqurlashib va murakkablashib boradi

U

Uzluksiz ta'lim tizimi – kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxsning jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha.

Uzluksiz ta'lim tizimi ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zaruriy shart-sharoitlarini yaratadi. Rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish, barkamol avlodni shakllantiradi.

Uzluksiz ta'lim – milliy modelning asosiy qismi bo'lib, quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.

Umumiydidaktika – o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga tegishli ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo'yadi.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa hamda o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Umumiy ma'noda – Ta'lim oluvchi ↔ ta'lim muassasi» darajasida ta'lim sifati – bu tizimli va kvalimetrik ko'rinishlarda muntazam o'lchamlar asosida aniqlanadigan ta'lim-tarbiya natijalarini moslik darajasidir.

Umumiy o'rta ta'lim – bu to'qqiz yillik (I – IX sinflar) o'qitishdan iborat bo'lgan umumiy o'rta ta'lim – majburiy ta'limdir. Bunda ta'lim oluvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojlarini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.

F

Falsafa va sotsiologiya jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Faol ta'lim – bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimiy-pedagogik jarayondan iborat.

X

Xususiydidaktika – muayyan o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha predmetning umumiy jihatlarini qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlarini namoyon bo'ladi.

Xususiy metodika – alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llanishining o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Sh

Shakl – o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

E

Elektron darslik – bu an'anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya'ni foydalanuvchi e'tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimedia, audio va video animatsiyalar, gipermurojaatlardan o'rinli foydalangan holda tuzilgan yoxud **dasturlarshirilgan** darsliklar. U kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot. Shuningdek, u muayyan fanning o'quv hajmini to'liq qamragan va masofaviy o'qitish hamda mustaqil o'rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan, bo'lib, unda materiallar (o'quv va ilmiy materiallar faqat virtual (matn) shaklida, o'quv materiallari esa virtual (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida) multimedia elementlari, ya'ni ma'lumot ikki-uch o'lchamli grafik ko'rinishida, video, animatsiya va qisman virtual (matn) shaklida, obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini ifodalaydigan shaklda yaratiladi.

Elektron ta'lim resurslari – bu muayyan fan bo'yicha yaratilgan elektron o'quv qo'llanma, elektron ko'rsatmalar, elektron ma'lumotnomalar, lug'atlar virtual stendlar, multimediali vositalar va boshqa elektron nashrlar majmuasidir.

Elektron uslubiy qo'llanma – bu ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik tajribani (amaliyotni) umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatishga mo'ljallangan nashr.

Elektron o'quv qo'llanma – bu muayyan fanning o'quv rejasidagi vaqt va o'quv dasturidagi ma'lumot hajmini qisman yoki to'liq qamragan va fanni o'rganishga tegishli ma'lumotni to'liq adaptatsiya qila olgan masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallab tayyorlangan nashr.

Etnologiyadidaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, qaysiki ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega

Ya

Yakuniy ko'rsatma berishning mazmuni, tashkil etish shakli va uslubi muayyan aniq mashg'ulot natijalariga ko'ra aniqlanadi va uning maqsadi o'quvchilarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi.

O'

O'rgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlarni amalga oshirish jarayoni.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati 3 yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi **yo'nalishi** – akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

O'qish. O'qish jarayonining asosiy g'oyalari:

- o'qish – bevosita bajariladigan jarayon bo'lib, uning yordamida odamlar butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi;

- bolalarni o'qishga o'rgatishning o'zi kamlik qiladi, ularni chuqur o'ylanib o'qishga o'rgatish kerak va bular natijasida o'quvchi-o'quvchilarda yangi fikr paydo bo'lib, ularning ilmiy ijodga kirib kelishi ta'minlanadi;

- o'qish oddiy o'rganish fani emas, balki fikrlash va dunyoni bilish qurolidir;

- o'qish va o'qiganda javoban ta'sirlanish tanqidiy tahlilning asosiy yo'lidir;

- har xil fanlarni o'rganish, odatda ta'lim oluvchidan juda ko'p mustaqil o'qishni talab qiladi, shuning uchun o'qish jarayonini tushunish aniq fan bo'yicha o'qilganni o'zlashtirishni va tahlil qilishni yaxshilash mumkin;

- o'qish va yozish orasida chambarchas aloqa bor. Bu aloqani tushunish o'qitish jarayonini boyitadi va rag'batlantiradi.

O'quv qo'llanma – bu darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr.

O'quv rejasi – ta'lim oluvchi bilimi va kasbiy tayyorgarlik mazmunining yetarli va zarur darajasini ta'minlaydigan o'quv jarayoni va o'quv yuklamalari hajmi, muddatlari va tayyorlanuvchi mutaxassis sifati, nazorat shakllarini belgilab beruvchi huquqiy-me'yoriy hujjatdir.

O'quvchilarning mustaqil ishlari yoki mashq qilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik qonun-qoidalariga binoan tuzilgan bo'lib, texnologik jihatdan ma'lum ketma-ketlikda ko'zlangan bilim va usullarini egallashni nazarda tutadi.

O'quvchilarning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga buysundirilgan mehnatlari ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi.

O'quvchilarda o'zlashtirilayotgan kasb (ixtisoslik)ga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish - ishlab chiqarish ta'limining mazmunini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent-Sharq 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". 1997 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti –Toshkent., 2000.-245 b.
4. Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. - Ma'naviyat. 2011. –63 b.
5. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv me'yoriy hujjatlar to'plami. –T.:2006. – 48b.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1993.Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A.. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.,2010 y.
8. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent. Moliya -2006.
9. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «Fan», 2009. – 172 b.
10. Olimov Q.T. Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari. KHK uchun darslik. Toshkent ., «G' G'ulom» - 2002.
11. Olimov Q.T., Uzoqova L.P. Kasbiy fanlarni o'qitishda qiziq-tirish (motivatsiya) usulini qo'llash // Kasbiy ta'lim muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Samarqand, 2003. – 75 b.
12. Olimov Q.T., Sayidaxmedova M.S., Jalolova D.F., Bozorova M.Q., Boltayeva M.L., Alimov A.A. Pedagogik texnologiyalar o'quv qo'llanmasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 300 b.
13. Olimov Q.T. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Monografiya. Toshkent – 2007. 87 b.
14. Olimov Q.T. Noan'anaviy o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishdan o'ziga xos farqli xususiyatlari // O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida yangi pedagogik texnologiyalar muammolar va echimlar. – Buxoro, 2006.- 21 b.

15. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova S. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: Fan, 2004. – 119 b.

16. Alimov A.A. Improving the preparation of future teachers of special disciplines in Uzbekistan. Eastern European Scientific Journal. Germany. p. 113-116.

17. Alimov A.A. *Uzluksiz ta'lim tizimi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini shakllantirish usullari*. Xalq ta'limi jurnali. Toshkent, 2015. №6. –74-78 b.

18. Алимов А.А. Процесс развития способностей учащихся при самоконтролируемом обучении. Ежемесячный научный журнал “Молодой учёный”, – Россия, Казань, 2015. – ноябрь-1, №21(101) – С. 751-753.

19. Mirzayeva F.T. Jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish muammolari va ularni hal qilish yo'llari. Uzluksiz ta'lim jurnali. Toshkent, 2016. №2. –93-98 b.

20. Mirzayeva F.T. Problem of preparation for the profession of students with disabled and various solutions. Eastern European Scientific Journal. Germany. p. 113-116.

21. Jalolova D.F. Maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish (Kasb-hunar kollejlarning «Tikuvchilik ishlab chiqarish» yo'nalishi misolida): Ped. fan. nom. dis. – T.: 2009. – 140 b.

22. Jalolova D.F. Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlardan mustaqil ishlarni tashkil etish, o'tkazish va baholash. Uslubiy qo'llanma. –Buxoro, Texno-tasvir. 2005 - 45 b.

23. Avliyoqulov N.X. Pedagogik texnologiyalar. T.2009.

24. Mirsaidov K.D. Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – T.: O'qituvchi, 1996 - 105 b.

25. Xodjaboyev A.R., Xusanov I.A., Nishonaliyev U.N. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006 y.

26. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. Toshkent. «Fan va texnologiyalar». 2009.

27. Rashidov X. va boshqalar «Kasbiy pedagogika» blokini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. 200 b.

28. Dimetova M.K. Kasb-hunar kollejlari da ilg'or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati // Kasb-hunar ta'limi –Toshkent, 2005. - 82 b.

29. Nuriddinov B.S., Abduquddusov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari. Monografiya 2001.

30. Golish L.V. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish". – T., 2001 y.

31. Golish L, Fayzullaeva D. Kasb-hunar kollejlari da modulli dastur asosida ta'lim berish // Kasb- hunar ta'limi.-Toshkent. 2002.- №4.- 24 b

32. "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari to'g'risida"gi Nizom Toshkent 2007 y.

33. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsiyalar. // J. Maktab va hayot. – T., 2009. - №1. – B. 7.

34. Ziyomuhammadov B., Abdullaeva SH., «Ilg'or pedagogik texnologiyalari». T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001. – 80 b.

35. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishni psixologik asoslari. Psix.f.d.i.d olish uchun yozish dissertatsiya. –T., 2005.- 59 b.

36. Sadiqova F.M. Mustaqil ishlarni tashkil etishning didaktik tamoyillari // J. Kasb-hunar ta'limi -2007. -№5. - B.7-8.

37. Mavlonova R. va boshqalar Pedagogika – Toshkent. O'qituvchi, 2001.

38. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari – T.: Universitet, 1998

39. Батышев С.Я. Профессиональная педагогика. "Профессиональное образование". М.: 1997.

40. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения -М.: ИТПИМИО,1995.-169 б

41. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям. - М.: Ассоциация "Профессиональное образование", 1997 - 512 с.

42. Кушнер Ю.З. Воспитательная деятельность мастера производственного обучения. М.: Минск 2001.

43. Сластенин В.А., Подымосова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М., “Магистр”, 1997 г.
44. Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогической инноватики: Опыт разработки теории инновационных процессов в образовании, – М., 1991 г.
45. Хомерики О.Г. Системное управление инновационным процессом в общеобразовательной школе: дисс. ... канд пед.наук. – М., 1996.
46. Поташник М.М., Лазарев В.С. Управление развитием школы – М.: Новая школа, 1995.
47. Ulrich Kline. Projekt – und tron sferorientierte Ausbildung - PETRA (Loyihalarga va mavjud bilimlarni yangi vaziyatga qo'llashga qaratilgan ta'lim). Pnnted in Germany, 2000.
48. Frank Vengkefer, Berufliche Bildung und Consulting GmbH, («Kasbiy pedagogika» maxsus sohasining muhim masalalari asosida Frank Vengkeferning kontsepsiyasi)., D-13189 Berlin, 2002.
49. Ваквитц К. / Wackwitz. Специальная дидактика для аграрного хозяйства. Дрезден. – 2010.
50. Ваквитц К. / Wackwitz. Шаги для самостоятельного получении специальной информации. Дрезден. – 2010.
51. Backerra, Hendrik, Malorny, Christian; Schwarz, Wolfgang: Kreativitätstechniken. Kreative Prozesse anstoßen, Innovationen fördern. Die K7. 2. Aufl., München, Wien: Carl Hanser Verlag 2002.
52. Bugdahl, Volker: Kreatives Problemlösen im Unterricht Frankfurt am Main: Cornelsen Scriptor 1995.
53. Schaudé, Götz: Kreativitäts-, Problemlösungs- und Präsentationstechniken. 3. Aufl., Eschborn: Rationalisierungs-Kuratorium der Deutschen Wirtschaft (RKW) e.V. 1995.
54. Leontev, A. Tätigkeit, Bewußtsein, Persönlichkeit (Faoliyat, anglash, shaxs) Berlin, 1987.
55. Galperin, P.J. Zu Grundfragen der Psychologie (Psixologiyaning umumiy savollariga tegishli) Berlin, 1980.
56. Matern, B.; hrsg. von Hacker, W. Psychische Regulation von Arbeitstätigkeiten: innere Modelle - Strategien in Mensch-Maschine-Systemen - Anforderungen, Beanspruchung und Belastung (Mehnat faoliyatining psixologik regulatsiyasi: ichki modellar – odam – mashina tizimiga strategik talablari, talab va yuklama) Berlin, 1976.

57. Miller, G. A.; Galanter, E.; Pribram, K. H. Strategien des Handelns: Pläne und Strukturen des Verhaltens (Harakat strategiyasi rejalar va hulq tuzilishi) Stuttgart, 1973.

58. Gonsalves, A. M., & Pedro, N. (2012). Innovation, e-Learning and Higher Education : An Example of a University' LMS Adoption Process *World Academy of Science, Engineering and Technology* 66 2012, 6(6), 258-265. Retrieved from <http://www.waset.org/journals/waset/v66/v66-46.pdf>

59. Muijs, D. & Reynolds, D. (2011). Effective Teaching: Evidence and Practice, 3rd Edn, Los Angels, Sage.

60. Ramsden, P. (2003). Learning to Teach in Higher Education, London, Routledge

61. McCain, T. (2007). Teaching for Tomorrow: Teaching Content and Problem-solving Skills. Melbourne, Vic: Hawker Brownlow Education.

62. Trilling, B. & Fadel, C. (2009). 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times, San Francisco, CA, Jossey-Bass.

63. Wilhite, S. C. (1990). Self-efficacy, locus of control, self-assessment, self-assessment of memory ability, and study activities as predictors of college course achievement, *Journal of Educational Psychology*, Vol 82, pp. 696 – 700. <http://dx.doi.org/10.1037/0022-0663.82.4.696>

64. Green M. Existential encounters for teachers // Philosophic alternatives in education / Ed.by G.Gutek. Columbus, 1984. P 216.

65. Prokopenko J., White J., Bittel L., Eckles R. Modular programmed for supervisory development. — Switzerland, Genewa: Introduction and trainers guide, 1981.-Vol. 1-5.

66. Wilson, S. M. & Peterson, P. L. (2006). Theories of Learning and Teaching: What Do They Mean for Educators? Washington, DC, National Education Association.

67. Slavin, R. E, (1996). Education For All, Lisse, Swets & Zeitlinger

68. Wolfe, C. R. (2001). Learning and Teaching on the World Wide Web, London, Academic Press.

69. Torrance tests of creative norms. Technical manual. - N.Y., 1996.

70. Entwistle, N. J. & Tait, H. (1990). Approaches to learning, Evaluations of teaching and preferences for contrasting academic environments. *Higher Education*, Vol. 19, pp. 169-194.
<http://dx.doi.org/10.1007/BF00137106>

ILOVALAR

MAVZU: DON ZAXIRALARINING ZARARKUNANDALARI

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

<i>Vaqt</i> – 2 soat	O'quvchilar soni: 40-60 nafar
<i>O'quv mashg'ulotining turi</i>	Kirish, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</i>	3. Dondagi aralashmalar tavsifi. 4. Zaxarli aralashmalar tavsifi. 5. Dondagi hasharotlar tavsifi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Donning iflosligi, donning hasharotlar bilan zararlanishi to'g'risida o'quvchilarda nazariy bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – o'quvchilarni dondagi aralashmalar tavsifi bilan tanishtirish; – o'quvchilarga har bir darsga faol qatnashishi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish; – o'quvchilarga zaharli aralashmalar tavsifi bo'yicha nazariy bilimlarni taqdim etish. – ta'lim jarayonining borishida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan o'quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashurib borish; – o'quvchilarning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini shakllantirish; – dondagi hasharotlar tavsifi bilan tanishtirish;	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> O'quvchi: – o'quvchilarni dondagi aralashmalar tavsifi tushuntira oladilar; – o'quvchilar har bir darsga faol qatnashish bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladilar; – o'quvchilar zaharli aralashmalar tavsifi to'g'risida yaqqol tushunchaga ega bo'ladilar; – dondagi hasharotlar tavsifi tushuntira oladilar; – o'quvchilarda ta'lim mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan holda tasavvur shakllanadi.

– taʼlim mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bogʻlangan holda tasavvurni shakllantirish	
Oʻqitish uslubi va texnikasi	Vizual maʼruza, blits-soʻrov, bayon qilish, «Aqliy hujum» metodi, B.B.B. texnikasi, «Kaskad» texnikasi
Oʻqitish vositalari	Maʼruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar.
Oʻqitish shakli	Jamoa, kichik guruhlarda va juftlikda ishlash.
Oʻqitish shart-sharoiti	Proyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya.

Maʼruza mashgʻulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Oʻqituvchi	Oʻquvchi
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, oʻquv mashgʻulotidan kutilayotgan natijalar maʼlum qilinadi.	1.1. eshitadi, yozib oladi
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Oʻquvchilar eʼtiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob oʻtkazadi (1-ilova). Kutilayotgan oʻquv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishiradi (2-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi 2.3. Vazifani bajarishda oʻquv materiallari (maʼruza matni, oʻquv qoʻllanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi.	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. Oʻylaydi, javob beradi Javob beradi va toʻgʻri javobni eshitadi 2.2. Sxema va jadval mazmunini

2.4 O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi (3-11 ilovalar). Zaxarli aralashma, mi-kozalor, qattiq qora kuya, chang qora kuya, nemotodlar, zaxarli o'simliklar, alkaloidlar, sporin'ya, fuzarioz, ombor xashoratlari, zararlanish darajasi, tosh kanalar tushunchalarini sharhlaydi. 2.5 O'quvchilarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi. 2.6 «Aqliy hujum» metodini qo'llab, mavzu yuzasidan faollashtiruvchi savollarni o'rtaq tashlaydi (12-ilova). 2.7 B B B texnikasidan foydalalanib, o'quvchilar yangi mavzu yuzasidan qay darajada ma'lumotga ega bo'lganligini tekshiradi (13-ilova). 2.8 O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, «Kaskad» texnikasi asosida guruhlariga savollarni beradi (14-ilova). 2.9 Mavzu yuzasidan testlar echishni taklif etadi (15-ilova). Shundan so'ng, o'quvchilar kichik guruhlarida bajarilgan ishlar va testlarga javoblar keltirilgan baholash mezonlariga asoslangan holda baholanadi (16-ilova). 2.10 O'quvchilar javobini sharhlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
---	---

3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va o'quvchilar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantiradi 3.2. Mustaqil ish sifatida yangi mavzu yuzasidan materiallar to'playdi	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni vozib oladi.
---	---	--

1-ilova

«Blits-so'rov» usulio'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu usul orqali o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Faollashtiruvchi savollar

- Don iflosligi deganda nimani tushunasiz?
- Dondagi aralashmalarga qaysi fraksiyalar kiritilgan?
- Keraksiz va donli aralashma orasidagi farq nima?

2-ilova

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruh a'zolarining har biri

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim,
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- «Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz» qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Vizual materiallar



3-ilova

Zaharli aralashmalar - kelib chiqishiga ko'ra don massasidagi zaharli aralashmalar quyidagi guruhga kiritilgan:



1. Zamburug'-parazitlar (mikozalar), (tekinxo'r zamburug'lar) – “ро.ювня” va “споринья” yoki qora kuya deb ataladi.
2. Hayvonlar parazitlari-nemotodlar. Begona o'simliklari mastak (плевел опыляющих), kakra (порчок ползучий), tuyaqorin, xazarang (ре.шотрон опухенно-плодной), kampirchopon (трихоосма седая).

4-ilova



Bug'doydagi qattiq qorakuyaning rivojlanish sikli.
a-qorakuya saltachalari bo'lgan boshuq;
b-qorakuya qopchasi,
v-yuzasida qorakuya sporalari bo'lgan bug'doy doni;
g-don yuzasida o'sayotgan sporalari;
d-qorakuya sporalari (mikroskop ostida).

5-ilova



a s'agradava que el meu fill
 es plantés amb un altre
 i es quedés per sempre.
 Aleshores, quan ho va dir,
 el meu fill va dir: "no, jo
 no m'agradaria que el meu
 pare es plantés amb un
 altre fill i es quedés per
 sempre."

6-ilova



Стороны

a-zararlangan

beahog'i:

b shoxchalar.

javidar





Ugritsa

- a — zararlangan don.
b — bug'doy nemotodlaridan iborat qatlam.
d — nematodlar



Zaharli o'simliklar:

a — barcha qismlarida; b — meva; c — d — barcha qismlar; e — meva; f — barcha qismlar; g — meva; h — barcha qismlar; i — meva; j — barcha qismlar; k — meva; l — barcha qismlar; m — meva; n — barcha qismlar; o — meva; p — barcha qismlar; q — meva; r — barcha qismlar; s — meva; t — barcha qismlar; u — meva; v — barcha qismlar; w — meva; x — barcha qismlar; y — meva; z — barcha qismlar.





12-ilova

Aqliy hujum metodi iloji boricha ko'proq ijodiy fikrlarni yuzaga keltirishdir. Istalgan fikrlar qabul qilinadi. Yig'ilgan fikrlardan qay birini kelgusida ishlatishni butun guruh hal qiladi. O'quv mashg'ulotni «Aqliy hujum» metodini qo'llab o'tishning qoidalari quyidagilar:

- O'zaro baholash va tanqidga o'rin yo'q.
- Taklif etuvchi g'oyalar fantastik va g'aroyib bo'lsa, ularni baholashdan saqlang hammaning fikr bildirishiga ruxsat etiladi.
- Tanqid qilmang barcha bildiriluvchi fikrlar teng qimmatli.
- So'zga chiqqan kishining gapini bo'lmang!
- E'tirozlardan saqlang!
- Qancha ko'p fikr aytilsa, shuncha yaxshi yangi va qimmatli fikr paydo bo'lishi ehtimoli ko'proq.
- Fikrlar takrorlansa xafa bo'lmang va uyaltirmang!
- Tasavvur qilishga ruxsat bering!

O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida «Aqliy hujum» metodidan foydalanib savollar beriladi:

- Zaharli aralashma qanday guruhlarga ajratilgan?
- Don partiyasining ombor hasharotlari bilan zararlanganligi deganda nimani tushunasiz?
- Zararlanish darajasigi ta'rif bering?
- Ochiq va yashirin zararlanishning farqini tushuntiring.
- Kanalar ta'rif bering?
- Kanalar turlari va ular keltiradigan zararlar haqida gapirib bering.
- Donning hasharotlar bilan zararlanganligini aniqlashning qanday usullari mavjud?

13-ilova

B.B.B. metodini qo'llab o'qituvchi mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va iboralar ro'yxatini kodoskopga o'xshash biror texnik vosita yordamida o'quvchilarga taqdim etadi. O'quvchilar o'zlari biladigan va bilmaydigan tushunchalar va iboralar bilan namunadagi jadvalni to'ldiradilar. Ro'yxatga kirmagan, biroq dars jarayonida yangidan paydo bo'lgan o'quvchi uchun notanish tushuncha va iboralar ham jadvalning ikkinchi ustuniga qo'shimcha ravishda qayd etilib boriladi. O'quvchining asosiy diqqat e'tibori jadvalning ikkinchi ustunidagi bilimlarni egallashga qaratiladi. O'quvchi darsni diqqat bilan tinglab jadvalning ikkinchi ustunidagi tushuncha va iboralarni bilib va yozib oladi hamda o'zlashtirgan savol to'g'risidagi uchinchi ustunga «+» belgi qo'yadi, boshqalari bo'sh turadi. Agar dars jarayonida ikkinchi ustundagi ayrim tushuncha va iboralar o'rganilmasdan qolib ketsa, ular o'qituvchidan so'rab yoki mustaqil ravishda o'rganib olinadi. Bu usul o'quvchida bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'z-o'zini nazorat qilish, darsdayoq tegishli ma'lumotlarni egallab olishga intilish, axborot resurslari ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

B.B.B. metodi asosida targatma materiallar


	Tushuncha	Bilaman «+», Bilmayman «-».	Bildim «+», Bila olmadim «-».
1	Mineral aralashma		
2	Yovvoyi o'simliklar urug'lari		
3	Zaharli aralashma		
4	Yetilmagan donlar		
5	Mikozalar. Golovnya		
6	Chang qorakuva.		
7	Spornya		
8	Rojok		
9	Fuzarioz		
10	Afsonak		
11	Tuva qorin, xazarang		
12	Kampirchopon		
13	Tosh kanalar (klexi)		
14	Uzuntumshuq		
15	No'xatxo'rak		
16	Kapalaklar		

14-ilova

«Kaskad» texnikasi


1-kichik guruh

Ushbu texnologiya g'oyalari tizimini ishlab chiqishga ko'mak beradi:



2-kichik guruh

Asosiy maqsad: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.




Topshiriqlar

«Kaskad»-texnikasi asosida «Zaharli aralashmalar»ni aniqlab, sharhlab bering.

3-kichik guruh

Asosiy maqsad: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.



Topshiriqlar

«Kaskad»-texnikasi asosida «Zaharli o'simliklar»ni aniqlab, sharhlab bering.

Testlar:

1. Zararli aralashmalar qatorini ko'rsating:

- A) mikozalar, parazit zamburug'lar
- B) nematodlar, gelimotroklar
- V) gorchak, germoksis
- *G) barchasi to'g'ri

2. Dukkakli donlar qatorini toping?

- * A) no'xat, loviya, mosh, soya
- B) bug'doy, sholi, arpa, soya
- V) javdar, suli, arpa, sholi
- G) no'xat, mosh, bug'doy, tariq

3. Zaxarli aralashmalarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A) madaniy o'simlik urug'lari
- B) tuproq, temir
- * V) mastak
- G) Ovsyug

4. Bug'doy uchun muhim sifat ko'rsatkich qaysi?

- * A) rang, hid, ta'm, namlik, ifloslik va zararkunandalar bilan zararlanganligi

- B) kleykovina, kuldorlik, g'ichirlash
- V) rang, hid, kleykovina, og'irlik, natura
- G) unib chiqish, sochiluvchanlik

5. Kuldorlik ko'rsatkichi donning qaysi qismida ko'p?

- A) meva qobig'i, murtak
- B) urug' qobig'i, endosperm
- * V) aleyron qatlami va qobiqda
- G) meva va urug' qobig'i

6. Donning aleyron qatlami qaysi moddalarga boy?

- * A) oqsil va pentozalar
- B) qand va kletchatka
- V) uglevod va kletchatka
- G) qand va moy

7. Bug'doy donida oqsil moddasining ko'p bo'lishi qanday omillargabog'liq?

- * A) tuproq-iqlim sharoitiga, don naviga, o'g'itlarga

- B) obi-havoga, agrotexnik ishlov berishga, suvga
- V) yog'ingarchilikka, qorga, suvga, kul moddasiga
- G) iqlim sharoitiga

8. Kartoshka kasalligini qo'zg'atuvchi mikroorganizm nomini ko'rsating:

- * A) bakteriyalar
- B) patogenlar
- V) zamburug'lar
- G) fitopatogenlar

9. Zararli aralashmalar qatorini ko'rsating:

- A) mikozaalar, parazit zamburug'lar
- B) nematodlar, gelimotroklar
- V) gorchak, germoksis

* G) barchasi to'g'ri.

10. Begona o'tlarga qarshi qanday choralar ko'riladi?

- A) almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilish
- B) agrotexnik tadbirlarni vaqtida amalga oshirish.

V) begona o'tlardan tozalash turli zamonaviy gerbitsidlardan foydalanish.

* G) barchasi to'g'ri

16-ilova

O'quvchilarni bajarilgan topshiriq yuzasidan javoblarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)			Ballar yig'indisi
	(1,0)	(1,4)	1-savol	2-savol	3-savol	(3,0)
1						
2						
3						

**Amaliy mashg'ulot mavzusi: Yo'rmash mashinasiga
iplarni taqish va tikish jarayonini kuzatish**

Vaqt - 2-soat	O'quvchilar soni: 25 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va bilimlarni chuqurlashtirish bo'yicha muammoli amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Yo'rmash tikish mashinalarining vazifalari. 2. Yo'rma baxyaning hosil bo'lish jarayoni. 3. Yo'rmash tikish mashinalariga iplarni taqish. 4. Tikish jarayonini kuzatish
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Yo'rmash tikish mashinasiga iplarni taqish va ularda tikuv jarayonini bajarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Amaliy mashg'ulot maqsadini va uni bajarish, ketma-ketligini tushuntirish; – Yo'rmash mashinasiga ipni taqishni namoyish qilish va o'rgatish; – Tikuv mashinasiga iplarni taqish bo'yicha topshiriqlar berish va ularni bajarishda maslahatlar berish; – o'quvchilarda mustaqil holda ipni taqish va tikuv jarayonini bajarish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish, – o'quvchilarning bajargan ishlarini baholash.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <i>O'quvchi</i> – amaliy mashg'ulot maqsadini va uni qanday ketma-ketlikda bajarishni tushunib oladi; – tikuv mashinasiga ipni taqish ketma-ketligini o'rganadi; – tikuv mashinasiga ipni taqish bo'yicha topshiriqlarni bajaradi va bir necha bor takrorlaydi; – mustaqil ravishda tikuv mashinasiga ipni taqishni o'rganadi va texnologik jarayon bajarilishini kuzatadi Dastlab o'z-o'zini baholaydi. Tuzatishlar kiritadi. So'nga bajargan ishlarini namoyish qilishadi
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	«Namoyish», «To'rt pog'onali», «Blits-so'rov»
<i>O'qitish vositalari</i>	Kichik guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shakli</i>	Tikuv mashinasi, turli rangdagi iplar, pmsset, gazlama, plakatlar

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1.Mashg'ulot rejasi, maqsadini ma'lum qiladi. Nazariy bilimlarini faollashtirish uchun blits-so'rov o'tkazadi (1-ilova).	1.1.Eshitadi, yozadilar, savollarga javob beradilar
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	1 Qism. Namoyish qilish. O'qituvchi yo'rmash mashinasiga igna va chalishtirgich iplarini taqishni namoyish qiladi (2-ilova) 2 Qism. Kichik guruhlariga topshiriq berish 2.1.O'quvchilarni 3 guruhga bo'ladi, har bir guruhga topshiriq beradi (3-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). Baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 2.3. Topshiriqni bajarish uchun o'quv materiallari va yo'riqnomalardan foydalanish mumkinligini eslatadi 2.4.Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4.Topshiriqni bajarish davomida maslahatlar beradi 2.5. O'quvchilarning bajargan ishlarini ko'rib chiqadi, izohlaydi, to'g'ri bajarilgan ishlarni ajratib ko'rsatadi, xatolarni aniqlaydi. Xuddi shunday, guruhlar orasida o'zaro fikr almashishni tashkil qiladi	Kuzatadilar. Topshiriqni oladilar Kerakli o'quv materiallari va yo'riqnomalardan foydalanadilar Kichik guruhlarda ishlaydilar va bajarilgan ishlarini namoyish qiladilar. Testlarni bajaradilar. Yo'l qo'ygan xatolarni tuzatishadi. Ballarni yozib oladilar.

	2.6. Taqdimot tugaganidan keyin o'quvchilarga mavzu yuzasidan testlar echishni taklif etadi (5-ilova). Shundan so'ng, kichik guruhlarida bajarilgan ishlar va testlarga javoblar baholash mezonlariga asoslangan holda baholaydi (6-ilova). 2.6. O'quvchilar javobini sharhlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi 2.7 Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish topshiriqlarini beradi. (7-ilova)	3.1 Eshitadilar va topshiriqni yozib oladilar

1-ilova

Faollashtirish uchun savollar

1. Ikki va uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyaqator asosan qaysi ishlarni bajarishda qo'llaniladi?
2. Uch ipli zanjirsimon yo'rma baxya hosil bo'lish jarayonida qaysi ishchi organlar ishtirok etadi va har birining vazifasi nimada?
3. Yo'rmashtirish mashinalarini asosiy ishchi organlari vazifalarini ayting

2-ilova

Tikuv mashinasiga ipni taqishni namoyish qilish


1. Igna 1.a-rasm eng ostki holatga tushiring, chap chalishtirgich 2 chapda, kengaytirgich 3 esa o'ngda bo'lsin.
2. Igna 1.b-rasm eng ostki holatdan 2,5-3 mm ko'taring, halqa hosil qiling, bu halqaga chapdan o'ngga harakatlanib chap chalishtirgich 2ga kirsin.

3. Chap chalishtirgich 2 o'ngga harakatlanishda davom etishini kuzating, qarshisidan kelayotgan kengaytirgich 3 bilan uchrashadi, kengaytirgich chap chalishtirgich halqasini ilib oladi. Igna 1 d-rasm shu paytda materialdan chiqadi, reyklar ko'tarilib, materiallarni bir bahya bo'yi suradi.

4. Kengaytirgichni 3-rasm, e igna plastinasi tepasiga ko'tarilishini ta'minlang, chap chalishtirgich 2 ning halqasini pastga tomon harakatlana boshlayotgan igna 1 ning harakat chizig'iga to'g'rilab qo'ying.

5. Ignani shunday yunaltiringki 1.f-rasm chap chalishtirgich 2 ning halqasiga kirsin, u materiallarni teshib o'tib, pastga tushsin Bu paytda chap chalishtirgich 2 chapga, kengaytirgich 3 esa o'ngga harakatlanadi.

Shundan keyin bahya hosil bo'lish jarayoni takrorlanishini kuzating. Materiallar siljiyotganda iplar tepki barmog'ida chalishadi, tortilgan halqalar tepki barmog'idan sirpanib tushib, materiallarni ularning qirgimini tortmay qamrab oladi.



Guruhdagi barcha o'quvchilar bilan tepki tagiga gazlama qo'yib, bahya hosil bo'lish jarayonida ishchi organlarning harakatlarini kuzatib.

Tikuv mashinasiga ipni taqishni namoyish qilish va uni kichik guruhlarda bajartirishda o'qituvchi to'rt pog'onali usuldan foydalanadi

To'rt pog'onali usul

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilar o'z tanlagan kasb ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishlarida «**to'rt pog'onali usuli**» eng samarali usul hisoblanadi. Bu usul O'zbekiston Respublikasi AQSH va Yevropaning bir qancha davlatlari kasb-hunar ta'limida keng qo'llaniladi. Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Amaliyot o'qituvchisi o'quvchilarga avval bajariladigan kichikroq bir ishni tushuntirib beradi, so'ngra qanday tartibda bajarilishini qilib ko'rsatadi. Keyin o'quvchi shu ishni ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (immitatsiya) kerak. O'quvchi qaytarib qilayotgan paytda amaliyot o'qituvchisi uning xatolarini to'g'rilab turadi. O'quvchi ushbu mashqni bir necha marotaba qaytarishi kerak. Misol tariqasida to'rt pog'onali usuli doirasi kasb-hunar kollejlarning yengil sanoat yo'nalishlari uchun o'tiladigan «Tikuvchilik korxonalari jihozlari» bo'yicha o'quv amaliyoti mashg'ulotlarini o'tkazishini ko'rib chiqamiz.

• **1-pog'ona** – tushuntirish - qiziqtirish – ma'lumot berish. Mashg'ulot o'quvchilarni tikuvchilik sohasi va unga qarashli zamonaviy tikuv mashinalariga qiziqishini uyg'otishdan boshlanadi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga amaliy mashg'ulotni bajarish uchun tikuv mashinasi to'g'risidagi ma'lumotlarni, unda bajariladigan tikuv jarayonini tushuntiradi. Bunda o'qituvchi barcha o'quv didaktik materiallardan, masalan, tikuv mashinasining kinematik sxemalari, mashinada ishlash bo'yicha ko'rsatmalar, sozlash asboblari va gazlamalardan ko'rgazmali materiallar sifatida foydalanishi mumkin.

Amaliyot o'qituvchisi tikuv mashinasini ishlatishdan oldin qilinadigan tayyorgarlik ishlari ketma-ketligini tushuntiradi. Tikish

sifatini namoyish etish maqsadida mashinaning to'g'ri sozlanganligi yoki uning ishida sodir bo'ladigan nuqsonlarni ko'rsatib o'tishi mumkin.

- **2-pog'ona** –namoyish qilish.

Bu pog'onada amaliyot o'qituvchisi tushuntirgan ish bosqichlarini o'zi qilib ko'rsatadi, ya'ni tikuv mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish, ignani o'matish, gazlamani tepki ostiga joylashtirish va mashinani ishga tushurishni ko'rsatib beradi.

Buning uchun kerakli tikuv mashinasi, gazlama va iplar va sozlash asboblari tayyorlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Amaliy ko'nikmalarni 3 marta namoyish qilish tavsiya etiladi:

- O'quvchilarda to'la va haqiqiy tasavvur paydo bo'lishi uchun namoyish oddiy tezlikda o'tkaziladi

- Har bir ish bosqichini alohida va xususiyatlarini yaxshiroq ko'rsatish uchun sekin tezlikda namoyish qilinadi

- O'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun oddiy tezlikda yana bir marta to'la ravishda ko'rsatiladi.

- **3-pog'ona** – ko'rsatilgan tarzda qaytarish.

O'quvchilarning har biri amaliyot o'qituvchisining harakatlarini u ko'rsatgan tarzda qaytaradilar. O'quvchilar ishlayotgan paytda o'qituvchi ularni xatosini tuzatadi. Yaxshi ishni maqtaydi yoki tanqid qiladi.

- **4-pog'ona** – mashq qilish.

O'quvchilar tikuv mashinasiga ustki va ostki iplarni taqish, ignani o'matish va gazlamani tepki ostiga joylashtirib, tikish jarayonini bajarishlari uchun o'qituvchi ularga yetarlicha gazlama va ip berib qo'yadi.

Agar ish natijalari sifat mezonlariga javob bersa, ya'ni gazlamadagi bahyaqator sifatli bajarilsa, ish tugatilishi mumkin.

Bir va ikkinchi bosqich bo'yicha o'quvchilar dastlabki nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Ushbu usulni o'quv jarayoniga qo'llab o'tkazilgan tadqiqotlar va olimlar fikri bo'yicha, reja asosida ishlatilgan tashqi qo'zg'ovchilar va nazorat qilinishi mumkin bo'lgan reaksiyalargina yetarli darajada tekshirilishi mumkin.

Shundan kelib chiqib o'rganishning «To'rt pog'onali» usuli bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalarni berish mumkin:

- O'zlashtirish (o'rganish) – bu qo'zg'ash ta'siri va reaksiya ketma-ketligi takrorlanishining natijasidir.

- Takrorlash orqali «Shartli reflekslar orqali o'rganish» prinsipi hosil bo'ladi.

- O'zlashtirishda erishilgan natijalar rag'batlantirilsa (maqtab turilsa) o'rganish samarasi oshib boradi.

Bugungi kunda bosqichlarni murakkabroq qilishga harakat qilinmoqda. Ya'ni shunday mashqlar kiritilishi mumkinki, ular doirasida o'quvchi bir vaqtning o'zida bir nechta ko'nikmalar va jarayonlarni amalda bajarishi kerak. «Tushuntirish» va «Namoyish etish» pog'onalari esa, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

3-ilova

Kichik guruhlarda ishlash uchun torshiriqlar

3 ta yo'rmash tikuv mashinasi tanlab olinib, kichik guruhlariga bir xil topshiriq beriladi.

1-kichik guruh uchun topshiriq

1-chi yo'rmash tikish mashinasiga igna va chalishtirgich iplarini taqing va baxya hosil bo'lishini kuzating.

2-kichik guruh uchun topshiriq

2-chi yo'rmash tikish mashinasiga igna va chalishtirgich iplarini taqing va baxya hosil bo'lishini kuzating.

3-kichik ishchi guruh uchun topshirik

3-chi yo'rmash tikish mashinasiga igna va chalishtirgich iplarini taqing va baxya hosil bo'lishini kuzating.

4-ilova

Guruh bilan ishlash qoidalari:

Guruh a'zolarining har biri

- o'z shenklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

• «Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz»
qoidasini yaxshi bilishlari lozim

5-ilova

Testlar:

1. Tikuvchilik sanoatida bir ipli zanjirsimon baxyali yo'rmash mashinalari qanday gazlamalarni tikishda ishlatiladi?

- A) Mo'yna charm
- V) Tabiiy tolali
- S) Sintetik tolali
- D) Yupqa va o'rta qalinlikdagi

2. Trikotaj buyunlar, ichki ko'ylaklar, ko'ylaklar detallarining qirqimlarini yo'rmash uchun qanday turdagi mashinalari ishlatiladi?

- A) ikki ipli zanjirsimon yo'rma baxyali
- V) ikkita parallel ikki ipli zanjirsimon baxyaqator
- S) uch ipli zanjirsimon baxyali yo'rmash
- D) bir ipli zanjirsimon tambur baxyaqator

3. Ikki ipli zanjirsimon yo'rma baxyani hosil qilishda mashinaning qaysi ish organlari qatnashadi?

- A) Igna, reyka, moki, kengaytirgich
- V) Igna, chalishtirgich, kengaytirgich, reyka, tepki, pichoq
- S) Tepki, pichoq, igna, maxovik, materialni surish
- D) To'g'ri javob yo'q

4. Uch ipli zanjirsimon yo'rma baxyaning hosil qilish uchun qanday mexanizm ishlatiladi?

- A) kengaytirgich o'miga uchinchi ip taqiladigan chap chalishtirgich
- V) chalishtirgich o'miga birinchi ip taqiladigan o'ng kengaytirgich
- S) chalishtirgich o'miga uchinchi ip taqiladigan o'ng kengaytirgich
- D) kengaytirgich o'miga uchinchi ip taqiladigan o'ng chalishtirgich

5. Yaponiyadagi qaysi firma ko'p turdagi yo'rmash-tikish mashinalarini ishlab chiqaradi?

- A) «Juki»
- V) «Pannoniya»
- S) «PEGASUS»
- D) «Pfaff»

6. MO-2516-DD4-300 yo'rmash tikish mashinasining asosiy valining aylanish chastotasi qancha?

A) 5000 ayl/min

V) 6500 ayl/min

S) 3500 ayl/min

D) 4000 ayl/min

7. MO-2516-DD4-300 yo'rmash tikish mashinasining yo'rmash kengligi qancha?

A) 3,2 – 6,35 mm

V) 3,2 – 6 mm

S) 4 – 7,25 mm

D) 3,5 – 6,36 mm

8. MO-2516-DD4-300 yo'rmash tikish mashinasi necha ipdan, nechta ignadan iborat?

A) 3 ipli bo'lib, 1 ta ignasi va 2 ta chalishtirgich

V) 5 ipli bo'lib, 3 ta ignasi va 1 ta chalishtirgich

S) 5 ipli bo'lib, 2 ta ignasi va 3 ta chalishtirgich

D) To'g'ri javob yo'q.

9. Yo'rmash tikish mashinalarida tishli reykarlar tishlari igna plastinasi sathidan necha mm balandlikda joylashishi kerak?

A) 1,4 mm

V) 1,8 mm

S) 1,5 mm

D) 1,7 mm

6-ilova

O'quvchilarni bajarilgan topshiriq yuzasidan javoblarini baholash mezonlari

Kichik guruhlar	Amaliy topshiriklar (3,2 ball)	Testlar (xar biriga 0.2bal)	Jami
1 kichik guruh			
2 kichik guruh			
3 kichik guruh			

Mustaqil ish topshiriqlari**1-kichik guruh uchun topshiriq**

Yo'rmash tikish mashinalari turlari haqida ma'lumot yig'ing va qiyosiy tahlil qiling

2-kichik guruh uchun topshiriq

Chalishtirgichlar turlari haqida referat yozing

3-kichik guruh uchun topshiriq

Yo'rmash baxyalari turlari bo'yicha referat yozing

MAVZU: BOLALAR GAVDASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA KIYIMLARINING TA'RIFI

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2soat	O'quvchilar soni: 15-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli:	Vizual ma'ruza, ikki tomonlama tahlil.
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1 Bolalar gavdasining mutanosibligi 2 Bolalar yoshining guruhlanishi 3 Bolalarning gavda tuzilishida o'zaro mutanosib nisbatlar va kiyimning asosiy konstruktiv shakllari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quvchilarda bolalar gavda tuzilishidagi o'zaro mutanosib nisbatlar va kiyimning asosiy konstruktiv shakllari haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: - Bolalar gavdasining mutanosibligi haqidagi bilimlarni shakllantirish; - Bolalar yoshining guruhlanishi haqidagi bilimlarni shakllantirish; - Bolalar gavda tuzilishida o'zaro mutanosib nisbatlar va to'g'risida amaliy bilimni shakllantirish; - Bolalar kiyimining konstruktiv shakllari haqidagi bilimlarni shakllantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: O'quvchi: - Bolalar gavda tuzulishi haqidagi bilimlarga ega bo'ladi. - O'quvchi jurnal, kataloglardan foydalamb, bolalarni kiyimlarni tanlaydi va yoshining guruhini aniqlaydi va ko'nikma hosil qiladi; - Bolalar gavda tuzulishida o'zaro mutanosib nisbatlar uning xususiyatlarini o'rganadi; - Bolalar kiyimining konstruktiv shakllari haqida ma'lumot oladi va malakasini oshiradi; - Tanlangan modelning qaysi yoshdagi bolalarga mosligini aniqlaydi.
O'qitish uslubi va texnikasi:	«Sinkveyn» metodi, blits-surov.
O'qitish shakli:	Jamoaviy, Guruhiy

O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, proyektor, jumallar, kataloglar
O'qitish shart-sharoiti:	Jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	o'quvchi
1-bosqich. Kirish (10 min.)	- Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon qilinadi Mavzubuyichavazifalartush untiriladi. - Bajariladigan ishlar ketma-ketligi tushuntiriladi va baholash mezon bilan tanishtiriladi.	1.1.Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	- O'tilgan mavzuga savol-javob orqali bog'lanadi. (1-ilova) - «Nima uchun?» organayzerini to'ldirish orqali o'quvchilarning mavzuga nisbatan faolligini oshiradi (2-ilova) - O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. - Vizual materiallar namoyish qilinadi va o'quvchiga ko'rsatib beriladi (3- 10-ilovalar) - «Sinkveyn» metodi (11-ilova) - Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar (12- ilova). - Baholash mezon. 11-ilova)	- eshitadi, sxemalarni to'ldiradi va savollarga javob beradi - «Nima uchun?» organayzerini to'ldiradi - eshitadilar ko'radilar ko'nikmaga ega bo'ladilar, eshitganlarini yozadilar - Muammoli savollarga e'tibor beradilar.

		- «Sinkveyn» metodini to'ldiradi. -Savollarga javob beradilar va baholanadilar
3-bosqich Yakuniy (10 min)	- Mavzuga doir «Sinkveyn» metodini to'ldirganini o'rganib chiqadi. - Mavzuga xulosa chiqaradi Asosiy masala ustida to'xtaladi. B.B.B. jadvalini to'ldirishdagi savol-javoblarni tahlil qiladi va faol o'quvchilarni baholaydi. - Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi: muammoli savollarga tayyorgarlik ko'rish.	3.1 Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar. 3.2.Topshiriqlar-ni yozib oladilar.

Vizual materiallar




1-ilova


Faollashtiruvchi savollar

1. Bolalar gavdasini tuzulishi haqida aytib bering.
2. Chaqaloqlar kiyimi qanday mato va tikilishda bo'lishi kerak?
3. O'smir bolalarning gavda tuzulishidagi o'zgarishlarni sanab o'ting. (qiz bolalar, o'g'il bolalar)
4. 3-4 yoshli bolalarning kiyimlaridagi ranglar haqida aytib bering

«Nima uchun?» organayzerini to'ldiring



1. Tanlangan kiyim bola yoshiga mos bo'lishi.
2. Tanlangan kiyim rangi bola yoshiga mos kelishi.
3. Tanlangan kiyim mavsumga mos kelishi.
4.
5.
6.




1-rasm. Bolalar gavdasining mutanosibligi.

Bolalar yoshlari guruhlari

O'sish davri	Qizlar	O'gil bolalar	Buyum o'lchovi
Chaqaloqlar	1 yoshgacha	1 yoshgacha	22-24
Yasli yoshdagi	1-3 yosh	1-3 yosh	26-28
Maktabgacha yosh davri	3-7 yosh	3-7 yosh	28-30
Kichik maktab yoshi davri	7-11 yosh	7-12.5 yosh	32-36
Katta maktab yoshi davri	11-14.5 yosh	12-15.5 yosh	38-42
O'smirlik davri (balog'atga yetgan)	14.5-18 yosh	15.5-18 yosh	44-46

Chaqaloqlar kiyimi. Bunga 1 yoshdagi bolalar kiradi. Ularning boshi katta, qo'llari uzun bo'ladi. Bolaning bosh aylanasi ko'krak aylanasi teng. Bu yoshdagi bolalar 6-8 oy vaqtini krovatda yoki belanchakda o'tkazadi, shuning uchun ularga oddiy, yengil yaxshi yuviladigan, yaxshi dazmollanadigan o'zining xususiyatini yo'qotmaydigan kiyim kerak. Chaqaloqning birinchi kiyimi yaktakcha, ust kiyimi, bosh kiyimi va ishton. Bu kiyimlarning yaxshi tomoni shundaki, u oddiy bichimli, kam ishlovli, oson bezaladi.


5-ilova




2-rasm. 2-3 yoshli bolalarning gavda tuzilishida o'zaro mutanosib nisbatlar (a) va kiyimning asosiy konstruktiv shakllari (b).




3-rasm. Yasli yoshidagi bolalar kiyimlarini bezash imkoniyatlari.




4-rasm. 3-6 yoshdagi bolalarning gavda tuzilishida o'zaro mutanosib nisbatlar (a) va kiyimning asosiy shakllari (b).



5-rasm. 7-10 yoshdagi bolalarning gavda tuzilishida o'zaro mutanosib nisbatlar (a) va kiyimning asosiy shakllari (b).



6-rasm. 11-14 yoshdagi bolalarning gavda tuzilishida o'zaro mutanosib nisbatlar (a) va kiyimning asosiy shakllari (b).



7-rasm. 15-17 yoshdagi bolalarning gavda tuzilishida o'zaro mutanosib nisbatlar(a) va kiyimning asosiy shakllari(b).

«Sinkveyn» metodi

«Sinkveyn» metodini samarali amalga oshirish kadamlari

Har bir ishtirokchi erkin ishlashi uchun qulay sharoit yaratilishi kerak. Mustaqil fikr va g'oyalarni yozish uchun kerakli doska, yumshoq doska, slipchart, rangli markerlar, postellar, kodoskop. Turli formatdagi qog'ozlar oldindan tayyorlanishi lozim. Beriladigan mavzu, muammo yoki vaziyatlar aniqlanadi

Sinkveyn tuzish koidasi:

1. Birinchi qatorda topshirik bir so'z, odatda ot tilan ifodalanadi (Kim? Nima?)
2. Ikkinchi qatorda mavzuga oid ikkita sifat yoziladi (Qanday? Qanaqa?)
3. Uchinchi qatorda mavzu doirasidagi xatti-harakat vazifasini anglatuvchi uchta so'z fe'li bilan ifodalanadi.
4. To'rtinchi qatorda mavzuga nisbatan tasavvur (assotsiatsiyasi)ni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr (sezgi) yoziladi.
5. Oxirgi qatorda mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga o'xshash bo'lgan bitta so'z (sinonim) yoziladi.



B. «Sinkveyn» metodi



12-ilova

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolalar gavdasining mutanosibligida qanday farqlar bor?
2. Bolalar yoshlari bo'yicha qanday guruhlariga bo'linadi?
3. Bolalar kiyimlariga va gazlamalarga qanday talablar qo'yiladi?

**O'quvchilarni bajarilgan topshiriq yuzasidan javoblarini
baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)**

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)			Ballar yig'indisi
	(1,0)	(1,4)	1-savol	2-savol	3-savol	(3,0)
1						
2						
3						

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-bob. KASB-HUNAR TA'LIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA TAMOYILLARI	
1.1. Kasb-hunar ta'limining asosiy tushunchalari	6
1.2. Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslari	10
1.3. Kasb-hunar ta'limining o'quv me'yoriy hujjatlari.....	17
1.4. Kasb-hunar ta'limi tamoyillari.....	32
1-bob bo'yicha xulosalar.....	40
2-bob. KASB-HUNAR TA'LIMIDA ILMIY TADQIQOT VA O'QITISH METODLARI	
2.1. Ilmiy tadqiqot metodlari.....	42
2.2. Ta'lim metodlari.....	49
2.3. Ishlab chiqarish ta'limi metodlari	56
2-bob bo'yicha xulosalar.....	67
3-bob. KASB-HUNAR TA'LIMI JARAYONINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH	
3.1. Kasb-hunar ta'limini tashkil etish turlari va shakllari ...	69
3.2. O'quv ustaxonalarning jihozlanishi.....	78
3.3. Kasb-hunar ta'limida o'qitish jarayonini tashkil etish. .	83
3.4. Kasb-hunar ta'limida o'quv maqsadlarini belgilash. . .	92
3.5. O'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish.....	99
3.6. Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'tkazish.	104
3.7. Kasb - hunar kollejlari darslarni tahlil qilish metodlari	117
3.8. Kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning asosiy shakllari	126
3-bob bo'yicha xulosalar	131
4-bob. KASB-HUNAR KOLLEJI O'QITUVCHISINING INNOVATSION KASBIY FAOLIYATI	
4.1. Innovatsiyalar tushunchasi, mohiyati va mazmuni.	133
4.2. O'qitishning innovatsion metodlari.....	142
4.3. O'qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil qilish	172

4.4. Imkoniyatlari cheklangan yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash muammolari va ularni hal qilish imkoniyatlari .	176
4-bob bo'yicha xulosalar.	187
5-bob. KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIDA MUSTAQIL VA IJODIY ISHLARNI TASHKIL QILISH HAMDA O'TKAZISH	
5.1. Mustaqil ishlar shakllari.	189
5.2. Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish hamda o'tkazish.	192
5.3. O'quvchilarni mustaqil axborot olish va qayta ishlashga o'rgatish.	207
5-bob bo'yicha xulosalar.	213
6-bob. KASB-HUNAR TA'LIMIDA KASBIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH	
6.1. Tarbiya - kasbiy faoliyatni tashkil etish vositasi.	215
6.2. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyati to'g'risida.	223
6.3. Talabalarni kasbga yo'naltirish ishlari.	227
6.4. Kasb-hunar kollejlari ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish metodikasi.	232
6-bob bo'yicha xulosalar.	238
7-bob. BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI BAHOLASH JARAYONI	
7.1. Bilim, ko'nikma va malakani baholashning ahamiyati .	240
7.2 Baholash tamoyillari.	245
7.3. Baholashning reyting tizimi.	248
7.4 Zamonaviy testlar va ularning turlari.	252
7-bob bo'yicha xulosalar.	258
IZOHLI LUG'AT	259
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	280

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
1-ГЛАВА. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРИНЦИПЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	
1.1. Основные понятия профессионального образования	6
1.2. Методологические основы профессионального образования	10
1.3. Учебно-нормативная документация профессио- нального образования	17
1.4. Принципы профессионального образования	32
Выводы по 1-главе	40
2-ГЛАВА. МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	
2.1. Методы научных исследований	42
2.2. Методы обучения	49
2.3. Методы производственного обучения	56
Выводы по 2-главе	67
3-ГЛАВА. ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ ПРОЦЕССА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	
3.1. Формы и разновидности организации профес- сионального образования	69
3.2. Оборудование учебно-производственных цехов	78
3.3. Организация учебного процесса профессиональ- ного образования	83
3.4. Определение учебных целей в профессиональном образовании	92
3.5. Подготовка и применение учебно-дидактических материалов и средств обучения	99
3.6. Организация и проведение теоретических и практических занятий по специальным дисциплинам в профессиональных колледжах	104
3.7. Методы анализа занятий в профессиональных колледжах	117

3.8. Основные формы организации производственного обучения в профессиональных колледжах.....	126
Выводы по 3-главе	131

4-ГЛАВА. ИННОВАЦИОННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО КОЛЛЕДЖА

4.1. Понятие, сущность и содержание инновации	133
4.2. Инновационные методы обучения	142
4.3. Организация инновационной деятельности преподавателя	172
4.4. Проблемы и пути их решения подготовки к профессии молодежи с ограниченными физическими возможностями	176
Выводы по 4-главе	187

5-ГЛАВА. ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ И ТВОРЧЕСКИХ РАБОТ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

5.1. Формы самостоятельных и творческих работ	189
5.2. Организация и проведение самостоятельных и творческих работ.....	192
5.3. Обучение учащихся в самостоятельной переработке и получении информации	207
Выводы по 5-главе	213

6-ГЛАВА. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОЛЛЕДЖАХ

6.1. Воспитание – средство организации профессиональной деятельности	215
6.2. О деятельности современного мастера производственного обучения.....	223
6.3. Ориентирование учащихся к профессии.....	227
6.4. Методика организации научно-методических работ в профессиональных колледжах	232
Выводы по 6-главе	238

7-ГЛАВА. ПРОЦЕССЫ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ И НАВЫКОВ

7.1. Сущность оценки знаний, умений и навыков	240
7.2. Принципы методов оценки	245
7.3. Рейтинговая система оценки	248
7.4. Виды современных тестов	252
Выводы по 7-главе	258
ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИЙ СЛОВАРЬ	259
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА	280

CONTENTS

INTRODUCTION	3
CHAPTER 1. METHODOLOGICAL BASIS AND PRINCIPLES OF PROFESSIONAL EDUCATION	
1.1. Basic concepts of professional education	6
1.2. Metodological fundamentals of vocational education. . .	10
1.3. Teaching regulatory documentation of professional education.	17
1.4. The principles of vocational education	32
Conclusions of the 1 st chapter	40
CHAPTER 2. TEACHING METHODS IN VOCATIONAL EDUCATION	
2.1. Methods of research	42
2.2. Teaching methods	49
2.3. Methods of industrial training	56
Conclusions of the 2 nd chapter	67
CHAPTER 3. ORGANIZATION AND CONDUCTING OF TEACHING PROCESSES IN VOCATIONAL EDUCATION	
3.1. The forms and varieties of the organization of vocational training	69
3.2. Equipment for training and production workshops	78
3.3. Organization of teaching processes of vocational education	83
3.4. Defining learning objectives in vocational education ...	92
3.5. Preparation and using of teaching and learning materials and teaching aids.	99
3.6. Organization and carrying out the theoretical and practical classes on special subjects in vocational colleges ..	104
3.7. Methods of analysis studies in professional colleges	117
3.8. The main forms of organization of industrial training in professional colleges	126
Conclusions of the 3 rd chapter	131

CHAPTER 4. INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES TEACHERS OF VOCATIONAL COLLEGES

4.1. Concept, essence and content of the innovation	133
4.2 Innovative teaching methods	142
4.3. Organization of innovative activity of the teacher	172
4.4 Problems and solutions of preparation for the profession of young people with physical disabilities	176
Conclusions of the 4 th chapter	187

CHAPTER 5. ORGANIZATION AND CARRYING OUT OF INDEPENDENT AND CREATIVE WORKS IN PROFESSIONAL EDUCATION INSTITUTIONS

5.1. Forms of independent and creative works	189
5.2. Organization and carrying out independent and creative works	192
5.3. Education of pupils in independent reception and processing of information	207
Conclusions of the 5 th chapter	213

CHAPTER 6. ORGANIZATION OF PROFESSIONAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES IN PROFESSIONAL COLLEGES

6.1. Education - a means of organizing professional activity	215
6.2. The activities of modern master training	223
6.3 Orientation of students to the profession	227
6 4 Technique of the organization of scientific and methodological papers in professional colleges	232
Conclusions of the 6 th chapter	238

CHAPTER 7. EVALUATION PROCESS OF KNOWLEDGE, SKILLS AND ABILITIES

7.1 The essence of the assessment of knowledge and skills.	240
7 2 Basis of measurement methods.	245
7.3. Rating system.	248
7.4 Types of modern tests.	252
Conclusions of the 7 th chapter	258
TERMINOLOGICAL DICTIONARY	259
LITERATURE	280

**Q.T.OLOMOV, L.P.UZOQOVA, A.A.ALIMOV,
H.JO'RAYEV, D.F. JALOLOVA, A.T.ALIMOV,
F.T.MIRZAYEVA**

KASB TA'LIMI METODIKASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2016

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M. Xolmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahuha:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

**E-mail: tipografiya@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN 149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 22.09.2016.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆ «Timez Uz» garniturasini. Ofset bosma usulida hosildi.
Shartli bosma tabog'i 20,0. Nashriyot bosma tabog'i 20,5.
Tiraji 500. Buyurtma №160.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining boshmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**



FAN VA 
TEKNOLOGIYALAR

ISBN 978-9943-11-293-3

